

76,01/50)  
Q-54

T. QOZOQBOYEV,  
M. XUDOYQULOV

# JURNALISTIKAGA KIRISH



26.09/50)  
A-54

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘LQIN QOZOQBOEV,  
MUXTOR XUDOYQULOV

# JURNALISTIKAGA KIRISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan  
oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2018

UO‘K: 070(075.8)

KBK: 76.01(50‘)

Taqrizchilar:

*f.f.d., dots. Yo.M. Mamatova;*

*t.f.n., dots. Sh.A. Miralimov*

**Q54 Jurnalistikaga kirish:** Darslik / T.M.Qozoqboev, M.Xudoyqulov; – T.:  
“Iqtisod-Moliya”, 2018. – 352 b.

Darslikda jurnalistikaning, xususan, o‘zbek jurnalistikasining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, hozirgi zamon sharoitida uning tutgan o‘rni, jurnalistika janrlari, uning erkinlashishi, ommaviy axborot vositalarining tasnifi va tarkibi, jurnalistikaning jamiyat hayotidagi faoliyati o‘rganiladi.

Darslik jurnalistika fakultetlari talabalari va shu sohaga qiziqqanlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 070(075.8)

KBK: 76.01(50‘)ya73

ISBN 978-9943-13-743-1

© T.M.Qozoqboev, M.Xudoyqulov, 2018

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2018

## FANGA KIRISH

Kishilik jamiyatida matbuotning tutgan o'рни beqiyosdir. Insoniyat tarixining hamma bosqichlaridagi kabi hozirgi davrda ham matbuot, ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyoti va insoniyat taqdirida muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi zamon hayotini – buyuk kashfiyotlar asri, fan va texnika g'oyat rivojlangan, insoniyat tafakkurining bemiyl yutuqlariga erishilayotgan XXI asrni matbuotsiz, gazeta va jurnallarsiz, radio va televideniyesiz, axborot agentliklari va internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson nonsiz, nozu – ne'matlarsiz yashay olmaganidek, ma'naviy oziq bo'lmish matbuot, ommaviy axborot vositalari ham hozirgi zamon odamlarining doimiy yo'ldoshi, yaqin hamkoriga aylangan. Butun yer qurrasini ko'z ilg'amas qon tomirlari singari qamrab olgan ommaviy axborot vositalari kishilarga dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalar to'g'risida har kuni, har soat, har soniyada xabar berib turadi, ularning ongiga ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda ilg'or, xalqparvar g'oyalarga asoslanuvchi, insoniyatga ezgulik va taraqqiyot g'oyalarini yetkazuvchi demokratik matbuot asosiy o'rin tutadi.

Dunyo hamjamiyatining mustaqil va ozod mamlakatlaridan biri, katta odimlar bilan taraqqiy etib borayotgan respublikamiz ijtimoiy hayotida ham matbuot, ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Respublikamizda nashr etilayotgan 1500 dan ortiq gazeta va jurnallar, radio va televideniye kanallari, axborot agentliklari, mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlar, jumladan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha, xususan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat

yuritish kabi aniq ustuvor yoʻnalishlar belgilangan “Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirishda kamarbasta boʻlib xizmat qilmoqda.

Kishilik jamiyatida, insonlarning hayoti va faoliyatida bunchalik ulkan va zarur oʻrin tutib kelayotgan jurnalistikaning oʻzi nima? U qachon va qanday sharoitda paydo boʻlgan? Jurnalistika vujudga kelishidagi ijtimoiy – siyosiy sabablar va omillar nimada va u qanday qonuniyatlar asosida ish koʻradi? Jurnalistika kasbi qanday kasb va uni qanday egallash mumkin? Matbuot materiallarining oʻzagi boʻlgan publitsistika nima va u qanday qismlardan va janrlardan iborat?

Qoʻlingizdagi darslikda ana shu savollarga javob topishingiz mumkin. Kitob ikki boʻlimdan iborat boʻlib, “Umumiy tushunchalar” deb nomlangan birinchi boʻlimda oltita bob boʻlib, maʼlumot va matbuotning oʻzaro mushtarakligi, matbuot vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy sabablari va omillari, matbuotning ijtimoiy ong koʻrinishlaridan biri ekanligi, uning asosiy vazifalari va faoliyat yuritish tamoyillari, matbuotda jamoatchilik fikrining aks etish yoʻllari, matbuotchilik kasbining oʻziga xos xususiyatlari, ommaviy axborot vositalarining turlari—gazetalar, jurnallar, radioeshittirishlar, telekoʻrsatuvlar, axborot agentliklari. Kitob nashriyotlari va internetning vujudga kelishi, taraqqiyoti, ichki turlari kabi muhim masalalar bayon etilgan. Ikkinchi “Publitsistika” deb nomlangan boʻlimda esa matbuot materiallarining oʻzagi, ijtimoiy hayotni aks ettirishning alohida bir usuli boʻlgan publitsistika, uning turlari va janrlari haqida maʼlumotlar beriladi. Publitsistika jurnalistikaning muhim tarmogʻi boʻlgan matbuot bilan bogʻlangan. U oʻz faoliyatida matbuotning bu maqola boʻladimi yoki ocherk, pamflet boʻladimi yoki feleton baribir soʻz orqali ommaga taʼsir qiladi, ommani tarbiyalashda ijobiy rol oʻynaydi. Demak, publitsistika jurnalistikadan koʻra kengroq mavqega ega. Publitsistika boʻlimi toʻrt bobdan iborat boʻlib, axborot publitsistikasi va uning xabar, reportaj, hisobot, intervyu kabi janrlari, tahliliy publitsistikaning kengaytirilgan xabar (korrespondensiya), suhbat, maqola, taqriz, obzor, xat, sharh kabi janrlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari talqin etiladi. Kitob davomida badiiy publitsistikaning oʻziga xos xususiyatlari va uning lavha, ocherk, esse, feleton, pamflet kabi janrlari hamda hajviy publitsistikaning kichik janrlari tadqiq etiladi.

“Davrning ijtimoiy siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag‘ishlangan adabiy ijod turi” bo‘lgan... publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg‘otish va uni shakllantirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirish, hujjatli fakt-ma’lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iborat. Hozirgi zamon ijtimoiy hayoti unga aloqador o‘tmish va kelajak faktlari publitsistikaning predmetidir”<sup>1</sup>.

Xotimadan keyin “Jurnalistika asoslari” darsligi bo‘yicha test savollari, tarqatma materiallar, jurnalistikaga oid atamalar lug‘ati hamda har bir mavzudan keyin reyting topshiriqlari hamda nazorat savollari ilova qilinadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2004. 7-jild. 194 b

---

## BIRINCHI BO‘LIM

### UMUMIY TUSHUNCHALAR

#### 1-BOB. JURNALISTIKA TARIXI

##### 1.1. Jahon jurnalistik taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Jurnalistikaning paydo bo‘lish sabablari kishilikning ilk davrlariga borib taqaladi. Insonlarning bir-birlariga biron tushunchani yetkazish ehtiyoji avvalo tilning paydo bo‘lishiga, so‘zning vujudga kelishiga asos bo‘lgan. Jurnalistikaning paydo bo‘lishi sabablarini hamda mavjud shart-sharoitlarni to‘la bilib olgach jahon jurnalistik taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi. Shu bois eng avvalo jurnalistikaning paydo bo‘lishiga nimalar sabab bo‘ldi?- degan savolga javob bermoq kerak. Dunyoning yetakchi olimlarining “kishilarning yangilikka bo‘lgan ehtiyoji jurnalistikaning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan” deb ko‘rsatishlariga qo‘shilamiz. Chunki jurnalistikaning paydo bo‘lishining tub sabablari F.Sibert, T. Piterson, U.Shrammlarning “Matbuotning to‘rt nazariyasi”, F.Fatorelloning “Axborotning ijtimoiy texnikasi” kitoblarida ham bayon qilingan. Keyinchalik jamiyat, inson tafakkurining taraqqiyoti bilan yozuv vujudga keldi, bu esa o‘z navbatida bosma so‘z - matbuotining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ammo jurnalistika so‘zdan avval paydo bo‘lganini unutmash kerak. U o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmadi. Uning vujudga kelishida qator g‘oyaviy ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy va moddiy - texnikaviy shart - sharoitlar ham mavjud bo‘lishi kerak edi.

Eramizdan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Tsezar’ tomonidan chiqarilgan ganchdan yasalgan maxsus taxtachalarga yozilgan axborotlar jurnalistikaning ilk kurtaklari edi. Keyinchalik VIII asrda Xitoyda “Poytaxt yangiliklari” paydo bo‘ldi. Yaponiyada ham xuddi shu usulda taxtaga o‘yib yozilgan gazetalar chiqarildi. O‘sha mamlakatlar hukumatlarining ijtimoiy - siyosiy, ma‘naviy qarashlari, yanada aniqroq qilib aytganda

manfaatlarini aks etgan o'sha davr jurnalistikasini jahon jurnalistik taraqqiyotining **birinchi ilk bosqichi** deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi.

XVI asrning o'rtalarida Germaniyalik logan Gutenberg ilk bosma dastgohni ixtiro qilib insoniyatning madaniy- ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Bu esa o'z navbatida jahon jurnalistik taraqqiyotining **ikkinchi bosqichi** boshlanishiga sabab bo'ldi.

Shu davrga kelib Yevropada bosma gazetalar paydo bo'la boshladi. Bunga Germaniyada, Angliyada, Fransiyada, Rossiyada chiqa boshlagan gazetalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Keyingi davrga kelib gazetalar foyda keltiruvchi sohaga - biznesga aylana boshladi.

Jahon jurnalistikashunosligi bu yakka shaxslar hukmronligida nashr etilayotgan matbuot davrini avtoritar davr deb nomladi. Biz ham bu davr jurnalistikasi taraqqiyotining **uchinchi bosqichini** avtoritar matbuot davri deb hisoblashni ma'qul deb bilamiz.

Jahonda XVII asrga kelib tub o'zgarishlar sodir bo'la boshlashi zamon taraqqiyotidan dalolat edi. XVII - XVIII asrlarda sodir etilgan inqilobiy hodisalar tufayli esa qator mamlakatlarda yakka hukmronlik tugatilib, o'rniga yangi, ancha ilg'or tartiblar o'rnatildi. Bu tarix sahnasiga kelgan burjuaziya nomi bilan tarixga kirgan tadbirkorlar sinfining tug'ilish davri edi.

Bu **to'rtinchi bosqich** jurnalistikasi iqtisodiy manfaat ko'rish jurnalistikasiga aylanishi bilan birga ijtimoiy fikrning shakllanishiga yo'l ochdi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida taraqqiyparvar matbuot ya'ni jurnalistika nashrlari paydo bo'la boshladi.

XX asrning boshlariga kelib Turkistonda ham milliy uyg'onish davri matbuoti vujudga keldi. Ma'rifatchi ziyolilar hisoblangan jadidlar o'zlarining "Taraqqiy", Xurshid", "Hurriyat", "Oyna", "Chayon" kabi gazeta va jurnallarini chop eta boshladilar. *(Bu haqda kitobning keyingi boblarida batafsil to'xtalamiz)*. Bu davr jurnalistikasini bejiz "erkin jurnalistika" davri deb atashmadi. Bu davrni jahon jurnalistik taraqqiyotining **beshinchi bosqichi** deyishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Bundan keyingi davr jurnalistik taraqqiyotda **oltinchi bosqich** bo'lib, u mafkuraviy yakka hukmronlikka bo'ysindirilgan sinfiy jurnalistika



davrini yaratdi. Bu jurnalistika yetmish yildan ko'proq vaqt hukmronlik qildi.

XX asrning oxirlariga kelib, g'oyaviy yakka hokimlik tugatilib, ko'pgina mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishdi. Jahon jurnalistikasi o'z taraqqiyotida erkin, demokratik jurnalistika davriga kirdi. Bu - jahon jurnalistik taraqqiyoti o'zining **yettinchi bosqichiga** kirganidan dalolat edi.

Bu bosqich jurnalistikasi zamon talablari asosida rivojlanish, matbuot va so'z erkinligi prinsiplarini amalda ta'minlash davri jurnalistikasi deb hisoblashni o'rinli deb hisoblaymiz. Bu globallashuv davri jurnalistikasini aholini xolis va haqqoniy axborot bilan ta'minlaydigan davr jurnalistikasi deb aytilish mumkin.

### **Jahon jurnalistik taraqqiyotining asosiy bosqichlari bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistikaning paydo bo'lishidagi asosiy shart-sharoitlar.*
- 2. Jurnalistika avval paydo bo'lganmi yoki so'z?*
- 3. Axborotlar avvallari qanday tarqatilgan?*
- 4. Bosma dastgoh qachon ixtiro qilindi?*
- 5. Avtoritar matbuot qachon paydo bo'ldi?*
- 6. Taraqqiyparvar matbuot-chi?*
- 7. Milliy uyg'onish davri matbuotining vujudga kelishi*
- 8. Erkin, demokratik jurnalistika davri qachon boshlandi?*

### **Jahon jurnalistik taraqqiyotining asosiy bosqichlari bo'yicha nazorat savollari**

- 1. Jurnalistikaning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?*
- 2. Jurnalistikaning paydo bo'lishi haqida dunyo olimlarining fikri.*
- 3. Jahon jurnalistik taraqqiyotining birinchi bosqichini ayting.*
- 4. Gazetalar paydo bo'la boshlagan davrni izohlang.*
- 5. Ijtimoiy fikr qachon shakllana boshladi?*
- 6. Yakka hokimlik davri jurnalistikasi.*
- 7. Globallashuv davri jurnalistikasi.*

## 1.2. Milliy jurnalistikaning paydo bo'lishi va shakllanishi (1870-1905 y.)

Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritarkan, o'zining tub mohiyatiga ko'ra ijtimoiy axborot yig'ish, ishlash va tarqatishdek funksiyasidan tashqari, ijtimoiy fikrni shakllantirishda aholiga xolis va haqqoniy axborot berishdek g'oyatda muhim masalani ham bajarishi lozim.

Jurnalistika tarixiga oid asarlarda jurnalistikaning dastlabki kurtaklari eramizdan oldingi davrlarda Xitoyda loydan yasalgan va keyinchalik Rimda gipsdan yasalgan taxtachalar, Yaponiyada sopolga o'yilib xumdonda pishirilgan maxsus ma'lumotnomalardir deb ko'rsatiladi. Bu nashrlar o'z-o'zidan ommalashmadi, chunki ularning adadini ko'paytirish va tarqatish o'ta noqulay bo'lgan. Keyinchalik qog'oz ixtiro qilinishi bilan bunday nashrlar o'rnini qo'lyozma varaqalar egallay boshladi.

O'zbek jurnalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida qo'lyozma varaqalar ma'lum o'rin egallab kelgan. Chunonchi, hali o'zbek jurnalistikasi tub ma'noda shakllanmagan bir paytda uning funksiyasini bajargan o'zbek demokratik adabiyotining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar o'z zamonining ijtimoiy illatlarini fosh etgan hajviy she'rlarini qo'lyozma holida tarqatganlar, ko'pchilik ko'radigan joylarga osib, yopishtirib qo'yganlar. (Masalan, Zavqiyning mashhur "Ahli rasta hajvi" she'ri). Bundan ko'rinib turibdiki, qo'lyozma varaqalar ham o'z davrida muhim axboriy va ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni bajargan. Yuqoridagi misollar esa matbuotning dastlabki ko'rinishi qo'lyozma varaqalar shaklida paydo bo'lgan, deyish uchun asos bo'la oladi. Demak, qo'lyozma varaqalar hali tub ma'nodagi matbuot paydo bo'lgunga qadar uning dastlabki turi, ko'rinishi sifatida xizmat qilgan.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan qo'lyozma varaqalar (qo'lda yozilishi va ko'paytirilishi qiyinligi boisidan) talabga javob bermay qoladi. Fan - texnikaning o'sishi va bosma dastgohning ixtiro qilinishi tom ma'nodagi matbuotning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, gazeta matbuotning asosiy turiga aylandi, hamda ijtimoiy axborot yetkazishning muhim vositasi sifatida jamiyat hayotidan

o'z munosib o'rnini oldi. Turgan gapki, jamiyatdagi hukmron sinflar va tabaqalar gazetadan o'z maqsad va manfaatlari yo'lida foydalana boshladilar.

Ma'lumki, gazeta dastlab jamiyatda yakka hukmdorlar davrida vujudga keldi va shu boisdan ularning ta'siridan ish ko'rdi. Turkistonda jurnalistikaning paydo bo'lishi, rivojlanishini davrlarga bo'lsak, bizningcha, birinchi davr deb 1870-1905-yillar orasidagi 35 yilni olsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Xuddi shu XIX asr 60 yillarida o'lkamizni chor Rossiyasi bosib olgan va o'z siyosatini izchil amalga oshira boshlagan davr edi.

Aholi nochor ahvolda bo'lsada, uning ilg'or qatlami hamda Rossiya chorizmi bosib olgan O'rta Osiyo qismida 1867-yili Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilib, o'z mustamlakachilik siyosatini o'tkazishda matbuot zaruratini sezdi. O'lkada bosmaxona tashkil etilgani bosma davriy nashr tug'ilishini tezlashtirdi.

1870-yildan "Turkestanskije vedomosti" nomida gazeta chiqqa boshladi. Chunki, shu davrda o'lkada ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy, iqtisodiy, madaniy-moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar chor hukumati nazarida yetilgan edi.

Mustamlakachilar davriy matbuotni tashkil qilishda eng avvalo o'z manfaatlarini o'ylashdi. O'lka aholisini qorong'ulikda, qashshoqlikda qolishini istagan holda faoliyat yuritgan bo'lsada, baribir gazeta yerli aholi siyosiy-madaniy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

«Туркестанские ведомости» gazetasi va uning o'zbek tiliga o'girilgan nusxasi "Turkiston viloyatining gazetasi" nomida Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman tomonidan chop etila boshladi. Markaziy Osiyodagi davriy matbuotning ilk namunalarini hisoblangan bu gazetalar Toshkentda, 1872-1873-yillarda Peterburgda, keyin yana Toshkentda chop etilgan. Gazetalar tashkil etilgan yil ularning atigi 17 ta soni chiqqan bo'lsa, 1871-yildan boshlab har haftada, 1907-yildan kundalik gazetaga aylantiriladi va 1917-yilga qadar muntazam chiqib turadi.

Gazetaga 1870-yildan to 1892-yilgacha bevosita general - gubernator hukumatining harbiy va piyoda qo'shinlari zobiti N.A.Maev muharrirlik

qiladi. Keyin bu lavozimga N.P.Ostroumov tayinlanadi va u gazeta yopilguncha shu gazetalariga rahbarlik qiladi.

Bu ikkala nashr ham podsho Rossiyasi hukumatining Turkistondagi hukmronligini mustahkamlash, o'lkada chorizm siyosatini o'tkazish, yerli aholini itoatgo'ylik ruhida tarbiyalash kabi siyosiy muhim masalalar yechimiga xizmat qilgan. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, «Туркестанские ведомости» gazetasiga ilova bo'lib chop etilgan. “Turkiston viloyatining gazetasi” mahalliy tildagi ilk bosma gazeta bo'lib, bu nashr 1870-yildan 1883-yilgacha «Туркестанские ведомости» gazetasining o'zbekcha nusxasi yoki ilovasi sifatida chop etilgan bo'lsa, 1883-yildan boshlab mustaqil nashr bo'lib chiqa boshladi. Ammo 1885-yildan gazetaning bir tomoni «Туркестанская туземная газета» nomida rus tilida chop etilgan. Gazetaga 1871–1883-yillar orasida general-gubernator tarjimoni Shohimardon Ibrohimov, 1883-yil boshlarida Muhammadhasan Chanishev, 1883-yil o'rtalaridan 1917-yilga qadar N.P.Ostroumov muharrirlik qilgan. Gazetaning adadi 1000-2500 nusxa bo'lgan va u yirik shaharlargagina tarqatilgan.

Gazeta o'lka hayotining qorong'u tomonlarini, chor hukumati va uning o'lkadagi amaldorlari olib borgan yolg'onchi siyosati borasida hech qanday material yoritmagan. Lekin shu bilan bir qatorda gazeta mashhur sharqshunos olimlar, jumladan, V.V.Bartol'd, N.A.Sevrtsev, V.F.Oshanin, L.S.Berg, I.V.Mushketov, A.P.Fedchenko va boshqalarning ancha adolatli tarixiy manbalarga suyangan ilmiy-publitsistik maqolalarini chop etgan.

“Turkiston viloyatining gazetasi”da Muqimiy taxallusi bilan mashhur Muhammad Aminxo'ja (1850-1903), Furqat taxallusi bilan Zokirjon Xolmuhammedov (1858-1909), Ibrat taxallusi bilan Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li (1861-1937), Sattorxon Abdulg'afforov (1843-1901) va boshqa taraqqiyparvar oqim namoyandalari gazeta sahifalarida o'z she'ru publitsistik maqolalari bilan faol chiqib turishgan.

Muqimiyning 1891-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida bir necha she'rlari, 1903 va 1907-yillarda bir qator ishqiy va hajviy ruhdagi asarlari e'lon qilingan. Gazetaning 1903-yil 15 – yanvarda bosilgan “Qo'qondlik bir boynig sha'niga Muqimiy shoirning aytqon

she'ridur" hamda dahshatli Andijon zilzilasi munosabati bilan yozilgan (2-aprel ) she'r shoirning ijtimoiy mavzusidagi so'nggi yirik asaridir. Uning "Saylov" hajviyasi burjua, saylov sistemasining fosh etilishi kabi sof ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asar edi. Bunda shoir mustamlakachi chor hukumati nazorati ostida o'tadigan saylovlarning batamom qalbaki ekanini ochib tashlaydi.

Shunday qilib, Muqimiyning jurnalistik ijodi o'zbek milliy publitsistikasining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Zokirjon Furqatni ham haqli ravishda o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri deyish adolatdan bo'ladi. Chunki u 40 yoshida, "Turkiston viloyatining gazetasi" tahririyatida tarjimon sifatida ish boshlaydi va shu davrdan boshlab u otashin publitsist sifatida faoliyat yuritadi. Jumladan, 1891-yilning yanvariyun sonlarida uning "Qo'qondlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozg'oni" nomli nasriy asari endigina shakllanayotgan o'zbek publitsistikasining yorqin namunasi edi. Furqat Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Keyin Marv-Ashxobod-Boku-Botumi-Istambulga, so'ngra Bulg'oriya va Yunoniston, Arabistonga boradi. Makkada haj ziyoratini bajo aylaydi. U Hindistonda, Xitoyda bo'ladi. Qayerlarda bo'lmasin o'sha yerlardan gazetaga maqolayu xabarlar yozib turadi. U xuddi shu yillarda pamflet va feletonning ilk namunalarini yaratadi va gazetada chop ettiradi. Furqat o'z maqolalari bilan o'zbek jurnalistikasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Ayniqsa uning "Ilm xususida", "Teatr xususida", "Musiqqa, musiqachi va ular asboblari xususida" deb nomlangan maqolalari o'zbek gazetxonlari e'tiborini qozongan. Furqat o'zbek jurnalistikasi tarixida birinchi bo'lib real voqelikka adabiyotni hayot bilan bevosita bog'liq bo'lishi xususidagi fikrni ilgari surgan. Gazetada tarjimon sifatida ishlagan paytlarida, ayniqsa, ko'plab, she'r, reportaj, ocherklar yozgan va ular gazeta sahifalaridan joy olgan. Boshqa o'zbek adiblari ham imkon darajasida publitsistik maqolalari bilan gazeta faoliyatiga o'z hissalarini qo'shishgan.

Yuqorida sanab o'tilgan shart-sharoitlar jurnalistikaning tug'ilishi va rivojlanishida uning bosh omili bo'lib, jurnalistika sohasini aniq ifodalash OAV ning asosiy guruhleri tipologiyasi va tasnifini hamda tartibini tavsiflash imkonini beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'lkamizdagi ilk

gazeta - "Turkiston viloyatining gazetasi" ham Turkistonda bosib olgan podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga xizmat qildi. Keyinchalik, hokimiyat tepasiga kelgan burjuaziya hukmdorligi davrida gazetachilik har tarafdin taraqqiy etdi, bunga sabab burjuaziya sinfi gazetadan ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan foyda ola boshladi. Ya'ni, bu davrga kelib, gazeta ham bozor mahsuloti, foyda keltirish manbaiga aylandi. Keyinchalik jamiyatda gazetaning roli yanada oshdi.

XIX asrning o'rtalarida mafkura maydoniga kirib kelgan kommunistik ta'limot ham o'z g'oyalari ommaga singdirish uchun gazetadan keng foydalandi. Unga qarama-qarshi ravishda erkin dunyo matbuotining ifodasi bo'lgan gazetachilik ham o'sdi, taraqqiy etdi. Umuman olganda, matbuotning ilk ko'rinishi bo'lgan gazetalar ijtimoiy-siyosiy manfaatlardan tashqari umuminsoniyat madaniyati taraqqiyotiga ham muhim hissa qo'shdi. Gazetalar o'zbek jurnalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida eng ilk va hammabop turi bo'lib yuzaga keldi va shunday bo'lib qoldi.

Ammo gazeta insoniyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun qanchalik xizmat qilmasin jamiyat taraqqiyoti yana bir matbuot turiga ehtiyoj sezdi, natijada yana yangi bir matbuot turi dunyoga keldi, u- "jurnal" deb nom oldi. Bu so'z fransuzcha "Journal"- "kundalik" degan ma'noni bildirsa-da, aslida har kunimas-ko'proq muddatda - bir oyda bir marta chiqib turadigan matbuot turiga aytiladigan bo'ldi. Xo'sh, jurnalning kelib chiqishiga sabab nima, uning jurnalistika tasnifidagi o'rni qanday?

Jurnal gazetadan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotining ichki, chuqur qatlamlarini o'zidan aks ettiruvchi matbuot nashridir. Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti, inson aql-tafakkurining rivojlanishi natijasida ana shunday matbuot turiga ehtiyoj sezildi. Shu bilan birgalikda mavjud sinflar, tabaqalar o'zlarining chuqur ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, huquqiy, ma'naviy-estetik qarashlarini ishlab chiqish zaruratini sezidilar. Gazetalarning imkoniyatlari esa bunga yo'l bermadi, shu boisdan jurnal kelib chiqdi. Birinchidan jurnal Yevropada dunyoga keldi, bu - 1655-yilda Parijda nashr etilgan "Journal de Savans" ("Olimlar jurnali") bo'lib, unda adabiyot, falsafa va tabiiy fanlarga doir

kitoblarga sharhlar bosilar edi. Xuddi shu davrda Angliyada falsafaga bag'ishlangan ilmiy jurnal nashr etildi.

Rossiyada birinchi jurnal 1752-yilda «Ведомости» gazetasiga ilmiy ilova sifatida chiqariladi. Turkistonda chiqqan birinchi jurnal 1913-yilda nashr etilgan «Oyina» bo'ldi. Shunday qilib, jurnal ham matbuot tasnifidan mustahkam o'rin oldi va insoniyat tafakkurini o'stirishda, jamiyatda ilmfan, madaniyat va ma'rifatning taraqqiy etishida, adabiyot va san'atning rivojida muhim rol o'ynadi. Masalan, g'oyaviy yakka hokimlik tarafdorlari jurnalni o'z qarashlarini keng yoyish uchun vosita deb bilsalar, jahondagi ilg'or fikr va qarashlarga tayanuvchi kuchlar jurnal orqali umuminsoniy, taraqqiyparvar g'oyalarni ommaga yetkazishni maqsad qildilar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat ko'rsatgan jadid ma'rifatparvarlari o'z jurnallari orqali taraqqiyparvarlik, milliy ozodlik tushunchalarini omma ongiga singdirdilar. Jurnal vaqtlilik matbuotning asosiy turlaridan biri sifatida insoniyat ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin oldi.

Matbuotning jamiyat hayotidagi ahamiyati shu qadar kattaki, insoniyat kashf etgan har bir yangilik, har bir imkoniyat matbuot uchun qo'llaniladi, ya'ni ommaga axborot tarqatishning har qanday usuli-u xoh bosma so'z, xoh og'zaki bo'lsin matbuot sifatida foydalanish mumkinmi-yo'qmi sinab ko'riladi. Shunga binoan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida jurnalistika mavjud tasnifiga uning butunlay yangi turi - radio kirib keldi. Radio so'zi, yunoncha "radio"- nur taratish degan ma'noni bildiradi. Radio matbuotning o'ziga xos - elektron texnikaga asoslangan alohida bir turidir. Radio-tub ma'noda matbuot emas, ya'ni so'zni bosma usuli bilan ko'paytirish emas, balki "og'zaki", elektron texnika yordamida ko'paytirish, uzoq masofaga, keng hududga tarqatish orqali ish ko'radi. Radioning ana shu xususiyati, ya'ni matbuot tasnifiga bevosita sig'maganligi boisdan u qo'shilgandan so'ng, bu tasnif-ommaviy axborot vositalari deb yuritila boshlandi. Ammo, radio ham o'z mohiyati bilan jurnalistikaning bir turi hisoblanadi, jurnalistika qoidalari asosida ish ko'radi.

O'zbekistonda birinchi radio eshittirish 1927-yil 11 - fevralda efirga chiqarildi. Shunday qilib, radio ommaviy axborot vositalari tizimini

boshlab berdi va jurnalistika tasnifida ham insoniyatning madaniy-  
ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin oldi. Radio ijtimoiy axborot  
tarqatishning eng qulay, tezkor va o'ziga xos vositasi sifatida insoniyatga  
katta xizmat qilib kelmoqda. Matbuot doimo jamiyat bilan birgalikda  
taraqqiy etadi, takomil topadi. XX asrning o'rtalariga kelib, jurnalistika  
tasnifida katta bir yangilik, sifat o'zgarishi yuz berdi - televideniye ixtiro  
qilindi. Bu buyuk kashfiyotning dunyoga kelishida turli mamlakatlardagi  
ko'pgina olimlar, mutaxassislar bilan bir qatorda toshkentlik tadqiqotchilar  
B.Grabovskiy va V.Belyanskiylar ham o'z hissalarini qo'shdilar.  
Televideniye – uzoqdan ko'rish degan ma'noni bildiradi. Televideniye  
radiodan farqli ravishda faqat ovoznigina emas – bir vaqtning o'zida  
tasvirni ham ko'paytirib, uzoq masofa va keng hududga yoyish  
imkoniyatini beradi. Televideniye paydo bo'lishi bilan ijtimoiy hayotni  
gazeta va jurnaldagi kabi so'z orqali tasvirlash, radiodagi kabi ovoz orqali  
ifodalash emas, balki bevosita ko'rsatish imkoniyati tug'ildi. Bu esa  
televideniye matbuot turlari orasidagi rolini yuqori ko'tardi.  
Televideniye teatr, musiqa va boshqa san'atlar vositasidan ham keng  
foydalana olishi uning ommaviyligi, jozibasining oshishiga sabab bo'ldi.  
Televideniye tub ma'noda matbuot bo'lmasa-da (ya'ni so'zni bosma usuli  
bilan ko'paytirish asosida ish olib bormasa-da) matbuotning elektron  
texnikaga asoslangan turi bo'lib, u ham ijtimoiy axborot yig'ish va  
tarqatishning qonun-qoidalariga amal qiladi. U insoniyat ma'naviy  
dunyosini yanada boyitdi, sermazmun qildi, kino, teatr va san'atning  
boshqa qator turlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.  
Jamiyatdagi hukmron tabaqalar, guruhlar televideniye bilan o'z g'oyaviy  
manfaatlari yo'lida keng foydalana boshladilar. Ko'rinishi, ommaga ta'sir  
qilish vositalari, imkoniyatlari turli xil bo'lgan bu to'rt turdan iborat  
ommaviy axborot vositalarini birlashtirib turuvchi narsa-ularning ijtimoiy  
axborot yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanishi va o'z faoliyatlarida  
matbuotning ichki, obyektiv qonun-qoidalarini bilan ish ko'rishidir.  
Ommaviy axborot vositalari tasnifiga uning yuqoridagi to'rt ko'rinishidan  
tashqari axborot agentliklari ham kiradi. Axborot agentliklari matbuotning  
bevosita turi, ko'rinishi bo'lmasa-da, ommaviy axborot tasnifida o'ziga  
xos o'rin egallaydilar va matbuot turlari orqali namoyon bo'ladilar,



axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari uchun axborot yetkazib beruvchi alohida bir kanal, muassasa hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalar tasnifida kitob va kitob nashriyotlari ham alohida o'rin tutadi. Kitob aslida vaqtli matbuot turi emas, ammo ko'p jihatdan vaqtli matbuotga yaqin turadi. Kitob ham matbuot turlari singari ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiradi va insoniyat ma'naviy hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, kitobda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayoti, inson aql – tafakkurining barcha qirralari aks etadi. Shu bilan birgalikda kitobda matbuotga xos bo'lgan xususiyatlar ham mavjud. Shu boisdan kitob nashriyotlari matbuot tasnifini to'ldirib turadi. XX asrning boshlariga kelib ommaviy axborot vositalari yana bir ko'rinish, elektron texnikaga asoslangan alohida bir tur bilan boyidi. Bu - insoniyatning ajoyib mo'jizaviy ixtirosi bo'lgan elektron mashinalar-kompyuterlarning xalqaro tarmog'i - Internetdir. Dastlab elektron-hisoblash mashinalari sifatida foydalanilgan kompyuter apparati tarmoqlaridan keyinchalik ijtimoiy axborot tarqatish borasida ham foydalanish boshlandi. Internet orqali ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy-badiiy, san'at, sport va boshqa sohalarga doir turli xabarlarni yetkazish amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, kompyuterlar tarmog'i orqali faqat Matn - xabarlargina emas, turli suratlar, musiqa asarlarini tarqatish ham mumkin bo'lganligi Internetning ahamiyatini yanada oshiradi.

Internet – hudud bilmas masofa va kengliklar osha axborot va turli ma'lumotlar tarqatib ommaviy axborot vositalari tasnifida o'ziga xos, oldingi o'rinlardan birini egalladi va u tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. O'z mustaqilligiga erishgan O'zbekistonda jurnalistikaning yuqorida qayd etib o'tilgan barcha ko'rinishlari mavjuddir. Respublikamiz gazetachilik, jurnalchilikning keng tarmog'iga ega, o'zbek radiosi va televideniyesi ham tobora taraqqiy topib bormoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan to'rt axborot agentligi va o'nlab kitob nashriyotlari ham ommaviy axborot vositalari tasnifini to'ldirib turibdi. Bularga yana Internet tarmog'ining qo'shilishi respublikamiz ommaviy axborot vositalarini yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Bularning barchasi dunyodagi kabi mamlakatimizda ham ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan darajaga kelishiga imkon yaratdi. Mamlakatimizda juda

ulkan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalarining roli tobora oshib, ijtimoiy hayotda o'ziga xos "to'rtinchi hokimiyat" mavqeini egallab bormoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan va amalga keng qo'llanilayotgan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi "yangi tahriri" va boshqa muhim qonunlar ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Milliy jurnalistikaning paydo bo'lishi va shakllanishi bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistikani nega ijtimoiy institut deymiz?*
- 2. Jurnalistikaning dastlabki kurtaklari qachon, qayerda, qay usulda paydo bo'lgan?*
- 3. Qo'lyozma varaqalar paydo bo'lgan davrni izohlang.*
- 4. Milliy jurnalistika rivojida o'zbek demokratik adabiyot namoyandalari hissasi.*
- 5. Gazeta dastlab qaysi davrda vujudga keldi?*
- 6. Burjuaziya sinfi gazetadan qanday foydalandi?*
- 7. Kommunistik ta'limot davri matbuoti.*
- 8. Jurnal vujudga kelgan davrni izohlang.*
- 9. Birinchi jurnal Turkistonda nechanchi yil, qaysi nomda kim tomonidan nashr etildi?*
- 10. Jadid matbuoti haqida ayting.*
- 11. Radio nima va u qachon paydo bo'ldi?*
- 12. Televideniye tarixidan nimani bilasiz?*
- 13. Axborot agentliklari va ularning faoliyati.*
- 14. Kitob nashrida matbuotga xos bo'lgan xususiyatlarni izohlang.*
- 15. Elektron texnikaga asoslangan OAVning qaysi turi paydo bo'ldi?*

### **Milliy jurnalistikaning paydo bo'lishi va shakllanishi bo'yicha nazorat savollari**

- 1. Nega jurnalistikaning dastlabki kurtaklari ommalashmadi?*
- 2. Qog'oz hamda bosma dastgoh qachon ixtiro qilindi?*
- 3. "Turkiston viloyatining gazetasi" haqida fikr yuriting.*

4. OAV turlari qachon paydo bo'ldi va ularni izohlang.
5. O'zbekistonda OAV ning qaysi turlari faoliyat yuritadi?
6. OAV faoliyatini yanada yaxshilashda O'zbekistonning qaysi qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi?

### 1.3. XX asr o'zbek jurnalistikasi (1906-1990 y.)

XX asrning boshlariga kelib, dunyoning bir qancha hududlaridagi o'zgarishlar shamoli Turkistonga ham yetib keldi. XIX asrning oxirlarida ijtimoiy-siyosiy-ma'rifiy harakat avval Kavkaz, Qrim, Tatariston kabi o'lkalarda vujudga kelgan bo'lsa, 1895-yillardan boshlab Turkistonda, Buxoroyu Xivada ham sodir bo'ldi.

Bu harakat jadidchilik (*arabchada "jadid" so'zi yangi degan ma'noni anglatadi*) nomi bilan tarixga kirdi. O'zlarini taraqqiyparvar deb atashgan bu harakat namoyandalari Turkiston mehnat ahlini ijtimoiy-siyosiy kurashga tayyorlash uchun avvalo ularni savodxon qilish maqsadida ma'rifiy ishlarga urg'u berishdi. Yangi usul maktablari ochib, darsliklar yaratishdi. Lekin bu ishlar hali yetarli emasdi. Ular o'z kelajak maqsadlari Turkiston Mustaqilligiga erishish maqsadida bir qancha rejalar belgilashdi. Buning uchun albatta xalqning siyosiy ongini yuksaltirish uchun ishni gazeta va jurnallar chop etishdan boshlash zaruratiga tushinshdi.

Turkistonni o'z zulmi ostida ushlab turgan podsho Rossiyasining barcha kirdikorlarini ochib tashlash, xalqni eng avvalo chorizmga qarshi kurashga otlantirish uchun ularga matbuot kerakligi kun tartibiga qo'yildi.

Jadidchilik harakatiga o'sha davrning yetuk ziyolilari bosh-qosh bo'ldilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyu Abduqodir Shukuriy, Munavvarqoriyu Abdulla Avloniy, Fitratu Fayzulla Xo'jaev, Hamzayu Cho'lpon va boshqa millat istiqbolini o'ylashga va shu yo'lda barcha qiyinchiliklarga chidagan vatandoshlar yuqorida aytganimizdek, ishni eng asosiy vazifalardan biri gazeta - jurnal yaratishdan boshladilar.

XX asr birinchi o'n yilligidayoq ularning o'z matbuoti shakllandi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, jadidlar asosan gazeta va jurnallar

tahriyatlarida, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishib, o'zlarining asosiy g'oyalari va maqsadlari yo'lidagi harakatlarini tahlil qilardilar.

Ular nafaqat matbuot orqali, balki o'z ta'sirlarini yangi usul maktablariga hamda teatrga katta e'tibor qaratib, xalqni san'at orqali tarbiyalashga, san'atning barcha turlarini yuksaltirish orqali ta'sir ko'rsatishga intildilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shakllangan milliy matbuot - jadid matbuoti paydo bo'ldi.

### **1.3.1. Jadid matbuoti**

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda yozuvchi, publitsist Ismoilbek Gasprinskiy (ba'zi manbalarda Ismoil G'asprali deb ham nomlashadi) rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. (O'zbek milliy ensiklopediyasi, T., 3-jild, 519-betga qarang) I.Gasprinskiy 1883 yilda (O'zbek milliy ensiklopediyasi, 2-jild, 577-bet) "Tarjimon" gazetasini chiqaradi. Ba'zi manbalarda bu sana 1873-yil deb ko'rsatiladi. (Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Pablik Rileyshinz. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama. T., 2003y. 169-173 betlarga, Qosimov B. Ismoilbek Gasprali T., 1992y. kitoblariga qarang.)

Gazeta musulmonlar orasida ancha mashhur bo'lgan. Jadidchilik harakatining asoschisi harakatidan ruhlangan Turkiston jadidlari 1905-06 yillarda bir nechta gazeta ochishga muvaffaq bo'ladilar. Jumladan, Toshkentda 1905-1918-yillar orasida "Taraqqiy" (muharriri-Ismoil Obidiy), "Xurshid" (muharriri-Munavvar qori Abdurashidxonov), "Shuhrat" (muharriri-Abdulla Avloniy), "Osiyo" (muharriri-Ahmadjon Bektemirov), "Tujjor" (muharriri-Saidkarimboy Said-azimboy o'g'li), "Sadoiy Turkiston" (muharriri-Ubaydulla Xo'jaev), "Najot" (muharriri-Munavvarqori), "Kengash" (muharriri-Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), "Turon" (muharrirlari-M.Afandizoda, Abdulla Avloniy), "Ulug' Turkiston" (muharriri-Kabir Bakirov), "Sho'ron Islom" (muharriri-Abdulla Battol), "Turk so'zi" (muharriri - Temirbek Xudayorxonov), "Turk eli" (muharriri-Tahrir hay'ati) gazetalari chop qilindi. Yana jadidchilar tomonidan Buxoroda "Buxoriy sharif" (muharriri-Mirzo Jalil Yusufzoda), "Turon" (Muharriri-G'iyos maxsum Xusaniy) Samarqanda "Samarqand" (muharriri-Mahmudxo'ja Behbudiy), "Hurriyat"

(muharrirlari-Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat) Qo‘qonda “Sadoiy Farg‘ona” (muharriri-Obidjon Mahmudov), “Tirik so‘z” (muharriri-Obidjon Mahmudov), “El bayrog‘i” (muharriri-Bo‘lat Soliev) gazetolari hamda Toshkentda “Al-isloh” (muharriri-Abdurahmon Sodiq o‘g‘li), Samarqanda “Oyina” (muharriri-Mahmudxo‘ja Behbudiy), Qo‘qonda “Kengash” (muharriri-Hamza), “Yurt” (muharriri-Ashurali Zohiriy) jurnallari ham chop qilindi.

Bu gazeta-jurnallarning asosiy g‘oyasi Turkiston xalqini Mustaqilligi uchun ularni siyosiy kurashga hozirlay olish edi. Bu muqaddas ishni ular amalga oshira oldilar. Jadidlar o‘zlarining matbuotlari orqali “Ozodlik, tenglik va adolat” shiori ostida faoliyat yuritdilar.

Jadidlar 1917-yil fevral inqilobini siyosiy kurashga o‘tish bilan qarshiladilar. Bu jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘yganligidan dalolat edi.

Jadidlar o‘z dasturlarida ko‘rsatilgan deyarli barcha masalalarni jumladan, o‘lkada demokratik mustaqil davlat tuzishdek siyosiy rejani amalga oshirish uchun birinchidan, o‘lkani qoloqlikdan qutqarish, ikkinchidan, xalqqa ma‘rifat berish, uchinchidan, jamiyatni isloh qilish, to‘rtinchidan, avvaliga Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish, beshinchidan, davlatning milliy qo‘shiniga ega bo‘lishini ta‘minlash, oltinchidan, o‘z milliy valyutasini joriy etish, yettinchidan, soliqlar tizimida o‘zgartirishlar qilish, sakkizinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish, to‘qqizinchidan, xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish, o‘ninchidan, musulmon maktablarining ta‘lim usuli va dasturlarini isloh qilishga qisman erishdilar. Bu ishda matbuot kuchiga tayandilar.

1917-yil 26–28-noyabrda Qo‘qonda bo‘lgan Turkiston o‘lka Musulmonlarining favqulodda 4-quriltoyi o‘lkada Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzilganini e‘lon qildi. Bu Turkiston mintaqasidagi dastlabki demokratik hukumat edi. Albatta unga demokratik matbuot zarur edi. “El bayrog‘i”, “Birlik tug‘i”, «Свободный Туркестан», «Известия Временного правительства Автономного Туркестана» kabi hukumat gazetolari o‘zbek, qozoq, rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan “Ulug‘ Turkistan” hamda “Hurriyat” gazetolari muxtoriyat hukumati faoliyatiga xizmat qila boshladi. Ammo afsuski, demokratik

hukumat atigi 72 kun umr ko'rdi. 1918-yilning 19–26-yanvarida bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va krestyan deputatlarining favqulodda 4-syezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holda deb hisoblab, hatto ularga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. 1918-yilning 19 – fevralida qurol kuchi bilan Turkiston Muxtoriyati hukumati ag'darib tashlandi. (A'zamxo'jaev S. Turkiston Muxtoriyati. T., 2000 y. kitobini o'qing).

Shunday qilib Sovet tuzumi Turkiston Muxtoriyatini qonga botirgach jadidchilik harakati kuchli o'zgarishga uchradi. Ularning matbuoti yopib tashlandi va mol-mulki musodara qilindi, faollari esa qamoqlarga tashlandi, qatag'on qilindi.

Shu davr oralig'ida Ismoil Obidiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ahmadjon Bektemirov, Saidkarimboy Saidzimboy o'g'li, Mirzo Jalol Yusufzoda, G'iyosiy Maxsum Xusayniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jaev, Obidjon Mahmudov, Abdurahmon Sodiq o'g'li, Ahmad Zakiy Validiy, M.Afandizoda, Kabir Bakirov, Abdulla Battol, Temirbek Xudoyorxonov, Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat, Bo'lat Soliev, Hamza, Ashurali Zahiriy kabi jadidlar faoliyat yuritdilar, ular gazeta va jurnallar ochishib, o'zlari muharrirlik qilishdi.

Jadid matbuoti xalqni “har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi” “millat ongining ochqichi” ekanini namoyish eta oldi.

Ammo mustaqillik harakati 1929-yil oxirida milliy ziyolilarning ko'pchiligining Sovet rejimi tomonidan qamoqqa olinishi tufayli faollik bilan olib borilgan siyosiy kurash so'ndi. Ko'pgina jadidlar o'ldirildi, qamaldi, ba'zilar siyosiy hayotdan chetlashib badiiy ijod bilan shug'ullana boshladi, ba'zilar Sovet idoralarida turli lavozimlarda ishlay boshladilar. O'zbek jurnalistikasi taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich tugab, 1931-yildan O'zbek jurnalistikasi taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich tugab, 1931-yildan uchinchi bosqich boshlandi. Sovet davri jurnalistikasi deb nomlangan bu bosqich 1990-yilgacha davom etadi. Bu bosqichda chop etilgan deyarli barcha matbuot umum demokratik qoidalarga zid ravishda yakka partiyaviylik, ya'ni yakka hokimlikka bo'ysindirilgan holda faoliyat yuritdi.

### **Jadid matbuoti bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jadid matbuotining vujudga kelishini sharhlang.*
2. *Jadidchilik harakatining asoschisi kim edi?*
3. *“Tarjimon” gazetasining birinchi soni qachon chiqdi?*
4. *Jadidlar tomonidan qanday gazetalar chop qilindi?*
5. *Qanday jurnallar chop etildi va ularning muharrirlarini ayting.*
6. *Jadidlar o'z dasturlarida qanday masalalarni ko'tarib chiqishdi?*

### **Jadid matbuoti bo'yicha nazorat savollari**

1. *Jadidchilik deganda nimani tushinasiz?*
2. *Jadidlar o'z harakatlarini qaysi gazetani chop etishdan boshlashdi?*
3. *Jadidchilik davri matbuotining yirik namoyandalarini ayting.*
4. *Jadidchilik harakatining bosqichlarini sanang.*
5. *Jadidlar qaysi rejalarini amalga oshirishga erishdilar?*

#### **1.3.2 Sovet davri o'zbek milliy jurnalistikasi**

Turkiston o'lkasiga podsho Rossiyasi turli harbiy va ilmiy ekspeditsiyalar yuborib, mavjud ahvolni jiddiy o'rganish va kelajakda uni bosib olish rejasini Pyotr I davridayoq boshlagan edi. Rossiya imperiyasi o'z maqsadini XIX asrning 40-yillari oxiridan boshlab amalga oshira boshladi. Natijada o'lkada 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligini tuzdi. Avvaliga Qo'qon xonligi (1868y), Buxoro amirligi (1873y), Xiva xonligi (1873 avgustida) Rossiya imperiyasiga tobeligini tan olishdi.

Podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi o'lkada ozodlik kurashi 1917-yilgacha davom etdi. Lekin barcha qo'zg'alonlar o'ta shafqatsizlik bilan bostirildi. Jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari asosan yo'q qilindi.

1917-yilgi Oktyabr inqilobi natijasida Rossiyada bolsheviklar hukmronligi mustabid rejimi o'rnatildi.

1920-yilga kelib Buxoro va Xiva xonlik tuzumlari butunlay ag'darib tashlandi. 1924-yilda O'rta Osiyo xalqlarining milliy hududiy

chegaralanishi amalga oshirildi. 1925-yilga kelib O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi. O‘zbekiston endi mustabid Sovet davlati tarkibida faoliyat yurita boshladi.

Jurnalistika Turkistonda 1867–1917-yilgacha bo‘lgan davrda ikki bosqichda rivojlandi. Birinchi bosqich 1870-1905-yillar orasida mahalliy tilda yagona gazeta “Turkiston viloyatining gazetisi” bor edi xolos.

Ikkinchi bosqich 1906–1917-yillari orasida esa o‘zbek tilida mustaqil davriy nashrlar paydo bo‘ldi va ular tez rivojlana boshladi. Ammo avvaliga matbuot nashrlari Turkistondagi podsho ma‘muriyati tomonidan yopib qo‘yilgan bo‘lsa 1917-yilga kelib, shu yillarda tashkil etilgan barcha nashrlar, xususan, “Natija”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat”, “El bayrog‘i” gazetalari “Yurt”, “Chayon” jurnallari va boshqalar yangi hukmron mafkura yetakchilari tomonidan “aksilinqilobchi” likda ayblanib, faoliyatlari tugatildi va ularning mol-mulki partiya-sovet matbuoti foydasiga musodara qilindi. Shu tariqa sobiq SSSR tarkib topgach O‘zbekistonda ham yangi siyosiy yo‘nalishdagi gazeta va jurnallar chiqa boshladi. Uning dastlabki namunasi rus tilida chop etila boshlagan «Наша газета» edi. U 1917-yil aprelidan to 1919-yilgacha shu nomda, 1919-yil aprelidan «Известия» nomida, 1922-yildan «Туркестанская правда», 1924-yildan esa hozirgacha «Правда Востока» nomida chiqib keladi.

O‘zbek tilidagi milliy Sovet matbuotining to‘ng‘ichi “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasidir. 1921-22 yillarda bu gazeta “Qizil bayroq”, 1922-24 yillarda “Turkiston”, 1924-1964 yillarda “Qizil O‘zbekiston”. 1964-1991 – yillarda “Sovet O‘zbekistoni” nomlarida nashr etildi.

O‘zbekiston SSR tashkil etilgandan so‘ng respublikada ko‘plab yangi gazeta va jurnallar tashkil etildi. Turli qatlamlarga mo‘ljallangan respublika miqyosida “Yosh Leninchi”, “Kambag‘al dehqon”, “Qizil Yulduz”, “Batrak”, “Ishchi”, “Lenin uchquni”, “Madaniy inqilob” kabi o‘zbek gazetalari hamda rus tilida «Комсомолец Востока», «Пионер Востока», «Узбекистанская правда», yahudiy tilida “Ro‘shnolik”, uyg‘ur tilida “Qutulish”, tojik tilida “Haqiqati O‘zbekiston” gazetalari nashr qilindi. Viloyatlarda keyinchalik tumanlarda ham gazetalar chop etila boshladi.



Shu yillarda “Er yuzi”, “Yangi yo‘l”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Alanga”, “Yangi qishloq”, “Kommunist” kabi jurnallar ham chop etildi. 30–chi yillarga kelib O‘zbekiston matbuoti butkul stalinizm jarchisiga aylandi. Bu yangi qatag‘on uchun mafkuraviy zamin yaratilganidan dalolat edi.

Yalpi qatag‘on yillarda ko‘plab o‘zbek jurnalistikasiga xizmatlari singan ajoyib publitsist-jurnalistlar, muharrirlar Usmonxon Eshonxo‘jaevu Cho‘lpon, Abdulla Qodiriyyu Ziyo Said, A‘zam Ayubovu Fayzulla Xo‘jaev, Akmal Ikromovu Qosim Sorokin, Qurbon Bereginu Muhammad Hasanov, Mo‘min Usmonovu Mannon Ramz va boshqalar xalq dushmanlari deb badnom qilinishdi va qatag‘on qurboniga aylanishdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuot tarmog‘i birmuncha qisqardi, qator gazeta va jurnallar vaqtincha to‘xtatildi. Urushdan keyingi davrda davriy matbuot asta-sekin rivojlanib bordi.

1975-yilda O‘zbekistonda 257 nomda shundan o‘zbek tilida 169 nomda gazeta nashr etilgan. Jurnallar soni 134 tani tashkil qildi.

Davriy matbuotda kasbiy oliy ma‘lumot egalari ko‘paygani xarakterlidir. Chunki 1949-yili O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)da, 1957-yili respublika Oliy partiya maktabi qoshida oliy ma‘lumotli jurnalistlar tayyorlay-digan maxsus bo‘limlar ochildi. 1967-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) mavjud jurnalistika bo‘limi jurnalistika fakultetiga aylantirildi.

Shuni e‘tirof etish kerakki, urushdan keyingi 20 yildan ortiq davr ichida kompartiya davlat ustidan mutloq hukmron bo‘lgan organga aylandi. 20-asrning 40-yillari oxiri va 50-yillar boshida yana yalpi qirg‘in boshlangani va bu asosan madaniyat va fan arboblari qarshi qaratilgani matbuot rivojiga salbiy ta‘sir etdi. Ziyolilardan Shukurullo, Said Ahmad, Mixzakalon Ismoilii, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Mirzakarim Osim, Hamid Sulaymon, Muhiddin Qori Yoqubov, To‘xtasin Jalolov, Mahmud Murodov va boshqalar “Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati” olib borganlikda ayblandilar va har birlari 25 yildan ozodlikdan mahrum etildilar. Faqat keyinchalik ular oqlandi.

O'sha davr jurnalistikasi faoliyati to'raligicha partiyaviy nazorat ostida bo'lib davlat senzurasini faol edi. Kommunistik mafkura sinfchilik asosiga qurilgan bo'lib, bu axborot sohasi ko'plab noxushliklarga olib kelgandi.

Shundan keyingi 15 yil O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy inqirozning kuchaygani bilan izohlanadi. Bu davr iqtisodiy turg'unlik davri deb nomlandi. O'sha davrdagi matbuot markaz topshirig'iga binoan "O'zbekiston SSSRga boqimanda ekanligi haqidagi uydirmani baland ovozda kuyladi va nihoyat 1984-yildagi O'zbekiston kompartiyasining 16-plenumi O'zSSRda o'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. To'g'rirog'i navbatdagi qatag'on amalga oshirildi. O'zbek xalqi badnom etilib, "paxta ishi" ga ataylab siyosiy tus berildi va u "o'zbeklar ishiga"ga aylanirildi. Matbuot ham shu nog'oraga o'ynadi.

KPSS MK ga bosh kotib bo'lib saylangan M.S.Gorbachev "qayta qurish" siyosatini boshladi. Bu o'tgan islohotlardan tubdan farq qiladi. Bu qayta qurish 1985–1990-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda oshkoralik, demokratiyaga qisman sharoit yaratildi.

Bu o'zgarish davri o'zbek xalqining o'z mustaqilligi to'g'risidagi g'oyalari haqida o'ylashga imkoniyat tug'dirdi.

1989-yil 24 – martda O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy qilindi.

1991-yil 31– avgust kuni O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilindi.

Shu bilan 1917-1990 – yillar orasida hukm surgan sovet davri milliy jurnalistikasi o'z davrini yashab bo'ldi.

### **Sovet davri o'zbek milliy jurnalistikasi bo'yicha reyting topshiriqlari**

*1. Podsho Rossiyasi Turkiston o'lkasini bosib olish rejasini qachon boshlagan edi?*

*2. Rossiya imperiyasi o'z maqsadiga qachon erishdi?*

*3. Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga tobeligini qachon tan olishdi?*

*4. O'rta Osiyo xalqlarining milliy hududiy chegaralanishi qachon amalga oshirildi?*

5. O'zbekiston SSR tashkil topgan yilni ayting.
6. Jurnalistikaning Turkistonda rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari.

### **Sovet davri o'zbek milliy jurnalistikasi bo'yicha nazorat savollari**

1. Podsho Rossiyasi Turkistonga nima maqsadda ekspeditsiyalar yuborgan?
2. O'lkada Turkiston general-gubernatorligi qachon tuzildi?
3. Mustamlakachilikka qarshi o'lkadagi kurash qachongacha davom etdi?
4. Rossiya bolsheviklari hukmronligi mustabid rejimi qachon o'rnatildi?
5. O'zbekistonning mustabid sovet davlati tarkibida faoliyat yurita boshlagan davri jurnalistikasini gapirib bering.
6. Yalpi qatag'on yillarida O'zbekiston matbuotini sharhlang.
7. Urushdan keyingi davr matbuoti.

#### **1.4. Mustaqillik davri o'zbek jurnalistikasi (1991-h.k.)**

Totalitar tuzum maqsadlariga xizmat qilgan kompartiya matbuoti milliy mustaqillikka xizmat qilishi uchun uni tubdan o'zgartirish lozim edi. Chunki kommunistik matkura nazorati ostida bo'lib, yolg'on - yashiqni rostga yoyib, yakka hokimlik siyosatida faoliyat ko'rsatib, dahriylikni targ'ib qiluvchi maqolalar yozib kelgan matbuot shu ondayoq o'zgarib qolmasligi aniq edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, OAV mafkuraviy yakka hokimlikdan qutildi. Ularning barchasi o'z mavqe va yo'nalishi bo'yicha matbuot talablariga mos siyosiy yo'nalishda faoliyat ko'rsata boshladi. Gazeta va jurnallarning, televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarning mazmun-mohiyati tubdan o'zgara boshladi.

Respublikadagi mavjud OAVning ba'zilarining nomi o'zgartirildi. "Yosh Leninchi" - "Turkiston" deb, "Lenin uchquni" esa "Tong yulduzi" deb nomlandi. Bundan tashqari O'zTAG-O'zA deb nom oldi. 1997-yilda

qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari OAV ta‘sis etish huquqiga ega bo‘ldi. Natijada bir necha turdagi har xil gazeta-jurnallar, telegraf agentliklari, teleradio studiyalar paydo bo‘ldi. O‘zbekistonda qisqa muddat ichida davlatchilik asoslarini himoya qiladigan turli tuzilmalar shakllantirildi.

Respublikada ko‘p partiyalilik qaror topdi. Xususan, hozirda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991), O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995), O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (1995), O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003) faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2005-yil 27 – yanvarda 2 palata: Qonunchilik palatasi ya‘ni quyi palata va Senat ya‘ni yuqori palatadan iborat qilib shakllantirildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” (1993) risolasida O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o‘zagi sifatida 5 ta asosiy quyidagi tamoyillarni o‘rtaga tashladi:

- iqtisod hamisha siyosatdan ustun turishi;
- davlat-bosh islohotchi bo‘lishi;
- aholini ijtimoiy himoya qilish zarurligi;
- qonun ustuvorligi;
- bosqichma-bosqich, ijtimoiy larzalarsiz yangi pog‘onaga erishish.

Iqtisodiy siyosatimizning bu “o‘zbek modeli” deb nom olgan asosiy tamoyillari Respublikada tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazishning uzoq davrga mo‘ljallangan maqsadlarini belgilab berdi.

Mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyot vujudga keldi. Madaniy-ma‘naviy va ma‘rifiy sohada ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qisqasi mustaqillik yillari hamma sohada zarur islohotlar o‘tkazildi va bu ulkan tadbirlarda OAV ijobiy rol o‘ynadi.

Bu ishlarda yangidan tashkil bo‘lgan “Xalq so‘zi”, «Народное слово», “Mulkdor” (2006 yil mayidan “Birja”), “Adolat”, “Milliy tiklanish”, “XXI asr”, “Huquq”, “Hurriyat”, “Mohiyat”, “Ko‘zgu”, «Зеркало XXI», “BVV” gazetalari bilan bir qatorda xususiy mulkdorlar

tomonidan “Darakchi”, “Xordiq”, “Bekajon”, “Tasvir”, “Parvona”, “Charxpalak” gazetalari chiqa boshladi.

Mavjud bo‘lgan “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Fan va turmush”, “Saodat”, “O‘zbekiston matbuoti”, “Gulxan”, “G‘uncha” kabi jurnallarning mazmun-mundarijasi yangilandi, boyidi.

Mustaqillik yillarida “Tafakkur”, “Jahon adabiyoti”, “Hidoyat”, “Ta‘lim tariqqiyoti”, “Xo‘jalik va huquq”, “Huquq va burch”, “Sog‘lom avlod”, “Muloqot”, “Sanam”, “Lazzat”, “Kasb mahorati”, “Avto olam”, “Qalqon”, “Patologiya”, “Sinfdosh”, “Agro biznes inform” kabi yangi jurnallar paydo bo‘ldi.

Gazeta va jurnallarning auditoriyasi, yo‘nalishi, adadi, shakli-shamoyili xilma-xil bo‘lib, barcha davriy matbuot, umuman OAV jumladan, radio - televideniye, internetning rivojlanish tendensiyalari omma ehtiyojiga qarab o‘zgarib, yaxshilanib bormoqda. Mustaqillik yillarida OAV barcha turlari faoliyatida milliyalashtirish o‘zbek tilidagi eshittirishlar hajmini oshirish amalga oshirildi.

O‘zbekiston axborot agentliklari faoliyatida ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 1992-yildan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi “Jahon” axborot agentligi, 1995-yildan, O‘zbekistondagi birinchi nodavlat ya‘ni davlat tasarrufida bo‘lmagan axborot agentligi 1998-yildan beri faoliyat ko‘rsatib keladi. Bu “Turkiston-press” axborot agentligi davlat axborot agentliklariga muqobil tashkilot bo‘lib, u mamlakat axborot makonida o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi axborot agentliklaridan yana biri Qoraqalpog‘iston xabar agentligidir.

Milliy mustaqillik davri jurnalistikasi borasida gap ketganda noshirlik masalalariga ham to‘xtalib o‘tish muhim. O‘zbekiston hududida kitobning paydo bo‘lishi haqida darslikning kitob va kitob nashriyotlari bobida batafsil to‘xtalamiz.

O‘zbekiston hukumatining qarori asosida O‘zbekistonda yirik nashriyot hisoblangan “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” (1997 y.) davlat ilmiy nashriyoti tashkil etildi. O‘zbekistonda noshirlikka doir masalalar, asosan “O‘zbekiston matbuoti” jurnalida hamda “Hurriyat” gazetasida yoritiladi.

Milliy mustaqillik jurnalistikasi rivojini internetsiz to'la ifodalash mumkin emas. Katta (*global*) va kichik (*lokal*) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimi bo'lgan internet bugungi kunda barcha an'anaviy axborot tizimlari – telekommunikatsiya, teleradio eshittirish, axborotlarni xalqaro miqyosda faol almashtirish va h.k. ning texnologik imkoniyatlarni uyg'unlashtirib qo'llanilgani uchun u bir necha vazifani bajaradi.

O'zbekistonda ma'lumotlarni uzatish milliy tarmog'i O'zPAK Davlat kompaniyasi va O'zNET tarmog'idan iborat: O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Internet haqida maxsus bobda yanada to'laroq to'xtalamiz. (*O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2002 y., 4-jild, 182-183 betlardagi Dildora Rashidova maqolasini o'qing*).

### **Mustaqillik davri jurnalistikasi bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Mustaqillikka erishgan davlatning OAV nimadan qutildi?*
2. *Qaysi matbuot nashrlari o'z nomini o'zgartirdi?*
3. *OAV faoliyatida qanday yangilik paydo bo'ldi?*
4. *Qanday yangi OAV paydo bo'ldi?*
5. *O'zbekiston Oliy Majlisida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?*
6. *O'zbekistonda qanday partiyalar vujudga keldi?*
7. *Qanday yangi jurnallar tashkil bo'ldi?*
8. *Yangi axborot agentliklarini sanang.*
9. *Mustaqillik davri jurnalistikasida internetning roli.*
10. *Totalitar tuzum matbuotidan mustaqillik davri matbuotining farqi.*

**Mustaqillik davri jurnalistikasi bo'yicha  
nazorat savollari**

- 1. Mafkuraviy yakka hokimlikning matbuotdagi ko'rinishi.*
- 2. OAVni ta'sis etish qaysi qonunda o'z ifodasini topdi?*
- 3. Yangi tuzilgan partiyalar nashrlarini bilasizmi?*
- 4. Iqtisodni isloh qilishning 5ta asosiy tamoyillarini ayting.*
- 5. Tashkil bo'lgan xususiy nashrlarni sharhlang.*

---

---

## 2-BOB. O‘ZBEK JURNALISTIKASI TIPOLOGIYASI

### 2.1. Jurnalistik faoliyat va uning ko‘rinishlari

Jurnalistik faoliyatning mohiyati axborot tarqatish desak xato bo‘lmasa kerak. Chunki axborot tarqatish so‘zining asl mazmuni biron narsa haqida tushuncha berish degan ma’nodan kengroq.

Axborot inson hayotida g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Uni falsafiy ma’noda moddaning yashash xususiyatlaridan asosiysi, moddalar orasidagi o‘zaro munosabat, bir-biri bilan aloqa va bir-biriga ta’sir vositasi deb ta’riflashadi. Demak, axborot moddaning yashash tarzi, xususiyatidan kelib chiquvchi hosila. U insonning dunyoni bilishi hamda tajribaga ega bo‘lishidagi asosiy vosita. Inson oladigan axborot turlari xilma-xil. Jumladan, ta’limiy, tarbiyaviy, kasbiy, ilmiy, iqtisodiy, badiiy, estetik, diniy va boshqa turlari mavjud.

Inson oladigan axborot tabiatdagi shakl, hajm, rang, nur, issiqlik, sovuqlik, hid va boshqa vositalardan tashqari ko‘rish (*tasvir*) va eshitish (*tovush*) kabilardan ham iborat bo‘ladi.

Jamiyatni boshqarishda esa o‘ziga xos turdagi axborotlar – ijtimoiy axborot, siyosiy axborot, xalqaro axborot, harbiy axborot, maxfiy axborot va boshqa turlari qo‘llaniladi.

Bular ichida ijtimoiy axborot turiga e’tiborimizni qaratsak. Bu tur inson ongini o‘stirishda uning ijtimoiy faoliyatini boshqarib turishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Aytish kerakki, jamiyatda yakka hukmdorlar mavjud bo‘lgan davrda ijtimoiy axborot ularning manfaatini siyosatiga moslashtirilgan edi. Kommunistik tuzum davrida axborotdan yakka g‘oyaviy hukmronlik o‘rnatish uchun foydalanib kelingan. Faqat demokratik jamiyatdagina ijtimoiy axborot jamiyat taraqqiyoti, keng ommaning manfaati uchun xizmat qilishi mumkin.

“Axboriy matbuot” deganda biz mohiyat e’tibori bilan “Yangiliklar jurnalistikasi” ma’nosini tushunamiz. Zero, bu ikki tushuncha uzviy, biri



ikkinchisiz ma'nosiz ekanligi aniq. G'arbda "Axboriy matbuot"ga o'xshash yana bir munozarali "Fikrlar matbuoti" tushunchasi mavjud. Bu ikki tushunchani farqlash va qo'llash shartli. Ular G'arbda ham, bizda ham bir – biridan ayri (sof) holda amal qilolmaydi. G'arb ommaviy axborot vositalarida o'zgacharoq xol mavjud degan fikr ham yo'q emas. U yerda yangiliklarning uzluksiz oqimini uzatishda Si-En-En, "Nemis to'liqini", "Bi-Bi-Si", "Ozodlik", "Amerika ovozi" kabilarda ham "Sof" holdagi fakt, voqea-hodisalarni uzatish bilan bir qatorda ularni sharhlashga ham e'tibor berilishini tan olish kerak.<sup>2</sup>

Axborotni xabar qilish, tushuntirish, ma'lum qilish ma'nosida tushunar ekanmiz, demak, axboriy jurnalistika oldindan ma'lum bo'lmagan biror narsa, voqea haqidagi har qanday xabar axborot degan tavsifga qo'shilgan holda axborot, faktlar haqidagi xabardangina iborat bo'lib qolmay, inson ichki ehtiyoji bo'lmish muloqotni ta'minlovchi aloqa qilish amali va fikr almashish jarayoni hamdir, deb to'ldirish va tahrir qilishga ham qo'shilamiz. Bizga ma'lumki, voqelik qanchalik rang-barang aks etsa, xabarning axboriy-qiyamati shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki turli xalqlar, davlatlarning birdek demokratik qadriyatlarga intilishlaridan qat'iy nazar, ular madaniy va siyosiy ong darajasining turli bosqichida turishlarini esdan chiqarmaslik kerak.

Axborotni gazeta, jurnal, radio, televideniye, internet, axborot agentliklari tarqatsa, ana shu ular tarqatgan axborotlarni qabul qilib oluvchi asosiy guruhlar bor. Ular uchta:

Birinchisi, ma'naviy – shaxsiy guruh. Unga adabiyot, san'at, ichki va xalqaro mavzular bilan qiziqadiganlar kiradi.

Ikkinchisi, kasbiy – funksional guruh. Unga ijtimoiy-siyosiy axborotni katta qiziqish bilan tinglaydiganlar kiradi.

Uchinchisi, iste'molchilikka yo'naltirilgan guruh. Bu toifadagilar ommaviy axborot vositalaridan hordiq chiqarish va dam olish xabarlarini kutadilar. To'g'rirog'i ularni turli teleshow, sport qiziqtiradi.

Milliy mustaqillikka erishgan va demokratik, huquqiy davlat qurish, adolatli fuqaro jamiyati tuzish yo'lidan borayotgan bizning

---

<sup>2</sup> Lug'at Jurnalistika.Reklama. Publik Rileyshtz. Ma'lumotnomma. 1700 ta atama. T., 2003.

mamlakatimizda ijtimoiy axborotga bo'lgan talab oshib hamda uni yig'ish va tarqatish imkoniyatlari yanada kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida hamda hukumat qabul qilgan qator qonunlarda axborot olish, tarqatish borasidagi demokratik huquqlar aniq, ravshan bayon etib berilgan.

Shu o'rinda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy axborotni yig'ib, ommaga doimiy ravishda yetkazib turuvchi asosiy vosita ekanligini e'tirof etmoq kerak. Jurnalistikaning ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlaridan biri, real voqelikni bilish, tadqiq etish hamda unga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi ekaniga e'tiborni qarataylik.

Jurnalistika, jumladan uning bu ko'rinishi ma'lum bir voqelikni o'zida aks ettiradi, uni o'rganadi, tahlil qiladi, hamda unga qaytadan ta'sir ko'rsatadi.

Matbuotning falsafiy mohiyati uning ijtimoiy ong Matbuotning falsafiy mohiyati uning ijtimoiy ong ko'rinishlaridan biri ekanligidir. Ma'lumki, olamda ijtimoiy borliq va unga mos keluvchi ijtimoiy ong mavjuddir. Ijtimoiy ong tarkibida mafkura, fan, adabiyot, san'at, ijtimoiy psixologiya va boshqalar mavjud bo'lib, matbuot ham shular qatorida teng huquqli a'zo, ijtimoiy ong shaklini tashkil etadi.

Bilamizki, matbuot ya'ni jurnalistika ijtimoiy ongning eng o'tkir va ta'sirchan qismi. U turli sohalar hamda xillarga ega. Jumladan, ijtimoiy – siyosiy jurnalistika, iqtisodiy ishlab chiqarish jurnalistikasi, ilmiy jurnalistika, badiiy jurnalistika, san'at jurnalistikasi, hajviy jurnalistika, sport jurnalistikasi, harbiy jurnalistika, bolalar jurnalistikasi kabi sohalar hamda fotojurnalistika, radiojurnalistika, telejurnalistika, internet kabi xillari mavjud. Bularning bari ijtimoiy hayotni aks ettirishdan iborat, umumiy qonun asosida faoliyat ko'rsatadi. Matbuotning davomiyligi esa uning ijtimoiy ong ko'rinishi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ijtimoiy amaliyot bilan jurnalistikaning o'zaro aloqasi natijasida axborot vositalarining ma'lum bir tarkibi paydo bo'ladi. Ularning tasnifi asosida har bir nashr hamda ommaviy axborot vositalarining aniq ifoda etilgan tarkibi paydo bo'ladi. Ba'zi belgilariga qarab, hodisa va voqealar tasnifi umumlashtiriladi. Jurnalistikani o'rganish davomida ommaviy axborot vositalari tarkibiga va ularning rivojlanish yo'nalishiga kasbiy

nuqtai nazardan qarash vazifasi qo'yiladi va har bir konkret olingan nashr yoki eshittirish dasturiga tasnif bildiriladi. Avvaliga ba'zi bir uslubiy qoidalarni o'rganib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Birinchi**dan, tasnif alomatlarini na rasman, na xususiy xususiyatlarga ega. Ulardan hatto biron bir alomatni o'zgartirilsa butun boshli nashrning ham mazmuni, ham shakli butunlay o'zgarib ketadi. Agar gazeta bilan jurnal hajm jihatdan farqlanadi desak, uning davriyligi maqolalar hajmi, badiiy bezash kabi tasniflariga ham e'tibor qaratishimiz kerak.

**Ikkinchi**dan, ommaviy axborot vositalari tasnifi ko'plab tashqi (*ijtimoiy*) va ichki (*jurnalistik*) sabab va omillarga ega bo'ladi. Masalan, ikki, to'rt sahifali o'tgan asrning 80-90 yillarida paydo bo'lgan gazetalar o'rnida 8,16 hatto 32 sahifali gazetalar chiqqa boshlaganini aytib o'tish o'rinli. ("*Soliq va bojxona xabarnomasi*" va *b.*). Lekin nashr kattalashganiga qaramay, ular eski nashrlar negizida, ularning g'oyalarini davom ettirishganini e'tirof etish kerak.

**Uchinchi**dan, matbuot tasnifiga qaratilgan harakat to'xtovsiz davom etadi. U o'zgarib, to'ldirilib, boyib boraveradi. Masalan, matbuotga o'tgan asrning 90-yillarigacha bo'lgan tasnifda matbuot markscha-lenincha ta'limot asosida, sinfiy-g'oyaviy nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach matbuotga yangicha, xolis, umuminsoniy qarashlar paydo bo'ldi.

Shu uch qoida asosida jurnalistikaning tasnifi va uning tarkibi borasida to'xtalamiz. Eng avvalo tasnif xususiyatlarini qarab chiqaylik.

**Matbuotni tarqatish hududlari.** Matbuotni tarqatish tasnifi uni qayerda chop etilishi bilan emas, balki qaysi hududlarga tarqatilishi bilan boshlanadi. Asos qilib xuddi shu qaysi hududlarga xizmat qilishi olinadi.

Demak, matbuotning hududiy yo'nalishiga qarab markaziy (*mamlakat miqyosida*), viloyat, shahar, tuman, quyi matbuot organlari (ko'p tirajli gazeta) bo'ladi. Lekin ba'zi gazetalar jumladan, "Toshkent oqshomi"- "Вечерний Ташкент" shahar gazetasi bo'lsada u butun mamlakat bo'ylab tarqaladi.

Agar u chet mamlakatlarga ham tarqalsa unda u trans milliy maqomini oladi. Endi mamlakat miqyosidagi, to'g'rirog'i markaziy gazetalar haqida to'xtalsak. Ularning bari butun mamlakat bo'ylab tarqatiladi. Unga "Xalq

soʻzi”, «Правда Востока», “O‘zbekiston ovozi”, “Turkiston”, “Nuroniy” v.h gazetalar kiradi.

Viloyat gazetalariga “Qashqadaryo”, “Toshkent haqiqati”, «Ташкентская правда», “Andijonnoma”, shahar gazetalariga “Toshkent oqshomi” – «Вечерний Ташкент», tuman gazetalariga “Davr ovozi” (*Qibray tumani*), ko‘p tirajli gazetalarga “To‘qimachilar ovozi” (*To‘qimachilik kombinati*), “Qaldirg‘och” (*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti*) va nihoyat devoriy gazetalarga (*tashkilot yoki maktablarda chiqadigan*) bo‘linadi. Yuqorida biz hukumat va hukumatga qarashli nashrlarga to‘xtalidik. Vaholanki, respublikaga tarqatiladigan xalq harakatining (“*Birlik*”-«*Единство*»), partiyalarning (“*O‘zbekiston ovozi*”, “*XXI asr*”, “*Adolat*”), jamg‘armalarning (“*Nuroniy*”, “*O‘zbekiston matbuoti*”), tijoratchilarning (“*Darakchi*”) diniy tashkilotning (“*Islom muri*”) va boshqa gazetalar mavjud. Gazeta va jurnallar mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, adabiy – badiiy, ilmiy bo‘lishi, yo‘nalishiga qarab bolalar, (“*Tong yulduzi*”, «*Класс*»), yoshlar (“*Turkiston*”, «*Молодежь Узбекистана*»), xotin-qizlar (“*Saodat*”) muassisligiga ko‘ra – hukumat idoralarining, nodavlat tashkilotlarining nashrlari hamda, xususiy bo‘lishi mumkin.

**Nashriyot tasnifi.** Nashrning davriyligi, bichimi, hajmi ham muhim ko‘rsatgichlar bo‘lib, ular haqida bilish zarur. Masalan, davriylik axborotning tezkorligini ta‘minlaydi. Jumladan, kundalik (bunga haftasiga 4-5 va undan ortiq marta chiqadigan gazetalar) xaftasiga bir, har o‘n kun, oyida bir, chorakda bir marta chop etiladigan nashrlar ham bor.

Matbuotda asosan A-2 bichim (“*Xalq so‘zi*”, «*Правда Востока*», A-3 bichim “*Nuroniy*”, “*Ishonch*” hamda A-4 (“*7X7*”) kabi bichimli nashrlar mavjud. Xalq orasida gazetalar ikki sahifali, to‘rt sahifali va h.k. deb yuritish odati bor.

Bu holatda uning bichimiga e‘tibor berish kerak. A-2 bichimda chop etiladigan “O‘zbekiston ovozi”ni to‘rt sahifali, agar u A-3 bichimda chop etilganda sakkiz sahifali deb yuritsak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu gazeta demak ikki taboqda chiqadi. Bir bosma taboq taxminan 40 ming belgidan iborat bo‘ladi. Demak, “O‘zbekiston ovozi” gazetasi qaysi bichimda chiqmasin asosan 80 ming belgidan yoki ikki bosma taboq hajmida chop etilar ekan.

Ba'zi sonlari boshqa davriy matbuotga o'xshab uch va to'rt bosma taboq hajmida ham chop etilishi mumkin.

OAV tarkibi tasnifi har xil bo'lgan axborot vositalarining barchasi qo'shib jurnalistikaning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Tuzilishi bo'yicha uni axborot vositalarining uch guruhi ifoda etadi.

*Birinchisi*, bosma matbuot – gazetalar, jurnallar, haftanomalar (*gazeta va jurnal tipidagi*), vaqti-vaqti bilan nashr etib turiladigan axborotlar majmui, jurnal, davriy kalendarlar;

*Ikkinchisi*, audiovizual ommaviy axborot vositalari radio, televideniye (*efirli va kabelli*) hujjatli kino, video ko'rsatuv;

*Uchinchisi*, axborot xizmatlari, telegraf agentligi, reklama byurosi, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqa qiluvchi agentlik, jurnalistlarning kasbiy klublari va uyushmalari.

Tuzilishi bo'yicha tavsif berilayotganda, internetni qaysi guruhga qo'shish kerakligi haqida savol paydo bo'ladi. Bu masalaga qarashlar har xil. Internet (*lotincha so'z bo'lib, inter-aro va net (work) – tarmoq degan ma'nolarni bildiradi*) – katta (*global*) va kichik (*lokal*) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimidir. Bu yangi tarmoq iste'molchilarga axborotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (*matn, tovush, video tasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va boshqa ko'rinishlarda axborot almashinishga imkon yaratadi*).

Internet faqat matnni emas, balki tasvirni, suratlarni, rasmlarni, tovush va videotasvirlarni uzatibgina qolmay, voqea yuz berayotgan joydan to'g'ridan-to'g'ri olib borishga ham qodir. O'zbekistonda internet faoliyati 1997-yilda boshlandi. Dastlab Naytov, Uznet yoki Istlink kabi provaydr kompaniyalar faoliyat boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2001) O'zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o'z mavqeiga ega bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda ma'lumotlarni uzatish milliy tarmog'i O'zPAK Davlat kompaniyasi va O'zNET tarmog'idan iborat.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, u xalqaro telefon tarmog'iga o'xshash hech kimga tobe emas va uni hech kim to'laligicha boshqarmaydi. Internet tarmog'idan barcha kompyuterlarning yagona umumiy tili – TSR/IP – tili deb nomlanadi va kompyuterdan foydalanuvchilar bu til orqali o'zaro muloqotda bo'ladilar.

Internet tarmog'ida elektron pochta (E – mayl) ham bor. Internetga ulanishning ikki yo'li bor: doimiy aloqa kanali va telefon bo'yicha. Birinchi yo'l qimmat, ammo aloqasi sifatli, ikkinchi yo'l arzon, ammo sifati uncha yuqori emas. Aloqa kanallari orqali internetga ulanishni ta'minlovchi tashkilot provayder deb ataladi.

Internetni hozircha ommaviy axborot vositalari tarkibiga kiritmagan yoki ommaviy axborot vositalari maqomi berilmagani holida kommunikatsion texnologiya deb yuritish maqsadga muvofiq.

“O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” nomidagi veb – sayt ochilgan. O'zbekiston ommaviy axborot vositalaridan «Правда Востока», «Народное слово», “BVV”, “Davr”, “Axborot” teledasturlari va hozir ish boshlagan “O'zbekiston 24” axboriy-tahliliy teledastur hokazo o'z veb – saytlariga ega.

Ommaviy axborot vositalari tarkibidagi birinchi guruhni bosma matbuot dedik. Uning o'ziga xosligi nimalardan iborat? Matbuotning o'ziga xos xususiyati uning o'z mazmunini yozma so'z orqali ifoda etishi hamda matn tahlilida radio va televideniye ga nisbatan tasviriy vosita ancha kamroq bo'lgani bilan ajralib turadi. O'qish jarayonining o'zi (shifrlangan shartli bosma harflarni o'qish) yuqori darajadagi abstrakt tafakkurga tasavvur etishda faol bo'lishga aqliy g'ayratga qaratish demakdir. Natijada muallif va o'quvchining o'zaro aloqasi mustahkamlanadi. Yana shuni ham aytish kerakki, matbuotning obro'-e'tiborini ommaviy aloqa genotipida mavjud ko'p yozma nutq madaniyati asoslanib turadi.

Va nihoyat, gazeta hamda jurnallar matni axborotlar xazinasini rolini o'ynashda juda qulay, ularni xohlagan paytda to'la o'rganish imkoniyati bor, ular bir yerda yig'ilgan bo'ladi, ulardan nusxalar ko'chirish oson kechadi va h.k.

Dunyo miqyosida televideniye hamda kompyuter aloqasining keng yoyilishi natijasida insoniyatning madaniy hayotiga aloqador yozma jurnalistikaning saqlash borgan sari muammoga aylanib bormoqda.

Zamonaviy radioning afzalliklari uning nafaqat g'oyatda tezkor aloqa vositalaridan biri ekani, nafaqat radioelektronika, radiofizikadek eng zamonaviy fanlarning asosi bo'lgani bilangina emas, balki uning ommaviy axborot vositasi, siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy vosita ekani bilan belgilanadi. Uning afzalliklaridan yana biri hammabopligi, hozirjavobligi, tezkorligi, chegara bilmashligi hamda texnik jihatdan oddiyligi, ishlab chiqarish jarayonining arzonligidir.

Qaysi shaklda namoyon bo'lmasin, "Jonli" efir – jurnalist bilan tinglovchi o'rtasidagi o'ziga xos muloqot bo'lib, u sodir bo'layotgan voqea – hodisalarning "Jonli" aksi, vaziyatning tub mohiyatini akustik shaklda yetkazib berish usulidir.

Radio ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, real hayotga yaqinlashib uning mazmuni va muhitini to'laqonli aks ettiruvchi, jurnalistikaning mafkuraviy xususiyatini ifodalovchi vositadir. Bu barcha radio eshittirish mahsulotlariga katta talab qo'yadi.

Shu borada O'zbekiston radiosining "Mash'al" kanali borasida biroz to'xtalsak. Bu davlat radiosi. Uning soat 9.00 dan 18.00 ga qadar olib borayotgan jonli muloqot dasturi o'zining jozibasi bilan ta'sirchan. Uning jonli muloqotda radio xazinasidan mumtoz va zamonaviy kuylardan, jumladan, "Cho'li iroq", "Munojat", "Chaman yalla", "Yetti go'zal", "Qalb sadosi" singari ohanglar bilan tinglovchilarning ma'naviy hayotda muhim o'rin tutayotgan, ular didini, sezgilarini, ko'nglini go'zallik va nafosat tuyg'ulari bilan boyitayotganini e'tirof etish kerak. Shu o'rinda soat 6.00 dan boshlab, ikki soat davom etadigan "Ertalabki panorama" axborot blokining axborotga boyligi va uning tezkorligi ham tinglovchilarga manzur bo'lganini e'tirof etish kerak.

Endi xususiy radiolar faoliyati haqida to'xtalsak. Mustaqillik sharofati bilan davlat tasarrufida bo'lmagan radiostansiyalar – "Grant", "Sezam", "O'zbekim taronasi", "Hamroh", "Oriyat" (Toshkentda), "Vodiy sadosi" (Andijonda), "Ey-El-Si" (Urgenchda), Navoiy kon-metallurgiya kombinati radiostansiyasi (Navoiyda) faoliyat ko'rsatmoqda. Bular ichida jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi hamda "Edelveys Ali" xususiy firmasining "Grand" radiostansiyasi o'z faoliyati bilan ajralib turadi. Eshittirishlarni tayyorlashda "Grand" xodimlari tinglovchilarning

yoshi, kasbi, qiziqishlari, milliy mentaliteti va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritishadi.

Eshittirishlar reytingni hisobga olish, kamchiliklarni tahlil qilish, yangi mavzular topish kabi izlanishlar tufayli “Grand” tinglovchilar mehrini qozonmoqda.

Afsuslanib, boshqa FM radiostansiyalar mundarijasi asosan musiqaviy-ko‘ngilochar yo‘nalishdan nariga o‘tmayotganini ham e’tirof etish kerak.

Televideniye, radio, kino, fotografiya, rassomlik san’ati, teatr va boshqa aloqa hamda ijodiy faoliyat vositalari imkoniyatiga ega bo‘lgan axborot tizimi, to‘g‘rirog‘i texnik san’at turlaridir. Uning imkoniyatlaridan to‘la va unumli foydalanish vaqti keldi.

Agar “Davlat teleradiokompaniyasiga qarashli kanallar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning saviyasi nisbatan qoniqarsiz ahvolda. Chunonchi, Rossiya teleko‘rsatuv va radio eshittirishlaridan farqli o‘laroq bizda jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro mavzularga bag‘ishlangan tahliliy ko‘rsatuvlar, bahs – munozaralar anchagina oz, borlari ham eng avvalo ta’sirchanlik borasida anchagina zaiif”.

Ammo, O‘zbekiston televideniyesining “Mehr ko‘zda” ko‘rsatuvi, “Yoshlar” telekanalining “Davr” axborot dasturi, “Interfutbol”, “Ring qirollari” kabi ko‘rsatuvlari tomoshabinlarga ma’qul bo‘layotganini e’tirof etish kerak.

Siyosatshunos Jaloliddin Hakimov – Respublika televideniyesi orqali namoyish etilayotgan ayrim audio – video mahsulotlar, reklamalar xalqimiz madaniyati va an’analariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. “Qonli sport”, “Politsiyachi – robot”, “Qotilning maktubi”, “Terminator”, “Ov mavsumi”, “Qotillik instinkti” singari ajnabiy badiiy filmlarda ozmuncha zo‘ravonlik, qotillik ko‘z – ko‘z qilinmayaptimi?! Ularni “Mijja qoqmay” tomosha qilayotgan yoshlarimiz ongida qanday jarayonlar kechayotganini kim tahlil qiladiyu, undan kim to‘g‘ri xulosa yasab, to‘g‘ri chora topadi?- degan juda o‘rinli savol tashlaydi.

Buning uchun malakali fikrlay oladigan, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan professional kadrlar kerak. Afsuski, bunday jurnalist kadrlarimiz bugungi kunda talab darajasidan ancha oz.



H.H.Niyoziy nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi Ilmira Raxmatullaeva: "Mamlakat hayotidagi har qanday munozarali masalalar aynan televideniye orqali (interaktiv televideniye) xalqning istak – irodasi bilan hal etilishi mumkinligi qo'shni mamlakatlar televideniylari uchun odatiy holga aylanayotganini ko'rib turibmiz. Bu masala o'ylashga arzigulik, mamlakat siyosatshunoslari, olimlari, jamiyatshunoslari, san'atshunoslari tomonidan ishlab chiqilishi zarur bo'lgan masalalarni biridir. Yangi asrda televideniye o'z zimmasiga yangi vazifalarni olmog'i lozim" deb yozadi. Lekin buning uchun Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tezlik bilan davr axborot sohasida yangi yagona davlat siyosatini ishlab chiqishi, axborot tarqatish imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.

O'zbekiston axborot agentliklari ham mafkuraviy jarayonlarda ishtirok etadi. Ular boshqa axborot vositalariga xizmat qiladi, to'g'rirog'i ularga tayyor va "xom" materiallar yetkazib beradi. O'zlari, odatda agar o'zlarining gazeta – jurnallari yoki teleradiokanallari bo'lmasa aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishmaydi. Axborot agentliklarining tuzilgani ommaviy axborot vositalari ishini ancha yengillashtirdi.

Hududlardagi turli voqealar haqidagi xabarlar tezkorlik bilan ommaviy axborot vositalariga yuboriladi.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi tasarrufidagi "Jahon" axborot agentligi, nodavlat axborot agentligi bo'lmish "Turkiston press" ommaviy axborot vositalarining boshqa turlariga axborot yetkazish bilan shug'ullanadi. 1996-yildan e'tiboran yirik kompyuter tizimi, ya'ni keng ko'lamlı jahon axborot tizimi bo'lmish "Internet"ga ulangan respublika ommaviy axborot vositalari undan eng so'nggi yangiliklarni qabul qilib olishi yo'lga qo'yildi.

**O'zbekiston Milliy axborot agentligi** O'zbekiston Prezidentining 1992-yil 5-fevraldagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Shu yillar orasida u tubdan o'zgardi. Eng muhimi o'zgarish O'zA tayyorlanayotgan materiallarning mazmun-mohiyatidagi o'zgarish bo'lib, ular ona tilimizda tayyorlanayotganidir. O'zA bir kecha – kunduzda turli kanallar orqali o'rtacha mingdan ortiq xabar oladi va ular qayta ishlanib, saralanib iste'molchilarga o'zbek, ingliz va rus tillarida uzatiladigani bir

necha yuzga yetadi. Qolganlari keyinchalik kerak bo'lib qolishi mumkin degan sabab bilan o'zlarida qoladi.

**“Jahon” axborot agentligi** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 8 – noyabrdagi qarori bilan Tashqi ishlar vazirligi huzurida tashkil etildi. qarorda agentlik zimmasiga xorijda keng hamkorlikka chorlovchi, respublikaning salohiyatini ochib beruvchi axborot byulletenlari, ma'lumotnomalarini tarqatish singari va ko'plab vazifalar yuklandi.

“Jahon” axborot agentligi tarqatayotgan kundalik axborotlar Vatanimiz bilan xorij mamlakatlarini bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tamoqda. 1996- yilda o'zbek jurnalistikasi tarixida olamshumul voqea sodir bo'ldi – xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning o'z muxbirlari faoliyat ko'rsata boshladi. Bunday sharaflari va ayni paytda juda mas'uliyatli bo'lgan yumush “Jahon” axborot agentligi jurnalistlariga nasib etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 19-martdagi Farmonida O'zbekistonning hukumatga qarashli bo'lmagan ommaviy axborot vositalari davlat va davlat tasarrufida bo'lmagan tashkilotlardan iborat tashabbus guruhining, “Turkiston press” davlat tasarrufida bo'lmagan axborot agentligini tashkil etganliklari ma'qullanadi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarini kengaytirish va erkinligini ta'minlash, ularni bozor iqtisodiyoti hamda demokratik tamoyillar asosida isloh etishni kuchaytirish, shuningdek O'zbekistonning jahon axborot bozoridan o'ziga mos o'rinni egallashiga erishish, respublika hayoti haqida xolis axborotni dunyoga tezkor tarqatish tizimini yaratish, aholining jahon miqyosidagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

Jurnalistika adabiyot va san'atga yaqin turadi, birgalikda ish olib boradi va adabiyot hamda san'atning hayotni aks ettirish usullaridan keng foydalanadi. Masalan, ommaviy axborot vositalarining muhim hajviy jurnalistika turi tasviriy san'atning muhim sohasi bo'lgan karikaturadan keng foydalanadi va bu san'at turlari ommaviy axborot vositalari janrlariga aylanib ketadi. Jurnalistikaning ham adabiyotning ham asosiy quroli so'z bo'lgani bois, ular bir – birlariga juda yaqin egizak sohalar desak

mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyot ijtimoiy hayotni badiiy obrazlar orqali aks ettirsa, jurnalistika ya'ni matbuot ijtimoiy hayot voqealarini asosan fikrlar, dalillar asosida yoritishi bilan belgilanadi. Lekin ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi omil ham bor. Bu har ikki o'ziga xos ijtimoiy hodisani sintez qiluvchi bir muhim soha bor. Bu publitsistikadir. "Publitsistika shu zamon muammolarini shu zamon kishilariga yetkazish, shu zamon muammolariga jamoatchilik fikrini uyg'otish maqsadiga xizmat qiluvchi ijod turi" degan fikrga qo'shilamiz.

Jurnalistika singari publitsistika ham turli turlarga, xillarga bo'linib ketadi. Bu haqda keyingi boblarda mukammal to'xtalamiz.

### **Jurnalistik faoliyat va uning ko'rinishlari bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jurnalistik faoliyatning mohiyatini ayting.*
2. *Jurnalistik faoliyatning falsafiy ma'nosini izohlab bering.*
3. *Insonning dunyoni bilishi hamda tajribaga ega bo'lishidagi asosiy vosita nima?*
4. *Jamiyatni boshqarishda o'ziga xos turdagi axborotni sanang.*
5. *Ijtimoiy axborotni sharhlab bering.*
6. *Yangiliklarning uzluksiz oqimini uzatadigan G'arb OAV ni bilasizmi?*
7. *Axborotlarni qanday asosiy guruhlar qabul qilib oladi?*
8. *Axborot olish, tarqatish borasidagi demokratik huquqlar qaysi asosiy hujjatda o'z ifodasini topgan?*
9. *Qaysi san'at turlari OAV janrlariga aylanib ketadi?*
10. *Jurnalistika bilan adabiyotni sintez qiluvchi sohani ayting?*

### **Jurnalistik faoliyat va uning ko'rinishlar bo'yicha nazorat savollari**

1. *Axborot tarqatish so'zining asl ma'nosini ayting.*
2. *Axborot qanday hosila?*
3. *Inson oladigan axborot turlarini sanang.*
4. *"Axboriy axborot" degan atamani sharhlang.*

5. *Ma'naviy-shaxsiy, kasbiy-funksional, iste'molchilikka yo'naltirilgan guruhlarni ayting?*

6. *Matbuotning falsafiy mohiyatini ayting.*

7. *Jurnalistikaning sohalari va xillarini sanab bering.*

## 2.2. O'zbek jurnalistikasi tasnifi va tarkibi

Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritarkan, o'zining tub mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy axborot yig'ish, ishlash va tarqatishdek funksiyasidan tashqari, ijtimoiy fikrni shakllantirishda aholiga xolis va haqqoniy axborot berishdek g'oyatda muhim funksiyani ham bajarishi lozim. Jurnalistika tarixiga oid asarlarda jurnalistikaning dastlabki kurtaklari eramizdan oldingi davrlarda Xitoyda loydan va keyinchalik Rimda gipsdan yasalgan taxtachalar, Yaponiyada sopolga o'yilib xumdonda pishirilgan maxsus ma'lumotnomalardir deb ko'rsatiladi. Bu nashrlar o'z-o'zidan ommalashmadi, chunki ularning adadini ko'paytirish va tarqatish o'ta noqulay bo'lgan. Keyinchalik qog'oz ixtiro qilinishi bilan bunday nashrlar o'rnini qo'lyozma varaqalar egallay boshladi.

O'zbek jurnalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida qo'lyozma varaqalar ma'lum o'rin egallab kelgan. Chunonchi, hali o'zbek jurnalistikasi tub ma'noda shakllanmagan bir paytda uning funksiyasini bajargan o'zbek demokratik adabiyotining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar o'z zamonining ijtimoiy illatlarini fosh etgan hajviy she'rlarini qo'lyozma holida tarqatganlar, ko'pchilik ko'radigan joylarga osib, yopishtirib qo'yganlar. (*Masalan, Zavqiyning mashhur "Ahli rasta hajvi" she'ri*).

Bundan ko'rinib turibdiki, qo'lyozma varaqalar ham o'z davrida muhim axboriy ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni bajargan. Yuqorida keltirilgan misollar esa matbuotning dastlabki ko'rinishi qo'lyozma varaqalar shaklida paydo bo'lgan, deyish uchun asos bo'la oladi. Demak, qo'lyozma varaqalar hali tub ma'nodagi matbuot paydo bo'lgunga qadar uning dastlabki turi, ko'rinishi sifatida xizmat qilgan.

Jamiyat taraqqiy etish bilan qo'lyozma varaqalar (qo'lda yozilishi va ko'paytirilishi qiyinligi boisidan) talabga javob bermay qoldi. Fan-

texnikaning o'sishi va bosma dastgohning ixtiro qilinishi tom ma'nodagi matbuotning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday qilib, gazeta matbuotning asosiy turiga aylandi, hamda ijtimoiy axborot yetkazishning muhim vositasi sifatida jamiyat hayotidan o'z munosib o'rnini oldi. Turgan gapki, jamiyatdagi hukmron sinflar va tabaqalar gazetadan o'z maqsad va manfaatlari yo'lida foydalana boshladilar. Ma'lumki, gazeta dastlab jamiyatda yakka hukmdorlar davrida vujudga keldi va shu boisdan ularning ta'sirida ish ko'rdi.

O'lkamizdagi ilk gazeta – “Turkiston viloyatining gazetasi” ham Turkistonni bosib olgan podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilganligi ma'lum. Keyinchalik, hokimiyat tepasiga kelgan burjuaziya hukmdorligi davrida gazetachilik har taraflama taraqqiy etdi, bunga sabab burjuaziya sinfi gazetadan ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan foyda olaboshladi. Ya'ni, bu davrga kelib, gazeta ham bozor mahsuloti, foyda keltirish manbaiga aylandi.

Keyinchalik jamiyatda gazetaning roli yanada oshdi. XX asrning o'rtalarida mafkura maydoniga kirib kelgan kommunistik ta'limot ham o'z g'oyalarini ommaga singdirish uchun gazetadan keng foydalandi. Unga qarama-qarshi ravishda erkin dunyo matbuotining ifodasi bo'lgan gazetachilik ham o'sdi, taraqqiy etdi. Umuman olganda, matbuotning ilk ko'rinishi bo'lgan gazetalar ijtimoiy-siyosiy manfaatlardan tashqari umuminsoniy madaniy taraqqiyotga ham muhim hissa qo'shdi. Gazetalar o'zbek jurnalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida eng ilk va hammabop turi bo'lib yuzaga keldi va shunday bo'lib qoldi.

Ammo gazeta insoniyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun qanchalik xizmat qilmasin jamiyat taraqqiyoti yana bir matbuot turiga ehtiyoj sezdi, natijada yana yangi bir matbuot turi dunyoga keldi, u-“jurnal” deb nom oldi. Bu so'z fransuzcha “Journal”- “kundalik” degan ma'noni bildirsada, aslida har kuni emas - ko'proq muddatda - bir oyda bir marta chiqib turadigan matbuot turiga aytiladigan bo'ldi. Xo'sh jurnalning kelib chiqishiga sabab nima, uning jurnalistika tasnifidagi o'rnini qanday? Jurnal gazetadan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotining ichki, chuqur qatlamlarini o'zida aks ettiruvchi matbuot nashridir. Insoniyat

jamiyatining taraqqiyoti, inson aql-tafakkurining rivojlanishi natijasida ana shunday matbuot turiga ehtiyoj sezildi. Shu bilan birgalikda mavjud sinflar, tabaqalar o'zlarining chuqur ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, huquqiy, ma'naviy-estetik qarashlarini ishlab chiqish zaruratini sezidilar. Gazetalarning imkoniyatlari esa bunga yo'l bermadi, shu boisdan jurnal kelib chiqdi. Birinchidan jurnal Yevropada dunyoga keldi, bu – 1655-yilda Parijda nashr etilgan “Journal de Savans” (“Olimlar jurnali”) bo'lib, unda adabiyot, falsafa va tibbiy fanlarga doir kitoblarga sharhlar bosilar edi. Xuddi shu davrda Angliyada falsafaga bag'ishlangan ilmiy jurnal nashr etildi. Rossiyada birinchi jurnal 1752-yilda “Vedomosti” gazetasiga ilmiy ilova sifatida chiqariladi. Turkistonda chiqqan birinchi jurnal 1913-yilda nashr etilgan “Oyina” bo'ldi.

Shunday qilib, jurnal ham matbuot tasnifida mustahkam o'rin oldi va insoniyat tafakkurini o'stirishda, jamiyatda ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning taraqqiy etishida, adabiyot va san'atning rivojida muhim rol o'ynadi.

Jamiyatdagi mavjud sinflar, tabaqalar, guruhlar jurnallardan o'z maqsad va manfaatlari yo'lida, ichki qarash va g'oyalarni ishlab chiqish hamda ommaga yetkazish uchun foydalandilar. Masalan, g'oyaviy yakka hokimlik tarafdorlari jurnalni o'z qarashlarini keng yoyish uchun vosita deb bilsalar, jahondagi ilg'or fikr va qarashlarga tayanuvchi kuchlar jurnal orqali umuminsoniy, taraqqiyparvar g'oyalarni ommaga yetkazadilar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat ko'rsatgan jadid ma'rifatparvarlari o'z jurnallari orqali taraqqiyparvarlik, milliy ozodlik tushunchalarini omma ongiga singdirdilar. Jurnal vaqtli matbuotning asosiy turlaridan biri sifatida insoniyat ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin oldi.

Matbuotning jamiyat hayotidagi ahamiyati shu qadar kattaki, insoniyat kashf etgan har bir yangilik, har bir imkoniyat matbuot uchun qo'llaniladi, ya'ni ommaga axborot tarqatishning har qanday usuli - u xoh bosma so'z, xoh og'zaki bo'lsin matbuot sifatida foydalanish mumkinmi - yo'qmi sinab ko'riladi. Shunga binoan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida jurnalistikaning mavjud tasnifiga uning butunlay yangi turi - radio kirib keldi. Radio so'zi, yunoncha “radio”- nur taratish degan ma'noni bildiradi.

Radio matbuotining o'ziga xos elektron texnikaga asoslangan alohida bir turidir. Radio - tub ma'noda matbuot emas, ya'ni so'zni bosma usuli bilan ko'paytirish emas, balki "og'zaki", elektron texnika yordamida ko'paytirish, uzoq masofaga, keng hududga tarqatish orqali ish ko'radi. Radioning ana shu xususiyati, ya'ni matbuot tasnifiga bevosita sig'maganligi boisdan u qo'shilgandan so'ng, bu tasnif - ommaviy axborot vositalari deb yuritila boshlandi. Ammo radio ham o'z mohiyati bilan jurnalistikaning bir turi hisoblanadi, jurnalistika qoidalari asosida ish ko'radi. O'zbekistonda birinchi radio eshittirish 1927-yil 11 - fevralda efirga chiqarildi. Shunday qilib, radio ommaviy axborot vositalari tizimini boshlab berdi va jurnalistika tasnifida ham insoniyatning madaniy - ma'naviy hayotida mustahkam o'rin oldi. Radio ijtimoiy axborot tarqatishning eng qulay, tezkor va o'ziga xos vositasi sifatida insoniyatga katta xizmat qilib kelmoqda.

Matbuot doimo jamiyat bilan birgalikda taraqqiy etadi, takomil topadi. XX asrning o'rtalariga kelib, jurnalistika tasnifida katta bir yangilik, sifat o'zgarishi yuz berdi - televideniye ixtiro qilindi. Bu buyuk kashfiyotning dunyoga kelishida turli mamlakatlardagi ko'pgina olimlar, mutaxassislar bilan bir qatorda toshkentlik tadqiqotchilar B.Grabovskiy va V.Belyanskiylar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Televideniye - uzoqdan ko'rish degan ma'noni bildiradi. Televideniye radiodan farqli ravishda faqat ovoznigina emas - bir vaqtning o'zida tasvirni ham ko'paytirib, uzoq masofa va keng hududga yoyish imkoniyatini beradi. Televideniye paydo bo'lishi bilan ijtimoiy hayotni gazeta va jurnaldagi kabi so'z orqali tasvirlash, radiodagi kabi ovoz orqali ifodalash emas, balki bevosita ko'rsatish imkoniyati tug'ildi.

Bu esa televideniye matbuot turlari orasidagi rolini yuqori ko'tardi. Televideniye o'z faoliyatida ijtimoiy axborot berish, voqea va hodisalarni bevosita ko'rsatish jarayonida kino, teatr, musiqa va boshqa san'atlar vositasidan ham keng foydalana olishi uning ommaviyligi, jozibasining oshishiga sabab bo'ldi. Televideniye tub ma'noda matbuot bo'lmasa-da (ya'ni so'zni bosma usuli bilan ko'paytirish asosida ish olib bormasa-da) matbuotning elektron texnikaga asoslangan turi bo'lib, u ham ijtimoiy axborot yig'ish va tarqatishning qonun-qoidalari amal qiladi. U

insoniyat ma'naviy dunyosini yanada boyitdi, sermazmun qildi, kino, teatr va san'atning boshqa qator turlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jamiyatdagi hukmron tabaqalar, guruhlar televideniya o'z g'oyaviy manfaatlari yo'lida keng foydalana boshladilar. Ko'rinishi, ommaga ta'sir qilish vositalari, imkoniyatlari turli xil bo'lgan bu to'rt turdan iborat ommaviy axborot vositalarini birlashtirib turuvchi narsa – ularning ijtimoiy axborot yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanishi va o'z faoliyatlarida matbuotning ichki, obyektiv qonun-qoidalari bilan ish ko'rishidir.

Ommaviy axborot vositalari tasnifiga uning yuqoridagi to'rt ko'rinishidan tashqari axborot agentliklari ham kiradi. Axborot agentliklari matbuotning bevosita turi, ko'rinishi bo'lmasa-da, ommaviy axborot tasnifida o'ziga xos o'rin egallaydilar va matbuot turlari orqali namoyon bo'ladilar, axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari uchun axborot yetkazib beruvchi alohida bir kanal, muassasa hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari tasnifida kitob va kitob nashriyotlari ham alohida o'rin tutadi. Kitob aslida vaqtli matbuot turi emas, ammo ko'p jihatdan vaqtli matbuotga yaqin turadi. Kitob ham matbuot turlari singari ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiradi va insoniyat ma'naviy hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, kitobda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti, inson aql - tafakkurining barcha qirralari aks etadi. Shu bilan birgalikda kitobda matbuotga xos bo'lgan xususiyatlar ham mavjud. Shu boisdan kitob nashriyotlari matbuot tasnifini to'ldirib turadi.

XX asrning boshlariga kelib ommaviy axborot vositalari yana bir ko'rinish, elektron texnikaga asoslangan alohida bir tur bilan boyidi. Bu insoniyatning ajoyib mo'jizaviy ixtirosi bo'lgan elektron mashinalar-kompyuterlarning xalqaro tarmog'i- Internetdir. Dastlab elektron-hisoblash mashinalari sifatida ixtiro etilgan kompyuter apparati tarmoqlaridan keyinchalik ijtimoiy axborot tarqatish borasida ham foydalanish boshlandi. Internet orqali ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy-badiiy, san'at, sport va boshqa sohalarga doir turli xabarlarni yetkazish amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, kompyuterlar tarmog'i orqali faqat matn - xabarlarinigina emas, turli suratlar, musiqa asarlarini tarqatish ham mumkin bo'lganligi



Internetning ahamiyatini yanada oshiradi. Internet- hudud bilmas masofa va kengliklar osha axborot va turli ma'lumotlar tarqatib ommaviy axborot vositalari tasnifida o'ziga xos oldingi o'rinlardan birini egalladi va u tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda.

O'z mustaqilligiga erishgan O'zbekistonda jurnalistikaning yuqorida qayd etib o'tilgan barcha ko'rinishlari mavjud. Respublikamiz gazetachilik, jurnalchilikning keng tarmog'iga ega, o'zbek radiosi va televideniyesi ham tobora taraqqiy topib bormoqda.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan to'rt axborot agentligi va kitob nashriyotlari ham ommaviy axborot vositalari tasnifini to'ldirib turibdi. Bularga yana Internet tarmog'ining qo'shilishi respublikamiz ommaviy axborot vositalarini yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Bularning barchasi dunyodagi kabi mamlakatimizda ham ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan darajaga kelishiga imkon yaratdi. Mamlakatimizda juda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalarining roli tobora oshib, ijtimoiy hayotda o'ziga xos "to'rtinchi hokimiyat" mavqeini egallab bormoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan va keng qo'llanilayotgan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi "yangi tahriri" va boshqa muhim qonunlar ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

### **O'zbek jurnalistikasi tasnifi va tarkibi bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Ommaviy axborot vositalarining vujudga kelishi va insoniyat tarixi.*
- 2. Matbuotning dastlabki ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.*
- 3. Dastlabki qo'lyozma varaqalar haqida qanday ma'lumotga egasiz?*
- 4. Yozma adabiyot namunalari haqida matbuot materiallari funksiyalarini ajratganliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni izohlang.*
- 5. Bosma dastgoh qayerda va qachon ixtiro qilindi?*
- 6. Birinchi bosma nashrlar qayerda va qachon paydo bo'ldi?*
- 7. Gazeta va jurnallarning vujudga kelishiga nima sabab bo'ldi?*
- 8. Ommaviy axborot vositalarining keyingi taraqqiyoti haqida so'zlab bering.*

## O'zbek jurnalistikasi tasnifi va tarkibi bo'yicha nazorat savollari

1. *Jurnalistikaning ijtimoiy institut sifatidagi faoliyati.*
2. *O'z zamonining ijtimoiy illatlarini fosh etgan shoirlar faoliyati.*
3. *Tom ma'nodagi matbuotning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan manbalarni ayting.*
4. *Gazeta dastlab qachon vujudga kelganini bilasizmi?*
5. *"Turkiston viloyatining gazetasi" kimlarga xizmat qildi?*
6. *Gazetaning jurnaldan farqi nimada?*

### 2.2.1. GAZETA

Ma'lumki, jurnalistika yoki ommaviy axborot vositalari asosan gazeta, jurnal hamda jurnalistikaning elektron texnikaga asoslangan radio va televideniye, internet kabi ko'rinishlaridan iborat.

Gazeta - jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy - ishlab chiqarish va madaniy - ma'naviy hayotini aks ettiruvchi ommaviy axborot turi. Uning asosiy vazifasi o'quvchini jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayoti haqida axborot berish, bo'layotgan voqea va hodisalardan xabardor qilishdir. Gazeta jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olarkan, shu kunning tarixini butun to'laligi bilan aks ettiradi. Gazeta o'quvchiga dunyoni bildiradi, uning ongini oshiradi, ma'naviy oziq beradi, ijtimoiy faoliyatini yo'naltiradi va faollashtiradi. Gazeta umuminsoniy madaniyatning hosilasi va uni taraqqiy ettiruvchi muhim omildir. Gazeta jamiyatdagi uch ijtimoiy tuzilma — qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatidan keyin to'rtinchi hokimiyat sanaluvchi jurnalistikaning asosiy o'zagi hisoblanadi. Jamiyatdagi turli tabaqalar, sinflar, partiyalar o'zlarining shu kundagi, ayni zamondagi manfaat va qarashlarini ishlab chiqish, ommaga yetkazish va muxolif guruhlariga qarshi kurashda gazetadan keng foydalanadilar.

Gazeta vaqtli jurnalistikaning eng asosiy, eng qulay turidir. Shuning uchun ham u ommaviy axborot vositalari orasida eng asosiy, bosh o'rinni egallaydi. Uni qayta —qayta o'qish, qo'ldan —qo'lga o'tkazish, saqlab qo'yish mumkin, zero, u moddiydir, ya'ni, hujjat xususiyatiga egadir. Bu jihatdan u oniylik xususiyatiga ega bo'lgan radio va televideniye

oldinda turadi. Gazetaning chiqarilishi va tarqatilishi ham boshqa ommaviy axborot vositalariga qaraganda qulay va osonroqdir. Uning jurnalistika tasnifida bosh o'rinni egallashi faqat shundagina emas, balki gazetaning hayotning barcha sohalariga aralashishi va chuqur kirib borishida hamdir. Unda ijtimoiy hayot jurnalistikaning boshqa ko'rinishlariga qaraganda tezkor va har taraflama o'z aksini topadi.

Gazetaning jurnalistika tasnifida birinchi o'rinda turganligi uning tarixidan ham kelib chiqadi. Ya'ni, gazeta jurnalistikaning eng qadimgi, eng ilk turidir. U o'zidan oldingi jurnalistikaning ilk kurtaklari – sopol va gipsdan yasalgan taxtachalar yoxud keng ommalashgan qo'lyozma varaqalarning qonuniy vorisi sifatida paydo bo'ldi. Uning nomi ham o'zidan oldingi qo'lyozma varaqalar (Venetsiyada chiqarilgan va «gatsetta» degan tangaga sotilgani uchun «gazeta» deb nom olgan) dan olinganligi ham buni isbotlaydi.

Gazetalarning paydo bo'lishida jurnalistikaning texnik asosi – bosma dastgohning ixtiro qilinishi asosiy rol o'ynaydi. Birinchi bosma gazetalar XVII asrning boshlarida Yevropada paydo bo'ldi. Bular – 1609-yilda Germaniyada nashr etilgan «Aviso», «Oder Zeitung» gazetolari, 1622-yilda Angliyada dunyo yuzini ko'rgan «Weekly News from», 1631-yildan e'tiboran Parijda chiqa boshlagan «La gazette» gazetolari edi. AQShda birinchi bosma gazeta 1690-yilda chiqdi. Rossiyada nashr etilgan birinchi bosma gazeta rus podshosi Petr I tomonidan chiqarilgan «Ведомости» gazetasidir. Turkistonda paydo bo'lgan ilk gazeta esa 1870-yildan e'tiboran chiqa boshlagan rus tilidagi «Туркестанские ведомости» va uning o'zbek tilidagi ilovasi — “Turkiston viloyatining gazetasi” edi.

Insoniyat tarixida vujudga kelgan har bir gazetaning dunyo yuzini ko'rishi uchun bir tomondan kishilarning axborotga bo'lgan talabi asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan biror yakka hukmdorning yoki guruhning ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy va iqtisodiy ehtiyoji turtki bo'lgan. Yakka hukmronlik o'rninga kelgan erkin ish ko'rish jamiyati davrida gazetachilik misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi, chunki, u davrda ijtimoiy - siyosiy manfaatlar qatorida iqtisodiy manfaatlar - foyda olish yo'lida ham xizmat qila boshladi. Ammo u yoki bu mamlakatda faoliyat ko'rsatgan ilg'or fikrli, taraqqiyparvar kuchlar gazetadan

o'zlarining ijtimoiy qarash va g'oyalari shakllantirish va ommaga yetkazish uchun foydalandilar. Bunga misol sifatida XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan taraqqiyparvar jadidchilik harakati va uning jurnalistikasini olib ko'rishimiz mumkin. Turkistonning ilg'or fikrli ziyolilari bo'lgan jadidlar o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari xalqqa yetkazish uchun «Taraqqiy», «Xurshid», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi I'arg'ona», «Samarqand» kabi gazetalarni nashr etdilar. Bu gazetalar boshida xalqimizning asl farzandlari M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Cho'lpon va boshqalar turdilar.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, jahon mafkura maydoniga kirib kelgan kommunistik ta'limot tarafdorlari ham gazetadan o'z g'oyalari ommaga yoyish uchun foydalandilar. K.Marks va F.Engels tomonidan 1848-yilda Germaniyada nashr etilgan «Yangi Reyn gazetasi», V.I.Lenin boshchiligida chiqarilgan «Искра», «Правда» va boshqa gazetalar shular jumlasidandir. Kommunistik gazetachilik 1917-yil rus proletar o'zgarishidan keyin juda keng yo'lga qo'yildi. Bu hol Rossiyaning mustamlakasi sifatida qolgan O'zbekistonda ham yuz berdi. Ammo insoniyat yetmish yildan ortiqroq davom etgan yakka g'oya hukmronligiga asoslangan kommunistik tuzum va uning jurnalistikasini rad etdi. Kommunistik jurnalistikaga qarama-qarshi ravishda dunyoning erkin mamlakatlarida erkin jurnalistika ham faoliyat ko'rsatib keldi va uning asosiy qismini gazetalar tashkil etdi. Hozirga kelib, dunyoda qariyb o'n mingga yaqin nomda kundalik gazetalar nashr etiladi.

O'z milliy mustaqilligiga erishgan respublikamizda gazetachilikka katta e'tibor berilmoqda. Hozirga kelib respublikamizda bosma nashrlar soni mingdan ortib ketdi. O'zbek gazetachiligi ham son, ham sifat jihatidan o'sdi, takomilga erishdi. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan respublika gazetolari ommaga keng miqyosda axborot yetkazib bermoqda, mamlakatimizda katta jabhada olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Gazetada jurnalistikaning barcha ichki qoidalari o'z ifodasini topadi. Gazeta jurnalistikaning asosiy ijtimoiy vazifalarini to'la bajaradi, u ommaga ijtimoiy axborot yetkazib beradi, jamiyatda bo'lib turgan voqea

va hodisalarni tasvirlaydi, tahlil etadi va jamiyatga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Gazeta ijtimoiy hayotni yoritishda o'zidan keyin turuvchi jurnal bilan o'zaro munosabatga kirishadi, ular o'rtasida ma'lum darajada "mehnat taqsimoti" o'rnatiladi. Bunda gazeta ko'proq (75 foizga yaqin) tasvir ijtimoiy vazifasini bajarib, tahlil ijtimoiy vazifasining asosiy qismini jurnalga qoldiradi. Ya'ni, gazeta shu kunda, ayni zamonda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy voqea va hodisalarga asosiy e'tiborini qaratadi, ko'proq axborot berish bilan shug'ullanadi. Ammo, bu gazeta jamiyat hayotini tahlil etishda ishtirok etmaydi, degan ma'noni bermaydi, balki, u ham bu ijtimoiy vazifani bajarishda o'z maydoni, imkoniyati darajasida qatnashadi. Shuningdek, har bir tasviriy axboriy materialda ham tahlil unsuri mavjud bo'ladi. Gazeta shu bilan birgalikda jurnalistikaning ta'sir ijtimoiy vazifasini bajarishda ham ishtirok etadi, hayotni tasvir va tahlil etibgina qolmasdan, unga bevosita va bilvosita ta'sir ham qiladi. Gazeta jurnalistikaning bosh tamoyillari – umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik, haqqoniylik va boshqa qoidalariga ham bo'ysunib ish ko'radi. An'anaviylik va yangi omillar yaratish qonuniyatiga amal qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va jurnalistikaning boshqa qonun-qoidalari ham gazeta uchun bevosita taalluqlidir. Jurnalistikaning yuqoridagi barcha qonun va qoidalari avvalo gazeta faoliyatida shakllanganligi boisidan ham u jurnalistika tasnifining asosiy markazida turadi.

Gazeta sahifalarida hayotni aks ettirishning alohida turi bo'lmish publitsistikaga keng o'rin beriladi. Gazetada publitsistikaning axboriy (xabardor qiluvchi) qismi va uning janrlari – xabar, reportaj, korrespondensiya (kichik maqola) va boshqalar keng o'rin oladi. Shuningdek, publitsistikaning tahliliy va badiiy-publitsistik turlari ham gazetada keng qo'llaniladi. Gazeta o'z sahifalarida fotojurnalistika va rasmchilikdan ham keng foydalanadi.

Ommaviy axborot vositalarining muhim turi bo'lgan gazetalar o'z navbatida turli xillarga bo'linib ketadi. Ular avvalo ijtimoiy hayotni yoritish nuqtai nazaridan uchga bo'linadi:

1. Umumsiyosiy gazetalar;

2. Ixtisoslashgan gazetalar;

3. Tarmoq gazetolari.

1. Umumsiyosiy gazetalar ijtimoiy hayotni umumsiyosiy nuqtai nazardan, ya'ni, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotining bosh, ko'pchilik uchun zarur masalalarini yoritadi, hamda har bir hududdagi aholining ko'pchiligi uchun mo'ljallab chiqariladi. Dunyodagi aksariyat gazetalar umumsiyosiy gazetalar sanaladi. Bunga misol qilib AQSh da chiqadigan «Vashington post» («Vashington pochatasi»), «Nyu-York tayms» («Nyu York vaqti»), «Baltimor san» («Baltimor quyoshi»), «Uoll-strit djornel» («Uoll-strit gazetasi»), Angliyada chiqadigan «Gardian» («Posbon»), «Deyli Mirror» («Kundalik oyna»), «Observer» («Kuzatuvchi»), «Tayms» («Vaqt»), «Sandi tayms» («Yakshanba vaqti»), Germaniyada chiqadigan «Berliner saytung» («Berlin gazetasi»), «Frankfurter Allgemeine Tsaytung» («Frankfurt suratli gazetasi»), «Di Tsayt» («Vaqt»), «Di velt» («Olam»), Fransiyada nashr etiladigan «Figaro», «Mond» («Olam»), «Liberatsion» («Ozodlik»), «Yumanite» («Insoniyat»), Yaponiyada chiqib turuvchi «Asaxi» («Quyosh»), «Tokio simbun» («Tokio gazetasi»), Xitoyda chiqadigan «Jenmin jibao» («Xalq gazetasi»), Hindistonda chiqadigan «Hindustan tayms» («Hindiston vaqti»), Turkiyada nashr etiladigan «Jumhuriyat» («Respublika»), «Milliyat» («Millat»), Rossiyada chiqadigan «Известия», «Правда», «Труд» kabi gazetalarni ko'rsatish mumkin.

Umumsiyosiy gazetalar qaysi tashkilot tomonidan chiqarilishiga qarab, rasmiy (hukumatga qarashli), partiya yoki jamoat tashkilotlari gazetolari hamda mustaqil gazetalar bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib, respublikamizda chiqadigan rasmiy – «Xalq so'zi», «Правда Востока», partiya gazetolari – «O'zbekiston ovozi», «Adolat», «Milliy tiklanish», «Fidokor», mustaqil gazeta – «Hurriyat» kabilarni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birgalikda umumsiyosiy gazetalar kattalar uchun (yuqoridagi misollar) yoshlar uchun — «Kamolot» yoshlar harakati gazetasi – «Turkiston», bolalar uchun «Tong yulduzi» kabi bo'lishi mumkin. O'zbekistonda Markaziy Kasaba uyushmalari idorasining gazetasi – «Ishonch», Mudofaa vazirligi organi – «Vatanparvar» gazetolari ham

ko'pchilik uchun mo'ljallab chiqarilishi boisidan umumsiyosiy sanaladi. Umumsiyosiy gazetalar shu bilan birgalikda viloyat, shahar, tuman, korxonalar va tashkilotlar gazetalarini ham bo'lishi mumkin.

Hattoki, ayrim muassasalar, oliy o'quv yurtlari, ta'lim maskanlarida chiqariladigan devoriy gazetalar ham ko'pchilikka mo'ljallanganligi boisidan umumsiyosiy hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, umumsiyosiy gazetalar gazetalarining asosiy qismini tashkil etadi, hamda, jamiyat hayotining barcha sohalarini va barcha hududlarini qamrab oladi. Ixtisoslashgan gazetalar — jamiyat hayotining katta bir sohasini kengroq yoritish uchun maxsus chiqariladi hamda ana shu sohada ishlovchi, shu sohaga aloqador kishilar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Dunyo gazetalarini orasida ham ayrim ixtisoslashgan gazetalar uchraydi. Bunga misol qilib, Angliyada chiqadigan «Faynenshl tayms» («Moliya vaqti») deb ataluvchi moliya-iqtisod masalalariga bag'ishlangan gazeta, Fransiyada nashr etiladigan «Lettr fransez» («Fransiya adabiyoti»), Yaponiyada chiqadigan «San-key simbun» («Sanoat va iqtisod gazetasi»), Rossiyadagi «Литературная газета», «Экономическая газета» va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda chiqariladigan va qishloq xo'jaligi sohasida xizmat qiluvchi va qishloqda yashovchi kishilar hayotini yoritishga mo'ljallangan «Qishloq hayoti», ta'lim-tarbiya, oliy o'quv yurtlari sohasini yoritish uchun mo'ljallab chiqarilayotgan «Ma'rifat» kabi gazetalar ixtisoslashgan gazetalar hisoblanadi. Bu xil gazetalar umumsiyosiy gazetalardan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarini umuman yoritgani holda o'zi uchun mo'ljallangan sohani keng va batafsil yoritadi. Adabiyot, san'at, madaniyat sohalarini keng yoritishga mo'ljallangan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», iqtisodning muhim masalalarini yoritish uchun nashr etiladigan «Mulkdor», oila hayotini yorituvchi «Oila va jamiyat<sup>2</sup>, sportning barcha sohalarini yorituvchi «Sport» gazetalarini ham ixtisoslashgan gazetalar qatoriga qo'shish mumkin. Ayrim ixtisoslashgan gazetalar ijtimoiy hayot masalalariga ham keng to'xtalishi sababli umumsiyosiy gazetalariga yaqin turadi. (masalan, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi).

Ixtisoslashgan gazetalar jamiyat hayotining ayrim tomonlarini kengroq yoritib, umumsiyosiy gazetalarni to'ldirib keladilar. Ixtisoslashgan gazetalar odatda markaziy gazetalar hisoblanadi, faqat, ayrim viloyatlardagina bunday maxsus gazetalar chiqarilishi mumkin.

3. Tarmoq gazetolari – jamiyat hayoti, mamlakat iqtisodiyoti yoki tashkiliy tuzilmalarining ayrim tarmog'ini kengroq yoritish uchun nashr etiladi. Bunday gazetalar, odatda biron-bir soha bo'yicha vazirlik yoki shu maqomdagi tashkilot tomonidan chiqariladi. Bunga misol qilib respublika Aloqa vazirligi tomonidan chiqarilayotgan "Xabar", Ichki ishlar vazirligining – "Postda", Temir yo'llar idorasiga qarashli "Temir yo'lchi" gazetalarini ko'rsatish mumkin. Bunday gazetalar asosan, shu sohada ishlovchi kishilar uchun, ayrimlari esa keng o'quvchilar ommasi uchun (masalan "Postda") mo'ljallangan bo'ladi. Ayrim tuman va korxonalarda chiqariladigan umumsiyosiy gazetalar (masalan, asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi biror tuman gazetasi, oliy o'quv yurtlari yoki yirik sanoat korxonalarida chiqadigan ko'p nusxali gazetalar) ma'lum ma'noda tarmoq gazetalariga yaqin turadilar. Tarmoq gazetolari ham jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini umumlashtirgan holda o'z tarmog'i hayotini keng va chuqur yoritib, gazetaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Gazetalar har bir mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi nuqtai nazaridan ham turli xil bo'ladi:

1. Markaziy gazetalar;
2. Viloyat gazetolari;
3. Shahar gazetolari;
4. Tuman gazetolari;
5. Korxonalar, muassasa gazetolari;
6. Devoriy gazetalar.

Ma'muriy — hududiy jihatdan bo'linuvchi gazetalar jahon va o'sha davlat hayotidagi voqealardan eng muhimlarini yoritish bilan birlikda o'z hududidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotni keng va chuqur yoritadi. Shu tarzda gazetalar butun mamlakat hayotini ham sohalar, ham hududiy jihatdan, to'liq va mufassal yoritilishi, jurnalistikaning «har taraflama, har yerda hozir va hamma narsadan xabardor» degan qoidasining to'la bajarilishiga erishadilar.



Gazetalarning hududlarda chiqarilishi AQSh, Angliya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham keng uchraydi. Jumladan, mamlakatning yirik gazetalaridan biri bo‘lmish «Baltimor san» (“Baltimor quyoshi”) gazetasi AQSh ning Baltimor shahrida, «Denver post» (“Denver pochtasi”) gazetasi Denver shahrida, «Los-Anjeles tayms» (“Los-Anjeles vaqti”) gazetasi Los-Anjelesda chiqadi. Shuningdek, mamlakatda «San-Fransisko kronikl» (“San-Fransisko xronikasi”), «Chikago tribyun» (“Chikago minbari”) gazetalari ham nomlari ko‘rsatilgan shaharlarda chiqadi. Angliyaning «Birmingem post» (“Birmingem pochtasi”), «Yorkshir post» (“Yorkshir pochtasi”) gazetalari ham Birmingem va Yorkshir shaharlarida nashr etiladi. Germaniyaning Gamburg, Myunxen, Bonn va boshqa yirik shaharlari ham o‘z gazetalariga ega. Bu holni Fransiya, Rossiya misolida ham ko‘rish mumkin. Turkiyaning ham har bir viloyatida yirik umumsiyosiy gazetalar nashr etiladi. Respublikamiz ham rivojlangan gazetalar tarmog‘iga ega. O‘zbekistonning har bir viloyati o‘zining bir yoki bir necha gazetasiga ega. Respublikamizning barcha yirik shaharlarida, tumanlarda ham maxsus gazetalar chiqariladi. Shuningdek, bizda yirik korxonalar, oliy o‘quv yurtlarida chiqariladigan ko‘p nusxali gazetalarning ham keng tarmog‘i faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Korxonalar, ta‘lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlarida doimiy ravishda chiqib turadigan devoriy gazetalar ham gazetachilik tasnifining tarkibiy qismi bo‘lib, jurnalistikamizni to‘ldirib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini hamma joyda yoritish imkonini beradi.

Gazetalar yana kechki va kunduzgi gazetalarga ham bo‘linadilar. Aksariyat umumsiyosiy, ixtisoslashgan va tarmoq gazetalari kunduzi chiqadi. Shu bilan birgalikda dunyoning ko‘pgina yirik mamlakatlarida qator gazetalar kechqurun chiqadi. Bunga misol qilib, AQShda chiqadigan «Vashington ivning star» (“Vashingtonning kechki yulduzi”), Angliyaning «Ivning nyus» (“Kechki yangiliklar”), «Ivning standard» (“Kechki bayroq”), Germaniyaning «Gamburger abendblatt» (“Gamburg kechki varaqasi”), Fransiyaning «Fransuar» (“Kechki Fransiya”), Yaponiyaning «Asaxi ivning nyus» (“Quyosh chiqar mamlakatining kechki yangiliklari”), Turkiyaning «Aksham» kabi gazetalarini keltirish mumkin. Rossiyada «Известия» gazetasining kechki soni, «Вечерняя Москва»

gazetalari, Qozog'istonda «Ogni Alatau» (“Olatog‘ chiroqlari”) kabi kechki gazetalar chiqadi. Respublikamizda “Toshkent oqshomi” va «Вечерний Ташкент» kabi kechki gazetalar mavjud. Kechki gazetalar, asosan, yirik, poytaxt shaharlarida chiqariladi, bu uning tezlikda tarqalishi uchun muhimdir. Kechki gazetalar kunduzgilardan farqli ravishda, ijtimoiy hayot masalalarini umuman yoritgan holda o‘quvchilarga eng yangi xabarlar, madaniy-ma’rifiy ma’lumotlarni ko‘proq yetkazib beradi, dam oldiradi.

Gazetalar aholining yoshiga qarab ham tabaqalanadi va kattalar uchun, yoshlar uchun, bolalar uchun mo‘ljallab chiqariladi.

Gazetalar kundalik — haftada yetti marta, olti marta, besh marta, uch marta, ikki marta va bir marta chiqishi mumkin. Haftada bir marta chiquvchi gazetalar haftalik deb nomlanadi. Bunday gazetalarda turli axborotlar bilan bir qatorda sharhlar, tahliliy va madaniy-ma’rifiy materiallar ko‘proq o‘rin oladi. Odatda, ayrim gazetalar har haftada o‘z ilovalarini chiqaradilar. Masalan, Rossiyadagi «Известия» gazetasining, «Неделя», “Toshkent oqshomi” gazetasining, “Toshkent haftaligi” va «Ташкентская неделя» kabi va boshqa ilovalari chiqariladi. Ayrim korxonalar, oliy o‘quv yurtlarining ko‘p nusxali gazetolari, devoriy gazetalar, oyda bir yoki ikki marta chiqishi mumkin.

Gazetalar ko‘p sahifali —100 va undan ortiq, 16 — 40, 4—16, 4 —8 va 2 sahifali bo‘lishi mumkin. Hajmi, bichimiga qarab ham gazetalar katta bichimli, kichik bichimli bo‘lishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining asosiy turi bo‘lgan gazetalar o‘z navbatida turli xillarga va ko‘rinishlarga bo‘linib ketadi. Bu — gazetaning ijtimoiy hayotni to‘la, har taraflama yoritishga imkon beradi.

O‘z milliy mustaqilligiga erishgan respublikamizda gazetachilik juda tez sur’atlar bilan rivojlanib, dunyodagi eng yirik mamlakatlar gazetachiligi mezonlariga yaqinlashib bormoqda. O‘zbekistonimizda gazetachiligimizning yanada taraqqiy etishi, rang-baranglashuvi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

## **Gazeta bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Gazeta nima va uning asosiy vazifasini ayting.*
2. *Gazeta nima uchun moddiy deyiladi?*
3. *Gazetaning ilk kurtaklarini ayting.*
4. *Turkistonda nashr qilingan birinchi gazeta va uning ilovasini izohlang.*
5. *Jadid matbuoti iborasini sharhlang.*
6. *Turkistonda milliy jurnalistikaga kimlar asos solgan?*
7. *Gazetaning xillarini izohlang.*

## **Gazeta bo'yicha nazorat savollari**

1. *Gazetaning paydo bo'lishi va o'sha davr sharoiti.*
2. *Gazetaning paydo bo'lishida bosma dastgohning roli.*
3. *Taraqqiyparvar ziyolilar nashr etgan davriy matbuotni bilasizmi?*
4. *Kommunistik jurnalistika qachon paydo bo'ldi?*
5. *Nega gazetada jurnalistikaning barcha ichki qoidalari o'z ifodasini topadi?*
6. *Gazetaning tasvir, tahlil, ta'sir ijtimoiy vazifasini bajarishini tushuntirib bering.*
7. *Umumsiyosiy gazetalarni sharhlab bering.*

### **2.2.2. JURNAL**

Gazeta ommaviy axborot vositalari tasnifida bosh o'rinni egallaydi va ijtimoiy hayotning barcha tomonlari unda o'z ifodasini topadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan gazeta jamiyat hayotining hamma tomonlarini mufassal, keng va chuqur yoritishga ulgura olmaydi. Chunki, kishilik jamiyati hayoti, undagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy muammolar shu qadar keng va chuqurki, bularning barchasini yoritishda gazeta sahifalari torlik qilib qoladi. Shunda unga har jihatdan gazetaga o'xshagan, ammo gazetadan farqli ravishda jamiyat hayotining chuqur qatlamlariga kirib borib, insoniyatga keng va chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy axborot yetkazib bera oladigan boshqa bir jurnalistika turi yordamga keladi. Gazeta bilan yonma-yon turuvchi bu jurnalistika turi jurnal deb ataladi.

Jurnal soʻzi fransuzcha boʻlib, “kundalik” degan maʼnoni bildiradi. Lekin bu atama oʻz mazmunidan uzoqlashib, kundalik emas, balki gazetaga qaraganda koʻproq muddatlarda — asosan bir oyda bir marta chiqadigan jurnalistika turini bildiradi. Shunday qilib, jurnal vaqti jurnalistikaning asosiy turlaridan biri boʻlib, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-maʼnaviy hayotining chuqur qatlamlarini aks ettiradi. Jurnal insoniyatga juda keng jabhada va boy maʼnaviy ozuqa yetkazib beradi, ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ong oʻrtasida mutanosiblikni chuqurlashtiradi, inson aqlu tafakkurining yanada oʻsishi yoʻlida xizmat qiladi. Jurnal orqali kishilar jamiyat hayotining chuqur masalalarini anglaydilar, ilm-fan, adabiyot va sanʼat mahsulalaridan bahramand boʻladilar, ijtimoiy borliqni biladilar, oʻz hayotiy tajribalarini takomillashtiradilar, kasb va hunar oʻrganadilar. Jurnal inson sivilizatsiyasining mevasi va uni rivojlantiruvchi gʻoyat muhim omildir. Shu bilan-birgalikda jamiyatdagi sinflar, tabaqalar, guruhlar, partiyalar jurnal orqali oʻzlarning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, huquqiy, estetik va boshqa qarashlarini ishlab chiqadilar, ommaga yetkazadilar va muxolif sinflar, partiyalarning qarashlariga qarshi zarba beradilar. Binobarin, jurnal ham gʻoyaviy kurash vositasi boʻlib xizmat qilishi mumkin. Ammo, jurnallarning ilmiy texnikaga, adabiyot va sanʼatga oid koʻpgina turlari hamisha umuminsoniy maqsadlarga xizmat qilib, umumbashariy xususiyatga ega boʻladilar.

Jurnallarning paydo boʻlish tarixi kishilik jamiyatining rivojlanish tarixi, sivilizatsiyaning vujudga kelishi va boshqa ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar bilan bogʻliqdir. Insoniyat tarixining maʼlum bir davriga kelib jamiyat hayotini aks ettirishda gazetadan ham kengroq va chuqurroq yorita oladigan jurnalistika turiga zarurat paydo boʻlgan. Kishilikning dunyoni yanada chuqurroq bilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida mufassal axborotga ega boʻlish ehtiyoji bunga asos boʻlgan. Shuningdek, ayrim sinflar, tabaqalar, guruhlar oʻzlarining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy va boshqa sohalaridagi qarashlarini kengroq va chuqurroq ishlab chiqish va ommaga yetkazish ehtiyojini sezganlar. Fan va texnikaning oʻsishi, adabiyot va sanʼatning kamol topishi ham jurnallarning kelib chiqishida asosiy sabablardan biri boʻlgan. Shu boisdan ham birinchi jurnallar ilm-fan

va adabiyot-san'atga doir bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, dastlab vujudga kelgan jurnal

1655-yilda Parijda nashr etilgan «Journal des Savans» bo'lib, u adabiyot, san'at, falsafa va tabiiy fanlar bo'yicha kitoblarga sharhlar berishga bag'ishlangan. Xuddi shu yili Londonda «Filosofikal tranzekshne of royyal sosyate» degan ilmiy jurnal chiqa boshlagan. Italiyada 1688-yilda «Djornal de letterati» degan adabiy jurnal, Germaniyada 1682-yilda «Aktum eruditorum» degan ilmiy-ommabop jurnal chiqarilgan. Rossiyada birinchi jurnal 1728-yilda chiqqan. U «Санкт-Петербург ведомости» gazetasining nashri bo'lib, «Vedomostlarga oylik tarixiy, geografik va boshqa ilovalar» deb atalgan. Bu ilmiy-adabiy jurnal faoliyatida atoqli rus olimi M.V. Lomonosov asosiy o'rin tutgan.

Ko'rinib turibdiki, birinchi jurnallar ilmiy, adabiy yo'nalishda bo'lgan. Rus jurnalistikasi tarixida asosiy o'rin tutgan boshqa nashrlar A.C. Pushkin asos solgan «Современник», N.A. Nekrasov nashr etgan «Отечественные записки» va boshqa jurnallar ham adabiy-badiiy jurnallar bo'lib, rus adabiyoti va ijtimoiy fikrining o'sishida muhim rol o'ynagan. Kommunistik ta'limot tarafdorlari esa jurnallardan o'z siyosiy qarashlarini ishlab chiqish va ommaga yoyishda foydalanganlar.

Turkistonda ilk jurnallar XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bular 1913-yilda Samarqandda dunyo yuzini ko'rgan "Oyina" va 1915-yildan Toshkentda chiqa boshlagan «Al-Isloh» jurnallari edi. "Oyina" jurnali o'sha davrda Turkistonda dunyoga kelgan taraqqiyparvar jadidchilik harakatining atoqli namoyandasi, otashim ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan chiqarilgan bo'lib, turkiy tildagi ilk ijtimoiy, ilmiy, adabiy nashr edi. «Oyina» jurnali ommaga ilm - ma'rifat, taraqqiyot g'oyalarini keng yoydi, qoloqlik va jaholatga qarshi kurashdi. «Al-Isloh» jurnali esa asosan diniy jurnal bo'lib, islom dinini isloh qilish yo'li bilan ma'rifat va taraqqiyotga erishishni targ'ib qildi. 1917-yil fevralida Qo'qonda shoir H.H. Niyoziy rahbarligida nashr etilgan «Hurriyat» jurnali ham ijtimoiy-siyosiy jurnal edi. Bu davrda Toshkentda "Chayon" va "Cho'l chayoni" degan hajviy jurnallar ham chiqdi va ular ham milliy taraqqiyot uchun kurashda muhim o'rin tutdi. 1917-yil oktyabr o'zgarishidan so'ng O'zbekistonda "Inqilob", "Er yuzi", "Mushtum" va

boshqa ko‘plab jurnallar nashr etildi. Keyinchalik “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Guliston” kabi jurnallar chiqarildi. Bu jurnallar ommaga ilm-fan, adabiyot-san’at masalalarini targ‘ib etishda xizmat qildilar. Shu bilan birgalikda, sovet davri jurnallari kommunistik yakka mafkura ta’sirida ish ko‘rdilar. O‘zbekiston o‘z milliy mustaqilligiga erishgach, jurnalistikaning barcha sohalaridagi singari jurnalchilik sohasida ham katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi, ko‘plab yangi jurnallar chiqarila boshlandi. “Tafakkur”, “Muloqot” kabi ijtimoiy-siyosiy jurnallar, “Jahon adabiyoti” nomli adabiy-badiiy, “Teatr” nomli adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnallari va boshqalar shular jumlasidandir. Shu kunda respublikamizda yuzdan ortiq jurnal nashr etiladi. O‘zbek jurnallari ham respublikamiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy hayotining chuqur qatlamlarini yoritishda, ilm-fan, adabiyot va san’atimizning rivojida, xalqimizga milliy qadriyatlarimiz, istiqlol mafkurasini singdirishda muhim vazifani bajarib kelmoqdalar. Jurnallar jurnalistika-ommaviy axborot vositalari tasnifida alohida, bosh o‘rinlardan birini egallaydi. Jurnallar o‘z xususiyati bilan gazetalarga juda yaqin turadi, chunki, ular gazetalarning singari so‘zni bosma usulda ko‘paytirish asosida ish ko‘radilar. Ammo, jurnal gazetani takrorlamaydi, balki, uni to‘ldiradi. Ya’ni, gazeta jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotining shu kundagi, ayni zamondagi holatini aks ettirsa, jurnal esa jamiyat hayotining chuqur qatlamlarini aks ettiradi. Jurnal ommaviy axborot vositalarining radio, televideniye kabi turlaridan o‘zining moddiyligi bilan ustun turadi.

Modomiki, jurnal vaqtli jurnalistikaning asosiy ko‘rinishlaridan biri ekan, u jurnalistikaning ichki, obyektiv qonuniyatlari asosida ish ko‘radi. Avvalo u jurnalistikaning barcha turlaridagi singari kishilarga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, estetik va boshqa axborotlar tarqatadi. Ammo, bu axborotlar gazeta axborotidan farqli ravishda jamiyat hayotining chuqur qatlamlari holatiga taalluqli bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, jurnal faoliyatida jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasi ustuvor bo‘ladi. Ammo, shu bilan birgalikda jurnal jurnalistikaning tasvir ijtimoiy vazifasini bajarishda ham ishtirok etadi, bunda u kundalik voqea va hodisalarning ichki mohiyatini chuqur ochib berish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, jurnallar ilm-fan, texnika, adabiyot va san’atning chuqur masalalarini

yoritib, ularning rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Jurnal jurnalistikaning ta'sir ijtimoiy vazifasini bajarishda ham ishtirok etadi, ya'ni xuddi gazetadagi singari jurnalda ham bosilgan materiallar hayotda ham bevosita (kishilar ongi orqali) va ham bilvosita (boshqa tashkilotlarning aralashuvi orqali) o'zgarishlar yasaydi. Bu ijtimoiy vazifa jurnal materiallarining ta'sirchanligi va samaradorligidan kelib chiqadi.

Jurnalistikaning mazkur ijtimoiy vazifasini bajarishda hajviy jurnallar alohida o'rin tutadi. Xuddi gazetalar singari, jurnallar ham jurnalistikaning bosh tamoyillari asosida ish ko'radi. Jurnalistikaning bosh tamoyillari bo'lmish umuminsoniylik, xalqchillik, milliylik, haqqoniylik, partiya jurnallari uchun esa partiyaviylik kabi qoidalar jurnallar faoliyatida ham doimiy ravishda qo'llanilib kelinadi. Shuni aytish kerakki, bu tamoyillar turli xil jurnallarda turlicha o'z ifodasini topadi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy jurnallar faoliyatida umuminsoniylik, xalqchillik kabi tamoyillar ustun tursa, ilmiy-nazariy jurnallarda haqqoniylik tamoyili birinchi o'ringa chiqadi, ilmiy-ommabop jurnallar esa xalqchillik tamoyiliga alohida ahamiyat beradi. Umuman olganda, jurnalistika tamoyillari barcha jurnallar faoliyatida asosiy qoida bo'lib xizmat qiladi.

Jurnallar jurnalistikaning an'anaviylik va yangi omillar qoidasi asosida ham ish ko'radilar. Hozirgi zamon o'zbek jurnallari o'tmish o'zbek va jahon jurnalchiligining eng yaxshi an'analari asosida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Jurnalistikaning jamoatchilik fikri ifodachisi bo'lish qonuniyati ham jurnallar uchun taalluqlidir. Jurnallar jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotining chuqur masalalari, muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Jamoatchilik fikri turli jurnallarda turlicha bo'ladi, masalan, ijtimoiy-siyosiy jurnallar turli ijtimoiy masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otsa, ilmiy jurnallar esa, bu vazifani ilmiy sohada hal etadi, hajviy jurnallarda jamoatchilik fikri ijtimoiy kulgi orqali amalga oshiriladi.

Xuddi gazetadagi singari, jurnallarda ham, turli xil — rasmiy, adabiy-badiiy, ilmiy materiallar bilan bir qatorda publitsistika asosiy o'rin tutadi. Ijtimoiy hayotni tasvirlashning alohida bir turi bo'lgan va shu kungi hayot voqealarini shu kun uchun mushohada etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan publitsistika jurnallarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Jurnal publitsistikasi gazetaga qaraganda hajmi kengligi, serko'lamligi bilan ajralib turadi. Jurnallarda publitsistikaning ijtimoiy - siyosiy, ilmiy, adabiy - badiiy turlari keng qo'llaniladi. Hajviy jurnallarda esa publitsistikaning hajv va kulgiga asoslangan turi-hajviy publitsistika keng qo'llaniladi. Suratli jurnallardan esa publitsistikaning yana bir o'ziga xos turi-fotopublitsistika joy oladi. Janr jihatidan qaraganda, jurnallarda publitsistikaning tahlilij janrlari – maqola, suhbat, sharh kabi ko'rinishlari, hamda, adabiy - badiiy publitsistikaning ocherk, feleton, pamflet kabi janrlari keng o'rin oladi. Axboriy janrlar jurnal sahifalaridan joy olsa-da o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Jurnallar jamiyat hayotini yoritish nuqtai nazaridan turli xillarga bo'linadi.

### **1. Ijtimoiy-siyosiy jurnallar**

Bu turdagi jurnallar jamiyatning ijtimoiy — siyosiy hayoti chuqur qatlamlarini aks ettiradilar. Jahon jurnalistikasida ijtimoiy—siyosiy jurnallar muhim o'rinni egallaydi. Dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlarda ko'pgina ijtimoiy — siyosiy jurnallar nashr etiladi. Bunga misol sifatida, AQShda uzoq yillar chiqib turgan «Layf» («Hayot»), Angliyada nashr etiladigan - «Ekonomik», Fransiyadagi «Novel Observator» («Yangiliklar sharhi»), Germaniyadagi yirik nashr — «Shtern», «Fokus» Kanadadagi doimiy chiqib turadigan «Taym» («Vaqt») kabi jurnallarni keltirish mumkin, Rossiyada esa «Огонек» ijtimoiy — siyosiy, adabiy jurnali mashhurdir. Turkiyada ham bir qator ijtimoiy-siyosiy jurnallar nashr etiladi.

O'z milliy mustaqilligiga erishgan respublikamizda ham qator ijtimoiy-siyosiy jurnallar nashr etilmoqda. Bular orasida 1995-yildan beri nashr etilayotgan. «Tafakkur» jurnali markaziy ijtimoiy-siyosiy jurnal sifatida alohida o'rin tutadi. Bu nashr ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal bo'lib, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, ma'naviyat va ma'rifatga doir masalalarni keng yoritadi, hamda kishilar ongiga istiqloq mafkurasini singdirish, o'zligini anglatishda katta vazifani bajarib kelmoqda. 1991-yildan nashr etilayotgan «Muloqot» jurnali esa respublikamizdagi ikkinchi yirik ijtimoiy-siyosiy jurnal bo'lib, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining nashri hisoblanadi. Jurnalda ijtimoiy hayot, tarixiy o'tmish



merosimiz, yangi davrni falsafiy mushohadalash, milliy mafkurani shakllantirish va boshqa masalalar keng yoritiladi.

Ijtimoiy-siyosiy jurnallar o'z xususiyatlari bilan turlicha ko'rinishga ega bo'ladilar. Xotin-qizlar uchun chiqariladigan «Saodat», «Sanam» kabi jurnallar ham ijtimoiy-siyosiy jurnallar tipiga kiradi. Chunki, mazkur jurnallarda ham shu kungi ijtimoiy-siyosiy hayotning u yoki bu masalalari, muammolari yoritib boriladi. Yoshlar hayotini yorituvchi «Yoshlik», «Yosh kuch», ma'rifat va yangi avlod tarbiyasi masalalarini yoritishga bag'ishlangan «Sog'lom avlod uchun», bolalar uchun chiqariladigan «Gulxan» hamda kichkintoylar jurnali «G'uncha» ham o'z xususiyatlari bilan ijtimoiy-siyosiy jurnallar qatoriga kiradi. Shuningdek, hayotni adabiy-badiiy vositalar yordamida aks ettirishga mo'ljallangan «Guliston», adabiyot va san'at masalalariga bag'ishlangan «Sharq yulduzi», «Jahon adabiyoti», «Teatr» jurnallari ham o'z sahifalarida ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini ko'tarib chiqishlari bo'sidan ma'lum darajada ijtimoiy-siyosiy jurnallar sanaladilar. Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy jurnalistika va uning markazi hisoblanmish ijtimoiy-siyosiy jurnallar tobora ko'payib bormoqda.

## 2. Ilmiy jurnallar

Jurnallarning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri — ilmiy jurnallardir. Mazkur jurnallar ilm-fan sohasini keng va har taraflama yoritish bilan shug'ullanadi. Ilmiy jurnallar insoniyatning dunyoni bilishida, tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatini anglashda, aql-tafakkurning o'sishida katta ahamiyatga egadir. Ilmiy jurnallar eng qadimgi nashrlar bo'lib, ilk jurnallarning aksariyati ilmiy yo'nalishda bo'lgan. Hozir jahonda juda ko'p ilmiy jurnallar nashr etiladi. Ularda tabiiy va ijtimoiy fanlarning barcha sohalari, yo'nalishlarida bo'layotgan yangiliklar, fan-texnika sohasida erishilayotgan yutuqlar va muammolar o'z aksini topadi. Bularga AQShda nashr etiladigan qator ilmiy jurnallar, Fransiyada nashr etib kelinayotgan «Geo» («Er») va boshqa jurnallarni misol sifatida keltirish mumkin. Rossiyada «Наука и жизнь», «Вокруг света» kabi va boshqa ko'plab ilmiy jurnallar nashr etiladi. Turkistonda nashr etilgan birinchi jurnal— «Oyina» ham asosan ilmiy nashr hisoblanardi. Dunyoda chiqadigan juda ko'plab ilmiy jurnallar mamlakatlar aro ayri - boshlanadi.

Respublikamizda ham o'nlab ilmiy jurnallar nashr etiladi. Bular orasida «Fan va turmush», «Sirli olam» va fanning turli sohalariga bag'ishlangan ilmiy jurnallar mavjud.

Ilmiy jurnallar ham o'z navbatida turli xillarga bo'linib ketadi:

### **1) Ilmiy-nazariy jurnallar**

Bu xil jurnallar biror muayyan fanning chuqur ilmiy — nazariy masalalarini yoritish uchun mo'ljallab chiqariladi. Odatda, bunday jurnallar shu sohadagi ilmiy muassasa tomonidan chiqariladi va shu sohada ishlovchi mutaxassislar uchun mo'ljallanadi. Respublikamizda ham qator ilmiy – nazariy jurnallar nashr etiladi. Masalan, «O'zbekiston matematiklar jurnali», «O'zbekiston ximiya jurnali», «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar», «O'zbek tili va adabiyoti» va boshqalar shular jumlasidandir.

### **2) Ilmiy-ishlab chiqarish jurnallari**

Bunday jurnallar fanning biror sohasini amaliyotga tatbiq etish maqsadida chiqariladi. Bu xil jurnallarda ilmiy—nazariy materiallar bilan bir qatorda bevosita amaliy xususiyatga ega bo'lgan materiallar ham bosiladi, maslahatlar beriladi. Bunga misol qilib, respublikamizda ko'p yillardan beri nashr etib kelinayotgan «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnalini keltirish mumkin.

### **3) Ilmiy- ommabop jurnallar**

Bunday jurnallar ilm-fan masalalarini keng o'quvchilar ommasiga etkazish, ilmiy ishlar va ixtirolarni sharhlash, ilm-fanni hayot bilan bog'lash maqsadida chiqariladi. Bunday jurnallar o'z xususiyati bilan ijtimoiy-siyosiy yoki adabiy-badiiy jurnallarga yaqin turadi. O'zbekistondagi ko'pchilikka tanish «Fan va turmush» jurnali buning yaqqol misolidir. Bizda ilmiy-ommabop, hamda adabiyotning fantastika turi bilan bog'lamb ketgan «Sirli olam» jurnali ham mavjud bo'lib, muvafaqqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bulardan tashqari maxsus ilmiy-axboriy jurnallar ham mavjud bo'lib, fanning turli sohalari bo'yicha chiqqan asarlar, yangiliklar haqida xabar beradi.

Ilmiy jurnallar ilmiy jurnalistika qonuniyatlari asosida ish ko'radilar. Ularda asosan jiddiy tahlil uslubi qo'llaniladi. Ilmiy jurnallarda ishlash jurnalistdan fanning ma'lum sohasi bo'yicha ixtisoslashish, ilmiy-

ommabop jurnallarda esa ommabop yoza olish, ilmiy publitsistikani yaxshi egallash talab etiladi.

### **3. Adabiy-badiiy va san'atga oid jurnallar**

Jurnallar tasnifida adabiy - badiiy va san'atga oid jurnallar ham muhim o'rin tutadi. Bu turdagi jurnallar asosan badiiy adabiyot va san'atning turlarini yoritish uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, adabiyot va san'at ham ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlaridan bo'lib, ijtimoiy ongda jurnalistika bilan bir qatlamda joylashadi. Adabiy - badiiy va san'atga doir jurnallar jurnalistika bilan mazkur ijtimoiy ong ko'rinishlarining o'zaro ijodiy hamkorligi natijasidir.

Adabiy-badiiy va san'atga doir jurnallar ham eng ilk jurnallar hisoblanadilar. Insoniyat tarixida ilk bor dunyoga kelgan jurnal—"Journal des Savans" ham san'at masalalarini yoritishga mo'ljallangan edi. Turkistonda ilk bor nashr etilgan «Oyina» jurnalida ham adabiyot va san'at masalalariga keng o'rin berilgan. Hozirda dunyoda juda ko'plab adabiy-badiiy va san'atga oid jurnallar nashr etiladi. Respublikamizda ham bu turda jurnallarning muayyan turi mavjuddir.

Adabiy-badiiy va san'atga oid jurnallar ham o'z navbatida turli xillarga bo'linib ketadi.

#### **1) Adabiy-badiiy jurnallar**

Bu xildagi jurnallar bevosita adabiyotni yoritish, yangi badiiy va tarjima asarlarini o'quvchilarga yetkazish, adabiy asarlarni baholash va sharhlash (adabiy tanqidchilik) kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bu xil jurnallarga respublikamizda nashr etilayotgan «Sharq yulduzi», «Jahon adabiyoti» kabi jurnallar kiradi.

#### **2) Hayotni adabiy-badiiy usulda yoritishga mo'ljallangan jurnallar**

Bu xildagi jurnallar ijtimoiy-siyosiy jurnallar hisoblananda, ularda hayot voqealari adabiy-badiiy uslubda yoritiladi. Bunday jurnallarda publitsistikaning muhim sohasi - badiiy publitsistika keng qo'llaniladi.

Masalan, respublikamizda nashr etilayotgan «Guliston», «Yoshlik», «Saodat» jurnallari yuqoridagi jurnallar qatoriga kiradi.

### **3) San'atga oid jurnallar**

Bu xildagi jurnallarga teatr, kino, tasviriy san'atni yoritishga bag'ishlangan jurnallar kiradi. Masalan, "San'at", "Teatr", «O'zbekiston kinosi», «Films» va boshqalar.

Adabiy-badiiy va san'atga doir jurnallarda ishlash uchun jurnalistdan adabiy-badiiy ijodni, san'atni chuqur bilish, mushohada eta bilish talab qilinadi.

### **4. Hajviy jurnallar**

Jurnallar tasnifida hajviy jurnallar ham muhim o'rin tutadi. Hajviy jurnallar jamiyat hayotini hajv va kulgi vositasi bilan yoritadi. Garchi ular ijtimoiy hayotning hamma sohalariga kirib borishlari sababli ijtimoiy-siyosiy jurnallarga yaqin tursalar-da, ular hayotni boshqa jurnallar singari jiddiy tahlil usulida emas, satira va yumor - ijtimoiy kulgi vositasida aks ettiradi, hayotdagi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashadi, salbiy xususiyatga ega bo'lgan voqea va hodisalarni hajv nuqtai nazaridan baholaydi, xulosalar chiqaradi. Hajviy jurnallar faoliyatida hajviy publitsistika asosiy o'rinni egallaydi. Dunyodagi juda ko'p mamlakatlar o'z hajviy jurnallariga ega. Bular orasida Angliyada chiqadigan «Privete lue» («Shaxsiy ko'z»), Fransiyada nashr etiladigan «Gala» ("Namoyish"), Germaniyada chiqadigan «Shpigel», («Oyna»), Rossiyada chiqadigan «Крокодил» («Timsoh») va boshqalar bor. Mamlakatimizda hajviy jurnallar XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bular 1917-yildan chiqqan «Chayon» va «Cho'l chayoni» hajviy jurnallari bo'lib, o'sha davr ijtimoiy illatlarini hajv ostiga olgan. 1923-yildan e'tiboran nashr etib kelinayotgan «Mushtum» jurnali hozirda ham asosiy o'zbek hajviy jurnali hisoblanadi.

### **5. Suratli jurnallar**

Jurnallar tasnifida suratli jurnallar ham alohida o'rin tutadi. Suratli jurnallar jamiyat hayotini yoritishda texnikaga asoslangan alohida bir usul - fotojurnalistikadan keng foydalanadi. Fotojurnalistikaning asosini foto-publitsistika tashkil etadi va publistikaning bu sohasi ham o'z ichki janrlari va keng ijodiy imkoniyatlariga ega. Suratli jurnallarda fotosurat bilan ana shu suratlarni sharhlovchi yoki to'ldiruvchi bosma so'z-matn ham muhim rol o'ynaydi. Shuni aytish kerakki, boshqa ijtimoiy-siyosiy jurnallarda ham fotosuratlardan keng foydalaniladi, ammo bunday jurnallarda esa bosma

soʻz - matn asosiy oʻrin tutadi, suratli jurnallarda esa suratlar asosiy oʻrinni egallaydi.

Suratli jurnallar jahonning koʻplab mamlakatlarida nashr etiladi. Bular orasida AQShdagi «Pleyboy», «Germaniyadagi «Shpigel», Rossiyadagi «Ogonyok» kabilar bor.

Respublikamizda maxsus «Oʻzbekiston kontakt» degan suratli jurnal nashr etiladi. Shuningdek, «Guliston», «Saodat», «Yoshlik», «Filmz» kabi jurnallarda ham fotosuratlariga keng oʻrin beriladi. Suratli jurnallarda ishlovchi jurnalist fotojurnalistikadan chuqur xabardor boʻlishi lozim.

## **6. Tarmoq jurnallari**

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy—ishlab chiqarish va madaniy-maʼnaviy hayotining ayrim tarmoqlarini yoritish uchun chiqariladigan jurnallarga tarmoq jurnallari deyiladi. Yaʼni, tarmoq jurnallari jamiyat hayotining ayrim tarmogʻini keng va batafsil yoritish uchun moʻljallanadi. Bunday jurnallar ijtimoiy-siyosiy yoki ilmiy - ishlab chiqarish jurnallariga yaqin turishi mumkin. Bu xil jurnallarga respublikamizda nashr etilayotgan «Oʻzbekiston matbuoti», «Hamshira», «Adolat», «Sihat-salomatlik» va boshqa jurnallarni kiritish mumkin. Tarmoq jurnallari asosan, shu sohada ishlovchi kishilar uchun moʻljallab chiqariladi. Tarmoq jurnallarida ishlash uchun jurnalist ana shu tarmoq hayotini chuqur bilishi lozim.

Jurnallar aholining maʼlum tabaqalari uchun ham moʻljallab chiqariladi. Masalan, kattalar uchun, xotin-qizlar uchun, yoshlar uchun, bolalar va kichikintoy bolalar uchun chiqariladigan jurnallar mavjud. Respublikamizda koʻzi ojizlar uchun maxsus jurnal nashr etiladi.

Jurnallar chiqish davriga qarab, haftalik, bir oyda ikki marta, oylik, ikki oyda hamda uch oyda bir marta chiqarilishi mumkin. Ayrim haftaliklar gazeta koʻrinishida chiqadi va ular gazeta bilan jurnal oʻrtasida turadi. Yilda bir yoki ikki marta chiqariladigan maxsus toʻplamlar almanax deb ataladi va ular kitob bilan jurnal oʻrtasida turadi.

Jurnal tahririyatlarida ishlash gazetadan maʼlum darajada farq qiladi. Gazetada jurnalistdan koʻproq tezkorlik talab qilinsa, jurnalda esa hayotning chuqur qatlamlariga kirib borish, chuqur bilim va mushohada talab etiladi.

## **Jurnal bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jurnal qanday xususiyatga ega?*
2. *Dastlab vujudga kelgan jurnallarni ayting.*
3. *Turkistonda ilk jurnal qachon paydo bo'ldi?*
4. *"Hurriyat" ijtimoiy-siyosiy jurnali kimning rahbarligida, nechanchi yili nashr etildi?*
5. *Qaysi davr jurnallari kommunistik yakka mafkura ta'sirida ish ko'rdilar?*
6. *Jurnallarning qanday turlarini bilasiz?*
7. *Gazeta publitsistikasi bilan jurnal publitsistikasi o'rtasida qanday farq bor?*
8. *1995-yildan buyon chop etilayotgan markaziy ijtimoiy-siyosiy jurnalni ayting.*
9. *Qaysi jurnallar adabiy-badiiy jurnal hisoblanadi?*

## **Jurnal bo'yicha nazorat savollari**

1. *Qanday ehtiyoj jurnal paydo bo'lishiga asos bo'lgan?*
2. *"Oyina" jurnali qachon, kim tomonidan nashr etildi?*
3. *1917-yil oktyabr o'zgarishidan so'ng o'lkamizda qanday jurnallar nashr etila boshlandi?*
4. *Milliy mustaqillikdan so'ng respublikada qanday ijtimoiy-siyosiy jurnallar chiqarila boshlandi?*
5. *Axborot tarqatishda gazeta bilan jurnal o'rtasidagi farqni ayting.*
6. *Jurnal xillarini izohlab bering.*
7. *Ilmiy jurnallarni sanang.*

### **2.2.3. RADIO**

Gazeta va jurnallar deyarli to'rt asrdan buyon insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. XVII-XIX asrlar davomida esa jurnalistika tasnifi faqat gazeta

va jurnallardan tashkil topdi. Lekin, jurnalistikaning jamiyat hayotidagi ahamiyati shu qadar katta-ki, insoniyat faqat gazeta va jurnal bilan kifoyalaniq qolmadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib, ommaviy axborot vositalari tasnifida katta bir yangilik, beqiyos bir o'zgarish yuz berdi, unga jurnalistikaning butunlay yangi bir turi – radio

kirib keldi. Radio soʻzi, yunoncha boʻlib, «radius» – nur, «radio» – nur tarataman, degan maʼnoni bildiradi, hamda, bu oʻrinda elektromagnit toʻlqinlari orqali ovoz toʻlqinlarini uzoq masofa va katta hududga simsiz tarqatish usuliga, bu usulni amalga oshiruvchi asbobja aytiladi.

Radio – OAVning oʻziga xos elektron texnikaga asoslangan turidir. Radio, tub maʼnodagi jurnalistika emas, yaʼni u soʻzni bosma usul bilan koʻpaytirmaydi, balki uni maxsus asbobjar vositasida ogʻzaki koʻpaytiradi, shu jihatdan u jurnalistikaning, toʻgʻrironi ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanadi. Radio ommaviy axborot vositalari tasnifida alohida oʻrin tutadi, gazeta va jurnal koʻrish, bosma soʻzlarni oʻqish orqali inson ongiga yetib borsa, radio esa ovozni quloq bilan eshitish orqali taʼsir koʻrsatadi. Bu esa insonning eng asosiy sezuv aʼzosi boʻlmish quloq orqali axborot qabul qilishdek eng qadimiy va tabiiy imkoniyatidan kelib chiqadi.

Bu jihatdan uni jurnalistika hali vujudga kelmagan paytlarda uning vazifasini bajargan ogʻzaki nutq, jarchilik, notiqliq sanʼatining davomi, boshqacha qilib aytganda yuqoridagi vositalarniig texnikaga asoslangan qaytarilgan koʻrinishi deyish mumkin. Garchi yozma (bosma) soʻz qanchalik muhim va moʻtabar boʻlmasin, ogʻzaki soʻz, nutq bevosita eshituvchiga yoʻnaltirilgan boʻladi, uning taʼsir kuchi kattaroqdir. Shu boisdan ham radio jurnalistikaning oʻziga xos, ogʻzaki, eshituvchiga bevosita qaratilgan turi sifatida insoniyat hayotiga dadil kirib keldi va undan oʻz munosib oʻrnini oldi. Radio paydo boʻlgach kishilar ijtimoiy hayot yangiliklarini tezroq eshitadigan boʻldilar, dunyodan yanada kengroq xabardor boʻla boshladilar, ijtimoiy tafakkur ufqlari yanada kengaydi. Kishilik yuksak madaniy bosqichining mevasi boʻlgan radio bu bosqichning yanada rivojlanishiga taʼsir koʻrsatuvchi muhim omil boʻldi. Radio paydo boʻlishi bilan insoniyatning nutq sanʼati yanada takomillashdi, tovush - ohang sifatida insonga yetib borib, unga zavq - shavq, orom bagʻishlovchi musiqa sanʼati yanada rivojlandi, inson ongidagi olam rang - baranglashdi. Turgan gapki, jamiyatdagi tabaqalar, guruhlar, sinflar jurnalistikaning boshqa turlari kabi radiodan ham oʻzlarining ijtimoiy-gʻoyaviy, iqtisodiy va maʼnaviy maqsadlari yoʻlida foydalana boshladilar. Ular radioni kishilarga, keng ommaga, faqat ayrim

mamlakat miqyosida emas, balki butun dunyo miqyosida o'z qarashlari, g'oyalarini yetkazish, targ'ib va tashviq qilish va o'zlariga muxolif bo'lgan kuchlarning g'oya va qarashlariga zarba berish uchun vosita sifatida qo'llay boshladilar. Radio to'liqlarining sarhad bilmaslighi, butun dunyoga ham tarqala olishi bu ishda juda qo'l keldi. Turli xil axborotlar, qarashlar, g'oyalar radioning turli o'lchamdagi to'liqlari sifatida yer kurrasini o'rab oldi va kunu tun, bir zum tinmasdan taralib turadigan bo'ldi. Endi insoniyat o'z hayotini radiosiz tasavvur eta olmaydi. Radio jurnalistikaning, ommaviy axborot vositalarining chegaralarini, imkoniyatlarini misli ko'rilmagan darajada kengaytirdi, dunyo xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirdi, insonning olamaro mas'uliyatini oshirdi.

Radioning tarixiga nazar tashlasak uning ko'pchilik ijodi ekanligini ko'ramiz. XIX asrning o'rtalarida italyan olimi K.Markoni radio bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib bordi. Bu ishga jahondagi boshqa olimlar qatori rus ixtirochilari ham o'z hissalarini qo'shdilar. Birinchi bor radio rus olimi A.S.Popov tomonidan 1895-yil 7 may kuni Peterburgdagi rus fizika — ximiya jamiyati yig'ilishida sinab ko'rildi. Ammo y ishlab chiqqan elektr signallarni uzoq masofaga simsiz uzata oladigan radiotelegraf asosan aloqa vositasi sifatida ixtiro qilingan edi. Mazkur simsiz telegrafni ommaviy axborot vositasi bo'lib shakllanganicha ma'lum vaqt o'tdi. Buning uchun esa jurnalistikaning paydo bo'lishida asosiy o'rin tutgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlar zarur bo'ldi. Ya'ni, ayrim tabaqa va guruhlar radiodan bir joyda turib juda katta hudud va keng masofadagi kishilarga o'z g'oyalarini yetkazish mumkinligini tushunib yetdilar va bu muhim ehtiyoj oddiy aloqa vositasini ommaviy axborotning muhim turiga aylanishiga olib keldi. Jumladan, 1917-yilda Rossiyada hukumat tepasiga kelgan bolsheviklar radio orqali targ'ibot va tashviqot olib borish uchun uni takomillashtirish bo'yicha maxsus ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etishdi va 1920-yilning boshida radioeshittirishlar yuzaga keldi. Radioning ommaviy axborot vositasi sifatida ixtiro etilishida toshkentlik mutaxassislar ham ishtirok etishgan. Masalan, 1920-yil 17-noyabr kuni Toshkent radiosi mudiri markazga yuborgan maxsus radiogrammasida Moskva radiosining ovozi Toshkentga ham yetib kelganligini ma'lum qilgan edi. 1922-yildan boshlab esa Moskvada dastlabki radio eshittirishlar



boshlandi. Moskva radiosi orqali eshittirilgan maxsus «radiogazeta»larda bolshevistik targ'ibot va tashviqot asosiy o'rin egallagan edi. Amerikada muntazam radioeshittirishlar 1920-yildan «Key Di Key Ey» radiostansiyasining prezidentlik saylovlari haqidagi reportajini efirga uzatish bilan boshlandi. 1922-yildan boshlab ingliz radiosi (keyinchalik «Bi-Bi-Si» deb nom olgan) ning muntazam eshittirishlari boshlandi.

Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining yangi bu turi bo'lmish radio o'z faoliyatini siyosiy-g'oyaviy vazifalarni amalga oshirishdan boshladi. Yana shu narsa ham ko'rinib turibdi-ki, dastlabki davrlarda radiodan faqat jurnalistika (gazeta) materiallarini o'qib eshittirish vositasi sifatida foydalanilgan, keyinchalik u asta-sekin o'z xususiyatlariga ega bo'la borib, ommaviy axborot vositalarining to'laqonli bir turiga aylana borgan. Toshkentda birinchi radioeshittirishlar 1927-yilning 11- fevralida boshlangan. O'zbekistonda radioeshittirishlarning yo'lga qo'yilishi xalqimiz tarixida katta ijobiy-ma'naviy voqea bo'lgan edi.

Hozirga kelib radio misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi va butun jahon kishilik jamiyati ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin oldi. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar o'z radiostansiyalariga ega. Dunyoda Amerika Qo'shma Shtatlariga qarashli «Amerika ovozi», «Ozodlik», Angliyaning «Bi-Bi-Si», Germaniyaning «Nemis to'liqlari» va boshqa o'nlab radiostansiyalar ishlab turibdi. O'z milliy mustaqilligiga erishgan respublikamiz ham rivojlangan radio tarmog'iga ega. O'zbekistonda 5 ta radiostudiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasida O'zbekiston televideniyesi va radiokompaniyasiga qarashli Toshkent radiosi yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbek radiosi doimiy ravishda to'rt dasturda eshittirishlar olib boradi. Shuningdek, Toshkentdan rus, o'zbek, tojik, qozoq tillaridagi eshittirishlardan tashqari chet eldagi radiotinglovchilar uchun ingliz, hind, arab, fors, afg'on, pushtu, uyg'ur va boshqa tillarda eshittirishlar olib boriladi.

Respublikamiz o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng mamlakatimizda davlat radioeshittirishlari bilan bir qatorda nodavlat, ya'ni xususiy radioeshittirish tarmoqlari ham vujudga keldi. «Navruz», «Poytaxt», «Grand», «Hamroh», «Vodiy sadosi», «Oriyat-dono» va

boshqa nomlardagi bu radioeshittirishlar har kuni efirga turli tezkor xabarlar, qiziqarli eshittirishlarni uzatmoqdalar. Bunday radiostansiyalarning paydo bo'lishi radio eshittirishlarning rang-barang bo'lishiga, hamda ommaviy axborot vositalarining bu sohasida ham o'zaro ijodiy raqobatning vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek radiosining ovozi ko'plab mamlakatlardagi radio tinglovchilar doimiy eshitib boradilar. Bu o'zbek radiosining xalqaro nufuzi tobora oshib borayotganligidan dalolat beradi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" va boshqa muhim hujjatlar o'zbek radiosi faoliyatini yanada yaxshilashda katta imkoniyyatlar yaratib berdi. O'zbek radiosi respublikamizga va chet ellarga doimiy turli axborotlar yetkazib berish bilan birlikda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, o'lkamizda olib borilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarning amalga oshishida, kishilar ongida istiqbol mafkurasining to'la shakllanishida katta xizmat ko'rsatmoqda. Radio garchi ommaviy axborot vositalarining og'zaki nutqqa asoslangan turi bo'lsa-da, o'z faoliyatida jurnalistika qonuniyatlariga to'la rioya qiladi. Ya'ni, radio ham ijtimoiy hayotni aks ettiradi, uni biladi, tadqiq qiladi va unga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Radioning ham bosh vazifasi xuddi jurnalistikaning boshqa turlari kabi ijtimoiy axborot tarqatishdan iborat. U ham jurnalistikaning tasvir, tahlil va ta'sirdan iborat ijtimoiy vazifalarini bajarishda to'la ishtirok etadi, uning faoliyatida ijtimoiy hayotni tasvirlash, ya'ni xabardor qilish ijtimoiy vazifasi alohida o'rin tutadi. Radio ijtimoiy axborotni tezkorlik bilan, boshqa ommaviy axborot vositalaridan oldinroq yetkaza olish imkoniyatiga ega. Shuningdek, u jurnalistikaning tahlil va ta'sir ijtimoiy vazifalarini ham bajarishda ishtirok etadi. Radio jurnalistikaning bosh tamoyillari, an'anaviylik va yangi omillardan foydalanish, jamoatchilik fikrini ifoda etish va boshqa qonuniyatlarini ham bajaradi. Radioda publitsistikaning xabardor qilish, tahliliy va badiiy-publitsistik ko'rinishlari o'z ifodasini topadi. Shuningdek, radio ijtimoiy axborot yetkazib berishdan tashqari, kishilarni dam oldirish, estetik zavq berish kabi ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.

Radioning boshqa ommaviy axborot vositalaridan o'ziga xos afzalligi uning serko'lamligi, doimiyligi hamdir. Ya'ni, radio gazeta va jurnallarga qaraganda kengroq jahhada, kunu-tun muttasil ravishda axborot tarqatishi, eshittirishlar berishi mumkin. Shuningdek, uning tezkorligi va chegara bilmaslgi ham boshqa ommaviy axborot vositalaridan ajratib turadi. Jumladan, radioning qisqa to'liqlari dunyoning katta hududlari, juda uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Bu esa xalqaro miqyosda axborotlar tarqatish va ma'lum g'oyalar yetkazib berishga imkoniyat tug'diradi. Radioning o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishda nutq san'ati, teatr va ayniqsa musiqadan keng foydalana olishi uning jozibadorligini oshiradi. Lekin radio og'zaki, oniyli nuqtai nazaridan gazeta va jurnaldan keyinda turadi. U ijtimoiy hayot voqealarini bevosita ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan teleko'rsatuvlar bilan ham o'zaro raqobatda yutqazishi mumkin, ammo, televideniyeqa qaraganda nisbatan tezkorligi va chegara bilmaslgi bilan undan ustun keladi.

Respublikamizda radio keng tarmoqli tuzilishga ega. Bizda respublika, viloyat, shahar, korxonalar va muassasalar miqyosida radio eshittirishlar olib boriladi. Respublikamizda radio, televideniye va radioeshittirishlar davlat kompaniyasi tomonidan boshqariladi. Radioning rahbari — kompaniya raisining o'rinbosari hisoblanadi. Radiokompaniya ijodiy va ovozni yozib olish xizmati xodimlariga rahbarlik qiladi, radiotexnikasi aloqa vositasi sifatida maxsus idoralarga bo'ysunadi.

Markaziy radioeshittirishlar turli kanallarga bo'linadi. Birinchi dastur, «Mash'al», «Yoshlik» kanali va boshqalar. Shuningdek unda ijtimoiy-siyosiy, «Axborot», ta'lim va tarbiya, musiqa, adabiy-badiiy eshittirishlar va boshqa tahririyatlar ish olib boradi.

Viloyat, shahar, tuman va korxonalar, muassasalar radioeshittirishlari o'z imkoniga qarab bir va bir necha tahririyatlardan iborat bo'ladi.

Markaziy radioeshittirishlar yuqorida aytganimizdek, bir necha dasturlarda olib boriladi. 1-dastur asosan rasmiy, ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar, 2-dastur esa ma'rifiy, ommabop, 3-dastur asosan dam oldirish xarakteridagi eshittirishlardan tashkil topadi. «Mash'al» deb nomlanuvchi maxsus dastur esa axboriy-musiqiy eshittirish hisoblanadi. Yoshlar uchun maxsus «Yoshlar kanali» ham eshittirishlar olib boradi.

Radio orqali beriladigan ma'lum mavzudagi eshittirishlar majmui radiojurnal deb ataladi. Respublikamiz radiosida «Gulxan», «Alanga», «Dugonalar», «Tabassum» va boshqa radiojurnallar doimiy ravishda berib boriladi. Radioeshittirishning bu xilda turli mavzuda bo'lishi jurnalistikaning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olishi, uning har taraflama, har yerda hozir va har narsadan xabardor bo'lishidan kelib chiqadi. Radioeshittirishlarning ma'muriy, hududiy jihatdan bo'linishi esa aholining barcha qatlamlarini qamrab olish imkonini beradi.

Ommaviy axborot vositalari tasnifida radioning paydo bo'lishi bilan radiojurnalistika ham paydo bo'ldi. Radiojurnalistika – jurnalistikaning radioning o'ziga xos xususiyatlari bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan umumiy faoliyat qoidalidir. Radiojurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, uning maxsus elektron texnikaga asoslanishi, ovozni magnit tasmalariga yozib olish va efirga uzatish bilan ish ko'rish, radio faoliyatida publitsistika (so'z), texnika (yozib olish) va uzatishda notiqlik san'ati, musiqadan foydalanishning umumiy birlashmasidan iborat bo'lgan jamoa mehnati qo'llanilishini taqozo etadi. Bu hol uning janrlarida ham o'z ifodasini topadi. Radioning janrlari jurnalistika (publitsistika) janrlari bilan radioning xususiyatlari qo'shilmasidan kelib chiqadi. Avvalo shuni aytish kerakki, publitsistika radio faoliyatida radiopublitsistikaga aylanadi. Ya'ni, matnga ovoz ham qo'shib publitsistikaning ta'siri yanada ortadi.

Radioda ham publitsistikaning har uch qismi – xabardor qilish, tahliliy va badiiy publitsistika o'z ifodasini topadi. Ya'ni, jurnalistikada qo'llaniladigan xabar, reportaj, lavha va boshqa barcha axboriy janrlar hamda suhbat, sharh kabi tahliliy janrlar ham radioda keng qo'llaniladi. (Faqatgina tahliliy janrlarning eng asosiysi bo'lmish maqola radioda «radio chiqish» deb nomlanadi). Badiiy publitsistikaga xos bo'lgan ocherk, feleton, pamflet kabi yirik janrlar ham radioda keng qo'llanilishi mumkin. Umuman olganda jurnalistikaning barcha janrlari radio faoliyatida bema'lol ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari radio, adabiyot va teatr san'ati bilan yaqindan hamkorlik qilishi boisidan radiohikoya, radiopyesa, radioinssenirovka kabi janrlardan ham foydalanadi. Radioda musiqa san'ati keng o'rin olishi boisidan radiokompozitsiya (matn va musiqaning o'zaro qo'shilishi), radiokonsert kabi eshittirishlar ham beriladi. Radiodagi

bu xilma-xil san'atlar jamlamasida soʻz, publitsistika asosiy oʻrinni egallaydi, illo radio birinchi navbatda jurnalistikaning texnikaga asoslangan koʻrinishi, ommaviy axborot vositalarining bir turidir.

Radioda ishlash jurnalistikaning gazeta va jurnal kabi turlaridan ancha farq qiladi. Radioda ishlovchi jurnalist xuddi gazeta va jurnallarda ishlovchi jurnalistlardek ijod qilishi bilan birgalikda ovozni yozib olish va uzatish texnikasidan, radioning boshqa oʻziga xos xususiyatlaridan yaxshi xabardor boʻlishi shart.

### **Radio boʻyicha reyting topshiriqlari**

1. *Radio jurnalistika tasnifiga qachon kirib keldi?*
2. *Birinchi bor radio kim tomonidan, qachon ixtiro qilindi?*
3. *Radioning OAV sifatidagi faoliyati nechanchi yildan boshlandi?*
4. *Radiodan OAV toʻlaqonli bir turiga aylanguncha qanday foydalanildi?*
5. *Toshkentda birinchi radioeshittirishlar qachondan boshlangan?*
6. *Nodavlat eshittirish tarmoqlarini bilasizmi?*
7. *Radio ijtimoiy axborot yetkazishdan tashqari yana qanday ijtimoiy vazifani bajaradi?*
8. *Markaziy radio eshittirishlar kanallarini sharhlang.*

### **Radio boʻyicha nazorat savollari**

1. *Radioning boshqa OAV dan afzalligini izohlang.*
2. *Radio oʻzining ijtimoiy vazifasidan tashqari yana nimalardan foydalanadi?*
3. *“Navroʻz”, “Poytaxt”, “Grand”, “Hamroh”, “Vodiy sadosi”, “Oriyat-dono” radiostansiyalar faoliyatiga toʻxtalig.*
4. *Radio boshqa OAV dan qaysi faoliyati bilan ustun turadi?*
5. *Radiojurnallar faoliyati haqida nimalar bilasiz?*

#### **2.2.4. TELEVIDENIYE**

XX asrning oʻrtalariga kelib jurnalistika tasnifi yana bir koʻrinish, yana bir shakl bilan boyidi—uni televideniye (tele — yunoncha — uzoq, videnie — ruscha-koʻrish) deb nomlandi. Televideniye jurnalistikaning

elektron texnikaga asoslangan bir turi boʻlib, elektromagnit toʻlqinlari orqali ovoz va tasvirni uzoq masofaga, keng hududga yoyish orqali ish koʻradi. Televideniye OAV tasnifining alohida ahamiyatga va oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan turi hisoblanib, ijtimoiy hayotni soʻz bilan tasvirlash (gazeta va jurnal), ovoz bilan eshittirish (radio)gina emas, balki, bevosita koʻrsatish imkoniga ham egadir. Televideniye ixtiro etilishi bilan jurnalistika tasnifida juda katta sifat oʻzgarishi, haqiqiy inqilob yuz berdi: kishilar ijtimoiy hayot voqealarini bevosita koʻra olish imkoniyatiga ega boʻldilar, ijtimoiy ong bilan ijtimoiy borliq oʻrtasida eng qisqa yoʻl, eng qulay koʻprik barpo etildi, inson ongiga taʼsir etishning eng ishonchli, eng qiziqarli usuli topildi.

Televideniye faqat inson ongiga emas, uning his-tuygʻusiga ham faol taʼsir koʻrsatadigan jurnalistika turi boʻldi. Televideniye inson aql-zakovati, tafakkurining bemisl mevasi, fan-texnikaning buyuk yutugʻi, inson madaniyati erishgan olamshumul natija, hamda uni yanada taraqqiy etishida tengsiz omil boʻlib qoldi. Ana shu buyuk kashfiyot tufayli XX asr — televideniye asri deb nomlanadigan boʻldi.

Shuni aytish kerakki, odamzod qadim zamonlardan beri uzoq-uzoqlardagi manzaralarni, olamda boʻlayotgan voqealarni yaqindan koʻrishni orzu qilib kelgan, shunday bir asbob “oynai jahon” toʻgʻrisida ertak va afsonalar toʻqigan. Ulugʻ mutafakkir shoir Alisher Navoiy xalqning orzu-umidi boʻlgan bu afsonani oʻzining mashhur “Xamsa” asaridagi “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlab, bu xayoliy asbobni “jahon holatini ravshan” koʻrsata olishini tasvir va tavsif etib oʻtgan edi.<sup>1</sup> Bu gʻoyalar zamonlar oʻtib bizning davrga kelib haqiqatga aylandi.

Televideniye yaratish boʻyicha haqiqiy ilmiy-tadqiqot ishlari oʻtgan asrning oxirlari va XX asrning boshlarida boshlandi. Bu davrda turli mamlakatlarda bu sohada oʻnlab ilmiy loyihalar ham taklif qilindi. Peterburg universitetining professori B.L. Rozing birinchi boʻlib nur taratuvchi elektron trubkani yaratdi va 1911- yilning 9-mayida sinab koʻrdi. Bu bilan u hozirgi zamon televideniyesiga nazariy asos soldi. Televideniye ixtiro qilishda Rossiyaning Nijegorod shahrida rus olimi M.A. Bonch-Bruevich boshchiligidagi radioni takomillashtirish sohasida ish olib borgan guruhning ham xizmati bor edi.

Albatta to‘la ma‘nodagi, mukammal televideniyeining vujudga kelishi uchun juda ko‘plab olimlar, mutaxassislar uzluksiz izlanishlar olib bordilar. Ular orasida toshkentlik tadqiqotchilar B.P.Grabovskiy va I.F.Belyanskiylar ham bor edilar. Grabovskiy Turkiston davlat universitetining xodimi, Belyanskiy esa O‘rta Osiyo aloqa ilmiy-tekshiruv idorasining xodimi edi. Ularga professor N.N.Zlatovratskiy va V.I.Popovlar yordam berishdi. Tadqiqotchilar 1923-26— yillarda harakatdagi tasvirni uzatuvchi va qabul qiluvchi asbobni yaratish ustida tinmay ish olib borishdi. Ixtirochilar o‘zlari yaratgan trubkani Sankt-Peterburgga olib borib B.L.Rozingga ko‘rsatishadi, olim tadqiqotchilarning ishini ma‘qullab, tegishli maslahatlar beradi. O‘zbekiston hukumati yosh tadqiqotchilarning ishini qo‘llab-quvvatlaydi va moddiy-ma‘naviy ko‘mak berib turadi. Nihoyat, 1928-yilning 28-iyulida ular yaratgan apparat sinovdan muvaffaqiyatli o‘tadi.

Grabovskiy va Belyanskiylar yasagan mo‘jazzgina ekranda Belyanskiyning yurib turgan holati, bosh kiyimini bir necha marta yechib kiygani ham ko‘rinadi. Binobarin, televideniyeining dastlabki ko‘rinishi ixtiro etilgan edi. Ixtirochilarning Xalqaro konvensiyasi tomonidan Grabovskiy va Belyanskiylarning mazkur ishiga berilgan hujjatlar O‘zbekistonning televideniye vatanlaridan biri, Toshkent esa televideniyeining tug‘ilgan joyi deyishimizga asos beradi.<sup>3</sup>

Televideniyeining muntazam ko‘rsatuvlari asosan 1930-yildan keyin boshlandi. 1931-yili Parijda, xuddi shu yili Moskvada teleko‘rsatuvlar yo‘lga qo‘yildi. 1936-yilda esa Angliya radioeshittirish korporatsiyasi-“Bi-Bi-Si” o‘zining muntazam televizion ko‘rsatuvlarini namoyish eta boshladi. Bu orada avj olib ketgan ikkinchi Jahon urushi televideniye sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning borishiga to‘sqinlik qildi. Urushdan keyin Yevropaning barcha yirik mamlakatlarida, 1946-yil Moskvada ommaviy teleko‘rsatuvlar boshlandi.<sup>1</sup>

Toshkent televizion markazi qurilishi 1954-yil may oyida boshlanib, 1956-yil 5-noyabrda ishga tushirildi. Shu kuni kechqurun Toshkentda zangori ekranning chirog‘i yondi va birinchi televideniye diktor

---

<sup>3</sup> Bu haqda Karimovning “Bu ko‘zguki erur hikmat jahoni” maqolasida (O‘zbekiston matbuoti. 1998. 4-son. 34 b.) mufassal ma‘lumot keltirilgan.

(saxandon)lari Iqbol Olimjonova (o‘zbek tilida) va Yunona Stolyarova (rus tilida) teleko‘rsatuvlarni olib bordilar.<sup>4</sup>

1962-yildan boshlab Toshkent telestudiyasi ikki dasturda ko‘rsatuvlar bera boshladi. 1967-yildan boshlab Moskva televideniyesi va 1971-yildan boshlab Toshkent televideniyesi rangli tasvirga o‘tdi.

Hozirgi dunyoda televideniye yuksak darajada rivoj topdi va insoniyat ma‘naviy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Barcha rivojlangan mamlakatlar o‘z televideniyesiga ega. Masalan, AQShda uchta umummilliy teletarmoq: «Ey-Bi-Si», «Si-Bi-Es» va «En-Bi-Si» faoliyat ko‘rsatmoqda. Angliyada «Bi-Bi-Si», Fransiyada TF, Rossiyada OPT, PTP, HTB va boshqa yirik telestudiyalar mavjud. O‘zbekistonda Toshkent telestudiyasidan tashqari ellikdan ortiq telestudiya ish olib bormoqda. O‘zbek televideniyesi o‘z salohiyati, milliy qiyofasi bilan jahonning yetakchi televideniyelari qatorida turadi. Televideniye jahon taraqqiyoti bilan qadamba-qadam rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Kabelli televideniye vujudga kelishi hamda televizion signallarni tarqatish va qabul qilishda yer sun‘iy yo‘ldoshlaridan foydalanish televideniye texnik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Fan-texnikaning o‘sishi, lazer nurlaridan foydalanishning yangi usullari ixtiro qilinishi natijasida televideniye yanada takomillashtirish, hajmli ko‘rsatish usullarini yo‘lga qo‘yish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Insoniyatga ijtimoiy hayotni bevosita ko‘rsatib beruvchi bu ommaviy axborot vositasi turining kelajagi porloqdir.

Televideniye garchi tub ma‘noda jurnalistika bo‘lmasa-da, ya‘ni, so‘zni bosma usul bilan ko‘paytirmasa-da (ya‘ni, u ijtimoiy hayotni og‘zaki so‘z va tasvir vositasida aks ettirishi ma‘lum), u ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanadi va jurnalistika qonun-qoidalari asosida ish ko‘radi.

Jurnalistikaning bosh qonuni esa, ma‘lumki, ijtimoiy borliqni aks ettirish, uni bilish, tadqiq qilish va jamiyatga qaytadan ta‘sir ko‘rsatishdir. Televideniye bu qonunlarning barchasini ado etadi. U jurnalistikaning ijtimoiy axborot yig‘ish va tarqatishdek vazifasini, uning uch qirradi

<sup>4</sup> Toshkentik televideniye ixtirochilari B.P. Grabovskiy va I.F. Belyanskiylar haqidagi ma‘lumot A. Karimovning «Oynai jahon tarixidan» (Muxbir, 1973. 7-son), «Bu ko‘zgukim zarur hikmat jahoni» (O‘zbekiston maibuti, 1998. 4-son) maqolalarida ancha batafsil bayon etilgan.



bo‘lmish – tasvir, tahlil va ta’sirdan iborat bo‘lgan uch ijtimoiy vazifasini ham to‘la bajaradi. Ya’ni, u hayotdagi voqea va hodisalarni tasvirlaydi, Shu bilan birgalikda, uni tahlil ham qiladi va hayotga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir etadi. Jurnalistikaning bosh tamoyillari ham televideniye faoliyati uchun qonundir. An’analarga amal qilish va yangi omillar yaratishi bo‘lmish – tasvir, tahlil va ta’sirdan iborat bo‘lgan uch ijtimoiy vazifasini ham to‘la bajaradi. Ya’ni, u hayotdagi voqea va hodisalarni tasvirlaydi, Shu bilan birgalikda, uni tahlil ham qiladi va hayotga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir etadi. Jurnalistikaning bosh tamoyillari bilvosita ta’sir etadi. Jurnalistikaning bosh tamoyillari ham televideniye faoliyati uchun qonundir. An’analarga amal qilish va yangi omillar yaratish, jamoatchilik fikrining ifodachisi bo‘lish qonuniyatlari ham televideniye uchun taalluqlidir.

Shu bilan birgalikda televideniye ommaviy axborot vositalarining o‘ziga xos, alohida bir turidir. U o‘z ijtimoiy vazifasini bajarishda, ijtimoiy hayotni aks ettirishda so‘z bilan tasvir qo‘shilmasiga erishadi, publitsistika bilan bir qatorda og‘zaki nutq san’ati, teatr san’ati, tasvir, kino san’ati, musiqa san’ati, fotojurnalistika kabilardan keng foydalanadi, shu boisdan uning jozibasi, kishilarni o‘ziga tortish xususiyati jurnalistikaning boshqa turlariga qaraganda ortiqroqdir. Shu boisdan televideniyaning tasvir, tahlil va ta’sir ijtimoiy vazifalari bilan bir qatorda kishilarga estetik zavq berish, dam oldirish, ma’rifiy ijtimoiy vazifalari ham mavjud. U ijtimoiy hayotni bevosita ko‘rsata olish hamda qator san’at turlaridan foydalanish imkoni bilan ommaviy axborot vositalari o‘rtasida eng birinchi o‘ringa da’vog‘ar. Bu jihatdan u gazeta va jurnallardan yuqori turadi, lekin oniyli, efirga tarqalib ketishi nuqtai nazaridan ularning o‘rnini bosa olmaydi. Televideniye radio bilan doimiy raqobatda bo‘ladi va yuqorida keltirilgan qator xususiyatlari bilan yuqori turadi, lekin radioga qaraganda masofada cheklanishi, materiallarni tayyorlash va efirga uzatish jarayoni biroz murakkabligi bilan undan orqada turadi.

---

<sup>5</sup> Televideniye tarixiga doir ma’lumotlar prof.F.A Mo’minovning “Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida” kitobida (T.: Universitet” nashriyoti, 1998. 65-76 b.) ancha batafsil berilgan.

<sup>6</sup> Mazkur satrlar muallifi Toshkent televideniye markaziy qurilishining birinchi kundan boshlab teleminora qad ko‘tarishi va birinchi ko‘rsatuvlarning olib borilishiga guvoh bo‘lganligi bilan faxrlanadi. U paytda muahiflardan biri O‘rta Osiyo davlat universiteti jurnalistika bo‘limining talabasi edi.

Barcha OAV turlari singari televideniye ham ayrim guruhlar, tabaqalar, sinflar qo'ldida g'oyaviy ta'sir vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunga misol sifatida mamlakatimizning yaqin tarixida uzoq yillar faoliyat ko'rsatib kelgan kommunistik televideniye ko'rsatish mumkin. Hozirgi o'zbek televideniyesi esa umumxalq manfaatlariga, mustaqillik mafkurasiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda televideniye tashkiliy tuzilishi turli xildir, bizda davlat telekompaniyasi bilan bir qatorda nodavlat televideniye studiyalari ham ish ko'rmoqda. Toshkent televideniyesi to'rt – "O'zbekiston" deb nomlanuvchi 1- kanal, 2- "Toshkent" kanali, 3-"Yoshlar kanali", 4-"Sport" kanali bo'yicha ko'rsatuvlar olib boriladi. Toshkent telestudiyasida "Siyosat", "Iqtisodiyot", "Ma'rifat", "Axborot", "Umid", "Musiqqa", "Kino" va boshqa ichki studiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Teledasturlarning rang-barangligi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotining barcha sohalarini qamrab olish imkoniyatini beradi.

Xuddi radioeshittirishlar singari teleko'rsatuvlar ham oldindan rejalashtiriladi va dasturnomalarda bosib chiqariladi.

Televideniye tuzilishi, uning o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishda so'z va tasvir birligidan, publitsistika bilan bir qatorda san'atning turli ko'rinishlaridan foydalanishi sababli unda mehnat jamoa tarzida quriladi, ya'ni jurnalistlar, tasvirga oluvchilar, san'at talablarini bajaruvchi - rejissyorlar hamda og'zaki nutq ustalari - suxandon, sharhlovchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Televideniye paydo bo'lishi bilan telejurnalistika ham paydo bo'ldi. Telejurnalistika - jurnalistika qonun-qoidalari bilan televideniye xususiyatlarining birlashmasidan iborat.

Telejurnalistika janrlari ham jurnalistika janrlari bilan televideniye xususiyatlarining qo'shilishidan kelib chiqadi. Jurnalistikaning, ya'ni, publitsistikaning uch axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik qismlariga xos bo'lgan deyarli barcha janrlari televideniya ham keng qo'llaniladi. Bular televideniye xususiyatlari qo'shilgach, teleaxborot, telcreportaj, telclavha, telesuhbat (teleintervyu), teleharh, teleocherk, telefeleton va boshqalarga aylanadi. (Gazeta va jurnalga xos bo'lgan maqola janri «telechiqishlar» nomi bilan berilishi mumkin). Ma'lum mavzuga bag'ishlangan

ko'rsatuvlar yig'indisi telejurnal deb nomlanadi. Televideniye janrlari bular bilan cheklanib qolmasdan televideniye o'z faoliyatida qo'llanadigan san'at turlariga doir ham bo'lishi mumkin. Masalan, adabiyot va uning bir turi bo'lgan dramaturgiyaning televideniyedagi ko'rinishi sifatida telenovella (*televizionlashtirilgan hikoya*), telespektakl, teleinszenirovka, teleminiatiyura, musiqa san'ati bilan bog'lanib ketuvchi telekonsert kabilar shular jumlasidandir.

Televideniye shuningdek kino san'ati imkoniyatlaridan keng foydalanadi. U avvalo kinofilmlarni o'z ekrani orqali doimiy ko'rsatib borishi bilan bu san'atni ommaga yetkazishda maxsus kanal bo'lib xizmat qilsa, ikkinchidan kino san'atiga asoslangan telefilmlar, hujjatli kino asarlari yaratiladi. Kino san'atining publitsistika bilan bevosita qo'shilishi natijasida vujudga keluvchi hujjatli filmlar ijtimoiy hayot voqealarini yoritishda, inson ongiga ta'sir ko'rsatishda hamda jamoatchilik fikrini uyg'otishda katta xizmatni bajaradi. Bularning hammasi telejurnalistika imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi.

Televideniye o'z faoliyatida turli san'at sohalaridan qanchalik keng foydalanmasin, u avvalo jurnalistika, to'g'rirog'i ommaviy axborot vositasidir. Shuning uchun ham unda telepublitsistika asosiy o'rinni egallaydi. Telepublitsistika dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalarni ommaga yetkazishda, hozirgi zamonning muhim masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek telepublitsistikasi respublikamizda olib borilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy, madaniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirishda, kishilarimiz ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirishda, istiqloq mafkurasini shakllantirish va hayotga tatbiq etishda katta xizmat qilmoqda.

## **Televideniye bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jurnalistika tasnifida XX asr o'rtalaridagi buyuk o'zgarishni ayting.*
2. *Hozirgi zamon televideniyesiga kim va qachon asos soldi?*
3. *Televideniyeining muntazam ko'rsatuvlari qachondan boshlandi?*
4. *Toshkent televideniyesi rangli tasvirga qachon o'tdi?*
5. *Televideniyeining ijtimoiy vazifalarini ayting.*
6. *Telejurnalistika qachon paydo bo'ldi?*
7. *Telejurnalistika janrlarini bilasizmi?*
8. *O'zbek telepublitsistikasining o'rni.*

## **Televideniye bo'yicha nazorat savollari**

1. *Qaysi asr televideniye asri deb e'tirof etildi?*
2. *Kim birinchi bo'lib nur taratuvchi elektron trubkani yaratdi va uni qachon sinovdan o'tkazdi?*
3. *Televideniye tug'ilgan hududni ayting.*
4. *Toshkentda teleko'rsatuvlar qachon boshlandi?*
5. *Birinchi televideniye suxandonlarini bilasizmi?*
6. *Telejurnalistika imkoniyatlarini sanang.*

### **2.2.5. AXBOROT AGENTLIKLARI**

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari gazetalar, jurnallar, radio va televideniyeidan iborat bo'lib, tashqi ko'rinishi, ommaga ta'sir etish shakli turlicha bo'lgan bu jurnalistika turlari jurnalistikaning qonun-qoidalari asosida ish ko'radi. Ular bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar, bir-birlarini to'ldiradilar va shu taxlit yaxlit bir tasnif –jurnalistika, ommaviy axborot vositalari tizimini tashkil etib, ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini bus-butun, to'liq aks ettiradilar.

Ammo jurnalistika tasnifi yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi. Unda axborot agentliklari ham o'ziga xos o'rin tutadi. Axborot agentliklari (agent so'zi lotincha — xizmat qiluvchi, agentlik esa xizmat ko'rsatish idorasi degan ma'noni bildiradi), garchi jurnalistikaning alohida bir turi hisoblanmasa-da va o'z ko'inishiga ega bo'lmasa-da, jurnalistika tasnifida

muhim rol o'ynaydi, bu tasnif axborot agentliklarisiz o'z ijtimoiy vazifasini to'la bajara olmaydi.

Axborot agentliklari nima? Axborot agentliklari ommaviy axborot vositalarini axborot bilan ta'minlab turuvchi maxsus kanal, muassasadir. Bu agentliklar ommaviy axborot vositalarining o'z ijtimoiy vazifalarini to'la bajarishlarida yordam beradi, ijtimoiy hayotni butun to'raligi bilan qamrab olishda xizmat qiladi, ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi bir butunlikni ta'minlaydi. Xullas, axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari ishining mukammalligini ta'minlash uchun insoniyat tomonidan kashf etilgan muhim vositadir. Ya'ni, insoniyatning axborotga bo'lgan, hayotni bilib turish uchun bo'lgan cheksiz ehtiyoji ommaviy axborot vositalariga qo'shimcha ravishda axborot idoralarining dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Axborot agentliklari inson ongining ufqlarini yanada kengaytiradi, dunyoni to'laroq va mukammalroq bildiradi, ijtimoiy faoliyatni yanada faollashtiradi. Axborot agentliklari bo'lmaganda gazetalar, jurnallar, radio va televideniye dunyo voqealaridan to'liq xabar bera olmas va insoniyat dunyodan yetarli, to'liq voqif bo'la olmas edi.

Axborot agentliklari axborot yig'ish va o'zaro almashish hamda ommaviy axborot vositalariga yetkazib berishda aloqaning turli vositalaridan jumladan, telegrafdan keng foydalanadilar. Keyinchalik esa ular aloqaning telefon, faks, kompyuter texnikasi va boshqa zamonaviy vositalar yordamida ish ko'ra boshladilar.

Axborot agentliklarining kelib chiqish tarixi jurnalistikaning kelib chiqishi bilan chambarchas bog'liq. XVI asrda Venetsiyada, dastlabki qo'lyozma varaqalar paydo bo'lganda ularga yangiliklar yetkazib beruvchi maxsus byuro — idoralar ham paydo bo'ldi. O'sha davrda gazeta chiqaruvchilarni gazetantlar, yangilik yetkazib beruvchilarni esa novellantlar deb atashgan. Ular yangiliklarni turli yo'llar bilan (*xabarchilar yuborish, kaptarlar orqali xat jo'natish va h.k.*) yig'ishardi. Keyinchalik telegraf ixtiro qilinishi bilan yangiliklar ana shu vosita orqali yig'ilib tarqatila boshlandi va dastlabki axborot agentliklari telegraf agentliklari deb yuritildi.

Birinchi telegraf agentligi 1825-yilda Parijda Sharl Gavas tomonidan tashkil etildi. Bu agentlik turli yangiliklar yig'ar, chet el gazetalaridan

tarjimalar qilar va tarqatardi. 1848-yilda Amerikada AP (*Assoshiyted Press*) agentligi tashkil topdi. 1849-yilda Germaniyada Volf agentligi tuzildi. 1851-yilda esa Angliyada Reyter agentligi ish boshladi. 1894-yilda Rossiyada RTA agentligi yuzaga keldi.

Hozirga kelib dunyoda 200 dan ortiq axborot agentliklari ish olib bormoqda. Shulardan 5 tasi eng yirik axborot agentliklari bo'lib, ular yer kurrasini o'z ta'sir doirasiga bo'lib olgan. Ular quyidagilar:

1. Assoshiyted Press (AP) – AQSh.
2. Yunayted Press Interneyshnl (YuPI) – AQSh.
3. Reyter (Angliya).
4. Frans-Press (Fransiya).
5. ITAR-TASS – (Rossiya).

Mazkur axborot agentliklari dunyo bo'ylab axborot yig'adi va tarqatadi. Bulardan tashqari Angliyaning YuSIA, Germaniyaning DPA, Yaponiyaning Kiodo Tsusin, Xitoyning Sinxua, Hindistonning PTI (*Press Trast of India*) kabi axborot agentliklari ham yirik agentliklar hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonda ish ko'rayotgan O'za — O'zbekiston Axborot agentligi, Tashqi ishlar vazirligiga qarashli "Jahon" hamda mustaqil "Turkiston-Press" axborot agentliklari milliy agentliklar sifatida ish olib boradilar. Axborot agentliklari o'rtasida axborotlar tarqatish va ayriboshlash maxsus bitimlar asosida amalga oshiriladi va xalqaro valyuta - pul sistemasi bilan hisob-kitob qilinadi. Jahondagi milliy va yirik axborot agentliklari o'rtasida birinchi bo'lib axborot olish va ko'proq tarqatish, axborot bozorida erkin harakat qilish sohalarida o'zaro raqobat mavjud. Shuning uchun ham yirik axborot agentliklarida ko'proq axborot yig'ish, yangiliklarni birinchi bo'lib e'lon qilish uchun barcha texnikaviy va boshqa imkoniyatlar ishga solinadi.

Axborot agentliklari garchi jurnalistikaning alohida bir turi bo'lmasada, ommaviy axborot vositalarining tarkibiy qismini tashkil etadi hamda jurnalistika qonuniyatlari asosida ish ko'radi. Ular OAVning boshqa turlari singari ijtimoiy hayotni aks ettiradi, uni biladi, tahlil qiladi hamda hayotga ta'sir qiladi. Ya'ni, jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari bo'lmish tasvir, tahlil va ta'sir etish, axborot agentliklarining ham asosiy vazifalari hisoblanadi. Axborot agentliklari faoliyatida jurnalistikaning ijtimoiy

vazifalaridan birinchisi, ya'ni, tasvir ijtimoiy vazifasi ustuvor bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda tahlil ijtimoiy vazifasi ham ma'lum darajada amalga oshiriladi. Ta'sir ijtimoiy vazifasi esa gazeta va jurnallarga qaraganda biroz cheklangan bo'ladi. Jurnalistikaning bosh tamoyillari ham axborot agentliklari ishida asosiy qoidalik rolini bajaradi. Axborot agentliklari ishida ayniqsa, haqqoniylik tamoyili bosh tamoyil darajasiga ko'tariladi, chunki agentliklar tomonidan tarqatilgan har qanday xabar, har bir axborot avvalo haqqoniylik talabiga to'la javob berishi lozim. Aks holda axborot agentliklari o'z ijtimoiy vazifalarini bajara olmaydi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, an'anaviylik va yangi omillar yaratish qonuniyatlari ham axborot agentliklari uchun taalluqlidir. Lekin axborot agentliklari jurnalistikaning alohida bir turi emasligi, o'z ko'rinishiga ega bo'lmaganligi boisidan bu qonuniyatlar ularning faoliyatlarida o'ziga xos bir tarzda amalga oshiriladi.

Biz bu qonuniyatlarni O'zbekiston Axborot agentligi faoliyati misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'za agentligi mustaqil davlat – O'zbekiston respublikasining rasmiy axboriy agentligi bo'lib, respublikamiz ommaviy axborot vositalariga ichki va tashqi axborot yetkazib berish manbai hisoblanadi. O'za axborotlar yig'ish va tarqatishda aloqaning telegraf, telefon va boshqa vositalaridan foydalanadi. O'za respublikamiz jurnalistikasi, radio va televideniyesini ichki va tashqi axborotlar bilan ta'minlashda o'z ichki muxbirlari hamda boshqa axborot agentliklari xizmatidan foydalanadi. Agentlikning respublikaning barcha viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasida o'z muxbirlari bo'lib, ular agentlikni kundalik axborotlar bilan ta'minlab turishadi. Tashqi axborotlar esa boshqa chet el axborot agentliklaridan maxsus bitim orqali olinadi va respublikamiz ommaviy axborot vositalariga yetkazib beriladi. O'za o'zining ichki axborotlarida mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotimizdagi yangiliklarni, yuz berayotgan voqealarni aks ettiradi. Tashqi axborotlarda esa dunyoda bo'lib turgan voqealar o'z aksini topadi. Ayrim tashqi axborotlar O'zAning chet ellarga yuborilgan muxbirlari tomonidan tayyorlanadi. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan «Jahon» axborot agentligi ham mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarini tashqi axborot

bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zA agentligi shuningdek, respublikamiz hayotida yuz bergan muhim yangiliklarni chet el axborot agentliklari va OAVga yetkazib beradi.

O'zA shuningdek O'zbekiston Respublikasining rasmiy axborot organi sifatida mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan muhim voqealar to'g'risida birinchi bo'lib, rasman xabar berish va sharhlash, xalqaro voqealarga doir hukumatimiz rahbar doiralariining fikrini bayon qilish, chet el jurnalistikasi va axborot agentliklari xabarlarida respublikamiz hukumati olib borayotgan siyosatga nisbatan noto'g'ri, tuhmat tarzidagi xabarlarini rad etish vazifalarini ham bajaradi.

O'zA agentligi axborotdan tashqari fotosuratlar olish va ommaviy axborot vositalariga yetkazish bilan ham shug'ullanadi. Agentlikda respublika axborot tahririyati, tarjima byurosi, fotoxronika tahririyati va boshqa xizmat bo'limlari mavjud.

O'zbekistonda keyingi yillarda vujudga kelgan "Jahon" va "Turkiston Press" axborot agentliklari mamlakatimizdagi axborot yig'ish va tarqatish tizimini yanada kengaytirdi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ta'sis etilgan "Jahon" axborot agentligi asosan tashqi axborot olish uchun mo'ljallangan. Mazkur agentlik dunyoning turli mamlakatlari bilan hamkorlik qilish, chet el axborot agentliklari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro axborot ayriboshlash, chet ellarga maxsus muxbirlar yuborish yo'li bilan axborotlar yig'ish va respublikamiz ommaviy axborot vositalarini ta'minlash vazifasini bajarmoqda.

Mustaqil respublikamizning boshqa chet el mamlakatlari bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hamkorligi, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatlardagi faol ishtiroki, O'zbekiston davlat rahbarining chet el mamlakatlariga safarlari, chet elda ta'lim olayotgan yoshlarimizning hayoti, o'qishlari, chet el mamlakatlari hayotida yuz berayotgan voqealar va yangiliklar "Jahon" axborot agentligi axborotlarining asosiy mavzusini tashkil etadi.

Respublikamizda tashkil etilgan mustaqil axborot agentligi "Turkiston Press" esa mamlakatimizda yuz berayotgan muhim yangiliklarni chet el axborot agentliklari va ommaviy axborot vositalariga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti



I.A. Karimovning “Turkiston Press” axborot agentligi muxbiri bilan qilgan “O‘lloh qalbimizda va yuragimizda” deb nomlangan suhbatini O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilindi va jahon afkor ommasiga yetkazildi. Toshkentda 1999-yil 16-fevralda ro‘y bergan voqealarning mohiyati, mamlakatimizda vijdon erkinligi huquqining amalga oshirilishi, islom diniga keng yo‘l ochilganligi hamda respublikamizning mintaqa va dunyoda tinchlik, barqarorlikni saqlash yo‘lida olib borayotgan izchil tinchliksevar siyosati mazkur suhbatda o‘z ifodasini topdi.

Respublikamiz axborot agentliklari ommaviy axborot vositalarining tarkibiy qismi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Axborot agentliklarida ishlash axborot vositalarining boshqa turlaridan ma‘lum darajada farq qilib, jurnalistdan chuqur bilim, yuqori darajadagi kasbiy malaka, tezkorlikni talab qiladi.

#### **Axborot agentliklari bo‘yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Axborot agentligi degan iborani sharhlang.*
- 2. Axborot agentliklari qachon paydo bo‘lgan?*
- 3. Yangilik yetkazib turuvchilarni qanday nom bilan atashgan?*
- 4. Birinchi telegraf agentligi qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?*
- 5. Axborot agentligining asosiy vazifasini sharhlang.*
- 6. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan agentliklarni sanang.*
- 7. “Jahon” axborot agentligining asosiy vazifasi.*

#### **Axborot agentliklari bo‘yicha nazorat savollari**

- 1. Axborot agentliklarining ilk kurtaklari qachon paydo bo‘lgan?*
- 2. O‘zbekistondagi qaysi axborot agentliklarini bilasiz?*
- 3. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan mustaqil axborot agentligini ayting.*
- 4. O‘zA faoliyatida haqqoniylik tamoyilining bajarilishini sharhlang.*
- 5. “Jahon” axborot agentligi muassisini ayting.*

### **2.2.6. KITOB VA KITOB NASHRIYOTLARI**

Jurnalistika tasnifida kitob va u nashr etiladigan kitob nashriyotlari ham alohida o'rin egallaydi. Kitob garchi vaqfli jurnalistika turi bo'lmasada, umuman jurnalistika - bosma mahsulot ko'rinishi sifatida ommaviy axborot vositalari tasnifiga taalluqlidir. Ya'ni, u so'zni bosma usul bilan ko'paytirish mahsuli sifatida jurnalistika tasnifiga kiradi va o'ziga xos, alohida o'rin tutadi.

Kitob nima? Kitob so'zi, arabcha bo'lib, "yozilgan narsa", "yozma mahsulot" degan ma'noni bildiradi. Kitob-jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayoti, insonlarning dunyo haqidagi qarashlari, real voqelikni bilish borasidagi tajribalari, bilimlari, his-tuyg'ularini o'zida aks ettiruvchi jurnalistika turidir. Kitob - insoniyatning buyuk kashfiyoti, uning aql - tafakkur rivojining bebaho mevasi, bilim manbai, kishilik jamiyati madaniyatining buyuk tarkibiy qismi, uni yanada taraqqiy ettiruvchi tengi yo'q vositadir.

Inson o'z aqlini tanibdiki, ko'rgan-bilganlari, boshdan kechirganlari, tajriba va izlanishlari, dunyodan olgan hayrat va mushohadalari, orzu-umidlari, ichki kechinmalari, quvonch va shodligi, dard - alamlarini yozuv orqali bayon qiladi, kitob holida ko'paytiradi va barcha insonlarga, avlodlardan-avlodlarga yetkazadi. Inson kitob orqali olamni biladi, tadqiq qiladi va unga o'z ta'sirini o'tkazadi. Kitob inson uchun bitmas-tuganmas ma'naviy ozuqadir. Insoniyatning butun hayoti sekin-asta kitobga ko'chganligi haqida yozgan edi rus mutafakkiri A.I.Gertsen. Uning fikricha kishilar, qabilalar, davlatlar yo'q bo'lib ketadi, ammo kitob qolaveradi. Kitob insoniyat bilan birga o'sadi, unda aqlarni hayratda qoldirgan barcha ta'limotlar, qalblarni larzaga solgan barcha ehtiroslar kristallashadi.

Kitob paydo bo'libdiki, insoniyatga xizmat qilgan, unga dunyoni tushuntirgan, bilim bergan, kasb-hunar o'rgatgan, ma'naviyatini oshirgan. Olimlarning kashf va ixtirolari, shoir va adiblarning badiiy asarlari, daholarning ta'limotlari insonlarga kitob holida yetib kelgan. Binobarin, kitoblar har doim ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat yo'lida, umuminsoniy maqsadlar uchun xizmat qilgan. Shu boisdan ham kitoblarning aksariyati umuminsoniy, umumbashariy xususiyatga ega. Bizga tarixdan meros

bo'lib qolgan juda ko'p ilmiy, badiiy, tarixiy, kasbiy kitoblar bunga misol bo'la oladi. Shu bilan birgalikda, ayrim kitoblar muayyan maskuraga, ayrim shaxslar, tabaqalar va sinflarning manfaatlariga xizmat qiladi. Masalan, feodal hukmronligi davrida ularning faoliyati madh etib yozilgan, ayrim diniy va boshqa ta'limotlar bayon etilgan kitoblar shular jumlasidandir. Tarixdagi turli shaxslar, tabaqalar, sinflar kitobga turlicha munosabatda bo'lganlar. Jaholatga berilgan ayrim feodal hukmronlar kitobga salbiy tarzda qarab, o'z manfaatlariga zid deb topgan kitoblarni yondirganlar, yo'q qilganlar. Keyinchalik hukmronlikni o'z qo'liga olgan burjuaziya sinfi kitob nashr etishga katta ahamiyat berdi, chunki bu ish unga ham iqtisodiy, ham siyosiy foyda keltirdi. Ishchilar sinfi va uning partiyasi bo'lmish kommunistik partiya kitobdan o'z ta'limoti, siyosatini ommaga yetkazish vositasi sifatida keng foydalandi. Faqat demokratik jamiyatdagina kitob haqiqiy umuminsoniy ahamiyat kasb etadi.

Kitobning jurnalistika tasnifidagi o'zni o'ziga xos bo'lib, unda vaqtli jurnalistikaning barcha xususiyatlari mavjudligini ko'rish mumkin. Kitob ham xuddi gazeta va jurnal singari bosiladi va u tashqi ko'rinishidan ko'proq jurnalni eslatadi. Kitob ham jurnalistikaning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiradi, uni biladi, tadqiq qiladi va borliqqa qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari kitobda ham o'z ifodasini topadi, u ham hayot voqealarini tasvirlaydi, tahlil qiladi va unga ta'sir ko'rsatadi. Jurnalistika tamoyillari ham kitob uchun taalluqlidir. Kitob ham umuminsoniylik, xalqchillik, milliylik, Haqqoniylik qonuniyatlariga bo'ysunadi.

An'anaviylik va yangi omillar yaratish, jamoatchilik fikrini shakllantirish ham kitob va u tayyorlanadigan nashriyotlar faoliyati uchun taalluqlidir. Bu hollar kitobning jurnalistika tasnifida o'ziga xos o'rin tutishini ko'rsatib turibdi. Ammo, kitobni bevosita vaqtli jurnalistika turi deb bo'lmaydi, uning ijtimoiy vazifasi kengroq. Boshqacha qilib aytganda, insonning vaqtli jurnalistikaga sig'may qolgan barcha keng va chuqur qiziqish va manfaatlari kitobda o'z aksini topadi.

Kitob tarixi insoniyat tarixi bilan, kishilarning aloqa vositasi bo'lgan tilga va uning shakliy ifodasi bo'lgan yozuvga ega bo'lishi bilan bog'liq. Insonlar dastlab yerga, toshlarga yozganlar, mashhur Urxun Enisey

bitiklari, Eron shohi Doroning Behustun tog'iga o'ydirgan yozuvi va boshqa ko'pgina tarixiy osori - atiqalar shular jumlasidan. Keyinchalik sopolga, idishlarga yozilgan yozuvlar ham topildi. Bu bitiklarni kitoblarning dastlabki, ibtidoiy ko'rinishlari deyish mumkin. Keyinchalik hayvonlar terisiga bitilgan dastlabki kitoblar paydo bo'ldi. Jumladan, eramizdan oldingi VII —VI asrlarda vujudga kelgan Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" 200 kiyik terisiga yozilgan edi. Hindistonda ham qadim-qadimdan "Veda" deb nomlangan qo'lyozma kitoblar mavjud bo'lgan. Keyinchalik eramizning VII-VIII asrlariga kelib qog'oz ixtiro qilindi va qo'lyozma kitoblar vujudga keldi. Qo'lyozma kitobchilik uzoq vaqt — o'n asrlar mobaynida davom etdi. O'rta asrning buyuk allomalari Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy, ma'rifatgo'y shoirlar Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ulug' ajdodlarimiz o'lmas asarlari qo'lyozma holda bizga yetib keldi.

XV asrning birinchi yarmida Yevropada — Germaniyada Iogan Gutenberg kitobni bosma tarzda ko'paytirish usulini ishlab chiqdi. Bu usul bo'yicha 1445-yilda dastlabki taqvimlar, varaqalar, 1452-yilda esa "Injil" kitobi nashr etildi. 1455-yilda I.Gutenberg "Turklarga qarshi-nasroniy din vakillarini chorlash" degan kitobni nashr etadi. Unda nasroniy dinidagi kishilarni salb yurishiga chorlanadi. Bu esa dastlabki kitoblarning ham siyosiy vosita sifatida xizmat qilganligini ko'rsatib turibdi. 1475-yilda ingliz tilida birinchi kitob nashr etildi. Bu — "Troya tarixiga oid hikoyalar to'plami" edi. I.Gutenbergning ixtirosi Yevropa bo'ylab keng tarqala boshladi. Rossiyadagi birinchi bosma kitob rus matbaachisi Ivan Fyodorov tomonidan 1564-yilda nashr etilgan «Апостол» kitobi edi. 1846-yilda Maynts shahrida arab harflarida birinchi kitob — "Ilohiy shahar Iyerusalimning muqaddas joylariga haj qilish" degan kitob nashr etildi.<sup>7</sup>

O'lkamizda birinchi bosma kitoblar XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. O'lkamizda birinchi bosmaxona 1867-yilning 14-iyunidan ish boshladi. Birinchi nashr etilgan bosma kitob esa 1868-yilda dunyo yuzini ko'rgan «Заметки о горной стране и вершин Чу и Нарина и о

<sup>7</sup> Prof. F. A. Mo'minovaing "Jurnalistika ijtimoiy universitet sifatida" (T.: Universiteti, 1998) kitobida bu haqda keng ma'lumot berilgan. (35-40 betlar)

путях через неё в (бывший) китайский Туркестан» deb atalib u rus geograf olimi va sayyohi N.A.Severtsev qalamiga mansub edi. Turkiston general — gubernatorligining harbiy okrugi shtabi huzurida ochilgan bosmaxonada bosilgan o‘zbek tilidagi birinchi kitob — 1871-yili Sh.Ibrohimov tomonidan tayyorlangan o‘zbekcha “Solnoma” taqvim edi. Xuddi shu davrdan boshlab, Turkistonda tosh bosma — litografiya usuli bilan o‘zbek (*arab-fors*) tillarida kitoblar nashr etila boshlandi. Ana shunday ilk bosilgan kitoblardan biri 1882–yilda nashr etilgan “Xulosai fiqhi Kaydoniy” kitobi edi. 1883-yilda Toshkentda Semyon Laxtin bosmaxonasida So‘fi Olloyorning “Kitobi sabot-ul-ojizin” kitobi, 1884 – yili esa, shu bosmaxonada Alisher Navoiyning “Devon”i nashr etiladi. Xuddi shu yillari qo‘qonlik Azim hoji Marg‘iloniy Hindistonning Bombay shahridan bosma harflar olib kelib, o‘zbek tilida kitoblar nashr eta boshlaydi. Farididdin Attorning “Mantiq-ut-tayr”, “Tabirnomai Xorun ar-Rashid” va boshqa kitoblarni nashr etdi. 1874 – yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz ham toshbosma bosmaxona tashkil etadi. Keyinchalik bu xildagi bosmaxonalar ko‘payadi. Toshkentda tashkil topgan shunday bosmaxonalardan biri – G‘ulom Hasan Orifjonovning “G‘ulomiya” deb ataluvchi bosmaxonasida 1908 – yilda buyuk fors shoiri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si nashr etiladi. Mazkur bosmaxonada Alisher Navoiyning “Devon”i, Fuzuliyning “g‘azaliyot”i, shoir Muqimiyning “Bayozi Qur’oni karim”, “Haftiyak” va boshqa muhim diniy kitoblar ham chop etilgan. Namanganning To‘raqo‘rg‘on shahrida Ishoqxon to‘ra Ibrat ham o‘zining “Ishoqiya” bosmaxonasini yo‘lga qo‘ygan edi.<sup>8</sup>

Toshbosma kitoblar bir necha ming nusxada bosilishi mumkinligi, qo‘lyozmalarga qaraganda tiniq, o‘qish uchun oson shaklga ega bo‘lishi bilan ko‘pchilikka manzur bo‘ldi, turli mavzularda asarlar, dastlabki darsliklar nashr etildi. Bu bosmaxonalarda bosilgan kitoblarni turli bezaklar bilan bezash, yaxshi muqovalash, ichki muqova va boshqa zarur jihatlarni berish mumkin edi. Shu boisdan ham toshbosma kitoblar qisqa davr ichida keng ommalashib ketdi. Bu kitoblarning mavzulari rang-

<sup>8</sup> Prof. F.A.Mo‘minovning “Jurnalistika ijtimoiy universitet sifatida”(T.: Universitet, 1998) kitobida bu haqda keng ma’lumot berilgan. (35-40 b.).

baranglashdi, rus va boshqa tillardan tarjima etilgan kitoblar ham paydo bo'ldi. 1887 – yilda atoqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning “Odamlar nima bilan tirik” kitobi o'zbek tiliga tarjima etilib nashr qilindi.

1917 - yil oktyabr o'zgarishidan so'ng Turkistondagi barcha nashriyot va bosmaxonalar musodara etildi va kitob nashr etish ishlari hukumat (ya'ni kommunistik partiya) qo'liga o'tdi. Sovet tuzumi davrida kitob nashr etish son jihatidan o'sgan bo'lsa-da, nashriyotchilik ishida g'oyaviy yakka hokimlik tartibi joriy etilishi natijasida kitoblarning mazmuniy bir yoqlamaligi, sinfiy-siyosiy cheklanganligiga olib keldi. Kommunistik g'oyaga mos kelmaydigan barcha diniy, tarixiy, ilmiy va badiiy kitoblar, umuman nashr etilmadi, bosilgan ayrim bu xildagi kitoblar esa, kommunistik mafkura “chig'irig'i”dan o'tkazilgandagina dunyo yuzini ko'rdi. O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligiga erishgach boshqa barcha ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalar qatorida kitob nashr etish ishida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu jihatdan O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi 1996 – yil 30 – avgustda qabul qilgan “Noshirlik faoliyati to'g'risida”gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevralda qabul qilgan “O'zbekiston respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to'g'risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu muhim hujjatlar mamlakatimizda noshirlik va matbaachilik ishlarini yo'lga qo'yishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Istiqlol tufayli eski markazlashgan buyruqbozlik tizimiga barham berilishi, kommunistik mafkuraviy yakka hokimlikning tugatilishi respublikamizda nashr etilayotgan kitoblarning mazmun va sifatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi va bizda umuminsoniylik, xalqchilik, ilmiy xolislik va haqqoniylik talablariga to'la javob beradigan, xalqimiz suygan, ardoqlagan kitoblarning ko'plab nashr etilishiga yo'l ochib berildi. Ulug' ajdodlarimiz bo'lgan allomalar, mutafakkir shoir va adiblarning asarlari, tarixiy - ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan o'tmishimizga oid va zamonaviy kitoblar ko'plab nashr etila boshlandi. Davlat nashriyotlari bilan bir qatorda xususiy nashriyotlarning ham faoliyat ko'rsatilishiga yo'l ochilishi natijasida kitob nashr etish ham son, ham sifat jihatidan o'sdi. Respublikamizda kitob nashriyotlarining keng tarmog'i mavjud. Bizda nashriyot va matbaachilik ishlariga O'zbekiston Matbuot va axborot

agentligi rahbarlik qiladi. Butun dunyoda joriy etilgan tizimga asosan, respublikamizda ham kitob nashriyotlari uch turga bo'linadi.

1. **Universal nashriyotlar.** Bu tipdagi nashriyotlarda ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid kitoblar chiqariladi. Turli ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy kitoblar nashr etayotgan "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston davlat nashriyoti hamda ayrim xususiy nashriyotlar ham universal xususiyatga ega.

2. **Ixtisoslashtirilgan nashriyotlar.** Bu turdagi nashriyotlar ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning muhim bir sohasiga bag'ishlangan kitoblarni nashr etadi. Bunga misol qilib, turli ijtimoiy-siyosiy sohadagi kitoblar nashr etiladigan "O'zbekiston", adabiy-badiiy asarlar nashr etishga mo'ljallangan G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot va san'at nashriyoti, darsliklar va ta'lim-tarbiyaga doir asarlar bosiladigan "O'qituvchi", ilmiy asarlar nashr etishga qaratilgan "Fan", turli ijtimoiy mavzulardagi kitoblar chop etiladigan "Mehnat", ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan asarlar uchun tuzilgan "Ma'naviyat", bolalar va yoshlar uchun asarlar bosiladigan "Cho'lpon" va boshqa nashriyotlarni ko'rsatish mumkin.

3. **Tarmoq nashriyotlari.** Bu turdagi nashriyotlarga biror tarmoq sohasiga doir kitoblar nashr etuvchi nashriyotlar kiradi.

Nashriyotlar, shuningdek, markaziy va mahalliy viloyat va ayrim muassasa nashriyotlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan "Nasaf" va Toshkent davlat universitetiga qarashli "Universitet" nashriyoti va boshqalar.

Nashriyotlarning ichki tuzilishi gazeta va jurnallar tahririyatiga o'xshab ketadi. Nashriyot ishlarini uning direktori boshqaradi, bosh muharrir va uning o'rinbosarlari esa nashr etilayotgan kitobning mazmuniy yo'nalishi va sifati uchun mas'ul hisoblanadilar. Nashriyotlarda ma'lum sohalar bo'yicha tahririyatlar va ishlab chiqarish, ta'minot bo'limlari mavjud bo'ladi.

Kitob nashriyotlarining ishi ma'lum reja asosida tashkil etiladi. Har bir nashriyot o'z faoliyatida uch xil reja:

1. Yaqin yillar rejasi;

2. Tahrir rejasi;

3. Nashr rejasi bilan ish ko'radi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan hozirgi davrda nashriyotlarning iqtisodiy – ta'minot, o'z-o'zini qoplash masalalari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda nashriyotlarda kitoblar davlat – byudjet yo'li, nashriyotlarning xo'jalik hisobi asosidagi mablag'i va homiylik asosida to'langan mablag'lar asosida nashr etilishi mumkin. Nashr etilgan kitoblarni sotish, reklama qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kitob nashriyotlari ishlari tobora rivojlanib, jahon andozalari darajasiga o'sib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizda 122 ta g'nashriyot faoliyat olib bormoqda.

Kitob nashriyotlarida ishlash, garchi, gazeta va jurnallar tahririyatlarida ishlashga o'xshab ketsa-da, jurnalist (muharrir)dan har tarafdama chuqur bilim, malaka, uslubiy tahrir ustaligini talab qiladi.

### **Kitob va kitob nashriyotlari bo'yicha reying topshiriqlari**

1. *Kitob so'zining ma'nosini bilasizmi?*

2. *Kitobning ahamiyatini sharhlang.*

3. *Burjuaziya sinfining kitobga e'tibori.*

4. *Kommunistik partiya hukmdorligi davrida kitob.*

5. *Qanday jamiyatda kitob haqiqiy umuminsoniy ahamiyatga ega bo'ladi?*

6. *Kitob tarixi bilan bog'liq masalalar izohi.*

7. *O'lkamizda birinchi bosma kitob nashri haqidagi fikringiz.*

8. *O'zbek tilidagi birinchi bosma kitobning nomini ayting.*

9. *1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonunni izohlang.*

### **Kitob va kitob nashriyotlari bo'yicha nazorat savollari**

1. *Kitobning jurnalistika tasnifidagi o'rni.*

2. *Kitobning umuminsoniy, umumbashariy xususiyatlari.*



3. *Kitobning ibtidoiy ko'rinishlarni ayting.*
4. *1871-yili Sh.Ibrohimov tomonidan qaysi kitob chop etildi?*
5. *Sovet tuzumi davrida kitob va kitob nashriyotlari faoliyati.*
6. *Nashriyot turlariga izoh bering.*

## **2.2.7. INTERNET**

Ma'lumki, jurnalistika – ijtimoiy axborot yig'ish va tarqatishning asosiy vositasi sifatida insoniyatning madaniy taraqqiyotga ega bo'lgan hayotida doimo muhim o'rin tutib keladi. Shu boisdan u insoniyat bilan birlikda rivojlanib, taraqqiy etib boraveradi. Bu ommaviy axborot vositalarining turli-tuman yangi ko'rinishlari vujudga kelishida ham o'z ifodasini topadi.

Insoniyat aql-tafakkurining yanada o'sishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan XXI asrga kelib ommaviy axborot vositalari tasnifiga yana bir tur, uning yana bir ko'rinishi kelib qo'shildi va u internet deb ataldi. Internet-lotincha (Inter)-aro va net-(Wogk)- tarmoq ma'nosini anglatadigan katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butun jahon kompyuter tizimidir. Bu - insoniyatning yana bir mo'jizaviy kashfiyoti 1969 – yil sentyabrda amerikalik harbiy mutaxassislar guruhi tomonidan birinchi kompyuter tarmog'i bo'lib, ishga tushirilgan. XX asrning oxirlariga kelib elektron texnologiyalar asosida matn yozish va hisoblash uchun ixtiro qilingan maxsus qurilmalar keyinchalik aloqa vositasi sifatida ham ishlatila boshlandi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter dunyoning istalgan nuqtasidagi boshqa kompyuterga ulanishi mumkin bo'ldi. Natijada xalqaro internet tarmoqlari vujudga keldi. Vaqt o'tishi bilan undan boshqa ilmiy tashkilotlar ham keng foydalana boshladilar va bu tarmoq ilmiy axborot almashish ijtimoiy vazifasini ham bajara boshladi. Sekin-asta bu tarmoqdan xususiy kompyuterlar egalari ham foydalana boshladilar, shu zaylda kompyuterlashtirilgan barcha mamlakatlar va o'z kompyuteriga ega bo'lgan barcha shaxslar o'rtasida o'zaro axborot almashinuv mumkin bo'ldi. Binobarin, kompyuterlar yordamida boshqa (*shaxsiy, ilmiy*) axborotlar qatorida ijtimoiy axborotlar tarqatish imkoniyati tuzildi va bu

esa Internet tarmog'ini (va kompyuter asboblari) ommaviy axborot vositalarining bir turi bo'lishiga olib keldi.

Internet – ommaviy axborot vositalarining alohida, o'ziga xos bir turidir. Unda ijtimoiy axborotning barcha turlari - siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy-ma'naviy, sport va boshqa turlari bir vaqtning o'zida o'rin olishi va har bir ko'ruvchi, o'quvchi (ya'ni kompyuterdan foydalanuvchi shaxs) o'ziga kerakli axborotni izlab topib, undan bahramand bo'lishi mumkin. Bu internet axborot hajmining nihoyatda keng, behudud ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, internet axborotlari elektron tarmoq orqali tezlik bilan tarqala olishi jihatidan uning nihoyatda tezkor, hozirjavob bo'lishini ham ta'minlaydi. Bu yakka shaxs-insonning butun dunyo bilan bevosita bog'lanishi, uni dunyo voqealaridan, ilm-fan, adabiyot-sanat, sport va boshqa sohalar yangiliklaridan to'la xabardor bo'lishiga xizmat qiladi. Internetda yangiliklar ijtimoiy hayot, ilm-fan, adabiyot-san'at, sport va boshqa sohalaridagi axborotlar maxsus saytlar (*bo'limlar, qismlar*) orqali joylashtiriladi va ular ma'lum ichki tuzilishga ega bo'ladi. Internetdagi axborotlar asosan elektron yozuv-matn, fotosuratlar, turli chizma shakllar va ayrim hollarda ovoz-musiqasi asari sifatida namoyon bo'ladi, ammo unda matn asosiy o'rin tutadi.

Shunday qilib, Internet – ommaviy axborot vositalarining alohida, elektron texnikaga asoslangan bir turi bo'lib, u turli mavzulardagi axborotlarni yig'ish va ularni kompyuterlar tarmog'i orqali tarqatish bilan ish ko'radi. Garchi uni bevosita jurnalistika - ya'ni bosma so'z vositasi deb bo'lmasa-da, u ommaviy axborot vositasi sifatida jurnalistika qonunlariga asoslanib ish ko'radi.

Internetning paydo bo'lishida ham kishilarning axborotga, o'zaro muloqotga bo'lgan doimiy ehtiyoji asos bo'lib xizmat qiladi va shu bilan birgalikda uning bevosita kelib chiqishiga ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sabablar bevosita turtki bo'lgan.

Internet ham boshqa ommaviy axborot vositalari singari ijtimoiy hayotni aks ettiradi, uni biladi, tadqiq qiladi va unga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, internet ham jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini bajaradi, ya'ni u avvalo hayotni tasvirlaydi, xabar beradi, tahlil qiladi va shu bilan birgalikda unga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Internet gazeta, jurnal,

radio, televideniya hayotni yoritishdagi serko'lamligi, serqamrovligi, tezkorligi bilan ajralib turadi. U axborot agentliklariga o'xshab ketsa-da, bevosita o'z ko'rinishiga egaligi bilan (*kompyuter shaklida*) yuqori turadi. Axborot agentliklari esa o'z axborotlarini tarqatishda internetdan foydalanishi mumkin. Faqat kompyuter uskunalarining hali nisbatan qimmatligi va hamma ham undan bimalol foydalanish imkoniyatiga ega emasligi jihatdan internet hozircha gazeta, jurnal, radio, televideniya biroz orqaroqda bo'lishiga olib keladi.

Jurnalistikaning bosh tamoyillari internet faoliyati uchun ham muhim ahamiyatga ega. Internet – insoniyatning axborot tarqatish borasidagi buyuk kashfiyotlaridan biri ekan, u ham birinchi navbatda insoniyatga xizmat qilmog'i, unga zarur, foydali axborotlarni yetkazib bermog'i shart. Internetning insoniyatga juda katta ko'lamda axborot yetkazib berishida umuminsoniylik tamoyili asosiy mezon bo'lmog'i kerak. Hozirgi zamon interneti o'z faoliyatida bu talabga asosan rioya qilib kelmoqda. Shu bilan birgalikda, unda ayrim bir yoqlama, oldi-qochdi, uncha to'g'ri bo'lmagan xabarlar, behayo matn va suratlar ham berilishi jurnalistikaning ushbu tamoyiliga ziddir, bu uning insoniyatga keng ko'lamda, zarur axborotlar yetkazib berishdek mas'uliyatli ijtimoiy vazifasini bajarishda monetik qiladi. Shuningdek, jurnalistikaning xalqchilik, milliylik tamoyillari ham internet faoliyati uchun taalluqli hisoblanadi. Internet xalqaro-global xarakterga ega bo'lganligi uchun mazkur tamoyillar uning faoliyatida o'ziga xos ko'rinish kasb etadi.

Internet faoliyati uchun zarur bo'lgan eng muhim tamoyillardan biri-haqqoniylikdir. Butun dunyoga, butun dunyo voqealari, insoniyat hayoti haqida yangiliklar, axborot va boshqa ma'lumotlar yetkazib beruvchi bu ommaviy axborot vositasi faqat haqqoniy, tekshirilgan, to'g'ri axborotlar, ma'lumotlar yetkazishi shart. Aks holda u o'z ijtimoiy vazifasini bajara olmay qoladi, inqirozga uchraydi.

Internet yuqoridagi jurnalistika tamoyillariga to'la amal qilgandagina u ommaviy bo'ladi, ko'pchilikka manzur keladi. Dunyoda internetdan foydalanuvchilarning soni tobora oshib borayotganligi uning yanada ommalashib borayotganligidan dalolat beradi.

Internet asosan dunyo miqyosida ish ko'rish nuqtai nazaridan unda partiyaviylik tamoyili keng o'rin olmaydi. Ayrim partiyalar, sinflar internet orqali o'z qarashlari, g'oyalari bayon etishlari mumkin. Ammo internet tarmog'ining biror sinf, partiya, tuzum qarashlariga xizmat etishi uning tabiatiga butunlay zid. Shu boisdan ayrim partiyalar, hukumatlar tomonidan internetni o'z manfaatlari yo'lida xizmat ettirishga urinish uning faoliyatiga faqat zarar keltirishi mumkin. Partiyalar, sinflar internet orqali o'z fikr va qarashlarini bayon etishlari, insoniyatga bildirishlari mumkin.

An'anaviylik va yangi omillar qonuniyati ham internet faoliyati uchun taalluqli. Insoniyat ijtimoiy-ma'naviy hayotida yangi voqea bo'lgan internet qo'llagan eng yaxshi, ijodiy omillar, ish usullari zamon sinovlaridan o'tgach kelgusi davrlar uchun an'ana bo'lib qolishi mumkin. Barcha jurnalistika nashrlari, ommaviy axborot vositalari uchun bo'lganidek internet faoliyatida ham jamoatchilik fikri muhim o'rin tutadi. Internet doimiy ravishda jamoatchilik fikriga eng yangi, serko'lam, serqirra axborotlar va turli ma'lumotlar yetkazib beruvchi ommaviy axborot vositasi hisoblanadi.

Internet boshqa ommaviy axborot vositalari kabi o'z faoliyatida publitsistikadan keng foydalanadi. Unda publitsistikaning axboriy, tahliliy va ayrim hollarda badiiy publitsistika janrlari qo'llaniladi. Internetda axborot janri turli ko'rinishlarda keng o'rin oladi. Shu bilan birgalikda unda korrespondensiya (kengaytirilgan xabar), hisobot, suhbat (intervyu), maqola kabi janrlar doimiy qo'llaniladi. Yuqorida aytilganidek ayrim hollarda lavha, esse, ocherk, feleton va badiiy publitsistikaning boshqa janrlari ham undan o'rin olishi mumkin.

Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar qatori mustaqil respublikamizda ham internet tarmog'idan keng foydalanilmoqda. Ommaviy axborot vositalarininig bu, o'ziga xos ko'rinishining kelajagi porloqdir.

### **Internet bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *"Internet" atamasining izohi.*
2. *Qaysi tamoyil internet uchun eng muhim hisoblanadi va nima uchun?*

3. *Internetning inqirozga uchramasligi uchun qaysi tamoyillarni to'la bajarishi kerak deb hisoblaysiz?*
4. *Internet tabiatiga zid xizmatlarni bilasizmi?*
5. *Internet va an'aviylik hamda yangi omillar qonuniyatini izohlang.*
6. *Internet jurnalistikasining jurnalistika olamida tutgan o'rni.*

### **Internet bo'yicha nazorat savollari**

1. *Internet nechanchi asr mevasi?*
2. *Internetdagi haqqoniylik tamoyiliga munosabatingiz.*
3. *Jurnalistikaning qaysi janrlari internet faoliyatida qo'llaniladi?*
4. *Internetning ertangi kuni haqidagi fikrlaringizni ayting.*
5. *Internetga qay usulda kirasiz?*

### 3-BOB. JURNALISTIK FAOLIYATNI TASHKIL QILISH

#### 3.1. jurnalistika nazariyasi va uning ijtimoiy vazifalari

Jurnalistika nazariyasi - ijtimoiy axborotning paydo bo'lishi va tarqalishi hamda bu borada asosiy o'rin tutuvchi ommaviy axborot vositalari - gazetalar, jurnallar, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari va internet faoliyatini o'rganuvchi fandır. Boshqacha qilib aytganda, mazkur kurs ommaviy axborot vositalari yoki jurnalistika haqida, uning ilmiy-obyektiv qonuniyatlari haqida bahs yuritadi.

Jurnalistika so'zi arabcha "tabaa" (bosmoq) so'zidan olingan bo'lib, "bosma mahsulot" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, bosma usulda chiqariladigan, ko'paytiriladigan barcha mahsulot jurnalistikani tashkil etadi. Ana shu jurnalistikaning asosiy qismini vaqtli, to'g'rirog'i davriy jurnalistika tashkil etadi. Bu ma'lum vaqtlarda, davriy tarzda doimiy chiqib turadigan jurnalistika nashrlaridir. "Ommaviy axborot vositalari" atamasi bilan bir qatorda jurnalistika atamasi ham ishlatiladi. Bu so'z fransuzcha "lournal" so'zidan olingan bo'lib, "kundalik" degan ma'noni bildiradi. Jurnalistika atamasi o'z navbatida bir necha ma'noda ishlatiladi:

1) Ijtimoiy axborot yig'ish va uni jurnalistika, radio, televideniye va boshqa vositalar orqali tarqatish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat;

2) Bosma mahsulotlar va ommaviy axborot vositalarining yig'indisi ya'ni jurnalistika nashrlarining yig'indisi;

3) Jurnalistika ommaviy axborot vositalarini chiqarish, ularga materiallar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan kasb;

4) Jurnalistika va ommaviy axborot vositalari faoliyatining ichki qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida qo'llaniladi.

Keyinchalik, vaqtli jurnalistikaning tarkibiga bosma usulda chiqariladigan gazeta va jurnallar bilan bir qatorda uning texnikaga asoslangan yangi turlari — radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar kelib qo'shilgach, bularning umumiy majmuasiga ommaviy axborot vositalari (OAV) deb nom berildi. Ommaviy axborot vositalarining asosini

jurnalistika tashkil etadi, ular jurnalistika qonuniyatlari asosida ish ko'radilar, shu boisdan bularni qisqacha jurnalistika deb yuritish mumkin.

Jurnalistika insoniyat jamiyatida muhim o'rin tutib kelgan. Sivilizatsiyalashgan har qanday jamiyatda har qanday ijtimoiy-siyosiy harakat jurnalistikasiz bo'lib o'tishi mumkin emas. Jamiyat hayotini aks ettirish, uni bilish va tadqiq etish va unga qaytadan ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lgan jurnalistika o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa bo'lib, o'z faoliyatida ma'lum ichki-obyektiv qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Jurnalistika nazariyasi fani ana shu qonuniyatlarni o'rganadi. Ya'ni, u jurnalistikaning kelib chiqishi, uning mohiyati, ijtimoiy vazifa va tamoyillari hamda ichki xususiyatlarini o'rganuvchi fandir.

Jurnalistikani ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishda turlicha qarashlar, fikrlar mavjud. Shu paytgacha bizda jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar qatorida jurnalistika ham markscha-lenincha ta'limot asosida o'rganilib kelindi. Mamlakatimizning milliy mustaqillikka erishuvi natijasidagina ijtimoiy fanlar qatorida jurnalistika nazariyasi sohasida ham yangicha, xolis, umuminsoniy qarashlar qo'llanila boshlandi. "Bizlarning endigi vazifamiz – ma'naviy hayotimizni, ilm-fanimiz faoliyatini, izlanishlarimizni eski mafkura qoliplaridan xalos etish, tafakkurimizni qullik iskanjasidan forig' qilishdan iborat bo'lmog'i zarur", – deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov.<sup>1</sup> Shu munosabat bilan jurnalistika fanining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan Jurnalistika nazariyasi kursi ham endilikda ilmiy xolislikka asoslangan umuminsoniy qarashlar asosida qayta ishlab chiqilmoqda. Natijada u tobora ijodiy rivojlanib, eski, o'z umrini yashab bo'lgan ko'nikmalardan xalos bo'lib bormoqda. Jurnalistika nazariyasi fani jurnalistika haqidagi boshqa fanlar bilan, jumladan jurnalistika tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, jurnalistika nazariyasi jurnalistika nashrlari tarixiy tajribasining umumlashmasidir. Mazkur fan shu bilan birgalikda amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Ya'ni, u jurnalistikaning tarixiy tajribasidan uning shu kungi faoliyati uchun zarur bo'lgan, unda keng qo'llaniladigan amaliy, ijodiy xulosalar chiqaradi. Binobarin, jurnalistika nazariyasi jurnalistikaning mohiyati, jurnalistik ijod va mahorat haqidagi fandir. Jurnalistika nazariyasi ijtimoiy voqelikni aks ettirishning alohida bir qonuniyatga

asoslanuvchi turi bo'lgan publitsistika nazariyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Jurnalistika nazariyasi kursi ijtimoiy fan sifatida falsafa, tarix, siyosatshunoslik, san'atshunoslik kabi fanlar bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Ijodiy xususiyati jihatidan adabiyotshunoslik, til nuqtai nazaridan esa tilshunoslik fanlari bilan ham bog'lanib ketadi. Jurnalistika nazariyasi fani universitetlar va institutlarning jurnalistika fakultetlari va bo'limlari uchun asosiy, yetakchi fan sanaladi. Uning vazifasi talabalarga jurnalistika asoslarini chuqur, har taraflama o'rgatish, nazariy bilim berish hamda ularni jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalarida ishlashlari uchun kasbiy malakalar hosil qildirishdan iborat. Ya'ni bu kurs jurnalistlarning kasbiy tayyorlanishida markaziy o'rinni egallaydi. Kursda ilmiy ma'ruzalar o'qiladi, savol-javob tarzida amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Talabalarning bu kursdan olgan bilimlari reyting va test usullari hamda kurs ishlari yozish asosida tekshirib boriladi. Jurnalistika nazariyasida uning ijtimoiy vazifalari masalasi alohida o'rin tutadi, chunki bu tushuncha ommaviy axborot vositalarining mohiyatini, asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari deganda biz jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalarining doimiy va qonuniylik tusini olgan faoliyatini, uning maqsad va yo'nalishlarini tushunamiz. Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari haqida turlicha qarashlar mavjud.

V.I.Lenin jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini "kollektiv targ'ibotchi, kollektiv tashviqotchi va kollektiv tashkilotchi", deb ko'rsatgan edi. Bu ta'rif kommunistik jurnalistika faoliyatida qonun tusini olib, keng qo'llanilib kelingan bo'lsa-da, uning sinfiy - partiyaviylik nuqtai nazariga asoslanganligi va cheklanganligi ko'rinib turibdi. Illo jurnalistikaning vazifasi yuqorida da'vo qilinganidek faqat biror g'oyani targ'ib va tashviq qilishdan iborat bo'lmasdan ommaga xolis, obyektiv ijtimoiy axborot yetkazib berishdir. Shunday ekan, jurnalistikaning vazifasini bunday cheklab qo'yish xatodir. Hozirgi zamon rus jurnalistikashunosi E.P.Proxorov o'zining "Jurnalistika nazariyasiga kirish" ("Введение в теорию журналистики". М., 1980) kitobida jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy va bevosita tashkilotchilik kabilarga bo'ladi. (98-118 b.). Garchi bu ta'riflarda ma'lum



bir ilmiy yondashish mavjud bo'lsa-da, mazkur bo'linishni to'la qabul qilish qiyin. Chunki jurnalistikaning vazifasi yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, ijtimoiy axborot yig'ish, ishlash va tarqatishdan iborat bo'lgani bois, bu vazifani o'ta murakkab tarzda, yuqoridagi alfozda bayon etish to'g'ri emas, deb hisoblaymiz. Xo'sh, shunday ekan, jurnalistikaning asosiy ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat?

Unga qanday ta'rif berish mumkin? Biz quyida ana shu asosiy masalani ko'rib o'tamiz.

Biz oldingi mavzularimizda jurnalistikaga bergan ta'rifimizda jurnalistika ijtimoiy hayotni aks ettirish shakllaridan biri, real voqelikni bilish tadqiq etish va unga qaytadan ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi, degan edik. Xuddi ana shu ta'rif jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini belgilashda ham asos bo'ladi. Demak, jurnalistikaning bosh vazifasi ijtimoiy hayotni aks ettirish, ya'ni ijtimoiy axborot yig'ish va ommaga yetkazib berishdan iborat. Jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalari doimiy ravishda jamiyat hayotini yoritish, uni tadqiq qilish va unga qaytadan ta'sir etish vazifasini bajarib keladilar. Bu ta'rifdan shu narsa ko'rinib turibdiki, jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari uch tarkibiy qismga, qirralarga bo'linadi. Biz bu qismlarni shartli ravishda tasvir, tahlil va ta'sir deb olamiz hamda jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini shu nuqtai nazardan o'rganib chiqamiz.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki jurnalistikaning ijtimoiy vazifalaridan asosiysi tasvir, ya'ni ijtimoiy hayotni aks ettirish, xabardor qilishdir. Jurnalistika nashrlari - gazetalar, jurnallar va ommaviy axborot vositalari tasnifidagi radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari, internet bu vazifani avvalo bosma so'z, so'ng so'zning ovoz tarzi, so'z va tasvir birligi vositasida doimiy ravishda bajarib keladilar. So'zlar esa hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalarni o'zida ifoda etuvchi xabarga aylanadi. *(xabar so'zi- arabcha biror yangilikni yetkazish, ma'lumot berish, degan ma'noni bildiradi)*. Ko'pchilik uchun mo'ljallangan xabarlarga ommaviy axborot yoki ijtimoiy axborot deyilishini biz yuqorida ko'rib o'tgan edik.

Axborot, xabar deganda jurnalistika nashrlarida bosiladigan yoki radio, teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari tomonidan beriladigan hajm

jihatanidan kichik xabar tushuniladi. Albatta jurnalistikaning xabardor qilish ijtimoiy vazifasini bajarishda bu kichik janrlar, xabarlar asosiy rol o'ynaydi. Lekin jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasi faqat xabarlar bilan cheklanib qolmaydi, aksincha turli janrlarni ham o'z ichiga oladi. (*xoh maqola, xoh ocherk, xoh feleton va boshqalar*). Boshqacha qilib aytganda, jurnalistikaning tasvir, ya'ni xabardor qilish ijtimoiy vazifasi uning barcha tomonlarini qamrab oladi. Nemis olimi K. Marksning jurnalistika "har taraf lama, har yerda hozir, har narsadan xabardor" degan mashhur so'zlari avvalo jurnalistikaning ana shu ijtimoiy vazifasida o'z ifodasini topadi. Ya'ni ijtimoiy hayotning jurnalistikada o'z aksini topmagan birorta sohasi qolmaydi. Jurnalistikaning tasvir, xabardor qilishlik ijtimoiy vazifasi jamiyat hayotining ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy-ishlab chiqarish, ham madaniy, ma'naviy hayotini qamrab oladi.

Demak, tasvir, ya'ni ijtimoiy hayot voqealarini ommaga keng tarzda, to'la yetkazib berish – jurnalistikaning asosiy ijtimoiy vazifasi, doimiy ravishda bajaradigan eng muhim ishdir. Jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalari - gazetalar, jurnallar, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari va internet har kuni, har soat ana shu ish bilan shug'ullanadilar. Bu vazifani bajarishda jurnalistikaning turli ko'rinishlari o'z xususiyatlari va imkonlariga qarab turlicha ishtirok etadilar. Bu borada gazetalar asosiy o'rin tutadi, har qanday gazeta faoliyatining asosiy qismi, uning sahifalaridagi asosiy o'rin tasvir, xabardor etishga bag'ishlanadi. Boshqacha qilib aytganda gazetaning asosiy vazifasi shu kunning tarixini butun to'laligi bilan aks ettirishdan iborat.

Bu ijtimoiy vazifani bajarishda jurnallar ham ishtirok etadilar, ammo jurnallar o'z xususiyatlari bilan (*ko'proq muddatlarda chiqishi, ijtimoiy hayotni yoritishga mo'ljallanishi va hokazo.*) jurnalistikaning bundan keyin bayon etiladigan ijtimoiy vazifasini kengroq bajaradi, ammo jurnallar faoliyatida ham tasvir ijtimoiy vazifasi mavjud. Bu ijtimoiy vazifani bajarishda radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar asosiy o'rin egallaydi. Radio xabardor qilishda o'zining hozirjavobligi, tezkorligi, chegara bilmasligi bilan alohida o'rin tutadi. Teleko'rsatuvlar esa ijtimoiy hayot voqealarini bevosita tasvirlash, ya'ni jonli olib ko'rsata olishi bilan muhim tutadi. Ommaviy axborot vositalarining muhim bir bo'lagi bo'lgan

axborot agentliklari faoliyatida ham tasvir, ya'ni xabardor qilishlik bosh vazifa hisoblanadi. Jahondagi barcha axborot agentliklari har kuni har soatda, har daqiqada ko'p, turli ijtimoiy, dunyo xabarlarini yig'ib, tarqatib turadilar.

Jurnalistikaning tasvir yoki xabardor qilish ijtimoiy vazifasini bajarishda publitsistikaning axboriy janrlari asosiy o'rin tutadi. Bularga axborot (*xabar*), kengaytirilgan xabar, reportaj, hisobot, suhbat (*intervyu*), korrespondensiya kabilar kiradi. Publitsistikaning ushbu janrlari asosan ijtimoiy hayotdagi fakt (*lotincha factum – qilingan ish*), voqea va hodisalarni xabar qilish, tasvirlab, ko'rsatib berish bilan bog'liq. Ammo bu ijtimoiy vazifa yuqoridagi janrlar bilan cheklanib qolmaydi. Publitsistikaning tahliliy va badiiy-publitsistik janrlari bo'lmish maqola, sharh, ocherk, esse, feleton, pamflet kabi janrlari ham garchi biror muammoni, hayotni aks ettirishga mo'ljallangan bo'lsa-da, aslida ularning asosida ham xabardor qilish yotadi. Ommaviy axborot vositalari - radio va teleko'rsatuvlardagi publitsistikaning yuqoridagi janrlari ko'rinishlarida ham tasvir elementi bo'ladi.

Jurnalistikaning tasvir, ya'ni xabardor etishlik ijtimoiy vazifasi uning kelib chiqishiga asos bo'lgan tabiiy ijtimoiy vazifa. Ammo, jurnalistikaning kelib chiqishi va faoliyat ko'rsatishida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlar ham muhim rol o'ynaydi. Jamiyatdagi kuchlar, hukmron sinf yoki guruhlar jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasini bajarishda ham ma'lum – ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Masalan, jurnalistikaning ilk davri - avtoritar jurnalistika davri nashrlari garchi ommani turli yangiliklardan xabardor qilib turgan bo'lsa-da, bu nashrlar hukmron shaxsni ulug'lash, uning manfaatlari uchun xizmat qilish bilan shug'ullanganligi boisidan bu ijtimoiy vazifa ma'lum darajada cheklangan edi. Erkin dunyo jurnalistikasida esa jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasi o'zining eng yuqori darajasiga erishadi, ya'ni bu jurnalistikaning vazifasi xabardor qilish, yangiliklar yig'ish va sotishdan iborat bo'ladi. Erkin dunyo mamlakatlari jurnalistikasi, radiosi, teleko'rsatuvlari, axborot agentliklari har kuni, har soatda juda ko'plab yangi-yangi xabarlar yig'ib, tarqatib turadi. Buning uchun katta reporterlar armiyasi, axborot yig'uvchilar apparati ish olib boradi. Ammo erkin dunyo jurnalistikasining

kapitalga qaramligi, asosiy nashrlar, ommaviy axborot vositalarining ayrim shaxslar, monopoliyalar qo'lda xususiy mulk, foyda olish manbai ekanligidan uning salbiy xususiyatlari ham kelib chiqadi. Davriy matbuot nashrlari o'rtasidagi o'zaro raqobat, foyda ketidan quvish natijasida gazeta va jurnallar sahifalari, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari beradigan xabarlarda ob'ektiv xabarlar bilan bir qatorda sensatsion (shov-shuvli) materiallar, dezaxborot (ataylab teskari axborot berish hollari), pornografik (behayo mazmundagi va ko'rinish)dagi materiallarning ham keng o'rin olishi, reklamaga ko'p o'rin berilishi ham jurnalistika mazkur ijtimoiy vazifasining buzilishiga olib keladi.

O'lkamizda salkam bir asr hukm surgan kommunistik jurnalistikada esa bu cheklanishning boshqacha ko'rinishi mavjud edi. Kommunistik jurnalistikada tasvir, ya'ni xabardor etishlik ijtimoiy vazifasi yakka mafkura hokimligiga bo'ysundirilgan edi. Kommunistik jurnalistika nashrlari, radio va teleko'rsatuvlarda qanday xabarni berish (*yoki bermaslik*) bolshevistik partiya qaror va ko'rsatmalari asosida hal etilar edi. Yuqorida aytganimizdek, jurnalistikaning mazkur ijtimoiy vazifasini kollektiv agitatorlik (*tashviqotchilik*) dan iborat, deb e'lon qilingan va bu hol kommunistik jurnalistika nashrlari, radio, televideniye uchun qonun tusiga kirgan edi. Ya'ni, sovet gazetolari, radiosi va teleko'rsatuvlari ijtimoiy hayotni xolis, obyektiv yoritmay, balki muayyan g'oyalarni tashviq qilish va ungagina mos keladigan faktlar, voqea va hodisalarni qidirib yoki o'ylab topish bilan band edilar.

Demak, insoniyatning eng oliy orzusi – demokratik tuzumdagina jurnalistika va uning tasvir, xabardor etishlik ijtimoiy vazifasi erkin ish ko'ra oladi. Mustaqillikka erishgan respublikamizda bu borada katta ishlar olib borilmoqda. Istiqloldan keyin yangilanayotgan va rivojlanayotgan ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayotni xolis va tezkor yorita boshladilar, gazeta va jurnallarimiz qiziqarli, o'qishli bo'lib bormoqda, radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar mazmunli bo'lib ,mundarijasi kengayib, shakli rang-baranglashyapti.. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi

prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" gi qonunlar ommaviy axborot vositalari ishini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublikamizda jurnalistika va ommaviy axborot vositalari ishini yaxshilash, ular faoliyatini demokratlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar natijasida jurnalistikamizning tasvir ijtimoiy vazifasi tobora rivojlanib, rang-barang bo'lib bormoqda. Gazeta va jurnallarimiz, radio eshittirishlarimiz va teleko'rsatuvlarimiz dunyo xabarlarini, shuningdek respublikamizda yuz berayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy o'zgarishlarni yoritib kelayotgan bo'lsada, bu borada hali kamchiliklar ham yo'q emas, ko'pgina jurnalistika nashrlari, radio eshittirishlar va teleko'rsatuvlarda bir yoqlamalik, bir xillik hollari mavjud. Ammo jurnalistikamiz bu kamchiliklardan asta-sekin qutilib, tasvir ijtimoiy vazifasini to'laroq bajarilishiga e'tibor qaratmoqda. Bu ijtimoiy vazifaning mohiyatini, uning talablarini yaxshi bilish har bir bo'lajak jurnalistning asosiy vazifasi sanaladi.

Qaysi bir nashr, ommaviy axborot vositasi bu ijtimoiy vazifani ijodiy hal etar ekan, uning muvaffaqiyati ta'minlangandir.

Biz yuqorida jurnalistikaning bosh ijtimoiy vazifalaridan biri – uning ijtimoiy hayotni aks ettirish xususiyati, ya'ni tasvir ijtimoiy vazifasini ko'rib o'tdik. Ammo jurnalistika hayotni oddiygina qayd etish bilangina cheklanib qolmaydi, balki hayotdagi fakt, voqea va hodisalarning ichki mohiyatini ham ochib beradi, o'quvchilariga tushuntiradi, tahlil qiladi, baholaydi, xulosalar chiqaradi, ma'qullaydi yoki inkor qiladi. Ya'ni, yuqorida, jurnalistikaning ta'rifida keltirilgan – jurnalistika ijtimoiy hayotni biladi (o'rganadi ma'nosida), tadqiq qiladi, degan tushunchalar jurnalistikaning ikkinchi bosh ijtimoiy vazifasining asosini tashkil etadi. Jurnalistika ijtimoiy hayot voqealarini tasvirlash bilan birlikda bu fakt va voqealarni tahlil qilishi ham lozim. Binobarin, jurnalistikaning ikkinchi bosh ijtimoiy vazifasi – **tahlil** hisoblanadi. Jurnalistikaning tasvir ijtimoiy vazifasi ijtimoiy hayotning ustki, ko'zga ko'rinib turgan qatlamlarini aks ettirsa va ongning ustki qatlamiga ta'sir qilsa, tahlil ijtimoiy vazifasi ijtimoiy hayotning chuqur qatlamlarini o'zida aks ettiradi va inson ongining chuqur qatlamlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu ijtimoiy vazifa orqali jurnalistika o'quvchilariga hayotdagi faktlar, voqea va hodisalarning ichki

sabablarini ochib beradi, tushuntiradi, izohlaydi, bilim beradi, olamni bildiradi, zarur tajribalar bilan qurollantiradi. Jurnalistikaning xabardor qilish ijtimoiy vazifasi singari bu ijtimoiy vazifa ham jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Jamiyat hayotining jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasi aralashmaydigan biror bir sohasi yo'q. Jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasi ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim muammolari yechimini topishda, iqtisodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishda, madaniy-ma'naviy hayotni yanada taraqqiy etishida muhim rol o'ynaydi.

Jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasini bajarishda jurnalistika nashrlari – gazeta va jurnallar, ommaviy axborot vositalari – radio va teleko'rsatuvlar doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadilar.

Jurnalistika turlari o'rtasidagi o'zaro mehnat taqsimotiga muvofiq gazetalar taxminan 75 foiz tasvir ijtimoiy vazifasini bajarsa, o'z navbatida jurnallar taxminan 75 foiz tahlil ijtimoiy vazifasini bajaradilar.

Jurnallarning – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy-badiiy, hajviy, suratli va tarmoq turlari mavjud bo'lib ular ijtimoiy hayotni chuqur aks ettirish va uni tahlil qilish kabi asosiy vazifalarni bajaradilar. Bu – jurnallarning tahlil ijtimoiy vazifasini bajarishda asosiy o'rin tutishini ko'rsatadi. Ammo bu – gazetalarda tahlil ijtimoiy vazifasi bajarilmaydi, degan ma'noni bildirmaydi. Aslini olganda har ikkala ijtimoiy vazifa bir-birini to'ldirib keladi, har qanday tasviriy materialda ham muayyan tahlil unsuri bo'ladi, tahlil materiallarida ham tasvir ishtirok etadi. Radio va teleko'rsatuvlarda tasvir hamda tahlil ijtimoiy vazifalari o'zaro mutanosib ravishda (50-50 foiz) joy oladi. Jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasi uning ma'rifiy, estetik zavq berish, dam oldirish xususiyatlari bilan ham bog'lanib ketadi.

Jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasini bajarishda mutaxassis jurnalistlar, publitsistlar, olimlar, jamoat arboblari, siyosatchilar ishtirok etadilar.

Agarda jurnalistikaning xabardor qilish ijtimoiy vazifasini bajarishda unga publitsistikaning axboriy janrlari xizmat qilsa, tahlil ijtimoiy vazifasini ado etishda esa analitik-tahliliy janrlari xizmat qiladi. Bularga korrespondensiya (*fransuzcha correspondente – joylardan yuborilgan ma'lumotnoma*), maqola (*arabcha – aytilgan gap*), retsenziya-taqriz

(*lotincha va arabcha – baho bermoq*), sharh hamda badiiy publitsistikaning ocherk, feleton (*fransuzcha – varaqa*), pamflet (*inglizcha – tanqidiy asar*) kabi janrlar kiradi. Ma'lumki bu janrlar hajmi va janr talablari bilan axboriy janrlardan ajralib turadi va ular hayotni aks ettiradilar. Bu janrlarda shu bilan birgalikda ilm-fan tadqiqoti usullari – faktlarni solishtirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi analiz usuli, badiiy publitsistika janrlarida esa adabiy-badiiy usullar – obrazlilik, jonlantirish, tipiklashtirish, syujet, kompozitsiya kabilar keng qo'llaniladi. Bu usullar hayot voqealarini chuqur tahlil etishda yordam beradi.

Jurnalistikaning bu ijtimoiy vazifasi ma'lum g'oyalarni targ'ib etishda ham muhim o'rin tutadi. Tahlil ijtimoiy vazifasi jurnalistdan hayotni chuqur bilishni, uning u yoki bu sohasiga maxsus ixtisoslashishni talab qiladi.

Tahlil ijtimoiy vazifasi ham jurnalistikaning tabiatidan kelib chiquvchi uning tabiiy xususiyatidir. Illo jurnalistika insonga olamni bildirish, uning ongini o'stirish, hayotiy va ijtimoiy tajribasini oshirish uchun xizmat qiladi. Ammo ayrim tuzum, hukmron sinf va tabaqalar mazkur ijtimoiy vazifaning bajarilishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kommunistik jurnalistika barcha narsa va hodisalarni faqat kommunistik g'oyalar nuqtai nazaridagina izohlagani bunga misol bo'la oladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston jurnalistikasida tasvir ijtimoiy vazifasi bilan bir qatorda tahlil ijtimoiy vazifasi ham tobora takomillashib bormoqda. Jurnalistikamizning tahlil ijtimoiy vazifasi ham zamonamizning eng muhim, dolzarb masalalarini yoritishda, ommaning ongiga mustaqillik, taraqqiyot g'oyalarini singdirishda faol xizmat qilmoqda. Jurnalistikamiz o'lkamizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirishda, istiqlol, rivojlanish g'oyalarini ommaga tushuntirishda, dunyo voqealarining mohiyatini anglatishda keng faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, jamiyat taraqqiyotini jadal sur'atlar bilan olib borishda jurnalistika, xususan, ommaviy axborot vositalarining roliga katta baho bergan edi. Jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasi iqtisodiy

islohotlarning taraqqiyotdagi roli va ahamiyatini chuqur tushuntirish bilan birlikda ma'naviyatimizning tiklanishi va kishilar ongidan chuqur joy olishini ta'minlashda ham beqiyos xizmat qilmoqda. Biz mustaqillik jurnalistikasining tahlil ijtimoiy vazifasi ko'rsatgan faoliyat natijasida o'zligimizni tanidik, o'z tilimiz, madaniyatimiz, tariximizni bildik, kelajagimizning ulkan va porloq rejalariga ega bo'ldik. Bu gazetalarimiz, jurnallarimiz, radio va teleko'rsatuvlarimizning doimiy ravishda olib borayotgan tahlil ijtimoiy vazifasi natijasidir. Jurnalistika hayotdagi fakt, hodisa va voqealarni bemalol, moneliklarsiz, umuminsoniy nuqtai nazardan, xolis, ilmiy-obyektiv tahlil qilar ekan, uning hayotga ta'siri ham shunchalik ortadi. O'zbek jurnalistikasi ana shu yo'ldan bormoqda. Bu ijtimoiy vazifani yaxshi bilish, unga tayyor bo'lish har bir bo'lajak jurnalistning burchi va vazifasidir.

Jurnalistika ijtimoiy hayot voqealarini tasvirlab va uni tahlil etibgina qolmasdan ijtimoiy hayotga bevosita ta'sir ham qilishi kerak. Jurnalistikaning bu xususiyati uning ijtimoiy vazifalaridagi uchinchi qirrani, ya'ni ta'sir ijtimoiy vazifasini belgilab beradi. Ya'ni jurnalistika ijtimoiy ong ko'rinishi sifatida ijtimoiy borliqni tasvirlab, uni bilib, tadqiq etish bilan cheklanmasdan unga qaytadan ta'sir

ham ko'rsatishi lozim. Illo jurnalistika materiallari yozilib, bosilib, o'qilib, eshitilib, ko'rilibgina qolmasdan hayotda o'zgarish ham yasashi kerak.

Jurnalistikaning ta'sir ijtimoiy vazifasi uning tasvir va tahlil ijtimoiy vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir, ya'ni u mazkur ikki ijtimoiy vazifaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Qaysi jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositalari hayotni keng, xolis va kerakli darajada yoritisa, xuddi shu tarzda chuqur tahlil qilsa uning ta'siri ham yetarli darajada bo'ladi. Aksincha, hayot sayoz, bir yoqlama, shunchaki, majburan yoritilsa, tahlil ham yuzaki bo'lsa ta'sir ham shunga yarasha bo'ladi.

Jurnalistikaning hayotga ta'siri ikki xil: bevosita va bilvosita bo'ladi. Bevosita ta'sir hayot voqealarining tasviri tahlil orqali o'quvchilar ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishdir. Bu holat jurnalistika materiallarining ta'sirchanligi, muhimligi, qiziqarliligi, fakti, tuzilishi, mahorat bilan yozilganligi natijasi. Bu esa, tasvir va tahlil ijtimoiy vazifalarining yetarli



bajarilishidan kelib chiqadi. Jurnalistikaning ta'sir ijtimoiy vazifasini bajarishda jamoatchilik fikrini shakllantirish asosiy o'rin tutadi. Jamoatchilik fikri – jurnalistikaning va uning asosi bo'lmish publitsistikaning bosh masalasidir. Jurnalistikaning hayotga bilvosita ta'siri esa jurnalistika materiallarining samaradorligi, ya'ni natija berishi bilan o'lchanadi. Ya'ni jurnalistikada ko'tarilgan birorta muammo hal etilsa, tanqidiy chiqishlar o'z samarasini bersa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati aralashuvi natijasida hayotga tatbiq etilsa ana shu ijtimoiy vazifa bajarilgan bo'ladi. Hayotga bilvosita ta'sir etishda jurnalistika nashrlarining, jurnalistlarning tashkilotchiliklari ham asosiy rol o'ynaydi.

Jurnalistikaning tasvir, tahlil va ta'sir ijtimoiy vazifalari jurnalistika faoliyatining o'zagini tashkil etadi. Ular bir-birlari bilan uzviy birlikda doimo takomillashib boradilar. Shu bilan birgalikda jurnalistikaning madaniy-ma'rifiy, kishiga zavq berish, dam oldirish, turli xizmatlar ko'rsatish (reklama va e'lonlar) kabi ijtimoiy vazifalari ham mavjud. Bu ijtimoiy vazifalar ham bosh ijtimoiy vazifalardan kelib chiqadi hamda ularni to'ldiradi.

Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari hayot bilan birgalikda taraqqiy etib, takomillashib, yangidan-yangi qirralarga ega bo'lib boraveradi.

### **Jurnalistika nazariyasi va uning ijtimoiy vazifalari bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistika nazariyasi fani nimani o'rgatadi?*
- 2. Jurnalistika atamasining ma'nolarini ayting.*
- 3. Jurnalistika xususiyatlarini izohlang.*
- 4. Jurnalistikaning umumiy majmuasiga qachondan boshlab OAV degan nom berildi?*
- 5. Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari haqidagi qarashlarni izohlang.*
- 6. Jurnalistikaning tasvir ya'ni xabardor qilish ijtimoiy vazifasini bajarishda publitsistikaning qaysi janrlari asosiy o'rin tutadi.*
- 7. Jurnalistikaning tasvir, tahlil va ta'sir ijtimoiy vazifalarining bir-biriga bog'likligini sharhlang.*

## **Jurnalistika nazariyasi va uning vazifalari bo'yicha nazorat savollari**

1. *OAVning asosini izohlab bering.*
2. *Jurnalistika nazariyasining jurnalistika nashrlari tarixiy tajribasining umumlashmasi ekani.*
3. *Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari bo'lgan tasvir, tahlil, ta'sir haqidagi bilimingiz.*
4. *Erkin dunyo jurnalistikasini shahlab bering.*
5. *Tahlil ijtimoiy vazifasini bajarishda publitsistikaning qaysi janrlari asosiy o'rin tutadi?*

### **3.2. Jurnalistikaning bosh tamoyillari**

Jurnalistika o'z zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifalarni bajarishda ma'lum tamoyil (*prinsip*)larga amal qiladi. Jurnalistikaning tamoyillari jurnalistika o'z faoliyatida doimiy amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar, yo'nalishlardir. Jurnalistika tamoyillari ham jurnalistika nazariyasida muhim o'rin tutadi, illo u jurnalistikaning mohiyatini, ichki qonuniyatlaridan eng muhimini tashkil etadi.

Jurnalistikaning ijtimoiy vazifalari uning tamoyillari kabi insoniyat jamiyati va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq. Jurnalistika qaysi bir davr, qaysi bir tuzumga tegishli bo'lsa, ya'ni qaysi ijtimoiy borliqning ong ko'rinishi bo'lsa o'sha jamiyatga, mos keluvchi xususiyatlarga, ya'ni tamoyillarga ega bo'ladi. Buni biz insoniyat tarixida faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatib kelayotgan jurnalistika ko'rinishlari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Feodalizm jurnalistikasi avtoritar, ya'ni yakka shaxs hokimligini tan olish, unga xizmat qilish xususiyatiga ega edi. Bu davr jurnalistikasi o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishda ya'ni xabardor qilish, tahlil etish va hayotga ta'sir ko'rsatishda (*bu ijtimoiy vazifalarning dastlabki ko'rinishlari feodal jurnalistikasida ham mavjud edi*) yuqoridagi qoida asosiy o'rin tutar va jurnalistikaning ba'zi qoidalari – xalqchilik, haqqoniylik tamoyillari to'la bajarilmas edi.

Erkin dunyo yoki burjua jurnalistikasi esa feodal jurnalistikaga qaraganda bir muncha ijobiy xususiyatlarga ega bo'lganligi ma'lum. Unda

avtoritarlik o'rnini ma'lum darajada tenglik, demokratiklik egallagan edi. Ammo burjua jurnalistikasining bosh mohiyati - pul hokimiyati, kapitalga bo'ysunishi, unga xizmat qilishi uning tamoyillarini ham belgilab beradi. Burjua jurnalistikasi o'zaro raqobat, ustakorlik, ma'lum darajada olg'irlik bilan ish ko'radi. Shu bilan birgalikda erkin dunyo jurnalistikasi obyektivizm (lotincha objectum narsa, obyektivizm esa narsalarni aniq aks ettirish) va ma'lum darajada subyektivizm (lotincha subjektum – odam) xususiyatlariga ham amal qiladi.

Burjua jurnalistikasiga o'xshamagan kommunistik jurnalistika o'z faoliyatida yakka g'oya hokimligi natijasida tug'ilgan tamoyillarga amal qiladi hamda jamiyat hayotini sinfiy - partiyaviy nuqtai nazardan yoritadi.

Marksizm-leninizm arboblari jurnalistikaning bosh tamoyilini kommunistik g'oyaviylik va partiyaviylikdan iborat, deb ko'rsatgan edilar. Bu tamoyil kommunistik jurnalistika faoliyati davrida qat'iy, majburiy qonun sifatida qo'llanilib kelindi. Partiya so'zi ingliz, fransuz va lotin tillarida bir qism, guruh degan ma'noni bildiradi. Butun bir jamiyatga, qolaversa insoniyatga tegishli bo'lgan, kishilikning buyuk kashfiyoti sanaluvchi jurnalistikaning, hatto adabiyotning sinfiy, partiyaviy deb e'lon qilinishi va jurnalistikaning butun faoliyatini yakka bir g'oyaga majburiy bo'ysundirilishi kommunistik tushunchalarning tor va cheklangan ekanligini ko'rsatib turibdi.

Jurnalistikaning bosh tamoyillari, o'z faoliyatida amal qilishi shart bo'lgan asosiy qoidalari nimalardan iborat?

Jurnalistikaning bosh tamoyillari uning asl mohiyatidan, bosh ijtimoiy vazifalaridan kelib chiqadi. Jurnalistika insoniyat tomonidan dunyoni bilib, xabardor bo'lib turish, ijtimoiy axborot olish uchun kashf etilgan ekan, demak mana shunday maqsad – faoliyatiga mos keluvchi tamoyillarga, qoidalarga amal qilishi lozim. Demak, jurnalistikaning bosh vazifasi umuminsoniyatga xizmat qilishdan iborat bo'lganligi uchun uning bosh tamoyili ham partiyaviylik emas – umuminsoniylik bo'lmog'i kerak. Bu tamoyilning nazariy asosi shundan iboratki, insoniyat – tabiatning gultoji, ongli jamiyatning, tarixning, sivilizatsiyalarning ijodkoridir. Insoniyat bor ekan yer yuzida ongli, uyushgan jamiyat, hayot mavjuddir. Sivilizatsiyaning, insonning ongli, madaniy hayoti va faoliyati belgilaridan

bo'lmish jurnalistikaning vujudga kelishi, ish ko'rishi ham insoniyat faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Insoniyatdan tashqarida ma'lum darajada ongli hayot bo'lsa-da sivilizatsiya yo'q, jurnalistika ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham jurnalistika umuminsoniyatga tegishli bo'lmog'i, uning maqsad va vazifalariga xizmat qilmog'i kerak. Insoniyat jurnalistikadan haqqoniy, xolis ijtimoiy axborot olishi kerak, dunyodan xabardor bo'lishi, uni o'qib, eshitib, tomosha qilib hordiq chiqarishi, dam olishi kerak. Ana shu ehtiyoj jurnalistikaning bosh ijtimoiy vazifalarini belgilaganidek uning yetakchi qoidalari uchun ham asos bo'ladi. Ya'ni, har bir jurnalistika nashri –gazetalar, jurnallar, har bir ommaviy axborot vositasi – radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, axborot agentliklari va internet umuminsoniylik tamoyiliga qat'iy amal qilishi, ya'ni umuminsoniyatga xizmat qilishi, uning maqsad va manfaatlari, qiziqish va intilishlari, xohishiga qarab ish tutishi lozim. Umuminsoniyat necha-necha asrlar davomida ishlab chiqqan va shakllantirgan oliyjanob qadriyatlar – tinchlik, ezgulik, haqiqat, adolat, poklik, mehnat, yaratish, o'zaro hurmat kabi qoidalar har bir jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositalari faoliyatida bosh qoida, asosiy g'oya bo'lib xizmat qilishi lozim. Ya'ni, har bir jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositalari ayrim yakka shaxslar yoki partiyalarga emas, insoniyatga xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymog'i, insoniyatga foyda keltirmog'i, uning hayoti doimo erkin, farovon kechishi uchun, dunyoda tinchlik hukmron bo'lishi uchun, ozodlik, tenglik, demokratiya uchun, yer yuzida aldov, zulm, urush bo'lmasligi uchun, poklik va oliyjanoblik uchun, doimo haqiqat qaror topishi uchun, taraqqiyot uchun kurashmog'i, shu yo'lda faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Umuminsoniylik tamoyilining buzilishi – jurnalistikaning ayrim shaxslar manfaatiga xizmat qilishiga (agar bu insoniyatga zarar keltirsa), zulm-zo'rovonlik vositachisi bo'lishga, haqiqatdan ko'z yumishga, yolg'on, xabarlar tarqatishga, milliy, irqiy va diniy nizolarni keltirib chiqarishga, urushni tashviq qilishga olib keladi. Bunday jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositasi o'z ijtimoiy vazifasini bajara olmaydi va undan insoniyat yuz o'giradi.

Umuminsoniylik tamoyili har bir jurnalist, publitsist va ijodkor uchun uning ijtimoiy - siyosiy va kasbiy darajasini belgilovchi, ijodiy

mahsulining pirovard bahosini beruvchi, uning kerak- nokerakligi, foydazararini, qimmatini belgilovchi birdan - bir xolis mezondir. Jurnalistning har bir axboroti, publitsistning fikri, ijodkorning har bir satri, asari insoniyatga nima bera olishi bilan o'lanadi. Bunga buyuk ijodkorlar, publitsistlarning faoliyati, yozgan asarlari misol bo'la oladi. Yaratilgan har bir asar insoniyatga biror yangilik, yangi fikr, yangi g'oya, yangi zavq-shavq, his-hayajon bersagina bu asar o'lmaydi, umrboqiy bo'lib qoladi. Aksincha, shunchaki, o'z shaxsiy manfaati uchun, biror shaxsga yoqish uchun, yoinki yuzaki, xom-xatala yozilgan bo'lsa bunday asarning umri qisqadir. Shunday ekan – umuminsoniylik jurnalistikaning ham, adabiyot va san'atning ham bosh tamoyili, ijod va faoliyat qoidasi bo'lmog'i kerak.

Jurnalistikaning bosh tamoyillaridan biri xalqchillikdir. Xalqchillik – umuminsoniylikning tarkibiy qismi, mantiqiy davomi, muayyan ko'rinishidir. Bu tamoyilning nazariy asosi shundan iboratki, xalq tarixning yaratuvchisi, dunyodagi barcha moddiy-ma'naviy boyliklar ijodkoridir. Umuminsoniyat o'z navbatida xalqlarga bo'linadi. Xalq (*arabcha - yaratilmish degan ma'noni bildiradi*) ma'lum hududda yashovchi, o'z tarixi, taqdiri, manfaati bilan birlashgan odamlarning katta yig'indisidir. Masalan, o'zbek xalqi, rus xalqi, O'zbekiston xalqi, dunyo xalqlari va hokazo. Xalq bir millatdan yoki birnecha millatdan iborat bo'lishi mumkin. Barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy, ekologik muammolar va masalalar shu hududda yashovchi xalqqa tegishlidir. Xalq insoniyatning bir bo'lagi sifatida umuminsoniy va o'zigagina tegishli bo'lgan manfaatlarga ega.

Binobarin ana shu hududda yashovchi xalqqa tegishli bo'lgan jurnalistika xalqchillik tamoyiliga amal qilishi, ya'ni o'sha xalq manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qilishi lozim. Bu tamoyilning talabi shundan iboratki, har bir jurnalistika nashri, har bir ommaviy axborot vositasi o'z xalqining manfaati, tarixi, madaniyati, taraqqiyoti masalalarini keng yoritishi, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yuksalishiga xizmat qilmog'i shart. Bu jurnalistikaning o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishi, ya'ni ijtimoiy hayotni, xalq hayotini to'la aks ettirish, tahlil qilish va unga qaytadan ta'sir ko'rsatishining asosi hisoblanadi. Jurnalistika xalqning kundalik fikr va tuyg'ularining aniq va

yangroq ifodasi bo'lishi lozim. U xalq orasida bo'lishi hamda xalqning umid va tashvishlari, quvonch va dardini teng baham ko'rish shart. Har bir jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositasi xalqdan ajralmasligi, uning hayotiy muammolarini ochiq, xolis bayon qilishi, xalq orzu-umidi, fikr-tuyg'ularining haqiqiy ifodachisi bo'lmog'i kerak. Xalq hayotini buzib, xaspo'shlab yoritish, yakka shaxs, yakka g'oyaga xizmat qilish kabi hollar jurnalistikaning o'z ijtimoiy vazifalarini bajara olmasligiga, xalqning noroziligi va inkoriga sabab bo'ladi. Unday jurnalistika nashrini xalq o'qimaydi, ommaviy axborot vositalaridan yuz o'giradi.

Xalqchilik tamoyili har bir jurnalistdan, publitsistdan, har bir ijodkordan o'zining butun ijodi, qalb qo'rini xalqiga bag'ishlashni, butun umr xalqiga xizmat qilishni talab etadi. Har bir qalam sohibi o'z asarlarida xalqning hayoti, mehnati, tashvishi, quvonchi, orzu-umidlarini keng, haqqoniy tasvirlashi lozim. Xalqchilik publitsistika va badiiy ijodning eng muhim talabi, har qanday asarning hayotiyligi, umrboqiyligini belgilovchi asosiy va bemurosa mezondir. Xalq ruhi, uning dilidagilarni ifoda etuvchi va yuksak mahorat bilan yozilgan asarlargina umrboqiy bo'lishi mumkin. Agar jurnalist, publitsist, ijodkor xalqchilikka erisha olmas ekan, hech qachon xalq nazariga tushmaydi, xalqning hurmat-e'tiborini qozona olmaydi.

Xalqchilik tamoyilining aniq ko'rinishlaridan biri – milliylikdir. Binobarin jurnalistika milliylik tamoyiliga ham amal qilishi lozim.

“Millat–kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi” (“O'zbek tilining izohli lug'ati”. T., 2006. 2-jild. 593 b.). Masalan, o'zbek millati, rus millati va hokazo. Milliylik xalqchilikning, umuminsoniylikning mushtarak bir tarkibiy qismi, muayyan ko'rinishi ekan, shu millat hududida, shu millat tilida chiquvchi jurnalistika o'z millatining manfaati, orzu-umidi, taraqqiyoti uchun xizmat qilishi kerak. Barcha jurnalistika nashrlari, ommaviy axborot vositalari kundalik faoliyatlarida shu millatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotini keng yoritishi, millatning dardi bilan nafas olishi lozim. Har bir jurnalist, publitsist, ijodkor o'z asarlarida shu millatning hayoti,

ruhi, fikr - o'ylari, quvonch va tashvishlarini aks ettirishi, milliy qadriyatlarga suyanishi shart. Buning uchun millatning tili va dilini, ruhini yaxshi idrok eta bilishi lozim. Shu bilan birgalikda milliylik, millat manfaatlari umumxalq manfaatlariga, umuminsoniyat manfaatlariga zid kelmasligi, o'zaro mushtarak bo'lishi talab etiladi. Milliylikni mensimaslik manqurtlikka, kosmopolitizmga olib kelganidek bir millat manfaatlarini xalq manfaati, umuminsoniyat qadriyatlaridan yuqori qo'yish milliy mahdudlikka, milliy zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Har bir jurnalist, publitsist, ijodkor o'z millatini sevishi bilan bir qatorda boshqa millatlarni ham hurmat qilishi, ularning manfaatlarini tushunib, shu asnoda ijod qilishi lozim. Ya'ni, jurnalist, ijodkor milliylik, o'z millatiga xizmat qilish orqaligina xalqchilik va umuminsoniylikka xizmat qila oladi.

Jurnalistikaning eng muhim qonuni, tamoyillaridan biri – uning haqqoniyligidir. Haqqoniylik – mutlaq haqiqatga intilish insonning dunyoni bilishdagi bosh talabi, ish usulidir. Inson paydo bo'lib, ongi rivojlana boshlagan paytdan boshlab o'zini o'rab turgan narsa va ashyolarning, yuz berayotgan voqea va hodisalarning asl, tub mohiyatini bilib olishga intiladi. Bunda unga haqqoniy bilim va aniq tajribagina qo'l keladi. Ammo tajribasizlik tufayli noto'g'ri xulosalar ham kelib chiqadi, bir insonning ikkinchi insondan manfaat qidirishi, o'zaro munosabatlar natijasida yolg'on ham kelib chiqqan. Insoniyat o'zining necha asrlik hayoti, faoliyati davomida ana shu rost va yolg'on o'rtasida qolib, haqiqatni, ya'ni rostni izlab keladi. Insoniyatning ma'naviy mahsuli bo'lgan jurnalistika insoniyatga xizmat qilar ekan haqiqatga asoslanmog'i, rost so'zlamog'i kerak. Shundagina u insoniyat intilgan ezgulikka, adolatga, taraqqiyotga xizmat qiladi. Aksincha jurnalistika yolg'on xabarlar tarqatsa, hayotni bir yoqlama, noto'g'ri yoritisa, yolg'on so'zlasa insoniyatga katta zarar yetkazadi. Uni inqirozga yetaklaydi. Shunday ekan barcha jurnalistika nashrlari, haqqoniylik tamoyiliga amal qilishi shart. Bundan zarracha chekinish uning o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishida mone'lik qiladi. Bu tamoyil har bir jurnalist, publitsist va ijodkordan faqat haqiqatni, ayni haqiqatni yozishni talab etadi. Haqqoniylik publitsistik va badiiy ijodning bosh mezoni, asosiy talabidir. Hayot haqiqatlarini ochib bera olgan, o'z millati va pirovard natijada umuminsoniyat uchun qadrl

bo'lgan asarlarga umrboqiydir. Bu tamoyilning zarracha bo'lsa-da buzilishi, o'z manfaati yoki yakka g'oya, shaxs talabi bilan hayot haqiqatidan ko'z yumish ijodkorning inqiroziga sabab bo'ladi.

Oldingi davr – kommunistik davr jurnalistikasi xususan, haqqoniylik tamoyiliga rioya qilmaganligi boisidan inqirozga uchradi. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasida haqqoniylik tamoyili tobora takomillashib bormoqda.

Jurnalistikaning asosiy tamoyillaridan yana biri – ommaviylikdir. Ommaviylik har bir jurnalistika nashrining va ommaviy axborot vositasida ko'pchilikning doimiy ishtirok etishi, uning ko'pchilik tomonidan yaxshi kutib olinishi, ommalashuvidir. Ommaviylik tamoyili umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik va haqqoniylikning mantiqiy davomi bo'lib, yuqoridagi tamoyillarga qat'iy amal qilgan holda o'z ijtimoiy vazifalarini to'la bajara olgan jurnalistika nashri, ommaviy axborot vositasigina keng ommalashuvi, o'quvchilar, radiotinglovchilar va teletomoshabinlarga manzur bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda bu tamoyil har bir jurnalistika nashri va ommaviy axborot vositasidan yuksak saviyada ish olib borishni, har bir jurnalist, publitsist va ijodkordan katta mehnat va mahoratni, doimiy izlanishni talab qiladi. Ommaviylikka erisha olmagan jurnalistika nashrida jurnalist muvaffaqiyat qozona olmaydi.

Jurnalistika faoliyatida partiyaviylik tamoyili ham mavjud. Kommunistik jurnalistikada bu tamoyil barcha jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalari uchun bosh, majburiy qoida qilib qo'yilgandi. Aslida esa partiyaviylik – umuminsoniylik, xalqchilik, haqqoniylik bilan o'lchanuvchi tushuncha hisoblanadi. Partiyaviylik tamoyili jamiyatdagi ayrim partiyalar, uyushmalar, tashkilotlar tomonidan nashr etiladigan jurnalistika organlari uchun qo'llaniladigan qoida bo'lib, o'sha partiya, uyushma, tashkilotning dasturi, yo'l-yo'riqlari asosida ish ko'rish demakdir. Bu – tabiiy bir hol. Ammo partiyaviylik tamoyili yuqorida ta'kidlab o'tilganidek umuminsoniylik, xalqchilik va milliylik, haqqoniylik tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak. Aks holda u jamiyatga zararli hodisaga aylanadi.

Mustaqil O'zbekistonda qator partiya gazetalari – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining nashri "O'zbekiston ovozi", Fidokorlar



partiyasining nashri “Fidokor”, Adolat sotsial-demokratik partiyasining nashri “Adolat”, O‘zbekiston Milliy tiklanish partiyasining nashri “Milliy tiklanish”, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining nashri “XXI asr” gazetalari yuqoridagi tamoyillar asosida ish ko‘rib kelmoqda.

Jurnalistika tamoyillari jamiyat taraqqiyoti bilan birlikda rivojlanib, takomillashib, yangi-yangi qirralari ochilib boraveradi. Istiqloq davri o‘zbek jurnalistikasi va ommaviy axborot vositalari faoliyatida yuqoridagi tamoyillar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida” kabi va boshqa qonunlar o‘zbek jurnalistikasi nashrlari va ommaviy axborot vositalari ishini yanada takomillashtirish, ularning jurnalistikaning bosh tamoyillariga amal qilgan holda asosiy ijtimoiy vazifalarini bajarishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. O‘zbek jurnalistlari, publitsistlari, barcha ijodkorlar o‘z faoliyatlarida jurnalistikaning bosh tamoyillariga og‘ishmay amal qilib kelmoqdalar.

### **Jurnalistikaning bosh tamoyillari bo‘yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistika ijtimoiy vazifalarni bajarishda qaysi tamoyillarga amal qiladi.*
- 2. Feodal davri jurnalistikasi qanday xususiyatlarga ega edi?*
- 3. Erkin dunyo ya‘ni burjua jurnalistikasining xususiyatlari.*
- 4. Kommunistik jurnalistikaning bosh tamoyilini nega partiyaviylik deymiz?*
- 5. Jurnalistikaning bosh tamoyilini sharhlab bering.*
- 6. Umuminsoniylik tamoyili buzilsa nima bo‘lishini sharhlang.*
- 7. Jurnalistikadagi milliylik tamoyilini tushintirib bering.*

### **Jurnalistikaning bosh tamoyillari bo‘yicha nazorat savollari**

- 1. Avtoritar ya‘ni yakka shaxs hokimligi jurnalistikasini izohlab bering.*
- 2. Bosh mohiyati-pul hokimiyati, kapitalga bo‘ysinish, unga xizmat qilish jurnalistikasi davrini tushintirib bering.*

3. *Jurnalistika faoliyati yakka bir g'oyaga majburiy bo'ysindirilgan davr haqida gapirib bering.*
4. *Har bir jurnalist, ijodkor uchun xolis mezonni tushintirib bering.*
5. *Xalqchilik tamoyilini izohlang.*
6. *Jurnalistikadagi haqqoniylik tamoyilini sharhlang.*

### **3.3. Jurnalistikada erkinlik masalasi va uning g'oyaviy-nazariy mohiyati**

Jurnalistika nazariyasida jurnalistika erkinligi masalasi muhim o'rin tutadi. Chunki bu muammo ham jurnalistikaning mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilaydi. Jurnalistika erkinligi – so'z erkinligi, shaxs erkinligi, vijdon erkinligi singari siyosiy huquqlardan biri bo'lib, jurnalistikaning erkin faoliyat ko'rsatishi, kishilarning jurnalistikadan erkin foydalana olishi, unda fikr va tuyg'ularini ifoda eta olishi erkinligi, axborot yig'ish va tarqatish erkinligidir.

Jurnalistika erkinligi masalasi jurnalistika paydo bo'lgandan beri mavjud bo'lib, turli jamiyatda turlicha ado etib kelinmoqda.

Erkinlik so'zining tub ma'nosi har qanday to'siq, g'ov, monelikdan holi bo'lish, bemalollik, mustaqillik, ozodlik degan ma'noni beradi. Ammo erkinlik aslida anglangan zaruriyatdir. Inson o'z oldida turgan tarixiy, iqtisodiy, siyosiy zaruratni anglab yetgandagina erkin bo'ladi, erkin fikrlay oladi. Jurnalistika erkinligi ham ana shunday xususiyatga ega. Ya'ni, jamiyat taraqqiyotiga, uning qonuniyatlariga javob beruvchi jurnalistikagina erkin jurnalistika bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotiga bog'liq qonunlarni chuqur tushungan, unga javob bera oladigan jurnalistgina erkindir. Buning aksi, eskirgan, o'z umrini yashagan ijtimoiy tartiblar va qarashlarga xizmat qiluvchi jurnalist erkin bo'la olmaydi.

Jurnalistika erkinligining uch asosi mavjud bo'lib, bular-uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslaridir. Jurnalistika erkinligining ijtimoiy-siyosiy asosi muayyan jamiyatdagi jurnalistikaning qaysi ijtimoiy borliqda, qanday tuzumda faoliyat ko'rsatishi, qaysi ijtimoiy ongning ko'rinishi ekanligi, qaysi mafkura va g'oyalarga xizmat qilishidan kelib chiqadi. Jurnalistika erkinligining bu bosh asosi uning huquqiy

imkoniyatlari bilan ifodalanadi. Har bir jamiyat, har bir tuzum jurnalistika erkinligi huquqini belgilar ekan, uning faoliyatini ma'lum qonunlar, ko'rsatmalar, bu borada olib boriladigan siyosat bilan belgilab qo'yadi.

Jurnalistika erkinligining iqtisodiy asosi esa jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalarining kim tomonidan, qaysi mablag'lar evaziga chiqarilishi bilan belgilanadi. Ya'ni, jurnalistika kimning mablag'i evaziga, iqtisodiy qo'llashi natijasida chiqsa o'sha uchun erkin bo'ladi.

Jurnalistika erkinligining ma'naviy asosi esa uni chiqarayotgan shaxs, guruh, unda ishlovchi jurnalistlarning dunyoqarashi, e'tiqodi, maslak va maqsadlari bilan o'lchanadi. Yuksak ma'naviyatli, e'tiqodli, insoniyat oldidagi, jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglab olgan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xizmat qiluvchi, ezgulikka intiluvchi jurnalist doimo erkin bo'ladi. Buning aksicha qoloq, qotib qolgan tushunchalar, aqidalar asosida faoliyat yuritadigan jurnalist esa hech qachon ruhan erkin bo'la olmaydi.

Jurnalistika erkinligi masalasi jurnalistika paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjuddir va turli davrlarda turlicha hal etib kelingan. Jurnalistikaning ilk davri hisoblangan va yakka hukmdorlar tomonidan boshqarilgan avtoritar jurnalistika keng omma uchun erkin bo'la olmadi, xalqning fikr-tuyg'ularini o'zida ifoda eta olmadi. Bu jurnalistikaning egalari bo'lgan yakka hukmdorlar manfaatiga zid edi. Shu boisdan ana shu davrdayoq jurnalistika erkinligi talabi paydo bo'ldi. Yangi o'sib chiqayotgan taraqqiyparvar kuchlar o'zlari uchun, o'z fikrlarini erkin bayon etish uchun jurnalistika erkinligini talab qildilar. Buning yaqqol misoli sifatida XVII-XVIII asrlarda Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda yuz bergan inqilobiy voqealar davridagi jurnalistika erkinligi uchun kurashni keltirish mumkin. Angliyada yashab ijod etgan Djozef Addison, Richard Stil, Fransiyada Kamil Demulen, Jan Pol Marat va boshqa taraqqiyparvar jurnalistlar o'z asarlarida xalq ommasining fikr va tuyg'ularini ifoda etib, jurnalistika erkinligi uchun kurashdilar. Rossiyada A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, N.G.Chernishevskiy, A.I.Gertsen kabi ilg'or fikrli, o'z asarlarida xalq ommasining fikr va tuyg'ularini ifoda etgan adiblar, publitsistlar chor hukumati tomonidan doimiy ravishda jurnalistikani o'z ta'qibi ostida olib kelgan senzuraqa qarshi kurashib

keldilar. Asrimizning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadid jurnalistikasi namoyandalari ham mustamlakachi chor hukumatining jurnalistika erkinligi borasidagi qattiq zulmiga qarshi chiqqan edilar.

“Hozirda ijtimoiy kalom, jurnalistika uchun berilgan hurriyatlar to‘shak ustida, og‘ziga suv tomizilib turilgan og‘ir xastadek ekanini tilsiz va ko‘r tabiblar ham tasdiq eturlar”, deb yozgan edi “Taraqiiy” gazetasining muharriri I.Obidov gazetasining 1-sonida (1906, 14 iyun) bosilgan “Biz musulmonlarni hurriyatda haqlari bormi? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz marta yo‘q!” sarlavhali publitsistik maqolasida. Bu davrda jurnalistikada publitsistika sohasida ijod qilgan M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy va boshqalar ham chor Rossiyasi general-gubernatorligining jurnalistika erkinligidan mahrum qiluvchi siyosatiga qarshi keskin fikrlar aytgan edilar.

Keyinchalik, dunyodagi qator rivojlangan mamlakatlarda hokimiyat o‘zgarib burjuaziya hukmronligi boshlangach, jurnalistika erkinligi nisbatan kengaydi. Bu davrda chiqqan jurnalistika nashrlarida axborot olish va tarqatish yaxshilandi, kishilarning jurnalistikadan foydalanish imkoniyatlari ancha oshdi. Umuman olganda burjuaziya jurnalistikasi erkin jurnalistika deb nom oldi. Bunda ma‘lum darajada haqiqat bor edi. Burjua hukumatlari jurnalistikaga oid qonunlarida jurnalistikani hamma uchun erkin, deb e‘lon qildilar, bu qonun ma‘lum darajada amalga oshdi, iqtisodiy jihatdan imkoniyati bor shaxslar, guruhlar uchun jurnalistika nashrlari chiqarish, axborot yig‘ish va tarqatish erkinligi paydo bo‘ldi. Shu bilan birgalikda burjua jurnalistikasida erkinlikning iqtisodiy asosi katta ahamiyatga ega bo‘la borganligi boisidan jurnalistikaning kapitalga qaramligi ham oshdi, jurnalistika erkinligi undan xohlagancha foydalanish erkinligiga, boylik orttirish erkinligiga aylana bordi. Jurnalistikada shovshuvli materiallarga, reklama va e‘lonlarga haddan tashqari keng o‘rin berila boshlandi. H.H.Niyoziyning “Gapur” she‘ridagi:

Qo‘y ondin-mundin xabar, e‘lon kerosin yoyma ko‘p;

Ismi jurnoli kitob, yaxshi ro‘monlardan gapur, kabi misralar “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida juda ko‘plab bosiladigan reklama va e‘lonlarni tanqid qilishga bag‘ishlangan edi. (“Sadoyi Turkiston” gazetasi. 1914. 20 may).

1917-yil oktyabr o'zgarishidan keyin hukmronlikni o'z qo'liga olgan bolsheviklar partiyasi jurnalistika erkinligi masalasiga sinfiy nuqtai nazardan yondashishini e'lon qildi va bu borada bir yoqlama, sinfiy-partiyaviy zo'ravonlikdan iborat siyosatni o'tkaza boshladi. Bolsheviklarning buyrug'i bilan Rossiyaning o'zida va unga tobe bo'lgan o'lkalarda o'sha davrgacha mavjud bo'lgan barcha ommaviy axborot nashrlari yopildi, bosmaxonalar musodara qilindi va ularning o'rniga kommunistik partiyaning nashrlari chiqarila boshlandi. V.I.Lenin "G.Myasnikovga xat" asarida jurnalistika erkinligini faqat sinfiy nuqtai nazardan hal etish mumkinligini ko'rsatib berdi va kommunistik ta'limotga zid har qanday qarashlar, fikrlarni jurnalistikada e'lon qilinishi mumkin emasligini ta'kidladi. Jurnalistika "faqat proletarlar va keng mehnatkash omma" uchungina erkin deb e'lon qilindi va kommunistik partiyaning siyosatiga mos tushmaydigan har qanday g'oya va fikrlar, milliy, diniy va boshqacha qarashlar man etildi, jurnalistika yakka g'oyaviy hukmronlik quliga aylantirildi. Bunday holat o'lkamizda yetmish yildan ko'proq davr mobaynida hukm surib keldi. Bu qonunga bo'ysunmagan yoki o'zicha, erkin fikrlashga uringan qator adiblar, jumladan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va necha yuzlab jurnalistlar, publitsistlar jismonan yo'q qilindi, siyosiy qatag'on etildi. O'z milliy mustaqilligiga erishgan, demokratik va huquqiy davlat, adolatli fuqarolar jamiyati tuzish yo'lidan borayotgan respublikamizda jurnalistika erkinligi masalasi huquqiy to'la hal etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67 - moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deb yozib qo'yilgan. Jurnalistika erkinligining bu ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asosi yana bir muhim qonun - "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Oliy majlis tomonidan 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan hujjatda yanada oydinlashtirilib, O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, har bir fuqaro axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega ekanligi hamda ommaviy axborot vositalarida senzura yo'l qo'yilmasligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekistonda bu qonunlarning hayotga tatbiq etilishi, o'zbek jurnalistikasining haqiqiy erkin, rivojlangan jurnalistika darajasiga etib, jahon erkin jurnalistikasining ajralmas tarkibiy

qismiga aylanishi uchun, jurnalistikamizning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlaridan keyingi “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylanishi uchun qator amaliy tadbir va choralar ko‘rilmogda. “Jurnalistika va axborot vositalarini to‘rtinchi hokimiyat sifatida e‘tirof etish huquqiy davlat oyoqqa turishining muhim shartlaridan biridir”, – degan edi O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov.<sup>9</sup> Bizning jurnalistikamiz, ommaviy axborot vositalari kishilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda, milliy mustaqillik, tinchlik, barqarorlik, demokratiya va adolat g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini ularning ongiga singdirishda, milliy mafkuramizni vujudga keltirishda kuchli faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Jurnalistika erkinligi masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Jamiyatimiz taraqqiy etishi, mustaqilligimizning mustahkamlanishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyat bilan amalga oshishi jarayonida jurnalistika erkinligi borasidagi ayrim muammo va nuqsonlar ham o‘z yechimini topib boraveradi.

### **Jurnalistikada erkinlik masalasi**

#### **va uning g‘oyaviy-nazariy mohiyati bo‘yicha reyting topshiriqlari**

*1. Jurnalistika nazariyasida jurnalistikaning mohiyatini, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini qaysi masala belgilaydi?*

*2. Jurnalistika erkinligi deganda nimani tushunasiz?*

*3. Jurnalistika erkinligi deganda nimani tushunasiz?*

*4. Inson qachon erkin bo‘ladi?*

*5. Erkin jurnalistika qachon paydo bo‘ladi?*

*6. Jurnalistika erkinligining uch asosini ayting.*

*7. Jurnalistika erkinligiga oid qaysi qonunlarni bilasiz?*

*8. Qanday jurnalistni erkin jurnalist deymiz?*

*9. Jurnalistika erkinligi uchun kurashgan taraqqiyparvar jurnalistlardan kimlarni ayta olasiz?*

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston xalqi o‘z yo‘lidan qaytmaydi. T.: O‘zbekiston, 1996 12 b.

10. *Qaysi davrda jurnalistika erkinligiga sinfiy nuqtai nazardan yondashildi?*

11. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67- moddasini sharhlab bering.*

### **Jurnalistika erkinligi masalasi va uning g'oyaviy-nazariy mohiyati bo'yicha nazorat savollari**

1. *Matbuot erkinligi atamasini sharhlab bering.*

2. *Jamiyat taraqqiyotiga, uning qonuniyatlariga qanday matbuot javob bera oladi?*

3. *Jurnalistika erkinligining ijtimoiy-siyosiy asosini izohlang.*

4. *Jurnalistika erkinligining iqtisodiy asosi haqida nimalarni bilasiz?*

5. *Jurnalistika erkinligining ma'naviy asosini sharhlang.*

6. *Qaysi davrda jurnalistika erkinligi nisbatan kengaydi?*

7. *Jurnalistikaning qaramligi qachon oshdi?*

8. *Matbuot erkinligiga oid qonunlarimizni sharhlab bering.*

### **3.4. Pablik rileyshnz**

Pablik rileyshnz iborasi o'zbek jurnalistikasida mavjud bo'lishiga qaramay uncha ommalashmagan edi. Vaholanki, mazkur atama birinchi bor qo'llanilganiga 200 yildan oshdi. Bu atamaning rivoji asosan XX asrdan boshlandi.

Ko'pgina o'z matbuoti yo'q vazirlik va tashkilotlarda matbuot xizmati barpo etildi. Uning xodimlari, aksari holda yozishni, fikr yuritishni, tahlil qilishni biladigan va o'zlari haqqoniy ma'lumotlar tayyorlay oladigan va OAVga taqdim etadigan jurnalistlar edi.

Bu matbuot xizmati xodimlari ya'ni piarmentlar yozgan va tarqatgan materiallari auditoriyada salbiy hissiyotlar keltirib chiqarish kerak.

Pablik rileyshnz yoki PR xodimlarini jurnalistlar kasbdosh deb biladilar va hamkorlikda faoliyat yuritishadi. Aslida shunday bo'lishi kerak.

Pablik rileyshnz borasida gap borganda hech ikkilanmay PR jurnalistika negizida paydo bo'lganligini e'tirof etish kerak. U xuddi OAV angari demokratik jamiyat sharoitidagina haqiqiy bo'lishi mumkin.

XX asr o'zbek jurnalistikasiga nazar solinsa, deyarli yetmish yil mobaynida matbuot xizmati yolg'on-yashiq axborotlar tayyorlaganini bilamiz. Chunki avtoritar jamiyat matbuot xizmatiga ham hukmronlik qilgan, ular tayyorlagan materiallar senzura qilingan. Shu boisdanmikan, Pablik rileyshnz xodimlariga salbiy munosabat saqlanib qolgan. Hozirda ham ba'zi matbuot xizmati xodimlariga nisbatan ishonchsizlik bor.

Shu o'rinda taniqli jurnalist, olim To'loqin Eshbekning "Maqsad: axborot tarqatish" maqolasiga biroz to'xtalamiz. (Maqola "O'zbekiston matbuoti" jurnalining 2005-yil 6-sonida chop etilgan.) "... Dag Nyusom, Alan Skott, Jasi Turkning" RR bu: jamoatchilik bilan aloqalarning samaradorligi" kitobidagi RR xodimlariga mo'ljallab yozgan fikrlaridan matbuot kotiblari uchun muhim xulosalar chiqarishimiz kerak deb yozadi va ularni birma-bir keltiradi. Ular quyidagicha:

- matbuot kotibi har bir dalilning aniq va to'g'riligini bilishga erishishi lozim;

- jamoatchilik bilan aloqalardan asosiy maqsad - idoraviy manfaatlar emas, jamoatchilik manfaati. Agar RR xodimi idoraviy manfaatlarni ko'zlab ish qilsa, jamoatchilik e'tiboridan chetda qoladi. Aslida, jamoatchilik shu idoraning informatsiyasini eshitadi, qabul qiladi;

- matbuot xizmati shunday ish qilishi kerakki, uning dasturi odamlarda katta qiziqish uyg'otsin. Fuqarolar shu tashkilot faoliyatiga qiziqsagina unga e'tibor beradi. Aks holda, u haqda yetarlicha axborot yo ma'lumotga ega bo'lmasa, jamoatchilik unga beparvo bo'ladi;

- aslida, matbuot xizmati bilan OAV xodimlarining umumiy vazifasi bitta, ya'ni axborot tarqatish. Bu jihatdan ularni raqobatdosh, deyish ham mumkin. Albatta, har birining o'z funksiyalari bor;

- matbuot xizmati xodimi OAV xodimlariga e'tibor bilan munosabatda bo'lishi zarur. Aytaylik, OAV xodimi matbuot xizmati xodimini biror joyga taklif etsa, kechikmasdan yetib borishi lozim;

- jamoatchilik bilan aloqa samarali bo'lishi uchun jamoatchilikning ijtimoiy fikrini muttasil o'rganib borish kerak. RR xodimi ijtimoiy fikrning



ichiga kirishi zarur. Bu borada xayolparastlik, parishonxotirlik qilish, har xil his-hayajon va boshqa havoyi gaplar ketmaydi. Aniq ilmiy yondashuv kerak;

- auditoriya turli toifa kishilaridan, jumladan, maktab o'quvchilari, talabalar, ziyolilar, ishchilar, fermerlar va boshqa kasb egalaridan iborat bo'lishi mumkin. Ularning saviyasi, tushunish darajasi har xil. RR xodimi hammaga tushunarli, ommabop so'zlar, iboralar bilan xalqona tilda gapirishi, axborot tarqatishi zarur;

- matbuot kotibi har qanday vaziyatda madaniyatli bo'lishi, to'g'ri gapirishi zarur. Shu tariqa u jamoatchilik fikrini o'rgana oladi; matbuot xizmati xodimi boshqaruv tizimi, funksiyalari, tegishli tashkilotning faoliyatiga oid qonunlari, muhim normativ hujjatlari, dastur va rejalarini hamda boshqa ma'lumotlarni mukammal bilishi lozim". Shundagina matbuot kotibi OAV xodimlari bilan bahamjihat ishlay oladi. Nazariyotchilar fikricha, matbuot xizmati uchun jurnalist – ta'sir o'tkazishning eng samarador yordamchisi, vositachisi va shu bilan birga uning yaqin do'stidir.

Muallif to'g'ri ko'rsatishicha, matbuot xizmati xodimlari OAV xodimlari bilan hamkorlik qilishlari ikkala tomon uchun foydalidir.

PR MDH davlatlari jumladan, O'zbekistonda ham siyosat, biznes, hokimiyat uchun kurash jarayonlarida yangi samarali qurolga aylangan. Oxirgi yillarda PR ancha murakkablashib bugun uning tarkibiga tashkiliy-boshqaruv faoliyat xizmatlari ham kiradi. Bu degani turli loyiha va tadbirlarni o'tkazishni tashkil qilish, ularni axboriy ta'minlash, ularni o'tkazishga mablag' izlash degani. Bu bilan RR cheklanmaydi. U yana preativ faoliyat ham yuritadi. Bu degani mijoz topish, mavqe yaratish, bank, tahririyat, reklama agentligi, firma tarixini yaratish kabi ishlar bilan band bo'lish degani.

Yana RR konsalting va axborot-tahliliy xizmatlar bilan ham shug'ullanadi. Pablik rileyshnzni zamonaviy kasbiy faoliyat turiga kiritish mumkin.

2006-yil 22-sentyarbdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar to'g'risida" 203-sonli qaror qabul qildi. Bu

qarorga binoan vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari xo'jalik boshqaruv organlari tarkibida axborot xizmatlarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

### **Pablik rileyshnz bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *PR atamasi qachondan beri qo'llanilib kelinadi?*
2. *Nima sababdan PR xodimlarini jurnalistlar bilan kasbdosh deyishadi?*
3. *Avtoritar jamiyatda matbuot va PR kimga xizmat qilgan?*
4. *Matbuot xizmati xodimi nimalarga e'tibor berishi kerak?*
5. *PR MDH davlatlarida qanday qurolga aylanganini izohlang.*
6. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrdagi 203-sonli qarorini sharhlab bering.*
7. *Pablik rileyshnzning o'zbekcha muqobilini izohlab bering.*

### **Pablik rileyshnz bo'yicha nazorat savollari**

1. *Pablik rileyshnz iborasini sharhlang.*
2. *Matbuot xizmati qaysi tashkilot va davlat organlarida faoliyat yuritadi?*
3. *PR qaysi negizda paydo bo'ldi?*
4. *Qanday jamiyatda u haqiqiy faoliyat yurita oladi?*
5. *XX asr so'nggi o'n yilligigacha PR kimga xizmat qilgan?*
6. *PR xodimlariga nega salbiy munosabat saqlanib qolgan?*
7. *Dag N'yusom, Alan Skott, Jadi Turkning "RR bu: jamoatchilik bilan aloqalarning samaradorligi" kitobidagi fikrlarni sharhlab bering.*

---

## 4-BOB. JURNALISTIK TA'LIM VA KADR TAYYORLASH SIYOSATI

### 4.1. O'zbek jurnalistikasi ta'limining yuzaga kelishi va rivojlanishi

“Jurnalistikaning ba’zi nazariy savollariga javob berishdan oldin, uning ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot majmuini aks ettirishini inobatga olib jurnalistik ma’lumot tarixiga nazar tashlash o’rinli bo’ladi.

Chunki bu sohaga qiziqqan, shu sohada o’qiyotganlar uchun bu muhimdir. O’zbekistonda jurnalist kadrlar tayyorlash zarurati bormi? Axir bugungi kunda ham, o’tgan vaqtlarda ham tahririyatlarda maxsus jurnalist ma’lumotiga ega bo’lmagan qanchadan – qancha xodimlar ishlagan edi, hozir ham ishlaydi. Shunday bo’lsa, maxsus ma’lumotlar berishning zarurati yo’q-ku degan fikrlilar va bu fikrga qarshilar ham hayotda mavjud. Jurnalist kadrlar tayyorlash kimningdir istak – xohishi bilan emas, balki hayot taqozosi bilan paydo bo’ldi. Buni e’tirof etish kerak.

Ommaviy axborot vositalari paydo bo’lishi va rivojlanishi natijasida tahririyatlarga umumiy saviyasi va kasbiy mahorati yuksak jurnalist kadrlar kerakligini hayot ko’rsatib qo’ydi. Ana shu ehtiyoj taqozosi turli mamlakatlarda jumladan, O’zbekistonda ham maxsus jurnalistika ta’limini yuzaga keltirdi. Aniqroq qilib aytsak, jurnalistika tizimining shakllanish jarayoni O’zbekistonda birinchi bosma nashr bo’lgan va 1870-yilda o’lkadagi mustamlakachi hukmronlar tashkil etgan “Туркестанские ведомости” va “Туркистон viloyatining gazetisi” nashr qilina boshlagan davrdan boshlangan bo’lsa-da, jadidchilik harakati davomida u shakllandi va ancha rivojlandi.

Ammo, maxsus jurnalist kadrlar tayyorlash 1949-yilda O’rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O’zbekiston milliy universiteti) ning filologiya fakulteti qoshida oliy ma’lumotli jurnalistlar tayyorlaydigan maxsus bo’lim tashkil etilgani bilan boshlandi. Bu bo’lim 1967-yilda mustaqil fakultetga aylantirildi. Jurnalistlarni Nukus davlat universiteti, O’zbekiston Jahon tillari universiteti, 1993-yildan boshlab Toshkent davlat san’at

instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at instituti), 1997- yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ham tayyorlay boshladi.

Jadidlar (arabchada. "yangi" degan ma'noni anglatadi) matbuotida o'sha davrning erkin ruhdagi ziyolilari jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Ismoil G'aspirinskiy, Ismoil Obidov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, H.Niyoziy, Cho'lpon, Fitrat, Ubaydulla Xo'jaev, Obidjon Mahmudov va boshqalar bor edi. Lekin bunday kadrlar o'ta kam, talab esa katta edi. 1905–1906-yillardan boshlab jadidlarning Toshkentda "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Sadoi Turkiston", "Kengash", "Turon", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Turk so'zi", "Turk eli", Samarqandda "Hurriyat", "Samarqand", Qo'qonda "Tirik so'z", "El bayrog'i", "Sadoi Farg'ona", Buxoroda "Buxoroi sharif", "Turon", gazetalari bilan bir qatorda Samarqandda "Oyina", Toshkentda "Al – isloh", Qo'qonda "Kengash", "Yurt" jurnallari chop etilgan. Bu gazeta va jurnallarda faoliyat ko'rsatadigan jurnalist kadrlar zarurligi o'z – o'zidan ko'rinib turardi.

Jurnalist kadrlarni tayyorlashga 1918-yilda tashkil etilgan "O'zbekiston matbuoti" jurnali ham o'z munosib hissasini qo'shdi va qo'shib kelmoqda.

1999-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori jurnalistikaning rivojlanishiga chinakam turtki bo'ldi.

Bundan tashqari, jurnalist kadrlar tayyorlashda tahririyatlardagi shtatsiz muxbirlar faoliyati ham diqqatga sazovor. Bo'lajak jurnalist kurslari, maktablari, to'garaklarining ishlarini sanab o'tsa bo'ladi. Uzoq yillardan beri "Toshkent oqshomi" - "Вечерний Ташкент" gazetasi qoshida jamoatchi tahririyat ish olib borayotgani e'tiborga molikdir. Bunday ishlar boshqa tahririyatlarda, xususan "O'zbek adabiyoti va san'ati" va boshqa gazeta-jurnallarda ham olib boriladi. Keyingi yillarda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Ma'rifat", "Zarafshon" kabi gazetalarda mahorat maktablari faoliyat yuritmoqda.

Jurnalist bo'lmog'chi bo'lgan har bir talabani bugungi kunda jurnalistikaning ilmiy – nazariy, amaliy va texnik asosi qiziqtirishi tabiiy, chunki o'qitish uslubiyati, darsliklar mavjudligi oliy o'quv yurtlarining jurnalist mutaxassislarni tayyorlashdagi zarur texnika vositalariga egaligi muhim rol o'ynaydi.

Ammo jurnalistika ta'limida bugungi kunda hali ham hal etilmagan va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar yetarlicha.

Haligacha jurnalistikaga oid adabiyotlardan, ular juda kam, jurnalistika ta'limi tushunchasining tahlil etilganini topa olmaymiz. Jurnalist, ayniqsa, san'atshunos jurnalistlar tayyorlayotgan oliy o'quv yurtida ham yaxlit tartibga tushirilgan, o'qitish uslubi (metodikasi) to'la ishlanmagan. Qaysi qoidalar asosida o'qitilishi kerak, talabalarining o'zlashtirishini qaysi yo'sinda tekshirib ko'rish mumkin, talabalar qaysi mavzularni qabul qilishini o'rganish, uni tahlil qilish kabi ko'rsatkichlarni aniqlash tartiblari ilmiy asosda hali to'la shakllangani yo'q. Institut talabalari uchun o'zbek tilida o'quv adabiyoti deyarli yo'q. To'g'ri, bilimlarini tekshirish mexanizmi sifatida test savollari ishlab chiqilgan, kurs ishlari yozdiriladi.

Hozir ommaviy axborot vositalarini, yanada kengroq aytsak, umuman jurnalistikani demokratlashtirish jarayoni davom etmoqda. Bu jarayon nimalarda o'z aksini topgan:

Birinchidan, jurnalistik faoliyatga oid qabul qilingan huquqiy asoslar mavjud bo'lib, bu O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlarida o'z ifodasini topgan;

Ikkinchidan, jurnalistika ijtimoiy fikrni shakllantirish, shaxs huquqlari va erkinliklarini to'la amalga oshirishga ta'sir ko'rsatayotganini e'tirof etish zarur;

Uchinchidan, kadrlar yetishtirishga ta'sir o'tkazayotganini aytib o'tish joiz.

Shu andozalar asosida qaralsa, jurnalistikani demokratlashtirish jarayonida talaygina dolzarb muammolar mavjud ekanligi ma'lum bo'ladi – deb yozadi taniqli jurnalist Sa'dulla Hakimov. Muallif jurnalistlar "Hayot qozonida qaynashlari" zarurligini va voqealarga munosabatda bir yoqlamalik, ommaviy axborot vositalarida bir xillik borligini e'tirof etadi.

Jurnalist kadrlar tayyorlash ya'ni jurnalistik ta'lim bobida jurnalistlarning ixtisoslashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lekin shu yo'lda o'zbek tilida tahliliy yaxlit namunaviy dastur afsuski hali yo'q.

Jurnalistika ta'limiga oid rus tilida hamda o'zbek tilida chop etilgan bu'zi quyidagi adabiyotlar mavjudligini aytib o'tish o'rinli bo'lsa kerak:

Ворошилов В.В. Журналистика. СПб., 2001.

Корконосенко С.Г. Основы теории журналистики. СПб., 1995.

Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М., 2001.

Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. М., 2000.

F.Mo'minov.A.Nurmatov. Jahon jurnalistikasi tarixi.(darslik) T., 2005.

Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T.: Universitet, 1998.

Abduazimova N.A. Milliy jurnalistika tarixi. T.: Sharq, 2009.

Xudoyqulov M. Matbuot va jamiyat. T.: O'zbekiston, 1976.

Pidaev T. Matbuot – Millat chirog'i T., 1999.

Sulaymonov I. Men –jurnalistman. T., 2001.

Matbuot fidoyilari (3 jildli; tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z. Esenboev) 1-2-jildlar. T., 1991. 1993.

Нестеренко Ф.П., Миралимов Ш.А. Журналистика профессия ответственная. T., 2003.

To'liqin Qozoqboev. Jurnalistika asoslari. T; Musiqa nashriyoti, 2007.

F.P.Nesterenko, Sh.A. Miralimov Ijtimoiy – iqtisodiy muammolar va matbuot. T., 1990.

Lug'at. Ma'lumotnoma. Jurnalistika. Reklama. Pablik rileyshnz. 1700 ta atama (Mualliflar hay'ati:) T., 2003.

Bundan tashqari taniqli olimlarimiz Q.Ernazarov, X.N.Do'stmuhamedov, T.Pidaev, A.Meliboev, Ya.M.Mamatova, S.Suyarov, B.A.Do'stqoraev, S.U.Umirov, A.Karimov, D.Rashidova, R. Abdusattorov, Yu.Hamdamirov, To'liqin Eshbek va boshqalarning kitoblari, maqolalari ham borligini unutmashimiz kerak.

“O'zbekiston matbuoti” jurnalida ham jurnalistika nazariyasiga doir maqolalar chop etiladi.

Lekin bugungacha kasbiy jurnalistikaga doir o'quv darsligi kam chop etilganini yuqorida aytdik. Lekin bu yetishmovchilik bobida ish olib borilmoqda. Qo'lingizdagi darslikni yutuq va kamchiliklari bilan o'zbek tilida ilk marta yaratilgan qo'llanma deb qabul qilinishiga va kelajakda mukammallashishi uchun har bir o'quvchi o'z fikr – mulohazalarini bildiradi, deb umid qilamiz.

Talabada sinchkovlik, fikrlash qobiliyatini shakllantirilgandan so'ng matn tuzishga o'rgatish kerakligiga faoliyatimiz davrida ishonch hosil qildik.

Shu o'rinda yana bir muammo, u ham bo'lsa, jurnalistika ta'limida jurnalistika faoliyatini tahliliy tanqid qila oladigan kadrlar yetishmasligi bo'lib, ularni tayyorlash ham juda muhim. Yana jurnalistshunos tayyorlash bugungi kun talabiga aylanib qoldi. Bu masalalarni talabalar o'rtasida dars vaqtida hamda mustaqil muhokama qilish, yuqorida aytilgan muammolarni tezroq hal etilishiga zamin tayyorlaydi, deb hisoblaymiz.

### **O'zbek jurnalistikasi ta'limining yuzaga kelishi bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistika ma'lumot tarixini eslang.*
- 2. Sizning-cha O'zbekistonda soha jurnalist kadrlar tayyorlash zarura-ti bormi?*
- 3. Tahririyatlarga qanday jurnalistlar kerak?*
- 4. O'zbekistonda maxsus jurnalistika ta'limi qachon yuzaga kela boshladi?*
- 5. Jurnalistika qachon shakllandi va rivojlana boshlagan davrni ayting.*
- 6. Maxsus jurnalist kadrlar tayyorlash qachondan boshlandi?*
- 7. Jurnalist demokratlashtirish jarayoni nimalarda so'z aksini topmoqda?*

### **O'zbek jurnalistikasi ta'limining yuzaga kelishi bo'yicha nazorat savollari**

- 1. Tahririyatlarda jurnalist mutaxassisligi bo'lmagan kadrlar ishlaydimi?*

2. O'zbekistonda qaysi oliy o'quv yurtlari jurnalist kadrlar tayyorlaydi?
3. Qaysi jurnal jurnalist kadrlar tayyorlashga o'z hissasini qo'shib keladi?
4. Kadrlar tayyorlash masalasida sizningcha qanday kamchiliklar bor?
5. Jurnalistika ta'limiga oid qanday adabiyotlar bor?

## 4.2. Mahalliy kadrlar tayyorlash

### zarurati

Prezidentimizning kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi ibratli so'zlari hozir ham o'zining muhimligi, dolzarbligini yo'qotmagan. Ularning ta'kidlashlaricha, bu borada boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirish va kuchaytirish bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Malakali kadrlar tayyorlash masalasi bugun ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Milliy universitetdan tashqari O'zbekiston Jahon tillari davlat universitetida xalqaro jurnalistlar, O'zbekiston davlat san'at institutida esa san'atshunos jurnalistlar tayyorlanmoqda. Bu kam. Bizga bugun huquqshunos- jurnalist, muhandis-jurnalist, huquqshunos-jurnalist, iqtisodchi-jurnalist va boshqa kasb jurnalistlar kerak.

Jurnalistlarning soha bo'yicha ixtisoslashuvi masalasi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, OAV ni erkinlashtirmay turib, jamiyatni erkinlashtirib bo'lmasligini yaxshi anglamog'imiz kerak.

Jurnalist kadrlarni professionallashtirishni to'la amalga oshirishni ilmiy asosda yo'lga qo'yish kerak. Jurnalistika bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar, ilmiy tavsiyalarga muhtojlik seziladi. Bu ishlarni zamonaviy ilmiy asosga qo'yish masalasida ham hali orqadamiz. Bu ishlar ham zamon talabiga javob bera olmaydi.

Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va rivojlanishida kadrlar masalasi katta ahamiyatga ega ekanligi ayniqsa XXI asr-ma'rifat asri yoki globallashtirish asri nomini olgan bugungi kunda o'ta sezilarli darajaga etdi.



Jurnalistikamiz axborotning globallashuv jarayonida nafaqat jurnalistlarga, balki ixtisoslashgan jurnalistlarga va ularning xolis va haqqoniy axborotlariga ehtiyoj sezmoqda.

Demak, bugun ommaviy axborot vositalarining faoliyatini erkinlashtirishni davom qilish kerak. Bu mamlakatda axborot makoni yaratilayotganini ko'rsatadi.

Jamiyatning axborotlanishi degan ibora shu mamlakatda demokratiya bormi yoki yo'qmi degan savolga ham javob bera oladi.

O'zbekistonda erkin axborot muhiti vujudga kelayotganligini axborot texnologiyalarining o'rnini bilish, ular rivojiga iqtisodiy tomondan yondashish zaruratini keltirib chiqaradi.

Agar axborot sho'ro davrida faqat targ'ibot va tashviqot vositasi bo'lib iqtisodiy erkin bo'lgani bois, u bu axborotdan o'z manfaati yo'lida foydalangan, boshqacha aytganda OAV yagona mafkuraga xizmat qilgan. Ahvol o'zgardi. Endi axborot erkin faoliyat ko'rsatishga o'tdi. Bugun axborot so'zining lug'aviy ma'nosi ham tubdan o'zgardi. Axborot tovarga aylandi. Endi u iqtisodiy qaramlikka duchor bo'ldi. Shundan Prezidentimiz 2005-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Oliy Majlisining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida:

"... avvalo ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritish va rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lishi lozim..." deb bejiz aytmaganlar. Demak nafaqat targ'ibot-tashviqot bilan shug'ullanib qolmay, endilikda jurnalistika iqtisod bilan ham shug'ullanishga majbur. Xuddi shu jarayonda faoliyat yurita oladigan nashr demokratiyaga xolis xizmat qila oladi. Bugun jurnalistlarimiz faoliyati uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Deyarli barcha tahririyatlarimizda telefondan tortib uyali telefongacha, kompyuterdan tortib faks raqamli fotoapparatu, diktafonu lazerli printir, kseroks kabi texnik vositalargacha bor. Ko'pgina tahririyatlar internetga ulangan. Huquqiy asoslar to'laligicha jurnalistga xizmat qiladi. Faqat halol, barakali mehnat kerak.

Jurnalistlar shu vazifalarni to'la-to'kis uddaladimi, demak u faoliyat yuritayotgan OAV xolis vositachi rolini bajara oladi. G'oyaviy - siyosiy saviyasi baland, ma'naviy dunyosi boy jurnalistgina xolis va haqqoniy

axborot tarqata oladi va haqiqiy mafkura targ'ibotchisiga aylanadi. U shu bilan bir qatorda o'z nashrining iqtisodiy qaramlikdan chiqishiga zamin yaratadi.

Demokratik jamiyat qurar ekanmiz, demak shunga mos va xos jurnalistika kerak. Bu jurnalistikaning asosiy vazifasi jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatadigan, xolis va haqqoniy axborot bera oladigan jurnalistika bo'lishi kerak.

Bugungi jurnalistikamiz fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashishi kerak.

Bu mafkura kurashida jurnalistlar har tomonlama bilimli, topqir bo'lishi lozim. Shu o'rinda Prezidentimizning: "Siyosat haqida gapirganda – siyosatchi, iqtisod haqida – iqtisodchi bo'lib fikr yuritishni, ma'naviyat va ma'rifat haqida ma'rifatchi, hayotiy – falsafa muammolar xususida faylasuf bo'lib bahsga kirishishni mana shunday yuksak qobiliyat va mahoratga ega bo'lishni hayotning o'zi jurnalistlarimiz oldiga eng muhim vazifa qilib qo'yimoqda", degan fikrlarini keltirish bugungi kun talabiga aylandi.

San'at haqida san'atni chuqur egallagan san'at jurnalistigina bahsga kirishishi, to'g'rirog'i shu haqda material yozishi talab qilinishi ham davr talabiga aylandi.

O'zbekiston davlat san'at instituti yuqorida aytganimizdek, 1993-yildan boshlab san'atshunos jurnalistlar tayyorlab kelmoqda.

Endi bunday ishlarni davom ettirishning dolzarbligini esdan chiqarmaslik kerak. Jurnalistika ijodiy kasb bo'lgani bois unga e'tibor hukumatimiz tomonidan katta. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" qabul qilgan qarori jurnalistlar tayyorlayotgan o'quv yurtlari faoliyatida katta ijobiy o'zgarishlar yaratdi. Yangi zamonga mos keladigan o'quv rejaları tuzildi. Domlalar attestatsiya qilindi.

Test sinovlari bilan bir qatorda ijodiy imtihonlarga katta e'tibor berila boshlandi. Bu tadbirlar jurnalist kadrlar tayyorlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Matbuotimiz rivojida Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondining

faoliyati sezilarli darajada. Fond 2005-yilda Prezidentimiz farmoni bilan tashkil etildi.

Shu o'tgan davr ichida fond "Mas'uliyat va yuksak professional mahorat, xolislik va haqqoniylik, oshkoralik va ochiqlik, mustaqil fikr va erkin so'z" shiori ostida O'zbekistonda mustaqil, o'zini-o'zi ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik va standartlarga javob beradigan bosma ommaviy axborot vositalarining shakllanish jarayonini qo'llab-quvvatlab kelmoqda hamda ularning moddiy-texnika bazasini va xodimlari salohiyatini mustahkamlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Jumladan, Fond bir nechta muhim yo'nalishlarni o'z faoliyatining asosi deb biladi. Xususan, jurnalistlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, jurnalist mahoratini oshirish, ularning tajriba almashuvi, bilim – iqtidorini boyitishga ko'maklashishdan iborat.

Fond yana markazda va viloyatlardagi yetakchi gazetalar qoshida jurnalistik mahorat markazlari tashkil qildi. Ular ijobiy faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi raisi, taniqli jurnalist Firdavs Abduholiqov ta'kidlab "O'zbekiston matbuoti" jurnalida 2007, 5-son, 9-bet) yozishicha: "Hozir qaysi gazeta yoki jurnalni qo'lga olsangiz, u markaziy nashr bo'ladimi yoki chekka tuman gazetasimi, Fond ramziga ko'zingiz tushadi. Bu – Fond mana shu nashr hayotiga kirib kelgani ular bilan hamkorlik qilayotgani, birgalikda loyihalarni amalga oshirayotganidan dalolat beradi".

Shu o'rinda bir muhim masalaga ham e'tibor qaratish lozim. Bo'lajak jurnalist talabalar uchun sof jurnalistika nazariyasiga oid o'zbek tilida adabiyotlarning kamligi soha rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ushbu darslik o'sha bo'shliqni biroz bo'lsada to'ldirishga xizmat qilargan degan umiddamiz.

### **Maballiy kadrlar tayyorlash zarurati bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Malakali kadrlar tayyorlash masalasiga hukumat tomonidan e'tibor.*

2. *Bi-zga bugun qanday kasb jurnalistlari kerak deb o'ylaysiz?*

3. *Jurnalistikaga bo'lgan talabdan mavjud imkoniyatlar orqada qolayotganini izohlang.*

4. *Mamlakatimizda axborot makoni to'la yaratilishi uchun malakali jurnalistlar zarurati.*

5. *Jamiyatning axborotlanishi nimaga olib keladi?*

6. *Jurnalistikamizga kerakli kadrlar "Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi"ning roli.*

### **Mahalliy kadrlar tayyorlash zarurati bo'yicha nazorat savollari**

1. *Nega bugun jurnalistlarning soha bo'yicha ixtisoslashuvi masalasi dolzarb bo'lib qoldi?*

2. *Demokratik jamiyatga qanday jurnalist kadrlar kerakligini izohlab bering.*

3. *Jurnalistik mahorat markazlarining faoliyati haqida nimalar bilasiz?*

4. *Soha jurnalistikasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan masalalar bormi, fikringizni ayting.*

---

## 5-BOB. JURNALISTNING HUQUQIY, IJTIMOIY – LAVOZIMIY MAQOMI VA AXBOROT ALMASHINUVI

Jurnalist kim? degan savolga javob berishdan oldin O‘zteleRadiokompaniyasining sobiq raisi, jurnalist Abdusaid Ko‘chimovning XXI yuz yillik televideniye asri bo‘lajak!” deb nomlangan maqolasidan ehtibos keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

... – Jurnalist asli kim? – dedilar Islom aka (I.A.Karimov – T.Q.) suhbatni davom ettirib, - deb yozadi A.Ko‘chimov – u sud ham emas, prokuror ham emas, melisa ham emas. U – jurnalist. U ko‘rsatuv tayyorlaganda masalaning mohiyatidan kelib chiqib xolisona fikr yuritishi kerak.

Misol uchun, bugungi qarorni olib ko‘raylik. Qaror non haqida, g‘alla haqida, rizq – ro‘zimiz haqida. Ota – bobolarimiz ko‘chadan bitta nonushoq topib olsa, avval ko‘ziga surtib, so‘ng ariqdagi suvga tashlaganlar. “Xoliq biladi, xoliq bilmasa baliq biladi”, deganlar. Nonni aziz bilib, shunday e‘zozlaganlar.

Biz nega ekinni, nonni oyoqosti qilyapmiz? Nima uchun o‘z nonimizni o‘zimizdan o‘zimiz qo‘riqlashga majbur bo‘lyapmiz?

Prezident o‘rnida bir qo‘zg‘alib olib, davom etdilar:

- Buning asosiy sababi sho‘rodan qolgan psixologiyada. Bu kolxozniki, bu meniki degan sho‘ro mafkurasidan qutulish kerak. Endi hamma boylik, hamma narsa xalqimizniki – o‘zimizniki. Agar men jurnalist bo‘lsam, bilasanmi, tahliliy maqolani qanday yozgan bo‘lardim? Eng avval payhon bo‘lgan dasturxondek joyni ko‘z oldimga keltirib, o‘sha yerga sepilgan bir hovuch donni kaftimga olardimda, masalani to‘rt qismga bo‘lib o‘rganib chiqar edim.

*Birinchi.* Dasturxondek joyni shudgorlashga, ekishga, parvarishlashga qancha yoqilg‘i, qancha texnika kuchi, qancha o‘g‘it, qancha suv, qancha dehqon mehnati sarflandi? Bularning hammasini hisoblab chiqardim.

*Ikkinchi.* Dasturxondek maysa payhon bo'lmay pishib yetilsa, donga, munga aylansa, u nechta odamning qornini to'ydirgan bo'lardi? Aytaylik, bitta traktorining qornini to'ydirsa, traktorchisi shu nonning kuchi bilan qancha gektar yerni haydashi, ekishi, hosilini yig'ishtirib olishi mumkin edi? Bir yilda necha yuz gektar maysa payhon qilinyapti. Bu ekinzorlar payhon qilinmay, tonna – tonnalab bug'doyga aylansa, bundan xalqimiz qancha foyda ko'radi? Nechta bog'cha, shifoxona va boshqa muassasalarni necha kun non bilan ta'minlash mumkin edi?

Suhbat chog'ida Prezidentimiz go'yo jurnalist edilar. Qizarib, u kishining so'zlarini oqizmay – tomizmay yozib o'tirardim.

*Uchinchi,* - dedilar Islom aka kulimsirab. – Dunyoda don, non muammosi qay ahvolda? Qo'shni davlatlarda, aytaylik, Rossiyada, Tojikistonda bu masala qanday hal qilinyapti? O'zimizda – chi? Donni qanday qiyinchiliklar bilan chet ellardan sotib olayapmiz, qancha mablag', qancha valyuta sarflayapmiz. Nima uchun biz don mustaqilligiga erishish mamlakatdagi eng asosiy vazifalardan biri deyapmiz. Agar o'zimizni g'alla bilan ta'minlasak, chetdan don keltirishga sarflanayotgan mablag'ga qancha zavod, fabrika, chiroyli shaharlar barpo qilish mumkin bo'lardi?

*To'rtinchi.* Respublikamiz aholisi nufuzi har yili 400 – 500 mingga ko'payib boryapti. Kelajakda xalqni non bilan ta'minlash qanday bo'ladi? Ana shu masalalarni chuqur, har tomonlama o'rganib chiqqanimdan keyin yozishga o'tirar edim ...

Oradan yillar o'tdi, na matbuotda, na televideniya, na radioda hanuzgacha ana shu mavzuda birorta teran mantiqiy tahlilga asoslangan ko'rsatuv yoki eshittirish chiqqani yo'q. Har gal o'sha suhbatimizni eslasam, o'zimdagi katta qarzdorlik hissini sezaman<sup>1</sup>. Shu ehtibosdan Prezidentimizning jurnalist kim? degan savolga juda ajoyib ibratli javob berganliklarini ko'ramiz.

**Jurnalist kim?** Bu masala dunyo miqyosida jurnalistika haqida gap ketganda ko'tariladigan masala, chunki jurnalist stress holatining paydo bo'lishi, shaxtyor bilan politsiyachidan keyin, ammo taksi haydovchisi, yong'in o'chiruvchisi, harbiy shaxtyor bilan politsiyachidan keyin, ammo taksi haydovchisi, yong'in o'chiruvchisi, harbiy xizmatchi kabi o'ta xavfli kasb egalari va boshqalardan yuqorida turarkan. Ayniqsa, o'ta yuqori

va hayotiga to'g'ridan – to'g'ri xavf soladigan “Olovli nuqta” da bo'lish ommaviy axborot vositalari xodimlarining hayotini tahlikaga soladi. Buni aniqlaydigan va e'lon qiladigan “Reportyorlar chegara bilmas” xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda har yili yuzdan ortiq jurnalistning o'ldirilgani va noma'lum yo'qolgani haqida axborot yoritadi. Bu raqamga kaltaklangan, sog'lig'iga putur yetganlar, terror va tazyiq qilinganlarni ham qo'shish adolatdan bo'ladi. Lekin afsuski, haligacha jurnalistlarga militsiya, favqulotda vaziyatlar, harbiylar va boshqa shu kabi davlat tasarrufidagi xodimlarga beriladigan imtiyozlar berilmaydi.

Shuni e'tirof etish kerakki, ba'zi mamlakatlarda jurnalistlarning normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish yo'lida tashkiliy ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, Turkiyada reporterlarga nisbatan zo'rlik ishlatish sodir bo'layotgani uchun Milliy xavfsizlik organi tarkibida ommaviy tadbirlar vaqtida ommaviy axborot vositalari xodimlarini himoya qilish bo'linmasi tuzildi.

Jurnalist kasbining o'ziga xosligini e'tiborga olib, uning ijtimoiy – kasbiy maqomini aniq belgilashga zarurat paydo bo'ldi. Buni nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro munosabatlarda ham ishlab chiqish kerak. Biz mavjud bo'lgan ko'plab ta'rifdan ikkitasiga to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida”gi qonunda “Jurnalist O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnoma asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni to'plash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir”<sup>10</sup> deb yozilgan..

Demak, bu maqom talablariga turli xil axborot xizmati xodimlari (vazirliklar qoshida tuzilgan matbuot markazi xodimlari, reklama agentlari, “Tasviriy oyina” xodimlari, matbuot markazlari, kitob nashriyotlari va matbuot tarqatuvchi va boshqa jamiyatlar, jamg'armalar xodimlari) javob bermaydi, ular jurnalist maqomiga ega bo'la olmaydilar. Shu o'rinda aytish o'rinliki, ba'zi mamlakatlarda jurnalistning reklama – tijorat ishlari bilan shug'ullanmasligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bizda bunday cheklash yo'q.

<sup>10</sup> “O'zbekiston matbuoti” jurnali. 1999. 4-son. 9 b.

Jurnalistikamizning yanada rivojlanishi uchun, eng avvalo, jurnalistikaga oid Qonunlarni yana bir marta chuqur o'rganib chiqish va unga ba'zi to'ldirishlar kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, albatta qonun ijrosini amalga oshiruvchi va uni nazorat qiluvchi qat'iy hujjat qabul qilinishi lozim.<sup>11</sup> Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari xodimlari faqat O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasining hujjatisiz, ya'ni O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasining a'zosi degan guvohnomasiz jurnalist maqomi huquqlaridan foydalana olmasligi kerak.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining maqomi haqida mustaqil qonun ishlab chiqish vaqti keldi.

Qonunda ommaviy axborot vositalariga kiritilgan sohalar soni mingga yetdi. Kiritilmagan ammo jurnalistikaga aloqador sohalar ham ancha. Ularda ishlovchilar soni ham ancha yuqori.

Shu masalalar O'zbekiston qonunchiligida o'z ifodasini topishi kerak.

Ommaviy axborot vositalarida ishlashga qanday jurnalistlar jalb etilishi lozim?

**Birinchidan**, mustahkam g'oyaga, yuksak axloqqa ega bo'lgan jurnalistlar, bu degani o'z manfaatini jamoat manfaatidan keyinga qo'yish, jamiyat va xalq oldidagi mas'uliyatini to'la anglash, hatti – xarakatida qat'iy turish, vijdonli bo'lish, demakdir;

**Ikkinchidan**, ishchanlik qobiliyati borlar. Bunga aql – zakovatli hamda qobiliyatli bo'lish kiradi;

**Uchinchidan**, nutq madaniyatini egallagan bo'lishi, adabiy tilni chuqur o'zlashtirgan, to'g'rirog'i adabiy tilda yozish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;

**To'rtinchidan**, jismoniy tomon, to'g'rirog'i jurnalistning sog'lig'i katta ahamiyatga ega. Jurnalist uchun jismoniy, ruhiy sog'lom bo'lish va bardoshli bo'lish juda zarur.

Bundan tashqari, qaysi jurnalistga qanday topshiriq berishni bilish, bunda adashmaslik kerak. Ruhiyati dilgir, ya'ni g'amgin jurnalistga qanday topshiriq berish, irodali ammo tabiati og'ir jurnalistga qanday topshiriq berish kerakligini bilish ham juda muhim.

---

<sup>11</sup> "O'zbekiston matbuoti" jurnali. 1999. 4-son. 9 b.



Jurnalistning muvafaqiyatida ko'pchilik oldida uning maqtash va rag'batlantirishga e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda jurnalistlarning mehnatiga qarab haq to'lashda ham adolat me'yori buzilmasligi lozim.

Jurnalistlarning rag'batlantirishga oid konkurslar afsuski, "Xo'ja ko'rsinga" o'tkaziladi. Jyuri o'qib – o'qimay jyuri raisi yoki konkurs e'lon qilgan tashkilot rahbarining istak – xohishiga qarab, g'oliblar aniqlanadi.

Konkursda kimlar va qaysi asarlari bilan qatnashdi va shulardan qaysi asarlar g'olib bo'ldi. Bunda jyuri a'zolaridan kimlar kimga qanday ball qo'yishdi (*boks sporti hakamlariga o'xshab*) kabi muhokama natijalari matbuotda e'lon qilinmasligi adolatsizlik deb hisoblanishi kerak. Shunday qilinsa jyuriga a'zo bo'lganlar ma'qul deb qo'l ko'taravermaydi. O'z mas'uliyatini sezadi.

Jurnalist hayotida eng yaxshi hodimlarga "Elita" so'zi ishlatiladi. Ko'p hollarda "katta", ya'ni respublika miqyosidagi gazetalarining yoki axborot agentliklarining jurnalistlariga bu ibora qo'llaniladi. Bu hol ayniqsa hukumat gazetalarining taniqli jurnalistlariga hamda bosh muharrirlariga ko'proq qo'llaniladi. Ular oddiy jurnalistlardan o'z bilimlari, yoza olish mahoratlari, ish soatlari, daromadlari, hayot tarzlari bilan ajralib turishadi. Bu masalalar jurnalistikaning hali o'rganilmagan sohasi desak bo'ladi.

Davriy matbuotning rahbarlari bir vaqtning o'zida ham yozadigan jurnalist, ham tahririyatga pul topadigan tadbirkor bo'lishlari kerak. Bu bugunning talabiga aylandi. Endi "Elita" so'zini shunday jurnalistlarga qo'llasak bo'ladi.

**O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi** – gazeta, jurnal, televideniye, radioeshittirish, axborot agentliklari va nashriyotlarda ishlovchi professional jurnalistlarning ko'ngilli ijodiy jamoat tashkiloti.

Uyushma 1959-yilda tuzilgan. Birinchi ta'sis qurultoyi 1959-yilning 20 – 22 aprelida Toshkentda o'tkazilgan.

Keyin jurnalistlar uyushmasi tarqatilib, 1996-yil 30-avgustda O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy – siyosiy jamg'armasi tashkil etildi.

2004-yilning 26-martida jurnalistlarning ta'sis konferentsiyasi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi qaytadan tashkil topdi. Jamg'arma o'z faoliyatini tugatdi. Uning barcha mol – mulki uyushma tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining asosiy vazifasi "Jurnalistlarning jamiyatdagi tutgan o'rni va mavqeini ko'tarish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli gazeta – jurnallar, tele va radio kanallarda, nashriyotlar va axborot agentliklarida ishlayotgan, shuningdek, erkin ijodkorlarning ijtimoiy – iqtisodiy, ijodiy hamda mualliflik huquqlarini sha'ni va qadr – qimmatini, davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining muassislari va nashrlari oldida huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishdan iborat" deb belgilangan.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining, shu jumladan, jurnalistlar ijodiy uyushmasining a'zolarini birlashtirgan jamoat tashkiloti – ommaviy axborot vositalari xodimlari kasaba uyushmasi tuzish maqsadga muvofiq ish bo'lardi.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi xalqaro jurnalistlar uyushmasi (XJU) bilan aloqani rivojlantirishi zarur. Markazi Pragada joylashgan bu tashkilot 1946-yilda tashkil bo'lgan bo'lib, u bugungi kunda demokratiya, tinchlik va ijtimoiy rivojlanish bayrog'i ostiga yuzdan ortiq mamlakatning yuz minglab professional jurnalistlarini birlashtirgan uyushmadir.

O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi tasarrufida o'zining davriy matbuoti, jumladan gazetasi ham bo'lishi hamda televideniye va radioda o'z kanaliga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bu jurnalist kadrlarni tayyorlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Jurnalist aqliy mehnat kishisi.** Ommaviy axborot vositalarida ishlash aqliy mehnat sohasiga kiradi. U har kuni yozishi uchun unga tayyor bo'lishi talab qilinadi. Bugina emas, u tezkor ham serunum ishlashga majbur. Chunki tahririyat ishi ijtimoiy – ishlab chiqarish xarakteriga ega. Ishlab chiqarish uzluksiz ishlaydi. Demak, jurnalist ham uzluksiz faoliyat ko'rsatishga majbur.

Bozor iqtisodiyoti jurnalistlar mehnatini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Kompyuter tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi

jurnalist faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jurnalist nafaqat yozish, balki o'z matnini terish, tuzatish kabi ishlar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lmoqda. Yana chet mualliflarning maqolalarini tahrir qilish va chop etishga tayyorlashdan qutilgan emas.

Jurnalistlar mehnati jamoat ishlab chiqqan mahsulot bilan belgilanadi va baholanadi. Jurnalist yozgan maqola bir necha qo'ldan o'tadi. Uni tahrir qilishadi, raqamlar tekshiriladi, musahhah o'qishidan o'tadi, rassom dizayn yoki mas'ul kotib uni sahifada joylashtiradi va h.k.. Demak, eng avvalo tahririyatda har bir ishni oqilona taqsimlash kerak.

Ommaviy axborot vositalari tahririyatlarida ikki asosiy guruh faoliyat ko'rsatadi. Birinchisi, jurnalistlar, bular asosan axborot mahsuloti beruvchilar, ikkinchi guruh shu mahsulotni iste'molchilar uchun tayyor holga keltiruvchilar. Bunga texnika, moliya ishlari bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqarishni tashkil qiluvchilar, musahhahlar va boshqalar kiradi.

Tahririyatlar boshqaruvchilar va bajaruvchilar guruhiga bo'linadi. Boshqaruvchilar guruhiga asosan bo'lim mudirlari (*bo'lim muharrirlari*), bosh muharrir o'rinbosari, mas'ul kotiblar kiradi. Bajaruvchi guruhga esa muxbirlar, katta muxbirlar, sharhlovchilar va boshqalar kiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda jurnalistlar ichida soha bo'yicha ixtisoslashish amalga oshirilmoqda. Birovlari siyosat bilan, ikkinchilari iqtisod, uchinchilari sport, to'rtinchilari san'at sohalari bilan shug'ullanishga ixtisoslashishmoqda.

Tahririyatlarda yana bosh muharrir, teleradioda rais, nashriyotlarda bosh direktor kabi yuqori lavozimlar bor. Ular oxirgi so'zni aytuvchi, jamoa faoliyatini yurgizuvchilardir. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining qandayligi ko'pincha shu yuqori lavozimni egallagan boshliqlarga bog'liq bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga qarab, gazeta va jurnallarda maxsus muxbir, o'z muxbiri, reklama menedjeri, teleradioda rejissyor, ovoz operatori, musiqa muharriri va boshqa lavozimlar bo'lishi ham mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining barcha turlarida tahririyatlar bo'lib, ular tasdiqlangan hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatishadi. Ular har xil, lekin

markaziy o'ringda ommaviy axborot vositalarining har birida o'z ustavi bor. Davriy matbuot tahririyatlarida yana muassis bilan tahririyat o'rtasida tuzilgan ta'sis shartnomasi mavjud. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risida"gi qarorida aks ettirilgan.

Tahririyatlar faoliyati ularning ichki hujjatlarida, xodimlar bilan tuzadigan mehnat shartnomalarida, lavozim qo'llanmalarida, bosh muharrir buyruqlari orqali boshqariladi.

Mavjud tahririyatlar reja tuzadi va shu turli xil rejalar asosida ish olib boradi.

**Axborot almashinuvi.** Axborot almashinuvida ikki tomon ishtirok qilishi hammaga ma'lum. Bir tomoni axborot manbai bo'lsa, ikkinchi tomonida axborot oluvchi turadi. Jurnalistikada shu ikkinchi tomonni auditoriya deb nomlanadi. Bu so'zning asl ma'nosi bugun, tinglovchi, tomoshabin, o'quvchi guruhi yoki omma deganidir. Bu guruh yoki omma ikki toifaga bo'linadi.

Birinchisi, faollar (*unga to'g'ridan to'g'ri tahririyatlarga xat bilan murojaat qiluvchi yoki teleradio dasturlari haqida o'z fikrlarini bildiruvchilar*), ikkinchisi, faol bo'lmagan sust toifadagilar (*unga tahririyatlar mahsulotini qabul qiluvchilar*) dir. Auditoriya – bu ommaviy ongni odatiy yetkazuvchisi degan fikrga kelish mumkin. U aniq bir tartibga, o'zini ravshan belgilariga, u tashkil etgan qismlar orasida biron bir "to'siqqa" ega emas. Xuddi shu xususiyatlari bilan u guruhliy ongdan keskin farqlanadi.

Auditoriya qaysi axborotni qabul qilishi masalasi chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammo. Chunki nashr yoki eshittirishni ishga tushirishdan oldin, u kimga qaratilgani, uni qanday qabul qilishlari, u qanday ta'sir etishi mumkinligi kabi savollarga aniq javob topish lozim bo'ladi. Bularni tahririyatlarning biznes rejasiga kiritish kerak.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, tahririyatlarning eng asosiy muammosi o'quvchilar yoki tomoshabinlar bilan o'zaro aloqasiga erishishdan iborat. Jurnalistika uchun auditoriya bilan jonli aloqa juda ham muhim. Har bir

televideniye va radio hatto o'z mahsulotining sotilishi bilan hisoblanadigan gazeta, jurnal va nashriyotlar faoliyatini auditoriya bilan o'rnatilgan aloqaga qarab baho berish o'rinli bo'ladi.

Eshittirishu ko'rsatuv, kitobmi yoki gazeta – jurnal xalq hayoti, uning muammolari, orzu – istagi, dardini yoritmagina, uni omma xalqchil ommaviy axborot vositalari deb ataydi va uni qo'llab – quvvatlaydi. Lekin buning uchun ommaviy axborot vositalarining xalq bilan qayta bog'lanishiga erishish yo'li ko'p. Tajriba asosida quyidagi shakllarga to'xtalamiz.

- Epistolyar, ya'ni tahririyatlarga keladigan xatlar, telefon orqali murojaatlar;

- Tezkor, ya'ni telefon orqali tele yoki radio orqali berilayotgan ko'rsatuv yoki eshittirishga o'z munosabatini aytish auditoriyadan to'g'ridan – to'g'ri eshittirish qilib, xalq fikrini bilishga harakat qilish, hatto gazetachilik tajribasida bo'lgan “Qaynoq telefon” orqali suhbatlar uyushtirish;

- Hammuassislarni, navbatdagi nashr sonini yoki teleradio dasturini tayyorlashga jalb qilish;

- Test ya'ni tahririyat ishini yoki ommaviy axborot vositalari ko'targan biron bir mavzu bo'yicha auditoriya qarashlarini varaqa, shaxsiy muloqot, telefon orqali aniqlash;

- Konsultativ ya'ni tahririyat faoliyatini o'quvchi va tomoshabinlar anjumanlari, ochiq xat kunlari va boshqalar orqali maslahat olish;

- Ekspert qilish ya'ni ommaviy axborot vositalari ishini jurnalistika tajribasi haqida tadqiqot va ilmiy – tanqidiy materiallarni, mutaxassis ekspertlar fikrini o'rganish;

- Tadqiqot o'tkazish ya'ni nashr yoki dastur bo'yicha real auditoriya reytingi o'sishini hisoblab chiqish hamda auditoriyani chuqur o'rganishdan iborat. Bu shakllarning birontasi ham bir – birining o'rmini bosa olmaydi;

- Ulardan unumli foydalangan nashrlar ham, teleradio ham muvaffaqiyatga erishishi mumkin.<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М., 2001. 155-156 б.

## **Jurnalistning huquqiy, ijtimoiy–lavozimiy maqomi va axborot almashinuvi bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jurnalist kim va ularga davlat tasarrufidagi xodimlarga beriladigan qanday imtiyozlar berilgan?*
2. *Jurnalistning ijtimoiy – kasbiy maqomini aniqlang.*
3. *“Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonunida jurnalistga qanday ta'rif berilgan?*
4. *Jurnalistikamiz rivojiga oid yangi qonunlar kerakmi?*
5. *Qanday jurnalistlar OAV tahririyatlarida ishlashga jalb qilinishi kerak?*
6. *Jurnalistlarni rag'batlantirish borasida qanday ishlar o'tkazilayapti?*
7. *“Elita” so'zi qanday jurnalistlarga qo'llaniladi?*
8. *Jurnalistlarning ko'ngilli ijodiy jamoat tashkiloti haqida nimalarni bilasiz?*
9. *O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasining asosiy vazifalarini sharhlang.*
10. *Jurnalistga nega aqliy mehnat kishisi maqomi berilgan?*
11. *OAV tahririyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan ikki guruhni sanang.*
12. *Jurnalistlarni sohalar bo'yicha tayyorlash kerakmi?*
13. *Tahririyatlarda mavjud bo'lgan huquqiy hujjatlarni izohlang.*
14. *Auditoriyaga tavsif bering.*
15. *Jurnalistikada jonli aloqa nega kerak?*
16. *OAV ning xalq bilan qayta bog'lanishi shakllarini sanang.*

## **Jurnalistning huquqi, ijtimoiy – lavozimiy maqomi va axborot almashinuvi bo'yicha nazorat savollari**

1. *Jurnalist qanday kasb egasi?*
2. *Jurnalist kasbining o'ziga xosligi nimada?*
3. *Turli xil axborot xizmati xodimlari ham jurnalist degan maqomga egami?*
4. *Jurnalist maqomi haqida qaysi qonunda qanday yozilgan?*
5. *Jurnalistga qanday talablar qo'yiladi?*
6. *O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi nega zarur bo'lib qoldi?*

7. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasiga qo'yilgan asosiy talablar.

8. Jurnalist nega aqliy mehnat kishisi ro'yxatiga kiritilgan?

9. Axborot mahsuloti beruvchilar tahririyatning birinchi guruhiga kirsam, ikkinchi guruhga kimlar kiradi?

10. OAV tahririyatlaridagi rahbarlar qanday nomlanadi?

11. OAV da mehnat qiluvchilarni qanday nomlar bilan ataladi?

12. Gazeta va jurnallarimiz faoliyatini ta'minlovchi eng zarur huquqiy hujjatlarni ayting.

13. Axborot almashinuvida auditoriyaning tutgan o'rni.

14. Qaysi matbuotni xalqchil deb ataymiz va u qanday shakllarga ega bo'lishi kerak?

## 6-BOB. JURNALISTIKA AMALIYOTINI BOSHQARISH

### 6.1. Matbuot erkinligi masalasi

Jurnalistika amaliyotini boshqarish ommaviy axborot vositalari tizimida ham ichki, ham tashqi tomondan amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari nimani va qanday yoritish mumkin yoki mumkin emas degan savolning javobi matbuot erkinligi bilan belgilanadi. Bu masala necha asrlar o'tibdi, kun tartibidan tushmay keladi.

Matbuot erkinligi iborasi taraqqiyotning buyuk qadriyatlari bo'lgan fikr, vijdon, ong erkinligi bilan bir qatorda turadi. Insoniyatning madaniy rivojlanishida erishgan barcha yutuqlari axborot vositalari ishtirokida amalga oshirilgan. Bu o'zaro aloqa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson Huquqlari umumiy Deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10 dekabrda qabul qilingan bu Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr – qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon etilgan.<sup>13</sup> Deklaratsiyada insonning fikrlash, vijdon, din erkinligi, e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash va boshqa huquqlar ifodalangan.

Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la mos keladi. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"<sup>14</sup>, deyiladi.

<sup>13</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T. 2001. 2 – jild. 57 b.

<sup>14</sup> Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М. 2001. 155-156 б.



Matbuot erkinligi iborasiga hozir ham turli qarashlar mavjud. Chunki, senzura yoʻl qoʻyilmaydi, degan konstitutsiyaviy huquq bor boʻlishiga qaramay senzura faoliyati bir – necha yil davom qilgani, hatto hozir ham koʻpgina muassislar tomonidan tahririyat ishiga toʻgʻridan – toʻgʻri aralashish va maqolalarni senzura qilish davom etayotgani, oʻsha boshliqlarning qonunga loqayd qarashlari, oʻz lavozimlarini suisteʼmol qilayotganliklari deb qaralmogʻi kerak. Chunki matbuot erkinligi soʻz, shaxs, vijdon erkinligi singari siyosiy huquqlardan biri boʻlib, matbuotning erkin faoliyat koʻrsatishini, kishilarning matbuotda oʻz fikr va tuygʻularini toʻsiqlarsiz ifoda eta olishini ifodalaydi. Aslida erkinlik anglangan zarurat ekanligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Matbuot erkinligining 3 asosi mavjudli toʻgʻrisida fikr yuritimiz.

**Birinchisi**, matbuot erkinligining ijtimoiy – siyosiy asosi. Bu bosh asos matbuotning qaysi ijtimoiy borliqda, qanday tuzumda faoliyat koʻrsatishi, qaysi ijtimoiy ongning koʻrinishi ekanligi, qaysi mafkura va gʻoyalarga xizmat qilishidan kelib chiqadi.

**Ikkinchisi**, matbuot erkinligining iqtisodiy asosi, bu asos matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalarining kim tomonidan, qaysi mablagʻlar evaziga chiqarilishi bilan bogʻliq, yaʼni matbuot kimning mablagʻi evaziga, iqtisodiy qoʻllashi natijasida chiqsa oʻsha uchun erkin boʻladi.

**Uchinchisi**, matbuot erkinligining maʼnaviy asosi, bu asos uni chiqarayotgan shaxs, guruh, unda ishlovchi jurnalistlarning ichki dunyosi, dunyoqarashi, eʼtiqodi bilan bogʻliq.

Oʻzbek jurnalistikasida matbuot erkinligi haqida tarixiy shior XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan jadid matbuotida koʻtarilgan edi. Bu matbuot 1906-yildan to 1916-yilgacha boʻlgan davrda xalqni oʻzligini anglashga, uyushishga chaqiradi. Oʻlkaning moddiy va maʼnaviy boyliklari talon – taroj qilinayotganini oshkor qiladi.

Sirojiddin Ahmedov hamda Qahramon Rajabovlarning jadidchilikka oid maqolalarida “Jadid matbuoti” oʻz vakillarining fikrlarini eʼlon qilar ekan, xalqni “Har vaqt gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi”, “Milliy ongining

---

<sup>15</sup> Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi. T. 2003. 5-jild. 508 b.

o'chqichi" ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi... degan fikrni aytishadi.

Jadid matbuoti namoyandalari ham mustamlakachi chor hukumatining matbuot erkinligi borasidagi qattiq zulmiga qarshi chiqqan edilar. Bunday jurnalist - publitsistlar safida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar bor edi.

Keyinchalik matbuot erkinligi masalasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Burjua matbuoti erkin matbuot deb nom oldi. Ma'lum darajada bu gapda haqiqat bor edi. Matbuot erkinligi undan xohlagancha foydalanish erkinligiga, boylik orttirish erkinligiga aylana bordi. Matbuotga shov – shuvli, oldi – qochdi materiallarga, reklamalarga haddan tashqari keng o'rin berila boshlandi.

Ammo sho'ro tuzumi davrida O'zbekistonda ham matbuot erkinligi "Ta'min etilgan" bo'lsada (SSSR Konstitutsiyasining 125 – moddasi), amalda ommaviy axborot vositalari faoliyati partiyaviy nazorat ostida bo'lib, kommunistik partiya mafkurasiga xizmat qildirildi.

Mustaqil O'zbekistonda matbuot erkinligi masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib bormoqda.<sup>16</sup>

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek, yuksak marralarga erishish uchun keyingi yillarda mamlakatimizda qonunchilik sohasida va amaliy hayotimizda, ommaviy axborot vositalari va matbaachilikning erkin faoliyati uchun zarur kafolat va sharoit barpo etish, jurnalist kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ko'p ishlar qilindi va qilinmoqda.

### **Jurnalistika amaliyotini boshqarish.**

#### **Matbuot erkinligi masalalari bo'yicha reyting topshiriqlari**

*1. BMT ning Inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasida jurnalistik faoliyatga oid qanday fikrlar aytilgan?*

*2. Matbuot erkinligi to'g'risida O'zbekistonda qanday huquqiy hujjatlar bor?*

*3. Matbuot erkinligining uch asosini sharhlab bering.*

*4. Jadid matbuotida matbuot erkinligi masalasi qanday bo'lgan?*

---

<sup>16</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.T. 2003. 5-jild. 509 b.

5. Sho'ro tuzumi davrida va hozirda matbuot erkinligi masalasini izohlab bering.

6. Matbuot to'g'risidagi O'zbekiston qonunlarini sanang.

7. Muallif huquqi haqida qonunda nimalar deyilgan?

### **Jurnalistika amaliyotini boshqarish.**

#### **Matbuot erkinligi masalalari bo'yicha nazorat savollari**

1. OAV nimani va qanday yoritishi mumkin yoki mumkin emas degan savolning javobi nima bilan belgilanadi?

2. Axborot vositalari ishtirokida amalga oshirilgan yutuqlar ta'sirini ayting.

3. Axborot vositalari ishtirokida amalga oshirilgan yutuqlar ta'sirini ayting.

4. Qaysi va qachon qabul qilingan hujjatda "Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr – qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon qilingan?

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2 – bo'limini sharhlab bering.

6. OAV ning erkinligi O'zbekistonning qaysi hujjatlarida o'z ifodasini topgan?

7. Matbuot erkinligining uch asosi bor. Shularni izohlab bering.

8. Matbuot erkinligi masalasida qanday qarashlar mavjud?

### **6.2. Axborot tizimi huquqlari mazmuni**

Bu haqda gap ketganda, eng avvalo, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunga murojaat qilamiz. Qonun davlat ommaviy axborot vositalarini erkin bo'lib faoliyat yuritishlarini, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanishlarini kafolatlaydi.

Muassis senzurani amalga oshirishi, maqolalarni retsenziyadan o'tkazishi yoki tahririyatning ijodiy faoliyatiga aralashishi mumkin emas. Bu huquq qonunda o'z ifodasini topgan.

Qonunda tahririyatga kelgan xatlarni e'lon qilishga tayyorlash chog'ida muallif maqolasi mazmunini buzmaslik ham ko'rsatib o'tiladi.

Bu qonundan kelib chiqqan holda uni rivojlantirgan yana bir nechta qonunlar qabul qilindi ular: "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlardir.

Shulardan biri "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunni qisqacha sharhlab o'tsak.

Qonun 1996-yil 30-avgustda kuchga kirgan. Unda "Umumiy qoidalar" bo'limida 3 ta modda, "Mualliflik huquqi" bo'limida 44 ta modda, "Turdosh huquqlar" bo'limida 15 ta modda, jami 61 ta modda bor.

Mualliflik huquqi mavzuning umumiy rejasida adabiy asarlar (adabiy – badiiy, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar) bor. Bunday adabiy asarlar degan iborani tahlil etib ko'rsak.

Mualliflik huquqi mavzusida sanalgan asarlar ro'yxatida jurnalistik asarlar degan ibora ishlatilmagan. Vaholanki, unda dramatik va ssenariy, matnli va matnsiz musiqa, musiqali – dramatik, xoreografiya, audiovizual, tasviriy san'at, sahna bezagi, arxitektura, shaharsozlik va bog' – park barpo etish san'ati, fotografiya va h.k. asarlar sanalgan bo'lsada, huquqshunos olimlar fikricha, "adabiy asarlar" iborasi keng ma'noda qo'llanilgani va bunga ilmiy, o'quv publitsistik va boshqa ishlarni ham qo'yish mumkinligi aytiladi.

O'z huquqini himoya qilmoqchi bo'lgan muallif asarning har bir nusxasida aylana ichiga olingan lotincha "**S**" harfi bilan o'z nomi (ism sharifi)ni va asar birinchi marta e'lon qilingan yilni yozib qo'yishi lozim.

**"S"**. Kopirayt deyarli "semiz" jurnallardagi maqolalar, telefilmlar va eshittirishlarda qo'yiladi. Gazeta materiallarida, radio to'lqinlari orqali berilgan eshittirishlarda negadir bu kopirayt qo'yilmaydi.

Jurnalistika faoliyatida biron – bir muallifning e'lon qilingan yoki e'lon qilinmagan asaridan foydalanilgan vaqtda agar uning roziligini olish shart bo'lmagan bo'lsada, baribir muallifning nomini ko'rsatish shart. Buni talabalar chuqur bilishlari hatto nazorat ishimi, kurs ishimi, diplom ishimi, baribir yozayotganda boshqa mualliflarning maqolalaridan foydalanganda,

albatta unga havola qilinishi, ya'ni izohini sahifa ostiga yozib qo'yishi lozim. Aks holda bu holatni plagiat, ya'ni adabiy o'g'irlik, ko'chirmachilik deb qaraladi.

### **Axborot tizimi huquqlari mazmuni bo'yicha reying topshiriqlari**

1. *Axborot tizimi huquqlari qaysi hujjatda ifoda etilgan?*
2. *OAV tahririyatlari va ularning muassislari o'rtasidagi munosabatni sharhlang.*
3. *Jamiyat va davlatning OAV ga munosabati qaysi qonunda ifoda etilgan.*
4. *OAV tahririyatlari va mualliflar huquqlari.*
5. *Axborot tizimi huquqlarini belgilovchi yana qanday hujjatlar qabul qilingan?*
6. *Plagiat ya'ni adabiy o'g'irlik degan atamani sharhlab bering.*

### **Axborot tizimi huquqlari mazmuni bo'yicha nazorat savollari**

1. *"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunda axborot tizimi huquqlari qanday ta'riflangan?*
2. *OAV muassislari uchun nimalar ta'qiqlangan?*
3. *Davlat OAV xodimlarining qaysi huquqlarini kafolatlaydi?*
4. *Tahririyat kelgan xatlardan qanday foydalanadi?*
5. *"OAV to'g'risida"gi qonunning mazmunini konkretlashtirgan va uni rivojlantirgan qonunlarni sanang.*
6. *Qonundagi "Adabiy asarlar" iborasini sharhlang.*
7. *Koperayt degani nima va u qaysi asarlarga qo'yiladi?*
8. *Kimlarni plagiat ya'ni adabiy o'g'ri deymiz?*

### **6.3. Oshkoralik va uning qo'llanilishi**

Oshkoralik mavzusi matbuot erkinligi haqidagi masala bilan uzviy bog'liq. Oshkoralik – demokratiyaning zarur bo'lgan shartlaridan biri – Demokratiya deb, fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita shakllari amalda.

o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzumga aytilishi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ta'kidlangan. Demokratik davlat o'z – o'zini boshqarish, ko'p partiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma – xilligiga sharoit yaratadi.

Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, senzura yo'l qo'ymaslik bilan oshkoralikni ta'minlash mumkin.

Shu o'rinda "Buxoro axbori" gazetasiga muharrirlik qilgan Cho'lpon "Matbuot kuchli bir davlatdir"<sup>17</sup> deb nomlangan dasturiy maqolasida (maqola tahririyat nomidan berilgan) gazetaning asosiy vazifasini quyidagicha belgilaydi:

- gazeta xalq tushunishi qiyin bo'lgan uzun – uzun materiallar o'rniga ko'proq xabarlarini yoritadi, sodir bo'lgan voqealar to'g'risida ma'lumot beradi, ya'ni yangiliklarni berib boradi;

- gazeta muhim voqealarning mohiyatini anglatish uchun sharh xususiyatidagi maqolalar chop etib boradi;

- matbuot – xalqning tili, so'zi sifatida ish ko'radi. Shu sababli hatto yosh jumhuriyatning xato va kamchiliklarini ko'rsatib, bu bilan ularni tuzatishga yordam beradi;

- gazeta hukumatning ham tilidir. Shuning uchun hukumat muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida xalqqa ma'lumot berib boradi.<sup>17</sup> Xuddi shu so'nggi jumalarga e'tibor qarating. Cho'lpon xuddi shu yerda gazetaning oshkoralik tamoyillariga amal qilishni ham alohida ta'kidlagan edi.

Oshkoralik sharoitida axborot faoliyatining foydali ijtimoiy ta'siri birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi.

Unga birinchi navbatda yashayotgan jamiyatimizni chuqur bilish kiradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy harakat ta'sirini ham alohida ko'rsatish muhim.

Oshkoralik samarasiga boshqarish organlarining oddiy fuqarolar bilan aloqasini mustahkamlash ham ta'sir qiladi. Xuddi shunda boshqaruv tizimini jamoatchilik nazoratida ushlab turish imkoniyati tug'iladi. Yana shu bilan bir qatorda axborotning "pastdan" doimiy oqib kelishini ta'minlaydi.

---

<sup>17</sup> "O'zbekiston matbuoti" jurnali. T., 2001. 6-son. 40 b.

Oshkoralikni faqat aytish, yozish imkoniyati deb o'ylamaslik balki uni "tepa" eshitishi va xulosalar chiqarishiga erishish harakati deb ham tushunmoq lozim.

Oshkoralik har xil qarashlar, fikrlar mavjudligidir. Oshkoralik yashashi uchun tabiiyki, unga kafolat kerak. Yana axborot tizimida qonunchilik bazasining rivojlangani ham zarur.

Oshkoralikning amalga oshishi uchun demokratik yo'nalishda axborot almashinuvida ishtirok etayotgan odamlarning siyosiy, axloqiy hamda kasbiy madaniyati yuqori bo'lishi ham talab qilinadi.

Prezidentimizning "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalari ijodiy jamoasiga yuborgan tabrigida (2001-yil) "... biz demokratik davlat ozod va tom ma'noda erkin hayot qurmoqchi ekanmiz, bu o'zgarishlarni avvalambor matbuotdan boshlashimiz darkor" – degan so'zlarini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Shu o'rinda O'zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakulteti dekani, tarix fanlari doktori Qudrat Emazarov "Nozik tushunchalarga nozik munosabat" maqolasida shunday voqeani yozadi:

"... vatanimiz fuqaroligi haqida qonun yuzasidan muhokamalar davom etayotgan edi. "Literaturnaya gazeta" muxbiri A. Krujilin qonun loyihasidagi «Ushbu mamlakatda yashovchi har bir fuqaro o'zbek xalqining urf-odatlari va an'alarini hurmatlashi kerak» degan mazmundagi jumlagi "yopishib" oladi, uni o'zicha talqin etadi. Talqin shu darajaga etadiki, yo'q yerdan, ikki e'tiqod, ikki an'ana, ikki qadriyatlar asosida yashovchi ikki xalq orasiga sovuqchilik tushurishgacha boradi. Muxbirning yozishicha, kishilar qonunni hurmatlansa kifoya, ular mahalliy xalq urf-odatini hurmatlashga majbur emas. Misol tariqasida u o'g'il bolani qo'lini halollash, ko'p xotinlilik, qurbonlik qilish, qalin singari odatlarni sanab o'tadi va nasroniylar bunday odatlarga rioya qila olmasliklarini aytadi... Bu o'rinda biz uchun muhimi – jurnalistning nuqtai nazari va xolisligida! E'tiqod va tushunchalarga daxldor o'ta nozik masalalar xususida so'z yuritganda yuksak professional mahorat bilan, shaxsiy zaifliklari xusumatlarni chetga surib qo'ygan holda yozish haqida bormoqda so'z!<sup>18</sup>

---

<sup>18</sup> O'zbekiston matbuoti – jumali. 2002. 8 b

1906-yilning 14(27) iyunidan chiqa boshlagan “Taraqqiy” gazetasining birinchi sonida e’lon qilingan bosh maqolada Turkiston xalqlarining o’z milliy mustaqilligi uchun, so’z, matbuot erkinligi va boshqa siyosiy huquqlarga erishish uchun kurash olib borishi lozimligi ta’kidlangan edi.

Hur fikrli nashrlarning birinchisi bo’lgan “Taraqqiy” gazetasi o’zbek milliy jurnalistikasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo’lib qoldi. U tug’ilgan kun o’zbek milliy matbuoti tug’ilgan kun sifatida nishonlanadigan bo’ldi. Bu haqda yuqorida aytgan edik.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oshkoralik o’ta murakkab va ko’p jihatli hodisa bo’lib, unga erishish zarur va bizda bunga hamma sharoitlar yaratilgan.

### **Oshkoralik va uning qo’llanilishi bo’yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Oshkoralikni nima uchun demokratiyaning zarur shartlaridan biri deymiz?*
- 2. Demokratiya degani nima va u nimaga sharoit yaratadi?*
- 3. Qachon oshkoralikni ta’minlash mumkin?*
- 4. Cho’lpon gazetaning asosiy vazifasini belgilab, unda oshkoralik tamoyillariga amal qilishni qaysi mashhur maqolasida ta’riflab bergan?*
- 5. Oshkoralikka ta’sir qiladigan kuchlarni ayting.*
- 6. Oshkoralik amalga oshishi uchun qanday sharoit bo’lishi kerak?*

### **Oshkoralik va uning qo’llanilishi bo’yicha nazorat savollari**

- 1. Oshkoralikni aytish, yozish imkoniyatigina deb qaralsa bo’ladimi?*
- 2. Demokratiyasiz ham oshkoralik bo’lishi mumkinmi?*
- 3. Oshkoralik bo’lishi uchun qanday sharoit yaratilishi kerak?*
- 4. Oshkoralikni ta’minlash mumkinmi?*
- 5. Cho’lponning “Buxoro axbori” gazetasiga muharrirlik qilgan paytida yozgan “Matbuot kuchli bir davlatdir” deb nomlangan maqolasida oshkoralik haqida qanday fikrni ayting?*
- 6. Oshkoralikka ta’sir etuvchi kuchlarni bilasizmi?*



#### 6.4. Jurnalist odobi va axloqi

Axloq – odoblar majmui. Har bir xalqning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me’yorlari bor.

O‘zbekistonda sho‘rolar istibdodi davrida axloqqa bir tomonlama, ya’ni sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashildi ... Bu bilan ittifoqda yashovchi turli xalqlarning o‘ziga xos xulq-odob, muallif jurnalist e’tiqodi, odobi, axloqi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z aytilmasa ham, jurnalistdan hamisha yuqori madaniyat, bag‘rikenglik va bilim talab qilinishi va shunga e’tibor berilishi haqida aytiladi.

Odobli, axloqli jurnalist xalqning urf-odati, marosimlariga hurmat bilan qaraydi. Uni bajarmasligi mumkin, lekin unga qarshi fikr bildirmaydi.

Taniqli yozuvchi, jurnalist Erkin A’zam Asqad Muxtor haqidagi xotirasida shunday deydi: “Guliston” jurnalida adabiyot bo‘limida ishlardim. Bosh muharririmiz Asqad aka bir kuni xonamga kirib, qo‘limga bir dasta she’r tutqazdi: “shuni bir ko‘rib bering” (boshqa rahbarlarga o‘xshab u kishi xodimlarni huzuriga chaqirib o‘tirmas, gapi bo‘lsa, mana shunday o‘zi kirib kelaverardi...) qarasam-o‘zlarining she’rlari. Hayron bo‘ldim: buni nega menga berdilar? Bularni “bir ko‘rib berish”ga mening haddim sig‘armidi-shoir bo‘lmasam, qolaversa, she’rlar kimsan Asqad Muxtorni?! Xo‘p ko‘rdim, o‘qib chiqdim ham deylik, keyin nima?... Gap shundaki, o‘sha kezlar o‘zingiz bosh bo‘lgan nashrda asaringizni bostirish odobdan sanalmas edi.<sup>1</sup>

Jurnalistlar otaxoni Ziyod aka Esenboevning mas’uliyat va burch borasidagi suhbatlari esimizda. Ular ommaviy axborot tahririyatlarini muqaddas dargoh deb hisoblaydilar. Aholi bu joyni haqiqat va adolat ramzi deb tushunadi. Shunday ekan hozirgi davrda har bir jurnalist adibimiz Asqad Muxtor singari axloq – odob, pok ma’naviy qiyofaga va albatta muomalaning yuksak madaniyatiga ega bo‘lishi kerak, degan fikrni aytadilar.

Xuddi shunday talab Prezidentimiz tomonidan qo‘yilgan edi. “Biz jurnalistlar ahli siyosiy yetuk, mas’uliyatli, halol va vijdonli, o‘z ishini

yaxshi biladigan, mamlakatimizning vatanparvar kishilaridan iborat bo'lishiga erishmog'imiz darkor"<sup>19</sup> degan edi Islom Karimov.

Demak, har bir jurnalist avvalo odob-axloqli bo'lishi kerak, buning uchun u o'z ishining murakkabligini va mas'uliyatini anglagan holda kasb mahoratini oshirib borishi va jurnalist degan so'zning salmog'ini yanada ko'tarishi lozim bo'larkan.

Kasbiy burch deganda jurnalistning avvalo, qalam tebratib, el-yurtini yangiliklardan xabardor etishi, xalqimiz ko'nglidagi o'y maqsadlarni, rejalarni yanada teranroq anglab ifoda qilish baxti nasib etganligidan faxrlanishi bu yuksak ishonchni oqlashi, qalamini yanada charxlashi kerak.

Respublikaga taniqli jurnalistlardan biri, rahmatli Ismoil Sulaymonov "O'zbekiston matbuoti" jurnalining 1999-yil 1 – sonidagi "Hayotda tengi yo'q baxt" maqolasida shunday degan edilar: "Xalq jurnalistlarga ishonadi. Bu esa ayni paytda zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Unutmam, deymiz doimo bir-birimizga, jurnalistning qadam olishi, o'zini tutishi, so'z bilan ish birligi necha o'n minglab kishilar nigohida. Bu katta baxt, lekin uning shunga yarasha talabi ham bor. Navoiy bobomiz so'zi bilan aytganda: "Oson emas bu maydon ichra turmoq". Tahririyatga kelgan bir shikoyatning izidan borish, odamlar bilan uchrashish, eshitganlarini iymon va diyonatning xolis taroziga solish, oqni – oq, qorani – qora ekanligini aniqlab olish, to'g'ri to'xtamga kelish va nihoyat butun mas'uliyatni zimmaga olib, matbuotda chiqish qilish so'ng uning natijasi uchun kurashmoq-bularning bari aytishgagina oson"<sup>20</sup>.

Har bir jurnalist o'z kasbiga burchli qolishi istagi, matbuotning bosh prinsiplari ya'ni tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bu prinsiplar bilan qisman tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Matbuotning bosh vazifasi umum insoniyatga xizmat qilishdan iborat bo'lgani uchun ham umuminsoniylik prinsipi uning bosh prinsipi hisoblanadi. U insoniyatga xizmat qilishi, uning hayoti doimo erkin farovon kechishiga o'z hissasini qo'shishi lozim. Umuminsoniylik prinsipiga itoat etgan jurnalist haqiqat qaror topishi uchun kurashadi.

---

<sup>19</sup> O'zbekiston matbuoti "jurnali. 2003. 6-son. 29 b.

<sup>20</sup> O'zbekiston matbuoti "jurnali. 1999. 3-son. 19 b.

Matbuotning xalqchillik prinsipi umuminsoniylik prinsipining tarkibiy qismi bo'lib, shu hududda faoliyat ko'rsatuvchi, shu xalqqa tegishli bo'lgan Matbuot prinsipidir. U o'sha xalq manfaatlari va maqsadlarini ifoda etadi, unga xizmat qiladi. Jurnalist o'zini xalqchil jurnalist deb bilsa, demak, u butun ijodi, qalb qo'rini xalqqa bag'ishlaydi. Xalqning kundalik fikr va tuyg'ulari bilan yashaydi, uning umid va tashvishlari, mehri va nafрати, quvonch va dardini teng baham ko'radi. U bu prinsipning milliylik ko'rinishiga amal qilishi lozim. Ammo milliylik millat manfaatlari umumxalq manfaatlariga zid kelmasligi lozim.

Matbuotning haqqoniylik prinsipiga barcha ommaviy axborot vositalari amal qilishi shart. Demakki, bu prinsip talabi faqat haqiqatni yana bir bor haqiqatni yozishdir. Chunki bu prinsip publitsistikaning bosh mezonі, asosiy talabi hisoblanadi.

Matbuotning ommaviylik prinsipi deganda matbuotning xalq tomonidan ommalashuvini tushunamiz. Bu prinsip yuqorida aytilgan umuminsoniylik, xalqchillik, prinsiplarining mantiqiy davomi bu prinsiplarga rioya qilgan matbuot xalq mehrini qozonadi, ularga manzur bo'ladi.

Matbuot faoliyatida partiyaviylik prinsipi ham bor, ammo u yuqoridagi prinsiplarga amal qilgan holda faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston xalq demokratik partiyasining "O'zbekiston ovozi", "Толос Узбекистана", Adolat sotsial demokratik partiyasining "Adolat", Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati -O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining "XXI asr", O'zbekiston musulmonlar diniy boshqarmasining "Islom nuri" gazetalari partiyaviylik prinsipida faoliyat ko'rsatishadi. Bu prinsip ular uchun qo'llaniladigan qoida bo'lib, o'sha partiya, uyushma, tashkilotlarning dasturi, yo'l-yo'riqlarida ko'rsatilganicha ish ko'rishi tabiiy bir holdir.

Shuni ta'kidlash joizki, 70 yil hukmron bo'lgan kommunistik matbuot yakka g'oya hokimligini joriy etgan partiyaning asosiy quroliga aylanib, jamiyat hayotini sinfiy-partiyaviy nuqtai nazardan yoritib kelgani uchun ham u inqirozga yuz tutdi.

## **Jurnalist odobi va axloqiga oid reyting topshiriqlari**

1. *Axloq qoidalari haqida nima bilasiz?*
2. *Axloq me'yorlariga qanday qarashlar mavjud?*
3. *Tahririyatni nega muqaddas dargoh deyishadi?*
4. *Kasbiy burch deganda nimani tushunasiz?*
5. *Odobli va axloqli jurnalist matbuotning qaysi bosh prinsiplariga rioya qilishi kerak?*

## **Jurnalist odobi va axloqiga oid nazorat savollari**

1. *Axloqli bo'lish jurnalistga nega kerak?*
2. *O'tmishda qanday axloqlar bo'lganini bilasizmi?*
3. *Jurnalist burchli bo'lishi uchun nimalarga rioya qilishi kerak?*
4. *Umuminsoniylik, xalqchillik, haqqoniylik, ommaviylik, partiyaviylik prinsiplarini so'zlab bering.*

### **6.5. Jurnalist mas'uliyati**

Jurnalistika va ommaviy axborot vositalarining mohiyati, uning ichki, obyektiv nashrlari hamda ommaviy axborot vositalarida ishlash, jurnalistika materiallarini yozish va tayyorlash, nashrlar va axborot vositalarini chiqarish (*efirga uzatish*) va tarqatishda bevosita ishtirok etish, faoliyat ko'rsatish demakdir. Ya'ni, jurnalist jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarini bajarishda bevosita ishtirok etuvchi shaxsdir. Bizga ma'lumki, jurnalistika ijtimoiy hayotni aks ettiradi, uni o'rganadi, tahlil qiladi va unga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Bu esa birinchi navbatda so'z vositasi bilan amalga oshiriladi. Shunday ekan, jurnalistika kasbi ijtimoiy hayotni so'z orqali tasvirlay bilish, xabarlash, tahlil qilish, so'z siyosati bo'lmish publitsistika bilan shug'ullanishni talab etadi. Tabiiyki, bu kasb kishidan yoza bilish, ijtimoiy hayot voqealarini so'z vositasida (*shu bilan birgalikda mikrofon, kamera, fotoapparat kabi texnik vositalar yordamida*) tasvir eta bilish qobiliyatini talab qiladi. Demak, jurnalistika kasbi avvalo adabiy faoliyat, adabiy va axboriy ijodning bir ko'rinishidir.

Bu mazkur kasb kishisidan ijodiy salohiyatni, iste'dodni talab qiladi. Jurnalist layoqati, qiziqishi, ijodiy imkoniyati bilan jurnalistikaning ma'lum bir sohasi (*gazeta, jurnal, radio, televideniye*)da ishlashi, ma'lum bir mavzular va janrlarda ijod qilishi lozim. Bu kasb doimiy mehnat, ijodiy mahoratni talab qiladi. Ana shu talablarga javob bergan kishigina bu kasbda yetarli darajada faoliyat ko'rsata oladi. Aksincha bo'lsa - muvaffaqiyat qozonishi mumkin emas.

Jurnalistika kasbi faqat bu bilangina cheklanib qolmaydi, balki u jurnalistikaning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifa va tamoyillaridan kelib chiquvchi talablariga ham bo'ysunadi. Ya'ni, jurnalistika kasbi faqat adabiy ijod faoliyatidangina iborat bo'lib qolmasdan ijtimoiy-siyosiy faoliyat hamdir. Ya'ni jurnalist ijtimoiy voqelikni shunchaki, beehtiros qayd etuvchi emas, balki o'z jamiyati, o'z xalqi, o'z millati, o'z vatanining manfaat uchun kurashchi, faol siyosatchi, jamoat arbobi ham bo'lishi shart.

Jurnalist mehnati uning qaysi jamiyatda yashashi, qanday kuchlarga xizmat qilishi, qanday dunyoqarashga egaligi va qanday g'oyalarga sodiq bo'lishi nuqtai nazaridan o'lchanadi hamda u yo taraqqiyparvar yoki teskarichi bo'lishi mumkin. Hamma davrlarda ham qotib qolgan, eskirgan g'oyalar va teskarichi kuchlarga xizmat qiluvchi jurnalistlar ommadan uzoq, unga yot reaksiyon g'oyalarni targ'ib qilganlar. Faqat o'sib kelayotgan va tarixiy taraqqiyotga javob beruvchi kuchlar tarafdorlari bo'lgan jurnalistlarga xalq ommasining tub manfaatlarini ifoda etadi, yaxshilikka, to'g'rilikka, adolatga, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Jahonning mutafakkir kishilari jurnalistika kasbiga katta baho berganlar va jurnalistikani jamiyatga xizmat qilishning eng yuksak namunasi deb bilganlar. Rus jurnalistikasining atoqli namoyandalari: buyuk shoir A.S.Pushkin, atoqli olim M.V.Lomonosov, xalqparvar publitsist N.G.Chernishevskiy, A.I.Gertsen va boshqalar haqiqiy jurnalist, xalq manfaati uchun, ozodlik uchun, ezgulik uchun tolmas kurashchi bo'lishi lozimligini ta'kidlagan edilar.

Turkistonda jurnalistikaning kasb sifatida shakllanishi masalasiga kelsak o'tmishda hali jurnalistika shakllanmagan paytlarda uning ijtimoiy vazifasini ham yozma adabiyot bajarib kelganligini ko'rgan edik. O'zbek mumtoz adabiyotining atoqli vakillari Alisher Navoiy, Bobur, keyinchalik

Muqimiy, Furqat va Zavqiylar asarlarida o'z davrlarining muhim muammolarini ko'tarib chiqdilar. Shu munosabat bilan ularni o'zbek publitsistikasining boshlovchilari deyishimiz mumkin. Jurnalistika kasbi jurnalistika nashrlarining paydo bo'lishi bilan bog'liqligini nazarda tutsak bu kasbning o'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lganligini ko'ramiz.

1870-yildan nashr etila boshlangan "Turkiston viloyatining gazetisi"da shoir Furqat, Ishoqxon to'ra, Nodim Namangoniy va boshqalar hamkorlik qildilar. XX asrning boshlarida vujudga kelgan Turkiston milliy uyg'onish jurnalistikasida esa bu harakatlarning atoqli namoyandalari M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Avloniy, Hamza, S.Ayniy va boshqalar faol ishtirok etdilar. Bu atoqli ijodkorlar jurnalistika kasbini xalqqa, millat manfaatlariga, taraqqiyotga xizmat qilish deb bildilar. Keyinchalik ularning an'alarini Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar davom ettirdilar. Keyinchalik adiblarimiz G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar jurnalistika kasbi bilan samarali shug'ullandilar. Atoqli o'zbek jurnalistlarining boy va sarmazmun an'alarini hozirgi zamon o'zbek jurnalistlari davom ettirib kelmoqdalar.

Shuni aytish kerakki, jurnalistika kasbi eng qadimiy kasblardan biri bo'lib, jurnalistika paydo bo'lishi bilan vujudga keldi va rivojlandi. Jurnalistikaning dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan davrda unda ishlovchilarni "gazettant", maxsus yangiliklarni yetkazib beruvchilarni esa "novellant" deb atashgan. "Jurnalist" atamasi jurnallar kelib chiqishi bilan qo'llanila boshlandi va uning mazmuni kengayib, jurnalistikaning barcha turlari bilan shug'ullanuvchi kishilarga ham tegishli bo'ldi.

Jurnalistika taraqqiy etishi bilan bu kasbning turli qirralari, xillari paydo bo'ldi. Jurnalistika nashrlarini xabardor qiluvchi jurnalistlar – muxbir, reporter deb, keyinchalik jurnalistika va adabiy ijod rivojlanishi bilan publitsist, sharhlovchi, jurnalistikaning ma'lum janrlari bo'yicha ijod qiluvchilarni – feletonchi, ocherkchi deb atash odat tusiga kirdi. Jurnalistika nashrlarini bevosita tayyorlash va chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muharrir, musahhih, (korrektor), matbaachi kabilar kelib chiqdi. Ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi bilan fotojurnalist, telejurnalist, suxandon, operator kabi kasblar ham paydo bo'ldi.

Jurnalistika va ommaviy axborot vositalari taraqqiy eta borishi bilan bu tarmoqlanish yana davom etaveradi.

Jurnalist mehnatining uch asosi va uch tarkibiy qismi mavjud. Jurnalist mehnatining ijtimoiy-siyosiy asosi uning qaysi jamiyatda, qanday mafkura va dunyoqarashga xizmat qilishidan kelib chiqadi. O'z milliy mustaqilligiga erishgan O'zbekistonda jurnalistika kasbining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari to'la ko'rsatib berilgan. Bu o'z xalqi, o'z vatanining ravnaqi uchun, mustaqillikni yanada mustahkamlash, milliy taraqqiyotga erishish, adolat va demokratiya yo'lida ijod qilishdan iborat. Jurnalist mehnatining huquqiy asoslari parlamentimiz tomonidan qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" kabi qonunlar va O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Bizning jamiyatimizda jurnalistika kasbi ulug'lanadi hamda unga yuksak talablar qo'yiladi.

Jurnalist mehnatining iqtisodiy asosiga uning mehnatiga muvofiq to'lovlar – maosh, qalam haqi, mukofotlar kiradi. Bizda iste'dodli, o'z kasbining haqiqiy egasi bo'lgan jurnalistlar uchun yetarli darajada iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Eng yaxshi jurnalistlar davlatimizning mukofotlariga sazovor bo'lishmoqda, el orasida ardoqlanishmoqda.

Jurnalist mehnatining ma'naviy asosini jurnalistning ichki dunyosi, e'tiqodi, maqsadi belgilaydi. O'z so'zi bilan xalqqa, vatanga, ezgulikka, adolatu haqqoniylikka xizmat qilish har bir jurnalistning oliy burchidir.

Jurnalist mehnatining uch tarkibiy qismiga kelganimizda jurnalist birinchi navbatda muallif, yozuvchidir.

Jurnalist mehnatining ikkinchi muhim tarkibiy qismi esa muharrirlik, tahrirchilikdan iborat.

Jurnalistning ish faoliyatida uning tashkilotchilik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Bu – jurnalistikaning bosh ijtimoiy vazifalaridan, uning hayotga bevosita ta'sir etish xususiyatidan kelib chiqadi. Jurnalist jurnalistika materiallarini uyushtirish, ularning ta'sirchanligini ta'minlash, samaradorligini oshirish uchun kurashishi ham lozim. Bu esa jurnalistdan

ijtimoiy hayotga bevosita aralasha bilish, katta salohiyatga ega bo'lish, tadbirkor va ishbilarmon, hozirjavob bo'lishni talab qiladi.

Mustaqil respublikamizda jurnalistika kasbiga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Bizda ommaviy axborot vositalari va ularda xizmat qilayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli, oshkora faoliyat ko'rsatishlari, vatanimiz kelajagi, xalq baxt-saodati, millatimiz kamolati yo'lida ijod qilishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Keng tarmoqli jurnalistika nashrlari va ommaviy axborot vositalarining ijodiy xodimlari o'z kasblarini ulug'lab, mustaqil respublikamizga munosib xizmat qilib kelmoqdalar. O'zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi va boshqa ijodiy tashkilotlar bu kasb egalarining ijodiy kamolotlarini oshirishda, ularning haq-huquqlarini himoya qilishda muntazam ish olib bormoqdalar.

### **Jurnalistning mas'uliyati bo'yicha**

#### **reyting topshiriqlari**

- 1. Jurnalistika kasbi jurnalistdan nimalarni talab qiladi?*
- 2. Qanday jurnalist xalqiga, Vataniga xizmat qila oladi?*
- 3. Jurnalistika kasbi o'lkamizda qachon paydo bo'ldi va unda jurnalistlar mas'uliyati.*
- 4. "Jurnalist" atamasi qachon paydo bo'ldi?*
- 5. Jurnalist mehnatidagi uch asos va uch tarkibiy qismni ayting.*
- 6. Jurnalist mehnatining iqtisodiy asosini sharhlang.*
- 7. Jurnalistning bosh vazifasi nima?*
- 8. Muharrirlik, tahrirchilik degani jurnalist mehnatidagi tarkibiy qismni izohlang.*

### **Jurnalist mas'uliyati bo'yicha nazorat savollari**

- 1. Jurnalistika kasbi qanday faoliyat turlarini birlashtiradi?*
- 2. Jurnalistika kasbi tarixini bilasizmi?*
- 3. Jurnalistlarni yana qanday nomlarda aytishadi?*
- 4. Jurnalist mehnatining huquqiy asoslarini ayting.*
- 5. Jurnalist mehnatida ma'naviy asos nima?*
- 6. Jurnalist o'zi yozibgina qolmay yana materiallar uyushtirishi uning mas'uliyatiga kiradimi?*



---

## IKKINCHI BO'LIM PUBLITSISTIKA

### 7-BOB. PUBLITSISTIKANING TURLARI VA JANRLARI

Jurnalistikaning o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishi, ijtimoiy borliqni o'zida aks ettirishida publitsistika muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, jurnalistika ijtimoiy hayotni tasvirlash, tahlil etish va unga qaytadan ta'sir qilishda publitsistikadan keng foydalanadi. Boshqacha qilib aytganda publitsistika jurnalistikaning mohiyatini, uning ichki mazmunini, jurnalistika materiallarining o'zagini tashkil etadi.

Publitsistika lotincha "publicus" so'zidan olingan bo'lib "ijtimoiy", "jamiyatga oid" degan ma'noni beradi. Publitsistikaning mohiyati haqida turlicha qarashlar, turlicha ta'riflar mavjuddir. Ayrim lug'atlarda u ijtimoiy, siyosiy masalalarni yorituvchi adabiyot deb qaralsa, ayrim mutaxassislar tomonidan unga ijodning bir turi deb ta'rif beriladi.

Bizningcha bu har ikkala ta'rifda ham publitsistikaning xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

Publitsistika bu — hayotni tasvirlashning alohida bir yo'li, usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotining shu kundagi, ayni zamondagi bo'lib o'tgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea va hodisalarni aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, yechilishi kerak bo'lgan muammolarni ko'tarib chiqadi, shu kungi, ayni zamondagi kishilar uchun xizmat qiladi. Publitsistika shu zamon voqea va hodisalaridan shu zamon kishilarini xabardor qilish, shu kun uchun zarur masala va muammolarni tahlil etish va ularning yechilishi borasida jamiyatga ta'sir ko'rsatish vositasidir. Publitsistikaning bosh vazifasi hayotdagi voqea va hodisalar, masala va muammolar haqida jamoatchilik fikrini uyg'otishdan iborat.

Publitsistika asl ma'noda – aytilgan gap, yozilgan matn, ma'lum bir ko'rinishdagi asar bo'lib, u jurnalistika sahifalariga ko'chgan, radio, televideniye, internetdan o'rin olgan taqdiridagina g'oyaviy siyosiy va

ma'naviy kuchga aylanadi, ommaga yetib boradi. Garchi publitsistik ruh, ya'ni ayni zamon muammolarini ko'tarib chiqish va ayni zamon kishilariga yetkazib borish ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlaridan bo'lmish badiiy adabiyotda va san'atning barcha turlarida mavjud bo'lsa-da publitsistika keng va har taraflama ish ko'ra oladigan maydon – jurnalistikadir. Illo, jurnalistika ham xuddi ana shu ijtimoiy vazifani bajaradi, ya'ni ijtimoiy hayotni tasvirlaydi, tahlil etadi, unga o'z ta'sirini ko'rsatadi va u o'zining bu ijtimoiy vazifasini publitsistika orqali amalga oshiradi. Bu esa jurnalistika bilan publitsistikaning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Jurnalistikasiz publitsistika va publitsistikasiz jurnalistika ish ko'rolmaydi.

Publitsistika insoniyatning hayotni bilishi, uni idrok etishi, olamda yuz berayotgan voqea va hodisalardan xabardor bo'lishi va ulardan o'zi uchun tegishli xulosalar chiqarishi vositasidir. Shu boisdan ham u insonning hayotni kuzatish, tadqiq etish natijasi, tajribalaridan kelib chiqqan fan bilan hamda tashqi dunyoning estetik in'ikosi bo'lgan adabiyot va san'at bilan chambarchas bog'liqdir. Publitsistika hayotdagi fakt va voqealarni qayd etish, ularni tadqiq etish, mohiyatini, ichki qonuniyatlarni ochishda fanga xos qator usul va imkoniyatlardan foydalanadi. Shu boisdan har qanday publitsistik asarda ma'lum darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy tadqiqot mavjud bo'ladi. Shu bilan birgalikda publitsistika dunyoni bilish va aks ettirishda asosan so'zdan foydalanganligi boisdan u badiiy adabiyotga yaqin turadi va uning tarkibiy qismiga aylanadi. Publitsistika so'z san'ati bo'lmish badiiy adabiyotdan obraz va obrazlilik, syujet, kompozitsiya va boshqa zarur tasviriy vositalarni oladi. Bu adabiy-badiiy unsurlar publitsistik asarlarning ta'sirchanligini oshirish, hayotni jonli, qiziqarli tasvir etish uchun qo'llaniladi. Ammo publitsistikaning asosiy vazifasi shu kungi ijtimoiy hayotni shu kun uchun tezkorlik bilan yoritib berishdan iborat bo'lganligi boisdan unda yuqoridagi adabiy-badiiy vositalardan faqat zarur hollardagina, ma'lum darajada foydalaniladi. Ya'ni, xuddi jurnalistika singari publitsistika ham so'z siyosatidir. Xuddi jurnalistika singari publitsistika ham ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi va jamiyat hayotining qaysi qirralarini yoritishga qarab turli xillarga bo'linib ketadi. Masalan, jamiyatning shu kundagi, ayni

zamondagi hayotining bosh masalalarini ijtimoiy-siyosiy publitsistika yoritisa, uning iqtisodi, ishlab chiqarish masalalarini esa iqtisodiy publitsistika o'zida aks ettiradi. Ilmiy publitsistika ilm-fan sohasidagi muammolarni yoritadi. Publitsistika faqatgina jamiyat hayotining barcha qirralarini yoritishda o'ziga xos vosita va usullardan foydalanadi. Jumladan, adabiy-badiiy publitsistika o'zida hayotning barcha sohalarini aks ettirsa-da, bunda u alohida adabiy-badiiy vositalarga tayanadi. Ya'ni, badiiy publitsistika hayotga badiiy adabiyot nuqtai nazaridan yondashadi hamda jurnalistika bilan adabiyot o'rtasida turadi, ularni bir-birlariga uzviy bog'laydi.

Hajviy publitsistika esa ijtimoiy hayotni yoritishda alohida ijtimoiy-badiiy vosita bo'lgan ijtimoiy kulgiga, ya'ni satira va yumorga asoslanadi. Fotosuratlar yordamida ish ko'radigan fotopublitsistika ham publitsistika tarkibiga kiradi. Publitsistika jurnalistika, ommaviy axborot turlariga qarab ham turli xillarga bo'linib ketadi. Masalan jurnalistika, ya'ni gazeta va jurnal sahifalaridan joy oladigan publitsistik materiallardan tashqari radiopublitsistika, telepublitsistika ham mavjuddir. Televideniya joy oladigan va kino san'ati bilan bog'liq bo'lgan kinopublitsistika ham umumiy publitsistika bilan birlashib ketadi. Ijtimoiy hayotning eng muhim tomonlari, bosh qirralarini aks ettirish bo'lgan publitsistika ana shunday keng qamrovga va rang-baranglik xususiyatiga ega. Yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatlar publitsistikaning mazmuniy va uslubiy tomonlariga taalluqlidir. Shu bilan birgalikda publitsistika o'zining ichki xususiyatlari, ijtimoiy hayotga qay tarzda yondashish va aks ettirish qirralari nuqtai nazaridan ham turli xillarga bo'linib ketadi.

Hayotdagi voqea va hodisalar haqida tezkorlik bilan xabar beruvchi, hayotning ko'zga ko'rinib turgan uski qatlamlarini yorituvchi publitsistika — axboriy, yoki xabardor etuvchi publitsistika deyilsa, voqea va hodisalarning ichki mohiyatini ochib beruvchi, hayotning chuqur ichki qatlamlarini o'zida aks ettiruvchi publitsistikani tahliliy publitsistika deymiz.

Hayotdagi voqea va hodisalar, kishilar faoliyatini adabiy-badiiy vositalar bilan yorituvchi, boshqacha qilib aytganda hayotni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilib baholovchi badiiy publitsistika mazkur ijod turining

eng mukammal, yuqori shaklini tashkil etadi. Publitsistikaning mazkur uch xili bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lib bir-birini to'ldirib keladi hamda ijtimoiy hayotning barcha qirralarini o'zida har taraflama, rang-barang aks ettiruvchi ijtimoiy-ijodiy hodisa sifatida insoniyatga xizmat qiladi. Ya'ni, publitsistika hayot haqida xabar berish, uni tahlil etish bilan cheklanib qolmasdan uni rang-barang, turli jilolarda tasvirlaydi. Bu-inson ongining buyuk kashfiyotlaridan biridir.

Publitsistika tur va xillarga bo'linishdan tashqari ichki-tarkibiy jihatdan turli janrlarga ham bo'linadi. Ma'lumki, janr so'zi fransuzcha xil, tur ma'nosini bildiradi hamda adabiyot va san'at asarlarining ma'lum mazmuniy va shakliy turini bildiradi. Masalan, badiiy adabiyotning nasriy turidagi hikoya, qissa, roman, she'riy turidagi she'r, g'azal, ballada, doston, tasviriy san'atdagi natyurmort, portret, peyzaj va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Inson ijodining bir turi bo'lgan publitsistika ham xuddi shu kabi o'z janrlariga ega bo'ladi va bu janrlar publitsistikaning vazifasi, izchil xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, axboriy publitsistika xabar (axborot), reportaj, intervyu, hisobot kabi janrlarga ega. Bu janrlar hayotdagi fakt va hodisalarni, yangiliklarni tezkorlik bilan yoritishga xizmat qiladi. Mazkur janrlarning asosiy vazifasi o'quvchilarni jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalardan xabardor qilish hisoblanadi. Tahliliy publitsistika ham o'zi uchun zarur janrlarga ega. Bular kengaytirilgan xabar (*korrespondensiya*), suhbat, maqola, taqriz kabilar bo'lib ularda hayot voqealaridan xabar berishdan tashqari ularni tahlil etish, ichki mohiyatini ochib berish asosiy o'rin tutadi.

Tahliliy publitsistika janrlari hayotning ichki qatlamlariga kirib boradi, ularni tadqiq etadi va o'quvchi ongining ichki qatlamlariga ta'sir ko'rsatadi. Tahliliy publitsistika hayotning muhim, zarur masalalari va muammolarini ko'tarib chiqishda va ularga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'otishda keng miqyosda xizmat qiladi.

Hayotni adabiy-badiiy nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiluvchi badiiy publitsistikaga lavha, ocherk, esse kabilar hamda ular qatoriga hajviy publitsistikaga oid bo'lgan feleton, pamflet kabi janrlar kiradi. Shu bilan birgalikda hajviy publitsistika axboriy va tahliliy publitsistika janrlaridan ham (*hajviy axborot, hajviy maqola va b.*) foydalanishu mumkin.

Publitsistika turlari va janrlarining xilma-xilligi uning ijtimoiy hayotni keng va har taraflama aks ettirishdan iborat ijtimoiy vazifadan kelib chiqadi. Publitsistika orqali insoniyat o'zini o'rab turgan tashqi dunyodan xabardor bo'ladi, uni anglaydi va o'z manfaati yo'lida foydalanadi. Binobarin, publitsistika insoniyatning muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ijodiy quroli, yashash vositasi hisoblanadi. Insoniyat har taraflama taraqqiyotga erishgan hozirgi davrga kelib jurnalistikaning, publitsistikaning o'rnini va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Quyida biz publitsistikaning yuqorida keltirilgan uch tarkibiy qismi va ularga kiruvchi janrlar bilan batafsil tanishib chiqamiz.

### **Publitsistikaning turlari va janrlari bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Publitsistika nima?*
2. *Publitsistika va matbuot.*
3. *Publitsistikaning mavzu jihatidan xillari.*
4. *Publitsistikaning tarkibiy ko'rinishlari.*
5. *Axboriy publitsistika nima?*
6. *Axboriy publitsistikaning janrlarini sanab bering.*
7. *Axboriy publitsistika va matbuot qonuniyatlari.*
8. *Respublikamiz matbuotida axboriy publitsistika.*

### **Publitsistikaning turlari va janrlari bo'yicha nazorat savollari**

1. *Publitsistika qanday ma'noni bildiradi?*
2. *Publitsistikaning bosh vazifasini ayting.*
3. *Publitsistika qachon g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy kuchga aylanadi?*
4. *Publitsistika keng va har taraflama ish ko'ra oladigan maydon nima?*
5. *Publitsistika badiiy adabiyotdan qanday tasviriy vositalarni oladi?*
6. *Publitsistikaning xususiyatlarini ta'riflang.*
7. *Publitsistikani nima sababdan inson ongining buyuk kashfiyoti deymiz?*

## 8-BOB. AXBORIY PUBLITSISTIKA

Publitsistikaning ilk qismi bo'lgan axboriy, xabardor qilish publitsistikasining asosida axborot, xabar yotadi. Xabar arabcha bo'lib bu so'z ham yuqoridagi ma'noda ishlatiladi. Falsafiy ma'noda axborot tirik moddaning yashash xususiyatlaridan asosiysi sanalib, tabiat va hayvonot olamida ham mavjud. Insoniyatning o'zini o'rab turgan tashqi olamni bilishida hamda o'zaro muloqotida axborot muhim rol o'ynaydi. Kishilik jamiyatida axborotning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy axborotdir. Ijtimoiy axborot jamiyat uchun jamiyat haqidagi xabarlar, ma'lumotlardir.

Axboriy publitsistika jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Jamiyat hayotida axboriy publitsistikada aks etmaydigan biror soha yo'q. Jamiyat uchun zarur hisoblanadigan, kishilarni qiziqtiradigan barcha fakt, voqea va hodisalar axboriy publitsistikada o'z ifodasini topadi.

Jurnalistikaning har taraflama, har yerda hozir va har narsadan xabardor degan mashhur qoidasi avvalo axboriy publitsistikada zohir bo'ladi.

Axboriy publitsistika jurnalistika va ommaviy axborot vositalarining gazeta, jurnal, radio, televideniye, internet kabi barcha turlarida asosiy o'rinni egallaydi. Axboriy publitsistika jurnalistikaning biror turi yoki xilisiz ish ko'ra olmaydi. Jurnalistikani axborot bilan ta'minlab turishda jurnalistika nashrlari, radio va televideniye kompaniyalaridan tashqari maxsus axboriy agentliklar ham ish olib boradilar. Dunyodagi barcha axborot agentliklari uzluksiz ravishda axborot yig'ish va tarqatish bilan shug'ullanadilar. Ular jurnalistika va radio, televideniye doimiy ravishda axborot bilan ta'minlab turadi. Axboriy publitsistika barcha ommaviy axborot vositalari faoliyatida keng va har taraflama qo'llaniladi.

Axboriy publitsistikaning tarixiy ildizlari juda chuqur bo'lib, insoniyat paydo bo'lishining ilk davrlariga borib taqaladi. Axboriy publitsistikaning asosini tashkil etuvchi axborot yer yuzidagi birdan-bir ongli mavjudot bo'lgan odamzotning ilk hamrohi hisoblanadi. Insonlarning bir-birlari

bilan muloqotlari natijasida tilning va yozuvning paydo bo'lishi axboriy publitsistikaning asosini tashkil etadi. Keyinchalik, odamlar jamoa-jamoa bo'lib yashay boshlagach axborotning roli yanada oshdi. Jamiyat sinflarga bo'lingach axborot ham ma'lum sinflar uchun xizmat qila boshladi. Yakka hukmronliklar davrida ijtimoiy axborot asosan hukmdorlar manfaati uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik u ko'proq iqtisodiy manfaatlarga xizmat qila boshladi, foyda orttirish manbaiga aylandi. Kommunistik tuzum davrida u yakka hukmron g'oyaning ommaga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qildi. Faqat haqiqiy demokratik tuzum, yuksak iqtisodiy rivojlangan jamiyatdagina axborot keng xalq ommasiga xizmat qiladi, axboriy publitsistikaning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Axboriy publitsistika asosan jurnalistikada, ommaviy axborot vositalarida keng zuhur topadi. Hali jurnalistika shakllanmagan davrlarda uning ijtimoiy vazifalarini jarchilik, xabarchilik kabi vositalar bajarib kelgan. Badiiy adabiyotda axboriy publitsistikaning ayrim elementlari mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim tarixiy memuar yoxud shu kun voqealari aks etgan asarlarda axboriy xususiyat o'rin oladi.

Fanda ham axboriy xususiyat o'z ifodasini topadi, ilmiy kuzatishlar tadqiqotlar hayotdan olingan fakt va voqea-hodisalarga asoslanadi. Ammo fanda fakt va voqealar biror ilmiy xulosa, kashfiyot, tadqiqotlarni isbotlash, qayd etish uchun qo'llaniladi. Axboriy publitsistika ham hayotdan olingan fakt, voqea va hodisalarni tanlab olishda, tadqiq etishda fanga doir vositalardan ilmiy-mantiqiy mushohadalardan foydalanadi. Ammo u ana shu fakt, voqea va hodisalar haqida jamiyatga tezkorlik bilan xabar berish, jamoatchilik fikriga havola etish vazifasini bajarishi bilan fandan farq qiladi. Ya'ni, axboriy publitsistikaning vazifasi hayot faktlari, voqea va hodisalarni tekshirish, ularni turlarga bo'lish va ilmiy xulosalar chiqarish emas, balki ulardan odamlarni xabardor qilishdir.

Axboriy publitsistika ijtimoiy borliqni asosan so'z yordamida yoritganligi boisidan adabiyot va san'atga ham yaqin turadi. Ammo u adabiyot va san'at singari hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni tasvirlash bilan o'quvchi (tinglovchi, tomosha qiluvchi)larning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish emas, bevosita ongiga kirib borish, xabardor qilish ijtimoiy

vazifasini bajarishi bilan farq qiladi. Shu bilan birgalikda axboriy publitsistika hayot voqealarini aks ettirishda adabiyot va san'atning jonlantirish, obrazlilik kabi vositalaridan foydalanadi. Ammo uning bosh vazifasi yuqorida aytganimizdek axborot berish, xabardor qilish bo'lganligi boisidan bu vositalar cheklangan darajada, zarur hollardagina qo'llaniladi.

Axboriy publitsistika tarkibida qator janrlar mavjud. Bular – axborot (xabar), kengaytirilgan xabar, reportaj, lavha, intervyu, hisobot kabilardan iborat. Bu janrlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va bir-birini to'ldirib keladi. Shu bilan birgalikda har bir axboriy janr o'zining ichki va boshqa turlariga bo'linadi – bu publitsistikaning muhim tarkibiy qismi, bosh ko'rinishi bo'lgan axboriy publitsistikaning ham xilma-xil va serqirraligidan dalolat beradi.

### **Axboriy publitsistika bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Ijtimoiy axborot degan atamaning ma'nosini ayting.*
2. *Axboriy publitsistikaning asosini sanab bering.*
3. *Ijtimoiy axborot jamiyat sinflarga bo'lingach hamda yakka hukmronlik davrida kimlarga xizmat qilgan?*
4. *Axboriy publitsistika qachon erkin faoliyat ko'rsata oladi?*
5. *Axboriy publitsistikaning asosiy bosh vazifasini ayting.*
6. *Axboriy publitsistika janrlarini sharhlang.*
7. *Lavha, intervyu, hisobot kabi jurnalistika janrlari axborot publitsistika tarkibiga kiradimi? Ularning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

### **Axboriy publitsistika bo'yicha nazorat savollari**

1. *Jamiyat uchun jamiyat haqidagi xabarlar, ma'lumotlarni qaysi axborot tarqatadi?*
2. *Ijtimoiy axborot qachondan boshlab foyda orttirish manbaiga aylandi?*



3. *Axboriy publitsistikaning ijtimoiy vazifalarini hali jurnalistika shakllanmagan davrda qaysi vositalar bajargan?*
4. *Axboriy publitsistikaning adabiyot va san'atdan farqli tomonini ayting.*
5. *Axborot (xabar), kengaytirilgan xabar, reportaj janrlarini izohlab bering.*

## 8.1. Xabar

Xabar axboriy publitsistikaning asosiy, bosh janri hisoblanadi. Axborotning asosiy vazifasi – jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalar haqida o'quvchilar (tinglovchilar, tomosha qiluvchilar)ga xabar berish, ma'lumot yetkazishdir. Axborot jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotning barcha qirralarini qamrab oladi. Jamiyat hayotini, inson ijtimoiy faoliyatining axborotda aks etmaydigan birorta ham sohasi yo'q. Yuqoriroqda aytib o'tganimizdek, axborotning tarixi insoniyatning dunyoga kelishi, odamlarning o'zaro muloqoti, til va yozuvning paydo bo'lishi bilan boshlangan. Jurnalistika-ijtimoiy axborot uchun eng muhim maydon, kanal hisoblanadi. Jurnalistikagacha bo'lgan davrda axborot maxsus xabarchilar, jarchilar orqali tarqatilganligi ma'lum. Jurnalistikaning paydo bo'lishiga esa axborot, odamlarning axborotga bo'lgan

ehtiyoji sabab bo'lgan. Axborot jurnalistikaning tarixiy taraqqiyoti davrida uning asosiy janri bo'lib kelgan. Bu janr jurnalistikaga uning bosh ijtimoiy vazifasi – tasvirlash, xabardor etish vazifasini bajarishda xizmat qiladi. Shuni aytish kerakki, axborot janri jurnalistikaning turli tarixiy ko'rinishlaridan turlicha o'rin olib kelgan. Avtoritor jurnalistika garchi bu janrni jurnalistikada qo'llashni boshlab bergan bo'lsa-da, undan foydalanish ma'lum darajada cheklangan holda bo'lgan. Chunki bu jurnalistikada uning homiysi bo'lgan hukmdorlarning manfaatlariga zid axborotlarning bosilishiga yo'l qo'yilmagan. Erkin dunyo jurnalistikasida axborot janri asosiy o'rin tutib, keng qo'llanilib kelinadi. Ammo bu xil jurnalistikada iqtisodiy foyda olish uchun ba'zan bu janrni suiiste'mol qilish, "shov-shuv"larga keng o'rin berish hollari ham uchraydi. Ya'ni,

unda bu janrdan keragidan ortiq darajada foydalaniladi. Bunga qarama-qarshi ravishda kommunistik jurnalistikada esa axborot cheklangan bo'lib, undan yakka g'oya hokimligi yo'lida foydalanib kelingan. Faqat chinakam demokratik jurnalistikadagina axborot janri keng, har taraflama o'rin olishi mumkin.

Insoniyat, jamiyat yuqori darajadagi texnik taraqqiyotga erishgan hozirgi davrga kelib axborot janri yanada rivojlandi va u gazeta, jurnal, radio, televideniya tashqari axborot agentliklari va internetda ham bosh o'rinni egallab kelmoqda. XXI asrni axborot asri deb aytish mumkin.

Axborot janrining asosida birinchi o'rinda fakt turadi. Fakt lotincha "faktum" so'zidan olingan bo'lib, qilingan ish degan ma'noni bildiradi. Axborotning asosida haqiqatdan ham bo'lib o'tgan voqea, hodisa turadi, lekin har qanday fakt voqea va hodisa ham axborot uchun asos bo'la olmaydi. Avvalo bu faktning ijtimoiy ahamiyati, ya'ni, jamiyat uchun, shu kun, shu davr uchun kerak-nokerakligi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotiga taalluqli, o'z mohiyati bilan kerakli, tipik bo'lgan fakt, voqea va hodisagina axborot uchun asos bo'la oladi. Bunda ana shu fakt, voqea va hodisaning yangiligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Yangilik – ilgari ma'lum bo'lmagan, endigina yuz bergan voqea, hodisadir. Bunday voqea va hodisaning haqiqatdan ham bo'lib o'tganligi – fakt hisoblanadi.

Jamiyat yoki dunyoda endigina yuz bergan o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy ahamiyati bilan ko'pchilikda qiziqish uyg'otuvchi voqea va hodisa, fakt yoki faktlar yig'indisi yangilik hisoblanadi. Bu faktlar albatta tekshirilgan, aniq bo'lishi shart. Bunday voqea va hodisaning haqiqatdan ham bo'lib o'tganligi fakt hisoblanadi. Shu boisdan axborotning ishonchli bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Jurnalistikaning asosiy tamoyillaridan biri haqqoniylik bo'lganiday unda bosiladigan, e'lon etiladigan, ko'rsatiladigan har qanday voqea va hodisa, keltirilgan faktlar haqqoniy bo'lishi shart. Axborot janriga qo'yiladigan talablardan biri uning auditoriya — o'quvchilar, eshituvchilar, ko'ruvchilar uchun tushunarli bo'lishidir. Aniq faktlarga asoslangan va tushunarli bo'lgan axborotgina o'z ijtimoiy vazifasini bajara oladi. Aksincha, tekshirilmagan faktlar ustiga qurilgan, pala-partish, tushunarsiz axborot

jurnalistikaning faoliyatiga putur yetkazadi. Biror voqea va hodisani kechikib, eskirtirib berilishi jurnalistika ijtimoiy vazifasining bajarilishiga monelik qiladi. Elektron texnika yuqori darajada taraqqiy etgan hozirgi davrda dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalarning o'sha joyning o'zida, o'sha paytda bevosita efirga uzatilishi, televideniya to'g'ridan-to'g'ri olib berilishi, jurnalistikada tezkorlik bilan yoritilishi maqsadga muvofiqdir. Axborot hayotdan olingan fakt, voqea va hodisalarning tafsilotini o'rganishda ilm-fanda qo'llaniladigan uslubga tayanadi. Ya'ni, mazkur fakt, voqea hodisani mohiyatini ochib berishda mantiqiy mulohaza unga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda axborot hayot voqealarini aks ettirishda asosan so'zdan (radioda tovushdan, televideniya so'z va tasvir birlashmasidan, fotoxabarda esa fotosuratdan) foydalanadi. Shu nuqtai nazardan axborotda adabiy ijod, san'at elementlari ham ishtirok etadi. Ammo u – sof badiiy, san'at janri bo'lmasdan, ijodning o'ziga xos ko'rinishi bo'lmish publitsistik tasvirga, xabardor etishga asoslanadi. Chunki axborotda publitsistik ruh, tasvir birinchi o'rinda turadi. Publitsistikaning boshqa janrlari kabi axborot ham jamoatchilik fikriga yangi fakt, voqea, hodisa tafsiloti, yangi fikr yetkazadi va uni uyg'otadi. Bu axborotning bosh xususiyatidir. Jamoatchilik fikrini uyg'otmaydigan quruq, yuzaki axborot jurnalistikaning ijtimoiy vazifalarining bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Axborot jurnalistika tamoyillarini ham o'zida aks ettiradi va umuminsoniy, xalqchil, milliy, haqqoniy bo'lishi shart. Hozirga kelib jahon jurnalistikasi yuksak darajada taraqqiy etib, axborot yig'ish va tarqatishning umumjahon bozori paydo bo'ldi. Bu esa axborot janri oldiga raqobatbardoshlik talabini ham qo'yadi. Bunda axborotning yangiligi, solmog'i, dolzarbligi, haqqoniyligi, tezkorligi asosiy ahamiyat kasb etadi. Axborot janri jurnalistika, ommaviy axborot vositalarining barcha ko'rinishlarida — gazeta, jurnal, radio, televideniya va internetda asosiy o'rin egallaydi. Dunyodagi axborot agentliklari ommaviy axborot vositalarini axborot bilan ta'minlab turadi. Axborot qaysi ommaviy axborot vositasida berilishiga qarab alohida xususiyat kasb etadi. Masalan, gazeta va jurnal axboroti, radio axboroti, televideniya axborot ko'rsatuvlar, internetdagi saytlar bunga misol bo'ladi. Axborot janri jurnalistika, ommaviy axborot vositalarining barcha

ko'rinishlarida — gazeta, jurnal, radio, televideniye va internetda asosiy o'rin egallaydi. Dunyodagi axborot agentliklari ommaviy axborot vositalarini axborot bilan ta'minlab turadi. Axborot qaysi ommaviy axborot vositasida berilishiga qarab alohida xususiyat kasb etadi. Masalan, gazeta va jurnal axboroti, radio axboroti, televideniye'dagi axboriy ko'rsatuvlar, internetdagi saydlar bunga misol bo'ladi.

Axborot janri ijtimoiy hayotni yoritish nuqtai nazaridan turli xillarga bo'linib ketadi. Avvalo axborotlar ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi. Ichki axborotlar mamlakatning (yoki o'sha jurnalistika janri chiqadigan hududning) ichki voqealari haqida bo'lsa, tashqi axborotlar mamlakat tashqarisida yuz bergan voqealar haqidadir. Ichki axborotlar jurnalistika nashri muxbirlari tomonidan tayyorlansa, tashqi axborotlar boshqa jurnalistika nashrlaridan, axborot agentliklaridan, shu nashrning chet eldagi muxbirlaridan (agar bor bo'lsa) olinadi. Hozirgi davrga kelib tashqi axborotlarni bevosita internetdan ham olish mumkin. Axborotlar shu bilan birgalikda rasmiy va norasmiy (oddiy, kundalik) axborotlarga ham bo'linadi. Rasmiy axborotlar odatda rasmiy idoralar tomonidan va axborot agentliklari orqali beriladi. Norasmiy axborotlar esa muxbirlarning materiallari, tahririyatga kelgan xatlar, jurnalistika materiallari asosida tayyorlanadi. Axborotlar shu bilan birgalikda kichik (qisqa) va kengaytirilgan axborotlarga ham bo'linadi. Qisqa axborotlarda hayotdan olingan fakt, voqea va hodisalarning eng asosiy mohiyati haqida qisqa shaklda xabar beriladi. Bunday axborotlar gazetalarda sarlavhasiz yoki "Yangiliklar", "Shu kunning xabarlari", "Olamda nima gap?", "Respublikamiz hayotidan" kabi ruknlar ostida berilishi mumkin. Radio yoki televideniye orqali esa "Yangiliklar", "Xabarlar", "Axborot" ruknlari ostida ko'rsatiladi. Rossiya televideniyesi tomonidan berib boriladigan "Вести" ("Xabarlar"), "Новости" ("Yangiliklar"), "Время" ("Vaqt") kabi axborot ko'rsatuvlari shular jumlasidandir. Mazkur axborotlar ommaviy axborot vositalarining qaysi hududda chiqishiga qarab "Viloyat xabarlari", "Tumanimizda" kabi ruknlar ostida berilishi mumkin.

Kengaytirilgan xabarlar esa fakt, voqea va hodisalarning asosiy mohiyati bilan bir qatorda uning muhim tafsilotlarini ham o'zida aks

ettiradi. Bunday xabarlar o'ziga tegishli sarlavha bilan beriladi. Radio va televideniya ham bunday xabarlariga keng vaqt ajratiladi.

Xabarlar shu bilan birgalikda tematik yoki notematik bo'lishi mumkin. Tematik xabarlar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasi haqida axborot beradi. Bunday axborotlar gazetalarda "Viloyatlardan daraklar", "Madaniyat xabarlari", "Tibbiyot yangiliklari", singari ruknlar ostida beriladi.

Notematik xabarlar esa bir necha mavzuga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Bunday xabarlar "Har sohadan bir shingil", "Kecha va bugun" va boshqa rubrikalar ostida berilishi mumkin.

Xabarlar ijobiy va tanqidiy bo'lishi ham mumkin. Ijobiy xabarlar yuqoridagi kabi ko'rinishlarda bo'lsa, tanqidiy xabarlar "Tahririyatga xatlar", "Luqma", "Tashvishli signal" singari ruknlar ostida beriladi. Ayrim gazeta va jurnallarda har bir xabarga, shu jumladan tanqidiy xabarga mos keladigan alohida rukn ham berilishi mumkin. Hajviy jurnallarda esa bir necha hajviy (tanqidiy) xabarlar umumiy rukni ostida bosilishi ham mumkin.

Axborotning tili va uslubi ham o'ziga xos bo'lib, hayotdagi fakt, voqea va hodisalar haqida qisqa, lo'nda, yorqin va tushunarli tilda yozilishi lozim. Unda uzundan uzoq jumlar, fikr-mulohazalar, noaniq fikrlarning bo'lishi aslo mumkin emas. Shuningdek, axborotda ortiqcha o'xshatish, mubolag'a va boshqa adabiy vositalar ishlatilmaydi. Ayrim obrazli iboralar, badiiy-ijodiy so'zlar faqat juda zarur hollardagina (masalan hajviy axborotlarda) ishlatilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari uchun axborot olish manbalari xilma-xil. Avvalo – ijtimoiy-siyosiy hayot, rasmiy idoralar, iqtisodiy-ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari, madaniyat muassasalari axborot olish manbai hisoblanadi. Shu bilan birgalikda o'tkaziladigan jurnalistika anjumanlari, rasmiy majlislar, idoralarning jurnalistika xizmati tomonidan tarqatiladigan axborotlar ham muhim rol o'ynaydi. Axboriy agentliklarning axborotlari ham bu o'rinda asosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, internet va boshqa jurnalistika nashrlari ham axborotni kengroq olinishiga xizmat qiladi. Tahririyatga kelgan xatlar, jamoatchi muxbirlarning materiallari ham axborot uchun qimmatli manbadir.

Xulosa qilib aytganda, axborot janri jurnalistikani hayot bilan bog'lab turuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Quyida axborotning ayrim turlariga doir misollar keltiramiz:

Rasmiy axborot:

### **Senat saylovi yakunlandi**

Mamlakatimizda Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat a'zolarining saylovi nihoyasiga yetdi. 20 yanvar kuni Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining qo'shma majlislari bo'lib o'tdi.

Ularda mazkur davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlaridan har bir hudud bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga olti nafardan vakil saylandi. Yashirin ovoz berish Qonunda va Markaziy Saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Nizomda belgilangan tartibda amalga oshirildi.

Ta'kidlamoq lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov to'g'risidagi milliy qonunchilikda ko'zda tutilgan tartib va muddatlarda Senatga bo'lib o'tgan ilk saylov yuksak saviyada tashkil etildi. Mahalliy Kengashlar deputatlari o'z saflaridan oliy davlat vakillik qonun chiqaruvchi organi — Oliy Majlisga tegishli hudud manfaatlarini munosib namoyon etishga layoqatli vakillarni senator etib sayladilar.

Xalqimizning ikki palatali parlamentni shakllantirish borasidagi xohish–irodasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ushbu ulkan ijtimoiy–siyosiy tadbir mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi.

«Xalq so'zi» gazetasi. 2005. 21 yanvar.

Ichki axborot:

### **«Sharq» yo'lga tushdi**

“O'zbekiston temir yo'llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasining “O'zbektemiryo'lovchi” ochiq aksiyadorlik jamimiyati Mustaqillik bayrami shodiyonalari davom etayotgan kunlarda yana bir xayrli ishga qo'l urdi. Shu yilning 5 sentyabridan “Sharq” tezyurar poezdi “Toshkent–Buxoro” yo'nalishi bo'ylab qatnay boshladi. Endi respublikamiz mehnatkashlari hamda uning mehmonlari sakkiz soat ichida qadim Buxoro

shahriga yetib borish imkoniyatiga ega bo'lishdi. "Sharq" tezyurar poezdi har kuni yo'lga chiqadi. Zamonaviy, qulay va shinam vagonlar to'rt yuz ellik nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega.

«Xalq so'zi» gazetasi. 2005. 7 sentyabr.

Tashqi axborot:

Xalqaro energetika agentligi rahbari Klod Mandil Dunyo bo'yicha energetika inqirozi boshlanayotganligini ma'lum qildi. Sanoatlashgan mamlakatlar o'z neft zaxiralaridan kuniga 2 million barrel neftni bozorga chiqarishga qaror qilgan. Dushanba kuni Dunyo birjalaridagi neft narxi 1 barrel uchun 67,57 dollarga yetgan.

«Xalq so'zi» gazetasi. 2005. 6 sentyabr.

Mustaqillikka erishgan respublikamiz jurnalistikasi va boshqa ommaviy axborot vositalarida axborot janri keng qo'llanilib kelinmoqda.

Mazkur janr mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy islohotlarning borishi, jamiyatimizning ichki hayotini hamda dunyo voqealarini yoritishda xizmat qilmoqda. Respublikamizda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" kabi qonunlar axborot janrining keng qo'llanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Xabar bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Axborot publisistikaning asosiy, bosh janrini ayting va uni izohlab bering.*
- 2. Jurnalistika paydo bo'lguncha axborot qanday tarqatilgan?*
- 3. Xabar qanday vazifani bajaradi?*
- 4. Avtoritar jurnalistika davrida xabarning o'rni.*
- 5. Axborot janrining asosida birinchi o'rinda fakt turishini sharhlab bering.*
- 6. Axborotga nimalar asos bo'ladi?*
- 7. Axborotning bosh xususiyatini ayting.*
- 8. Axborot jurnalistikaning qaysi tamoyillarini o'zida aks ettiradi?*
- 9. Axborot xillarini sharhlab bering.*
- 10. Rasmiy va norasmiy axborotlarni izohlang.*

## **Xabar bo'yicha nazorat savollari**

- 1. Xabar janrini suiiste 'mol qilish qachon boshlangan edi?*
- 2. Xabar qachon cheklangan darajada faoliyat yuritgan?*
- 3. Axborot janri qachon erkin faoliyatga ega bo'ladi?*
- 4. Axborotning ijtimoiy vazifasini ayting.*
- 5. Axborotda tezkorlik nima uchun kerak?*
- 6. Axborotga bugun nega raqobatbardoshlik talabi qo'yiladi?*
- 7. Ichki va tashqi axborotlarni izohlang.*
- 8. Tematik va notematik xabarlariga misol ayting.*

## **8.2. Hisobot**

Axboriy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri hisobotdir. Hisobot so'zi arabcha bo'lib, hisob berish, ya'ni o'z ishlari, topshiriqning bajarilishi va shu kabilar haqida o'zidan yuqorida turuvchi boshliqqa, tashkilot va jamoatchilikka og'zaki yoki yozma ravishda beriladigan rasmiy axborot degan ma'noni bildiradi. Jurnalistika hisoboti esa bo'lib o'tgan biror muhim yig'in, anjuman yoki ommaviy bayram va boshqa tadbirlar, voqea va hodisalar, jumladan, sud majlisi, jurnalistika konferensiyasi haqida yozilgan axborotdir. Unda mazkur yig'in, anjuman yoki ommaviy tadbir, voqea va hodisaning asosiy mazmuni, mohiyati, tafsiloti o'z ifodasini topishi kerak. Odatda hisobot parlament majlisi, hukumat idoralari va jamoat tashkilotlarining muhim yig'inlari haqida, shuningdek, o'tkazilayotgan ommaviy bayramlar, san'at anjumanlari, sport musobaqalari va shu singari yirik, ahamiyatli voqea va hodisalar haqida yoziladi. Hisobot xuddi axborot singari ko'pchilik uchun qiziqarli, yangilik bo'lgan tadbir, voqea va hodisalarni o'zida aks ettirishi lozim. Ya'ni, u ham ko'pchilikda qiziqish uyg'otishi, jamoatchilik fikrini qo'zg'ata olishi kerak. Arzimagan, ko'pchilik uchun ahamiyatsiz biror yig'in haqidagi, umumiy gaplardan iborat bo'lgan hisobotlar jurnalistika nashrining obro'sini tushiradi, o'quvchini zeriktiradi. Hisobot ham xuddi xabar singari shaklan ikki xil - qisqa va batafsil bo'lishi mumkin. Qisqa hisobotda o'sha anjuman, tadbir yoki voqea-hodisaning bo'lib o'tganligi haqida xabar qilinsa, batafsil hisobotda esa yuqorida qayd etilganlar to'laligicha



yoritiladi. Hisobot shu bilan birgalikda rasmiy yoki muammoli, tahliliy ham bo'lishi mumkin. Rasmiy hisobot rasmiy idoralar tomonidan (yoki rasmiy axborot agentligi orqali) tarqatiladi. Norasmiy hisobot esa mazkur anjuman, tadbir, voqea-hodisani yoritish uchun maxsus yuborilgan ommaviy axborot vositasining muxbiri – jurnalist tomonidan yoziladi. Unda qatnashchilarning so'z va fikrlari ham berilishi mumkin. Bunday hisobotlar o'quvchi (eshituvchi, ko'ruvchi)da mazkur anjuman, tadbir yoki voqea, hodisalar haqida to'la tushuncha hosil qilishi lozim. Hisobotning ikkinchi xili – tematik, ya'ni biron-bir mavzuga qaratilgan turida esa jurnalist tomonidan muhim, birinchi darajali deb topilgan biror mavzu, hamda u muammoli, tahliliy bo'lishi mumkin. Bunday hisobotlar asosan uch turga – umumiy hisobot, biror mavzuga qaratilgan yoki sharhli hisobotga bo'linadi. Umumiy hisobotda xabar berilayotgan anjuman, ommaviy tadbir, voqea va hodisalar xronologik tartibda — bir boshdan, batafsil bayon etiladi.

Bunda anjuman, tadbir, voqea, hodisa qanday boshlanganligi, kimlar ishtirok etganligi, anjuman bo'lsa unda kimlar so'zga chiqqanligi, qanday hujjatlar qabul qilinganligi, ommaviy tadbir va sport musobaqalari bo'lsa qanday o'tganligi, nimalar bo'lganligi, kimlar qanday natijalarga erishilganligi to'la bayon etiladi. Ayrim anjumanlardan yozilgan hisobotlarda va u erda so'zga chiqqan notiqning nutqi va ma'ruzalari to'laligicha keltirilishi, bayram, tadbir ishtirokchilari, sport musobaqalari masala, muammolari birinchi o'ringa qo'yiladi va o'sha anjuman, tadbir, voqea va hodisada bu masala qanday ahamiyat kasb etganligi, qanday muhokama etilganligi, qanday yechimini topganligi haqida fikr yuritiladi, o'z mulohazalari aytiladi, ijobiy yoki tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, publitsistik xulosalar chiqariladi. Bunday hisobot u yoki bu muammo bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. Uchinchi xil hisobot – sharhli hisobot bo'lib, unda anjuman, voqea yoki hodisaning tafsiloti bayon etilishi bilan bir qatorda uning u yoki bu tomoni, muammo va masalalariga alohida sharhlar ham ilova qilinishi mumkin. Bu ham yuqoridagi – ma'lum mavzuga bag'ishlangan tahliliy hisobotga yaqin turadi.

Hisobot ommaviy axborot vositalarining qaysi bir turida yoritilishiga qarab gazeta hisoboti, jurnal hisoboti, radiohisobot, telehisobot bo'lishi mumkin. Turgan gapki jurnalistika — gazeta va jurnal hisobotidan farqli ravishda radio va telehisobot bevosita ovoz va tasvir qo'shilishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ommaviy axborot vositalarining qaysi bir turida bo'lmasin hisobot yozish va tayyorlash jurnalistdan katta mehnat va mahorat talab qiladi. Hisobot yozuvchi, tayyorlovchi jurnalist avvalo mazkur anjuman, tadbir, voqea va hodisaning mazmuni, mohiyatini anglab olishi, uni to'raligicha qamrab, faktlarni, ismlarni, qaror va hujjatlar, natijalarni aniqlab olishi kerak. Shundan so'nggina u to'plagan fakt va ma'lumotlarni tushunarli va lo'nda qilib bayon etib berishi lozim. Hisobotning ichki tuzilishi uning qaysi turda yozilishiga bog'liq. Umumiy hisobot ma'lum shaklga ega bo'lib, u boshidan oxirigacha birma-bir bayon etiladi. Ma'lum mavzuga bag'ishlangan hisobot esa erkin tarzda yozilishi, asosiy e'tibor ko'tarilayotgan muammoga qaratilishi mumkin. Sharhli hisobot ham shunday xususiyatga ega.

Hisobotning tili va uslubiga kelsak u asosan jiddiy, publitsistik uslubda yoziladi. Hisobotda ayrim o'xshatish, jonlantirish, obrazlilik ham joy olishi mumkin. Ammo bu vositalar hisobotning umumiy mazmuni, undan chiqariladigan publitsistik xulosaga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim hollarda adabiy-badiiy yoki hajviy uslubda yozilgan hisobotlar ham uchraydi.

Hozirgi davr o'zbek jurnalistikasi, radio va televideniyesida hisobot janri keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu janr mamlakatimizda yuz berayotgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy voqealar, Oliy Majlis sessiyalari, hukumat idoralari, vazirliklar, jamoat tashkilotlarida bo'lib o'tadigan muhim anjumanlar, ommaviy tadbirlar va boshqa muhim voqea va hodisalarni yoritishda xizmat qilmoqda. Quyida biz hisobotning ayrim ko'rinishlari bo'yicha misollar keltiramiz:

Rasmiy hisobot:

### **Komissiya yig'ilishi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida Axborot faoliyati va ma'lumotlar uzatishni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish

bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda mazkur komissiyaning 2005-yilgi rejasi asosida milliy radiochastotalar resurslaridan samarali foydalanish ishlari to'g'risidagi hisobot tinglandi. Shuningdek, davlat aloqa inspeksiyasining 2005-yil birinchi yarmidagi ish yakunlari, teleradiodasturlar tarqatish bilan shug'ullanadigan xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektlar monitoringining Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida monitoring markazi tomonidan taqdim etilgan natijalari ham ko'rib chiqildi.

Yig'ilish ishtirokchilari hukumatimizning ommaviy kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish va teleradio ko'rsatuvlari sohasida radiochastotalar spektridan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari ijrosi bilan bog'liq masalalarni ham muhokama etdi. Muhokama chog'ida bu boradagi ijro intizomini mustahkamlash muhimligi qayd etildi.

Komissiyaning ishchi guruhi avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi to'g'risidagi axborotni taqdim etdi. Teleradio dasturlarini tarqatish bilan shug'ullanadigan qator xo'jalik yurituvchi subyektlarning qo'shimcha kanallar ochish hamda eshittirishlarning hududiy ko'lamini kengaytirish haqidagi arizalari, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlarni ro'yxatga olish va qayta ro'yxatdan o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Muhokama etilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

V.Nikolaev. O'zA muxbiri.

Xulosa qilib aytganda, hisobot janri hayotning shu kundagi eng muhim voqealarini, bo'lib o'tgan muhim anjuman va boshqa hodisalarni yoritishda gazetalar, jurnallar hamda radio va televideniye uchun qo'l keluvchi dolzarb janr sifatida xizmat qilib kelmoqda.

### **Hisobot bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Jurnalistika hisoboti degan iborani sharhlang.*
2. *Hisobot shaklan necha xilga bo'linishini ta'riflab bering.*
3. *Rasmiy yoki muammoli, tahliliy hisobot haqida so'zlab bering.*
4. *Hisobotlar turlarini sanang.*

5. *Sharhli hisobotga misol ayting.*
6. *Gazeta-jurnal hisoboti bilan televideniye va radio hisoboti orasidagi farqni bilasizmi?*
7. *Adabiy-badiiy yoki hajviy uslubdagi hisobotlarni sharhlang.*

### **Hisobot bo'yicha nazorat savollari**

1. *Qisqa va batafsil hisobotni tushuntirib bering.*
2. *Rasmiy va norasmiy hisobotga misol keltiring.*
3. *Hisobotlarning umumiy hamda biror mavzuga qaratilgan turlari haqida aytib bering.*
4. *Radio va telehisobotning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?*

### **8.3. Intervyu**

Ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladigan axboriy janrlardan biri intervyudir. Bu so'z inglizcha bo'lib "so'rab olish, surishtirish" degan ma'noni bildiradi. Mazkur janrning jurnalistikada keng uchrashining sababi shundaki hayotdagi har bir fakt, voqea va hodisaning qanday bo'lib o'tganligi, tafsiloti odatda shu faktdan xabardor bo'lgan, voqea, hodisani ko'rgan-bilgan odamlardan so'rab-surishtirib bilinadi, keyingina biror janrdagi jurnalistika materialiga asos bo'ladi. Shu boisdan so'rash, surishtirish avvalo, hayotni bilish vositasi bo'lsa, uning jurnalistikadagi aksi esa axboriy publitsistikaning eng muhim, keng tarqalgan, ommabob janri hisoblanadi. Bu janr jamiyat hayotining barcha — ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotining barcha sohalarida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda u ommaviy axborot vositalari — gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, axborot agentliklari, internetdan doimiy joy olib keladi. Avvalo intervyu rasmiy va norasmiy xillarga bo'linadi. Rasmiy intervyular asosan hukumat rahbarlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan biror muhim voqea — rasmiy uchrashuv, safar, yirik anjuman va zarur sanalarga va boshqa davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlarga bag'ishlanib o'tkazilgan press-konferensiyalardan beriladi. Norasmiy intervyu esa jurnalistlar tomonidan u yoki bu voqea, hodisa haqida yoziladi.

Intervyu shakl jihatidan ikki xil — axboriy va tahliliyga bo‘linadi. Axboriy intervyuda so‘rov, surishtiruv natijasida olingan fakt, aniqlangan voqea va hodisa haqida xabar qilinadi hamda bu xabar, axborot kim tomonidan aytilganligi, fakt va ma‘lumotlar kimdan olinganligi aytilib, qisqacha tarzda berilishi mumkin.

Bu jihatdan u xabar janriga yaqin turadi. Tahliliy intervyu esa suhbat deb ataladi va unda tahliliy publitsistika xususiyatlari asosiy o‘rin egallaydi. Shuni ta‘kidlash lozimki, ko‘p hollarda intervyuning axboriy va tahliliy xususiyatlari birlashib ketishi, ya‘ni u orqali ham xabar va ma‘lumotlar berilishi va fikr–mulohazalar bildirilishi ham mumkin.

O‘z tuzilishi jihatidan intervyu ikki xil- intervyu dialog va intervyu monolog shaklida ham bo‘lishi mumkin. Intervyu dialogda muxbir va suhbatdosh o‘zaro savol-javob qilishadi. Bu savol-javob tayyorlamish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri og‘zaki ko‘rinishda yoki yozma savol-javob tarzida olib boriladi. Respublikamizning mashhur kishilari, fan arboblari, yozuvchilar, san‘atkorlar, ishlab chiqarish ilg‘orlari, tadbirkorlardan olingan intervyular jurnalistikamizda, radio va televideniyeda turli ruknlar ostida tez-tez berib boriladi.

Ko‘rinib turibdiki, intervyu janrining bu asosiy ko‘rinishi jamiyat hayotining barcha muhim tomonlari haqida xabar berishda keng qo‘llaniladi.

Intervyuning ikkinchi bir ko‘rinishi intervyu monolog bo‘lib, unda muxbir bergan birgina savolga suhbatdosh tomonidan berilgan javob o‘z aksini topadi. Bunday intervyu odatda hayotdagi birorta muhim ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy masala yoki muammoni yoritish uchun qo‘llaniladi. Bunda suhbatdoshning javobi uning tilidan yoki jurnalistning tilidan, sharhlanib berilishi mumkin. Bunday intervyu odatda hajm jihatdan dialog-intervyudan kichikroq bo‘ladi.

Intervyuning yana bir shakli jurnalistika anjumani — press-konferensiyalardan olinadi va ularda ommaviy axborot vositalari muxbirlariga hayotning muhim masala va muammosi haqida ma‘lumot beriladi hamda jurnalistlarning savollariga javob qaytariladi. Bu usul umumjahon miqyosida keng qo‘llanilib kelinadi. Respublikamizda ham

ijtimoiy hayotning muhim masalalari bo'yicha press-konferensiyalar muntazam ravishda o'tkazib turiladi.

"To'g'ridan-to'g'ri muloqot" rukni ostida beriladigan intervyularda esa biror bir davlat arbobi ko'pchilikning savollariga javob beradi. Bunday o'ziga xos intervyu ko'pincha radio va ayniqsa televideniye orqali o'tkaziladi. Biror mavzu bo'yicha ko'cha-ko'yda o'tkinchilardan fikr so'rash, sud jarayonida intervyu olish ham ana shular jumlasidandir. Shuningdek, tahririyatga kelgan xatlar, maxsus so'rovnomalarni tarqatish orqali savollarga javob olib borish ham mazkur janrning muhim ko'rinishlari hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, intervyu janri turli, rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lib, ular ijtimoiy hayotni keng va chuqur yoritish, undagi muhim fakt, voqea va hodisalardan o'quvchilarni xabardor qilish, jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qiladi. Eng ommabop, tezkor va ta'sirchan bu janr jurnalistdan juda katta mehnat, topqirlik va mahorat talab qiladi. Jurnalist avvalo hayotni muttasil kuzatib borishi, undan ijtimoiy ahamiyatli, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan fakt, voqea va hodisalarni qidirib topishi, ular haqida kengroq ma'lumot bera oladigan odamlarni aniqlashi, ularni suhbatga tortishi, hamda zarur ma'lumotlarni o'la bilishi lozim. Intervyuni yozish (tayyorlash) chog'ida jurnalist avvalo faktlarning aniqligi, voqea, hodisa tafsilotlarining haqqoniyligiga e'tibor berishi lozim.

Intervyuning qaysi shaklda yozilishi uning qaysi mavzu, masala va muammoga bog'ishlanganligi, ijtimoiy ahamiyatga bog'liq.

Jurnalist intervyu olishda ma'lumot olayotgan odamga o'sha voqea-hodisaning mohiyatini ochish uchun zarur bo'lgan savollarni o'z vaqtida bera olishi va ularga tegishli javob o'la bilishi lozim. Jurnalist mo'ljalga uradigan, qisqa, lo'nda savollar berib, suhbatdoshdan ham shunday javob olishga erishishi muhim. Keraksiz tafsilotlar, ortiqcha so'zlar intervyu uchun to'g'ri kelmaydi, uning ahamiyatini pasaytiradi. Eng muhimi ko'pchilikka, jamoatchilikka yangilik, yangi fakt, yangi ma'lumotlar yetkazishdir.

Intervyuning kompozitsiyasiga kelsak uning qay tarzda tuzilishi yuqorida aytganimizdek uning mavzusidan va jurnalist tomonidan tanlangan shakldan kelib chiqadi. Bu borada tayyor, ko'p uchraydigan

shablon tuzilishlardan qochib, original, ijodiy uslub topilishi lozim. Intervyuning tili va uslubi masalasiga kelsak u odatda jiddiy, publitsistik tilda yoziladi.

Intervyu janri jahon jurnalistikasining asosiy janri hisoblanadi. Dunyoda chiqib turadigan deyarli barcha gazetalar, jurnallar sahifalarida bu janrga oid materiallarni ko'plab o'qish mumkin. O'tgan asrning oxirlarida rus jurnalistikasida faoliyat ko'rsatgan mashhur jurnalist V.Peskov intervyu janrining ustasi edi. Uning «Komsomolskaya pravda» gazetasining deyarli har sonida bosiladigan qisqa, lo'nda, ammo sermazmun intervyularini gazetxonlar qiziqib o'qirdilar.

Jurnalistning 1962-yil 12-aprelda koinotga uchirilgan birinchi kosmonavt Yu.Gagarindan olgan intervyusi insonning koinotga chiqishidek tarixiy voqeaning buyuk mohiyatini ochib bergan qisqa, yorqin asar sifatida jurnalistika tarixida qolgan edi.

O'zbek jurnalistikasida ham intervyu janri o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bu janrning ham ustalari mavjud. O'tgan asrning ikkinchi yarmida "Qizil O'zbekiston" gazetasida faoliyat ko'rsatgan jurnalist Abdulla Po'latov ham bu janrning ustasi sanalar edi. U har kuni gazeta uchun biror qiziqarli, "tesha tegmagan" yangilik topish uchun tinmay izlanar, ter to'kardi. U gazeta sahifalarida yoritilgan ana shunday ijodiy yorqin intervyulari, xabarlari uchun o'z kasbdoshlari tomonidan "axborot qirol" deb nom olgan edi.

Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi, radio va televideniyesida shu kunda ham intervyu janridan keng foydalanib kelinmoqda. Bu ommabop janr respublikamiz ommaviy axborot vositalari uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sohalardagi eng dolzarb, qiziq va kerakli fakt va ma'lumotlarni o'quvchiga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. "Xalq so'zi" gazetasining 2005-yil 31-avgust sonida jurnalist U.Hakimjonovning mashhur o'zbek bokschisi Muhammadqodir Abdullaevdan olgan intervyusi o'rin olgan. Unda muxbir bokschiga qisqa-qisqa savollar beradi va shu xilda javoblar oladi. Bu materialda o'zbek sport ustasining chet ellardagi boks bo'yicha bo'lgan "jang"larda erishgan yuksak natijalari va uning kelgusidagi rejaları yorqin bayon etib berilgan. "O'zbekiston ovozi" gazetasining 2005-yil 30-iyul sonida bosilgan "San'atkor bilan uchrashuv"

deb nom olgan intervyusi esa san'at masalalariga bag'ishlangan. Jurnalist F Fayziev taniqli san'atkor Muyassar Razzoqovadan uning ijodidagi yangiliklarni so'rab biladi va gazetxonlarga ma'lum qiladi.

Intervyu radio va televideniyeining ham eng ko'p qo'llaniladigan, doimiy janri hisoblanadi.

### **Intervyu bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Intervyu so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
2. *Intervyuning xillarini bilasizmi?*
3. *Intervyuning shakl jihatiga bo'linishi haqida nima bilasiz?*
4. *Intervyuning tuzilishi jihatidan bo'linishini ayting va ularni sharhlang.*
5. *Press-konferensiyalardan olingan intervyular haqida so'zlab bering.*
6. *"To'g'ridan-to'g'ri muloqot" rukni ostidagi intervyuga misollar keltiring.*
7. *Nega intervyuni eng ommabop, tezkor va ta'sirchan janr deymiz?*
8. *O'zbek jurnalistikasida intervyuga misollar ayting.*

### **Intervyu bo'yicha nazorat savollari**

1. *Rasmiy va norasmiy intervyuga misol ayting.*
2. *Axborot va tahliliy intervyu haqida fikringiz.*
3. *Intervyu-dialog hamda intervyu-monologni sharhlang.*
4. *Biror mavzu bo'yicha ko'cha-ko'yda o'tkinchilardan fikr so'rash, sud jarayonida intervyu olish haqida fikringiz.*
5. *Maxsus so'rovnomalar tarqatish orqali savollarga javob olishning ko'rinishlari.*
6. *Intervyuning tili haqida nima deysiz?*

## **8.4. Reportaj**

Axboriy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri reportajdir. Reportaj so'zi lotincha reportare – yetkazib berish degan ma'noni bildiradi.



Reportaj – voqea, hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi axboriy janr. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalar umumiy, ya’ni qayd etish tarzida bayon etilsa reportajda fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o’sha voqea, hodisa bo’lib o’tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to’ppadan-to’g’ri xabar beriladi, boshqacha qilib aytganda hayot voqealari qayd etilmaydi, balki harakatda, jonli tasvirlanadi, hamda bu jarayonda jurnalist bevosita ishtirok etadi. Qisqacha qilib aytganda reportaj — jonli axborotdir. Axborotning bu ommabop janri bilan shug’ullanuvchi, ya’ni reportaj yozuvchi (olib boruvchi) kishilarni reportyor (yoki sharhlovchi) deyiladi.

Reportaj axborotning o’ziga xos, jonli ko’rinishi bo’lganligi boisidan unda axborot berish, xabardor qilish bilan bir vaqtda tasvirlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi xususiyatlar ham mavjud. Ya’ni, reportajda xabar, hisobot janrlarining ko’rinishlari ham o’z ifodasini topadi. Shu bilan birgalikda unda fakt, voqea va hodisalar haqida ularning ishtirokchilaridan so’rab-surishtirish, fikrlarini bilish ham talab etiladi. Bu esa reportajda suhbat (intervyu) janri xususiyatlari ham bo’lishini ko’rsatadi. Voqea, hodisalar haqida bevosita, to’ppa-to’g’ri xabar berish, tasvirlash talabi esa mazkur janrda badiiy adabiyotning hikoya janriga xos bo’lgan tasviriy vositalar ham qo’llanilishini talab etadi. Bu esa o’z navbatida jurnalistika bilan adabiyotning bir-biriga yaqinligi, ikkalasi ham hayotni tasvir etishda so’zdan foydalanishidan kelib chiqadi. Ammo jurnalistikaning boshqa janrlari kabi reportajning bosh xususiyati, unga qo’yiladigan asosiy talab uning publitsistikligidir. Jurnalist (reporter) reportajda avvalo jamiyatning shu kuni, ayni zamoni uchun ijtimoiy ahamiyatli fakt, voqea va hodisani tanlab oladi hamda unga shu kun, ayni zamon nuqtai nazaridan yondashadi, tasvirlaydi, tahlil qiladi va jamiyat uchun zarur, kerakli publitsistik xulosalar chiqaradi. Bu esa reportajda axboriy, xabardor qilish xususiyati bilan birlikda unda ma’lum darajada tahliliy tomonlari ham borligini ko’rsatib turadi. Ya’ni, reportaj sharh bilan yaqin turganligi boisidan reportyorlarni sharhlovchilar ham deb yuritiladi.

Reportaj jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma’naviy hayotining barcha sohalarini qamrab

olishi, o'zida aks ettirishi mumkin. Ya'ni, reportaj muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar yuz berayotgan joylardan, paxta dalalaridan, sanoat korxonalaridan olib borilishi, ommaviy madaniy-ma'naviy tadbirlar, masalan, bayramlar, sport musobaqalari haqida hikoya qilishi mumkin. Shu bilan birgalikda reportaj kundalik, oddiy voqealar haqida emas, o'z ijtimoiy ahamiyat jihatidan yangilik bo'lgan, endi voqea bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi.

Reportaj aks ettirayotgan obyektini nuqtai nazaridan voqiy reportaj, mavzuiy (tematik) reportaj, muammoli reportaj, reportaj – sharh kabilarga bo'linadi. Voqiy (voqeband) reportaj hayotda yuz bergan biror muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy-ma'naviy voqea va hodisa haqida hikoya qiladi. Bunga mamlakat hayotida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar — parlament majlisi, hukumat rahbarlarining rasmiy safarlari va uchrashuvlari, yirik anjumanlar haqidagi reportajlar misol bo'la oladi. Shuningdek, mamlakat hayotida yoki chet ellarda yuz bergan muhim favqulodda hodisalar – urush ko'rinishlari, terroristik hodisalar, tabiat hodisalari va boshqalar haqidagi reportajlar ham shu turga kiradi.

Mavzuiy reportajlar esa ma'lum mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Masalan, jurnalist (reporter) jamiyat hayotidagi biror bir mavzu, masalan, biror shifoxonaning faoliyati, ilmiy muassasalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, yoki bolalarning yozgi dam olishlari kabi va boshqa mavzularni o'rganib, o'sha joylardan reportaj olib borishi mumkin. Bunday reportajlar shu sohada olib borilayotgan ishlarni yoritadi, turli ilmiy, ishlab chiqarish jarayonlari haqida hikoya qiladi. Albatta, bu xil reportajlarda ham bu janrning asosiy xususiyatlari, shu jumladan publitsistik tadqiqot asosiy o'rin tutadi.

Muammoli reportaj esa hayotning ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy-ma'naviy muammolarni yoritishga bag'ishlangan bo'ladi.

Masalan, jurnalist hayotda uchraydigan giyohvandlik, ichkilikbozlik yoki biror boshqa noxush hollar haqida maxsus reportajlar tayyorlashi mumkin. Bunda u shu sohadagi fakt, voqea va hodisalarni chuqur o'rganib, tahlil qilib bu muammolar haqida jamoatchilik fikrini uyg'otishi mumkin. Reportaj – sharh biror voqeani boshdan-oyoq tasvirlash, ko'rsatishga

bag'ishlanadi va o'sha voqeani sharhlab beradi. Bunga sport eshittirishlari, futbol sharhini misol keltirish mumkin.

Reportaj qaysi ommaviy axborot vositasida berilishiga qarab gazeta reportaji, jurnal reportaji, radioreportaj va telereportaj kabi xillarga bo'linadi. Bunda reportajning asosiy janr xususiyatlari saqlangan holda o'zida ommaviy axborot vositalarning turli ko'rinishlarga xoslik ham mavjud bo'ladi. Gazeta reportaji hajm jihatidan jurnal reportajidan farq qilishi mumkin. Jurnal reportajida esa gazeta reportaji singari tezkorlik talab etilmaydi, u biror voqea va hodisaning ichki mohiyatini ochib berishga, ya'ni, chuqur tahlilga asoslanishi mumkin. Gazeta va jurnal reportaji jurnalist (reporter)ning yuz bergan voqea va hodisani o'z ko'zi bilan ko'rib, voqif bo'lib keyin uni so'z bilan tasvirlab berishni talab qilsa radio va telereportaj ko'pincha to'ppa-to'g'ri efirga uzatiladi. Hayotni suratlar vositasida yorituvchi fotoreportaj ham o'ziga xoslikni, fakt, voqea, hodisalarni sinchkovlik bilan topib, aks ettirishni talab etadi.

Reportajning qaysi xili bo'lmasin unda jurnalistning bevosita ishtiroki, "men"i sezilib turadi. Chunki u real voqelik bilan o'quvchilar (tinglovchilar, tamoshabinlar) o'rtasidagi vositachi, o'ziga xos "kanal" hisoblanadi. Ya'ni, o'quvchi, radiotinglovchi, teletomoshabin bo'layotgan va hikoya qilinayotgan voqealarni jurnalist (reporter) ko'zi bilan ko'radi, idrok etadi. Bu esa jurnalistdan katta mas'uliyat va kasbiy mahorat talab etadi. Reporter voqea va hodisalar haqida oddiy xabar beruvchi emas, balki ularni tahlil etuvchi, baholovchi hamdir. Shu boisdan reportaj olib boruvchi jurnalist o'zi xabar qilayotgan, tasvirlayotgan voqeaning mohiyatini yaxshi bilishi, barcha tafsilotlaridan xabardor bo'lishi lozim. Masalan, hukumat rahbarlarining rasmiy safarlari, uchrashuvlar, yirik anjumanlar va boshqa ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi reportajlarda zarur ma'lumotlar oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim. Favqulodda voqealar, tabiat hodisalari haqidagi reportajlarda esa garchi tasvirlanayotgan voqealarning qanday rivojlanishi, qay xilda tus olishi oldindan ma'lum bo'lmasa-da, reportyor ularni ziyraklik bilan kuzatib borishi, biror muhim tafsilotni ko'zdan qochirmasligi, har bir ayrim ko'rinishlarni o'z vaqtida sharhlab, tahlil etib borishi lozim. Bayramlar, ommaviy tadbirlar va ayniqsa sport musobaqalaridan olib boriladigan reportajlarda ham jurnalist

yuz berayotgan voqealar, sport musobaqasi va o'yinlarning borishi, jamoalar tarkibi va boshqalarni sinchiklab kuzatishi, tomoshabinga sharhlab borishi kerak. (Sport o'yinidan olib boriladigan bu xildagi reportajlarda sharhga keng o'rin berilishi boisidan bu ishni bajaruvchi jurnalistlar sport sharhlovchilari deb nomlanadilar). Reportajning barcha xillarida yuqorida ta'kidlanganidek, haqqoniylik, aniqlik birinchi o'rinda turadi.

Reporter uchun o'zi olib borayotgan, yozayotgan reportajida faktlar, voqealar haqqoniyliги, barcha tafsilotlar ma'lumligi bilan bir qatorda yana bu fakt, hodisa va voqealar tafsilotidan eng muhimlari, asosiyalarini ajratib olish, ularni mushohada qila bilish ham talab etiladi. Bu esa jurnalistik topqirlik bilan publitsistik idrok orqali amalga oshiriladi.

Ya'ni, reporter o'zi tasvirlayotgan voqea va hodisalarni haqqoniy, umuminsoniy va milliy tamoyillar asosida, eng ilg'or insoniy tuyg'ular asosida baholay olishi, ulardan eng to'g'ri va zarur xulosalar chiqara bilishi lozim. Bu undan keng bilim, yuksak madaniyat va ma'naviyatni talab qiladi.

Reporter dan yuqorida keltirilgan xususiyatlardan tashqari yana alohida ko'ra bilish va ko'rganlarini mushohada qilgach jonli ta'sirchan qilib yoza bilish, (hikoya qila bilish) layoqati, o'tkir publitsistik iste'dod ham talab etiladi. Bu — reportaj uchun kerakli, o'z o'rnidagi iboralar topa bilish, tushunarli tilda ta'sirchan gapirib berish, hikoya qila olish demakdir.

Reportajning tili va uslubi uning mazmuni, material oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqadi. Rasmiy uchrashuvlar, anjumanlar haqidagi reportajlar asosan rasmiy-publitsistik tilda olib borilsa, favqulodda voqealar, tabiat hodisalari haqidagi va boshqa mavzulardagi reportajlar ana shu mavzu va voqealar uchun lozim bo'lgan tarzda olib borilishi (yozilishi) mumkin. Bunday reportajlarda kerakli o'rinlarda obrazli tasviriy vositalar, his-tuyg'uli o'rinlar ham bo'lishi mumkin. Jumladan sport musobaqalari, futbol, tennis, boks va boshqa sport o'yinlaridan olib borilayotgan reportaj-sharhlarda ham shunday bo'lishi mumkin. Bu — reportajning rang-barang janriy xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuni aytish kerakki, hayotni bevosita jonli tasvirlash uslubi publitsistikada asosiy o'rin egallashi bilan birlikda adabiyot va san'at

asarlari ham kirib borishi mumkin. Bunga misol sifatida reportaj usulida yozilgan roman, qissa, sahna asari yoki kinofilmlarni ko'rsatish mumkin.

Reportaj janri jahon jurnalistikasi tarixida keng qo'llanilib kelingan. O'zbek jurnalistikasiga bu janr asosan o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida kirib keldi. Mustaqil respublikamiz jurnalistikasida reportaj janri keng o'rin olib kelmoqda. Gazeta va jurnallarimizda bosilayotgan, radio va televideniye orqali berib borilayotgan reportajlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy – ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy islohotlar, hayotimizning keng jabhasi, xalqimizning yaratuvchilik mehnati o'zining yorqin aksini topmoqda.

“Xalq so'zi” gazetasining 2005-yil 1-sentyabr sonida O'zA muxbiri N.Ochilovning “Mangulikka muhrlangan xotira” sarlavhali reportaji bosilgan. Rasmiy tusda yozilgan bu reportajda poytaxtning Yunusobod mavzusida barpo etilgan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuida qatag'on qurbonlarini yod etish munosabati bilan o'tkazilgan marosim haqida hikoya qilinadi. Muallif o'z reportajini bu marosimning ijtimoiy tarixi haqidagi kirish so'zlari bilan boshlaydi:

“Istiqlol xalqimizga o'zligini anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklash va yanada boyitish, ona–Vatanimiz hurligi yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimizning porloq xotirasiga ehtirom ko'rsatish imkonini berdi,— deb yozadi u. Mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan minglab otabobolarimizning nohaq qoralangan muborak nomlari yana poklandi. Vatanimiz istiqloli yo'lida shahid ketgan qatag'on qurbonlari xotirasi abadiylashtirildi”.

Reportaj davomida mazkur anjumanning qanday o'tganligi tasvirlanadi va unda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning marosimda ishtirok etgan jamoatchilik vakillari va jurnalistlar bilan uchrashib, ular bilan respublikamiz hayotining muhim masalalari bo'yicha o'z fikr–mulohazalarini bildirganligi xabar qilinadi.

Gazetaning shu sonida O'zA muxbiri G'ulom Mirzoning “Ozod xalqning ulug' bayrami” sarlavhali reportaji ham berilgan. Unda muallif mustaqillikning 14 yilligi munosabati bilan poytaxtimizning Alisher Navoiy nomidagi milliy bog'ida bo'lib o'tgan bayram tantanalari haqida so'z boradi. Mazkur gazetaning 3–sentyabr sonida esa jurnalist

E Bolievning “Osmoni musaffo yurtga bayramlar yarashadi” degan reportaji bosilgan. Unda mamlakatimiz viloyatlari, shahar va qishloqlarida Mustaqillik bayramining qanday nishonlanganligi haqida hikoya qilinadi. Muallif o‘z reportajida intervyu janridan foydalanadi va viloyatlardagi muxbirlarning bayram tantanalari qanday o‘tganligi haqidagi xabarlarini unumlashtiradi. Yuqoridagi reportajlar bu janrning voqeaga bag‘ishlangan turiga kiradi. Ammo negadir respublikamiz jurnalistikasida joylardan olingan va hayotda bo‘ladigan turli voqealarga bag‘ishlangan reportajlar kam uchraydi. Bu achinarli hol, chunki butun dunyo jurnalistikasi sahifalarida reportaj deyarli birinchi o‘rinda turadi, o‘quvchilar hayotda shu kunda bo‘lib o‘tgan voqea va hodisalar bilan ana shu janr vositasida tanishadilar. O‘zbek jurnalistikasidagi bu kamchilik tezda tuzatilishi kerak.

### **Reportaj bo‘yicha reyting topshiriqlari**

1. *Reportaj so‘zining lug‘aviy ma‘nosini ayting.*
2. *Reportajning boshqa jurnalistika janrlaridan farqi nimada?*
3. *Reportajda ham xabar, ham suhbat janri xususiyatlaridan tashqari yana qanday tasviriy vositalar ishtirok qiladi?*
4. *Reportaj-sharh janriga misol keltiring.*
5. *Reportaj xillarini sanang.*
6. *Reportajning barcha xillariga qo‘yilgan talablarni izohlang.*
7. *Reportaj janrining ustalarini sanang.*
8. *Sizningcha reportaj janri qaysi OAVda ko‘p uchraydi?*

### **Reportaj bo‘yicha nazorat savollari**

1. *Reportajning bosh xususiyatini ayting.*
2. *Reportaj jamiyat hayotining qaysi sohalarini aks ettiradi?*
3. *Reportajning qanday turlarini bilasiz?*
4. *Voqiy reportaj bilan mavzuiy reportaj o‘rtasidagi farqni ayting.*
5. *Muammoli reportajga misollar keltiring.*
6. *Gazeta va jurnal reportaji bilan radio yoki televideniye reportaji o‘rtasidagi farqni ayting.*

---

## 9-BOB. TAHLILIIY PUBLITSISTIKA

Ma'lumki, jurnalistika ijtimoiy hayotni aks ettirishning bir ko'rinishi, uni bilish, tadqiq etish va unga qaytadan ta'sir etishning muhim vositasidir. Jurnalistikaning jamiyat hayotini bilish, tadqiq etishida publitsistikaning tahliliy qismi asosiy rol o'ynaydi. Tahliliy publitsistika axboriy – xabardor etish publitsistikasining tadrjiiy davomi bo'lib, u insoniyatning o'zini o'rab turgan dunyoni bilishdagi ikkinchi muhim qadami, real borliqning inson ongidagi in'ikosining ikkinchi qatlamidan kelib chiqadi. Inson tashqi dunyoni anglashda oddiydan murakkabga, yakkadan umumiyga qarab borishi tabiiy. Bu dunyoni bilishning induktiv (ko'rsatish, mo'ljalga olish) usuli bo'lib, fandagi ilmiy-tadqiqotlarda bosh o'rinni egallaydi. Inson o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan voqea va hodisalarni boshqalarga yetkazadi, xabar qiladi, hikoya qilib beradi, tasvirlaydi. Bu axboriy publitsistikaning kelib chiqishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-tarixiy hol. Ammo inson bu bilan chegaralanib qolmaydi, u hayotda ko'rgan, guvohi bo'lgan ayrim faktlarni bir-biriga qo'shadi, bir-biridan ajratadi, ularning kelib chiqishi sabablari va pirovard oqibatlarini bilishga intiladi, ularni baholaydi, ma'qullaydi yoki inkor qiladi va hokazo. Bu esa deduktiv (bilmoq, mohiyatni anglamoq) usul bilan dunyoni bilish, tahlil qilish, xulosa chiqarishdan iborat bo'lib, fan nazariyasining asosini tashkil etadi, publitsistikada esa uning tahliliy qismini tashkil etadi.

Agarda dunyoda mavjud bo'lgan fakt, yuz bergan voqea, hodisalar uning tashqi, ko'zga ko'rinib turgan yuz qatlamini tashkil etsa bu faktlarning asosi, voqea va hodisalarni asl mohiyati, obyektiv qonuniyati ularning ko'zga ko'rinmaydigan ichki, chuqur qatlamlarini hosil qiladi, odamzod bu qatlamga yetib borish, anglash uchun ikkinchi bir, oldingisidan chuqurroq bilish usuli – tahlil va tadqiqni ishga soladi. Ana shu qonuniyat tahliliy publitsistikada o'z ifodasini topadi. Agarda inson hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni jurnalistikadagi axboriy publitsistika janrlari orqali ko'rib, bilib, o'qib xabar topsa, tahliliy publitsistika orqali ichki mohiyatini bilib oladi, angalaydi, o'zi uchun zarur xulosalar chiqaradi, ijtimoiy faoliyatini belgilaydi. Ya'ni, axboriy publitsistika inson ongining ustki qatlamlariga etib kelsa, tahliliy publitsistika ongning chuqur

qatlamlariga kirib boradi va ta'sir ko'rsatadi, insonga olamni bildiradi, uni zarur tajribalar, nazariya, bilimlar bilan qurollantiradi.

Tahliliy publitsistika xuddi axboriy publitsistika singari hayotni tadqiq etishda fan, ilmning tekshiruv-tadqiqot, umumlashtiruv, yuqorida keltirilganidek, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanadi. Bu – fan bilan jurnalistikaning, publitsistikaning dunyoni bilishdagi bir-biriga yaqinligi, umumiy xususiyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ammo tahliliy publitsistikaning fandan, ilmiy tadqiqotdan farqi shundaki, u hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni umuman, ilmiy zarurat nuqtai nazaridan emas, balki jamiyatning shu kuni, ayni zamoni manfaatlarini nuqtai nazaridan o'rganadi, tahlil etadi. Shu bilan birgalikda u fan singari o'z sohasiga tegishli bo'lgan barcha fakt voqea va hodisalarni bir boshdan tekshirmaydi, balki shu kun, shu zamon uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhimlarini tanlab oladi va o'zida aks ettiradi. Ya'ni, u shu kun, shu zamoni shu kunida, shu zamon kishilari uchun aks ettiradi va jamoatchilik fikrini uyg'otishga harakat qiladi. Binobarin, tahliliy publitsistikaning bosh talabi ijtimoiy ahamiyatlilik, publitsistiklikdir.

Tahliliy publitsistika ijtimoiy borliqni aks ettirish ko'rinishlaridan bo'lmish adabiyot va san'at bilan ham yaqin aloqada bo'ladi, ulardagi ayrim tasviriy vositalaridan foydalanadi. Ammo u hayotni obrazlar vositasida tasvir etuvchi adabiyot va san'atdan hayotni tasvirlashda aniq va muayyan faktlarga asoslanishi hamda ma'lum ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishi, boshqacha qilib aytganda publitsistikaga oidligi bilan ajralib turadi. Tahliliy publitsistika ham xuddi axboriy publitsistika kabi jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. U ijtimoiy-siyosiy publitsistikada ham, iqtisodiy-ishlab chiqarish publitsistikasida ham, ilmiy publitsistikada ham hamda publitsistikaning boshqa sohalarida ham asosiy o'rin tutadi. Inson faoliyatining dunyoni bilish, ijtimoiy anglash borasidagi barcha sa'y-harakatlari, intilishlarida tahliliy publitsistika hoziru-nozirdir. Tahliliy publitsistika orqali inson jamiyat qonuniyatlarini o'rganadi, iqtisodiyot, fan-madaniyat, adabiyot va san'at va boshqa sohalarida mavjud bo'lgan turli masala va muammolardan ogoh bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, tahliliy publitsistika kishilarga ijtimoiy-siyosiy, huquqiy,



axloqiy, ilmiy, tarixiy, falsafiy, badiiy–estetik bilim beradi, ularni tarbiyalaydi.

Tashqi dunyoni bilishda, uning qonuniyatlarini anglab yetishda bilish quroli bo'lgan nuqtai nazar, g'oya va mafkura ham asosiy o'rinni egallaydi. Ya'ni, inson dunyoga qaysi nuqtai nazardan, qanday ta'limot, qaysi bir g'oya, mafkura asosida yondashadi – hamma gap shunda. Barcha fanlar, adabiyot-san'at singari publitsistika hamda yuqoridagi kabi ma'lum bir dunyoqarashga, ta'limotga, g'oya va mafkuraga asoslanadi. Uning muhim qismi bo'lgan tahliliy publitsistika eng haqqoniy, ilg'or taraqqiyparvar ta'limot, mafkura va g'oyalarga asoslangandagina hayotni to'g'ri, haqqoniy yoritadi va o'z ijtimoiy vazifasini muvaffaqiyatli ado etadi. Ya'ni, ilg'or, davr talablariga javob bera oladigan g'oya, mafkura va ta'limot tahliliy publitsistikani aniq, ravshan maqsadlarga yo'naltiradi, unga nimani va qanday tahlil etishni belgilab beradi. Aksincha, qoloq, eskirgan, zamon talablariga javob bermaydigan g'oya va qarashlarga asoslangan tahliliy publitsistika esa cheklangan bo'ladi va inqirozga uchraydi. Bunday publitsistik asarlar joy olgan jurnalistikani omma rad etadi, o'qimaydi.

Tahliliy publitsistika jurnalistikaning tahlil ijtimoiy vazifasini bajarishida xizmat qiladi. Shu boisdan u ommaviy axborot vositalarining barcha ko'rinishlarida keng qo'llaniladi.

Ammo ommaviy axborot vositalari ko'rinishlari o'z xususiyatiga qarab tahliliy publitsistikaga u yoki bu darajada, ko'proq yoki kamroq o'rin berishi mumkin. Masalan, gazetalar jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayotini yoritadi ekan, o'z sahifalarida axboriy publitsistikaga nisbatan ko'proq o'rin bergani holda tahliliy publitsistikaga nisbatan kamroq o'rin ajratadi. Journallar esa jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotining chuqur qatlamlarini yoritadi ekan tahliliy publitsistikaga gazetalarga nisbatan keng o'rin beradi. Radioeshittirishlar, televideniye va internetda tahliliy publitsistika axboriy publitsistika bilan deyarli teng o'rin oladi.

Tahliliy publitsistika axboriy publitsistika bilan uzviy bog'liq. Axboriy publitsistika materiallarida tahlil elementlari mavjud bo'lganidek tahliliy publitsistikada ham axboriy, xabardor etishlik xususiyatlari ham

mavjud. Publitsistikaning bu har ikki turi bir-birini to'ldirib keladi. Bu tahliliy publitsistikaning janrlarida ham o'z ifodasini topadi.

Hayotning chuqur qatlamlarini yoritishga mo'ljallangan tahliliy publitsistika o'ziga xos janrlarga ega. Bular korrespondensiya (kengaytirilgan xabar), suhbat, maqola, taqriz, sharh, xat kabilardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z janriy xususiyatlariga ega. Jumladan, korrespondensiya axboriy publitsistikani tahliliy publitsistika bilan bog'lovchi janr bo'lib, hayotdagi faktlar, voqea va hodisalar tahliliga bag'ishlanadi. Suhbat janri esa uning boshlang'ich ko'rinishi bo'lgan so'rab-surishtirish, intervyuning mantiqiy davomi hisoblanadi. Tahliliy publitsistikaning asosiy janri bo'lmish maqola esa jamiyat hayotining barcha sohalaridagi muhim masala va muammolarini aks ettirish, hayot voqealarini kengroq tushuntirish, sharhlab berish vazifasini bajaradi.

Taqriz janri ilm-fan, adabiyot va san'at asarlariga baho berish, ularni tahlil etishga mo'ljallangan.

Xat janri jamoatchilik fikrini uyg'otishning muhim vositasi sifatida ish ko'radi. Tahliliy publitsistikaning bu xildagi janriy rang-barangligi uning jamiyat hayotini barcha sohalarini qamrab olish va chuqur ijtimoiy qatlamlarga kirib bora olishdan iborat ijtimoiy vazifasidan kelib chiqadi.

Tahliliy publitsistika shu bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarini turli ko'rinishlaridan joy olishiga qarab jurnalistika, radio va televideniye tahliliy publitsistikasiga bo'linib ketadi va shunga binoan uning janrlari ham turlicha tus oladi.

Tahliliy publitsistikaning o'z ijtimoiy vazifasini muvaffaqiyatli bajara olishi uning qanday jurnalistikada ish ko'rishiga, qaysi mafkuraga xizmat qilishiga bevosita bog'liqdir. Yakka hukmdorlar manfaatiga xizmat qiluvchi jurnalistikada tahliliy publitsistika cheklangan bo'lib, o'sha hukmdorlar manfaatiga xizmat qiladi. Kommunistik jurnalistikada esa u yakka hokimlik vositasiga aylandi. Faqat demokratik tuzum hukm surgan jamiyat jurnalistikasidagina tahliliy publitsistika chinakam taraqqiyot uchun xizmat qiladi. O'z milliy mustaqilligiga erishgan va demokratik tuzum, adolatparvar fuqarolik jamiyati tuzish yo'lidan borayotgan respublikamizda tahliliy publitsistika umuminsoniy qadriyatlar, ilg'or

qarashlarni o'zida aks ettirib, jamiyat hayotining eng muhim masalalarini tahlil etib, jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qilib kelmoqda.

Gazetalarimiz, jurnallarimizda bosilayotgan, radio va televideniya e'lon qilinayotgan tahliliy publitsistika materiallarida shu kunimizning eng dolzarb masalalari o'z ifodasini topmoqda.

### **Tahliliy publitsistika bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Tahliliy publitsistika jurnalistikada qanday rol o'ynaydi?*
2. *Qaysi qonuniyat tahliliy publitsistikada o'z ifodasini topadi?*
3. *Tahliliy publitsistikaning fandan, ilmiy tadqiqotdan farqi nimada?*
4. *Tahliliy publitsistika adabiyot va san'atdan nimalarni oladi va nimasi bilan farqlanadi?*
5. *Tahliliy publitsistika qachon o'zining ijtimoiy vazifasini to'la bajara oladi?*
6. *Tahliliy publitsistika janrlarini ayting.*
7. *Maqola janri haqida nimalar bilasiz?*

### **Tahliliy publitsistika bo'yicha nazorat savollari**

1. *Inson hayotdagi fakt, voqea va hodisani bilishda tahliliy publitsistika qanday rol o'ynaydi?*
2. *Tahliliy publitsistikaning bosh talabi, ijtimoiy ahamiyati nimada?*
3. *Tahliliy publitsistika kishilarga qanday bilim berib, ularni tarbiyalaydi?*
4. *Korrespondensiya, suhbat, taqriz, sharh, xat janrlarini izohlang.*
5. *San'atda ko'proq qaysi tahliliy publitsistika janri ishlatiladi?*

## **9.1. Korrespondensiya**

Tahliliy publitsistikaning boshlang'ich janri korrespondensiyadir. Korrespondensiya so'zi lotincha **correspondance** degan so'zdan olingan bo'lib, joylardan yubozilgan xabar, pochta-telegraf orqali jo'natiladigan xat-xabar, ayrim idoralar o'rtasidagi yozishmalar degan ma'nolarni anglatadi. Tahliliy publitsistikada esa uning birinchi ma'nosi, ya'ni

joylardan yuborilgan xabar, hayotdagi fakt, voqea va hodisalar haqida yozilgan (tayyorlangan) jurnalistika materiali sifatida qoʻllaniladi.

Korrespondensiya tahliliy publitsistikaning axboriy publitsistika bilan bogʻlab turuvchi janrdir. Chunki uning asosida axborot, xabar yotadi. Faqat korrespondensiyada hayotdagi fakt voqea va hodisa haqida xabar qilibgina qolinmasdan ana shu fakt, voqea va hodisa haqida ancha keng, batafsil maʼlumot beriladi. Shuning uchun ham korrespondensiyani kengaytirilgan xabar ham deyiladi.

Korrespondensiyada shu bilan birgalikda faqat biror fakt, voqea va hodisa emas, maʼlum bir mavzuga doir bir necha fakt, voqea hodisalar aks etishi mumkin. Eng muhimi bu fakt, voqea va hodisalar oddiy tarzda qayd etilmasdan ular umumlashtiriladi va tahlil etiladi, bir-biriga solishtiriladi, baholanadi, maʼlum xulosalar chiqariladi. Yaʼni, bu oʻrinda jurnalistning hayotga, fakt, voqea va hodisalarga munosabati asosiy oʻrin tutadi. Shuning uchun ham bu janr axboriy-tahliliy janr hisoblanadi. U orqali hayotda yuz berayotgan fakt, voqea va hodisalarning ichki sabablari, mohiyati ochib beriladi, publitsistik xulosalar chiqarilib, jamoatchilik fikriga havola etiladi.

Korrespondensiyaning asosiy vazifasi hayotning bir parchasini jonli, taʼsirchan tasvirlash va tahlil etishdan iborat. Shu boisdan u lavha va reportajga oʻxshab ketishi mumkin. Uning bu janrlardan farqi – maʼlum mavzuga doir faktlar bilan chegaralanishi, tahlilning ana shu faktlarga qaratilishidir. Taʼbir joyiz boʻlsa korrespondensiyani hayotning koʻzga koʻrinib turgan tomonlariga asoslangan holda uning ichki qatlamlarini, chuqur mohiyatini ham bilib olishga tashlangan ilk qadam, razvedka deyish mumkin. Bunda fanda keng qoʻllaniladigan induksiya – oddiydan murakkablikka, yakkadan umumiyga borish usuli oʻz ifodasini topadi. Shunday qilib, korrespondensiya muallif hayotdan olingan faktlar tahlili asosida maʼlum bir mavzuni yoritib beruvchi publitsistik janrdir. Faktlar korrespondensiyaning asosini, poydevorini tashkil etsa publitsistik tahlil uning umumiy qiyofasini shakllantiradi. Korrespondensiya uchun hayotdan shu kun, shu davr uchun ahamiyatli, zarur va dolzarb mavzu va faktlar tanlab olinadi va undan shu kun, shu davr uchun kerakli xulosalar chiqariladi. Korrespondensiyada hayotdagi faktlar, voqea va hodisalar

tahlil etilar ekan, ularga ijobiy yoki salbiy yondashish mumkin, binobarin korrespondensiya ijobiy – ma'qullash yoki tanqidiy – inkor qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Fakt, voqea, hodisalarga baho berishda, ularni tahlil etib, xulosalar chiqarishda jurnalistning bilimi va dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Shu boisdan korrespondent o'z davrining ilg'or g'oyalarini egallashi, yuksak e'tiqodga, taraqqiyparvar dunyoqarashga ega bo'lishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, korrespondensiya avvalo ijobiy va tanqidiy xillarga bo'linadi. Shu bilan birgalikda korrespondensiya axboriy korrespondensiya va tahliliy korrespondensiyaga ham bo'linishi mumkin. Bu xil korrespondensiyalarning asosiy xususiyati ularda axboriy va tahliliy elementlarning qanchalik o'rin olganligidadir. Axboriy korrespondensiyada faktlar bilan tahlilning nisbati birinchi komponent foydasiga hal etilsa, tahliliy korrespondensiyada esa tahlil nisbatan ko'proq o'rin egallaydi.

Shuningdek, ma'lum mavzuga bag'ishlangan korrespondensiyalar turkumi ham mavjud:

Korrespondensiyalar hududiy jihatdan ichki va tashqi turlarga ham bo'linadi. Ichki korrespondensiyalarda mamlakatning ichki hayoti aks etsa, tashqilarida esa xalqaro hayot, chet ellarda yuz berayotgan voqea va hodisalar o'z ifodasini topadi.

Korrespondensiya janri jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotning barcha qirralari o'z aksini topadi. Korrespondensiyada asosan inson, uning ijtimoiy, yaratuvchilik faoliyati aks etadi. Unda inson, uning manfaati bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalar ko'tarilib chiqiladi va hal etiladi. Korrespondensiya jurnalistikada eng ommaviy janrlardan biri bo'lganligi boisdan ham bu janr mualliflari, korrespondensiya yozuvchilar va tayyorlovchilar korrespondent — muxbir degan ommaviy jurnalistik kasb egasi hisoblanadilar.

Ommaviy axborot vositalarining turli xillarida korrespondensiya turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Bu janr asosan gazeta va jurnallarda keng o'rin oladi. Radio va televideniya korrespondensiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va ko'pincha radioaxborot, teleaxborot deb

ataladi. Ommaviy axborot vositalarining elektron texnikaga asoslangan butunlay yangi ko'rinishi – internetda ham korrespondensiya asosiy o'rin tutadi.

Korrespondensiyalarning turli xillari o'rtasidagi chegara nisbiy bo'lib, ularda bir-birlarining xususiyatlari bir-birlariga o'tishi mumkin. Ulardagi eng muhim va bosh xususiyat - hayot faktlarining umumlashtirilishi va publitsistik tahlil etilishidir. Eng muhimi – jurnalist tomonidan mavzuni aniqlab olish, muammo qo'ya bilish, isbotlash va ishontirishga erishishdir.

Korrespondensiyaning tuzilishiga kelsak, odatda u mavzu — maqsadga kirish, faktlar, voqealar bayoni va ular tahlilidan kelib chiquvchi xulosa — fikrlar shaklida bo'ladi. Korrespondensiyaning ikkinchi bir xilida esa jurnalist ma'lum biror xulosani oldin keltirib, keyin bunga mos faktlarni ham keltirishi mumkin. Bu tahliliy publitsistikaning keyingi bir janri – maqolaga yaqin turadi. Korrespondensiyada hayotni jonlantirish uchun reportaj, lavhaga xos xususiyatlar ham o'z ifodasini topishi mumkin. Korrespondensiyaning tili va uslubi masalasiga kelganda u jonli, publitsistik tilda yozilishi lozim. Obrazli iboralar va boshqa tasviriy vositalar juda me'yorda, o'ta zarur hollardagina qo'llaniladi. Ayrim hollarda jurnalist jiddiy tahlil bilan birlikda his-hayajon, ehtirosga ham o'rin berishi mumkin. Unda jurnalistning ichki dunyosi, "men"i reportajdagi kabi to'la emas, eng zarur o'rinlardagina ifoda etiladi. Bu jihatdan korrespondensiyaning hayotni o'rganish, uning ichki qatlamlariga kirib borishini jiddiy razvedkaga qiyos qilsa bo'ladi. Hajviy nashrlarda bosiladigan tanqidiy korrespondensiyalarda esa kulgi, fosh qilish elementlari ham ishtirok etishi mumkin.

Korrespondensiya janri jurnalistika paydo bo'lgandan beri qo'llanilib kelinadi. O'zbek jurnalistikasida ham u dastlabki davrlardan beri kengaytirilgan xabar yoki kichik maqola shaklida keng o'rin olib kelgan. Hozirgi o'zbek jurnalistikasida — gazeta va jurnallarda hamda radio va televideniya korrespondensiya mamlakatimizda o'tkazilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirishda, hayotdagi muhim faktlar, voqea va hodisalarni ommaga yetkazishda kamarbasta bo'lib xizmat qilib kelmoqda. "Qishloq hayoti" gazetasi o'z sahifalarida korrespondensiya janriga keng o'rin beradi,

chunki bu janr gazetaga respublikamiz qishloqlari hayoti, joylarda olib borilayotgan qishloq xo‘jaligiga doir ishlarni yoritishda juda qo‘l keladi. Gazetaning 2005-yil 5-avgust sonida “Uyilajak xirmon salmog‘i bugungi mehnatimizga bog‘liq” sarlavhali korrespondensiya bosilgan, unga “Qashqadaryolik paxtakorlar ayni kunlarda shunday azmu qaror bilan mehnat qilishmoqda” degan kichik sarlavha qo‘yilgan. Muallif – jurnalist F.Bozorov o‘z korrespondensiyasini shunday boshlaydi:

“Bugun har bir paxtakorning yuragi jo‘sh urib, g‘o‘zani sug‘orish, kultivatsiya, chilpish ishlarini alohida bir ishbilarmonlik, alohida bir g‘ayrat–shijoat bilan davom ettirishmoqda. Yurtimizning janub quyoshidan nur emib, hosilga hosil qo‘shayotgan beadoq dalalarini aylansangiz ko‘nglingiz ravshan tortadi. Bu zamin odamlari tabiatiga xos ishchanlik, kuyunchaklik, dalasiga muhabbat tuyg‘ulari yana ham yorqin namoyon bo‘lmoqda. Qashqadaryo vohasi dehqonlarining avgust oyida – ekinni yasatadigan palladagi g‘ayrat–shijoatiga qiyos yo‘q”. Muallif korrespondensiya davomida o‘z fikrini isbotlash uchun vohadagi bir necha xo‘jaliklarda bo‘ladi va ularning “G‘o‘za qator oralarini begona o‘tlardan tozalash, har tup g‘o‘zani, har dona ko‘sakni saqlab qolish uchun” mehnat qilayotganliklari haqida hikoya qiladi.

Gazetaning shu sonida bosilgan “Parvarishni susaytirmagan dehqon yutadi” sarlavhali korrespondensiya ham yuqoridagi kabi ijobiy korrespondensiyadir. Uning muallifi jurnalist Q.Asqarov Andijon viloyatida g‘o‘za parvarishining qanday borayotganligini aniq misollar asosida ko‘rsatib beradi. I.Toshevning “Qulay va samarali” sarlavhali korrespondensiyasi esa (“Qishloq hayoti”, 2005, 2–avgust) joylarda shirkat xo‘jaliklarining fermer xo‘jaliklariga aylantirish ishlarining ahvoli haqida hikoya qiladi.

Gazetaning 2005-yil 5-sentyabr sonida bosilgan “Yer “bangi”ga aylanmoqda” sarlavhali material esa tanqidiy korrespondensiyaga misol bo‘la oladi. Jurnalist T.Ergashev unda Jizzax viloyatida yerlarning meliorativ holati buzilayotganligini, yerga keragidan ortiqcha sun‘iy o‘g‘itlar solinishi tufayli yerlar o‘ziga xos “bangi”ga aylanib qolayotganligi, ya‘ni unga yetarli darajada mahalliy o‘g‘itlar solinmayotganligi sababli hosildorlik pasayib ketayotganligini va boshqa

kamchiliklarni joylardan olingan aniq misollar bilan ko'rsatib beradi. Bunday korrespondensiyaning mo'ljalga borib tegishi va sohada ma'lum o'zgarishlar yasalishiga sabab bo'lishi turgan gap.

Afsuski, ko'pgina gazetalar mazkur janrga yetarli e'tibor berishmaydi, joylardan yozilgan, aniq, hayotiy faktlar asosiga qurilgan korrepondensiyalar kam beriladi. Holbuki faqat qishloq xo'jaligi emas, sanoat, savdo va hayotning boshqa sohaları hayotini yoritishda, ilg'or namunalarni tarqatish va kamchiliklarga qarshi kurashda korrespondensiyaning o'rni beqiyosdir.

### **Korrepondensiya bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Korrepondensiya so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
2. *Korrepondensiyani nega kengaytirilgan xabar deymiz?*
3. *Axborot korrespondensiyasi bilan tahliliy korrespondensiyani sharhlang.*
4. *Korrepondensiyaning asosiy vazifasini tushuntirib bering.*
5. *Korrepondensiya qaysi janrlarga o'xshab ketadi va nimasi bilan farqlanadi?*
6. *Fanda qo'llaniladigan induksiya oddiydan – murakkablikka, yakkadan – umumiyga borish usuli korrespondensiyada qo'llaniladimi?*
7. *Korrepondensiyaning xillarini ayting.*
8. *Korrepondensiyaning san'atdagi o'rni haqidagi fikrlaringizni so'zlab bering.*

### **Korrepondensiya bo'yicha nazorat savollari**

1. *Nega korrespondensiyani axboriy-tahliliy janr deymiz?*
2. *Korrepondensiyaning turlarini ayting va ularni izohlang.*
3. *Korrepondensiyani qaysi janr bilan solishtirish mumkin?*
4. *Korrepondensiyaning asosini nima tashkil qiladi?*
5. *Korrepondensiyaning umumiy qiyofasiga izoh bering.*
6. *Ijobiy va tanqidiy korrespondensiyalarni sharhlang.*
7. *Korrepondensiya janri qachon paydo bo'lgan?*
8. *Korrepondensiya janridagi maqolalardan misollar ayting.*



## 9.2. Suhbat

Tahliliy publitsistikada suhbat janri ham alohida o'rin tutadi va u axboriy janr – intervyuning mantiqiy davomi bo'lib, yoritilayotgan mavzuning mazmun–mohiyatini chuqur ochib berishi, tahliliy mulohaza va mushohadaga asoslanishi, hayotning chuqur qatlamlarini aks ettirishi bilan undan ajralib turadi hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga doir masala va muammolarini aks ettirishda ommaviy axborot vositalarining eng ommabop, eng ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi.

Suhbat hajm jihatidan intervyuga qaraganda kengroq bo'lib, unda suhbatdosh tomonidan aytilgan fakt, bildirilgan ma'lumot haqida batafsil, kengroq so'z yuritiladi, keltirilgan fakt, bayon etilgan voqea, hodisalar chuqurroq tahlil etiladi.

Suhbat janri mavzu jihatidan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Unda ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy–ishlab chiqarish, madaniy–ma'naviy, fan–texnika, adabiyot va san'at, sport va boshqa barcha ijtimoiy sohalar o'z ifodasini topadi.

Ommaviy axborot vositalarining barcha turlarida keng tarqalgan mazkur janrda ijtimoiy hayotning kichik bir masalasidan tortib to eng muhim masalalarini ham aks ettirishi mumkin. Olimlarning ilmiy ixtirolari, yozuvchi va shoirlarning yaratgan yangi asarlari va ijodiy faoliyatlari, mashhur san'atkorlarning hayoti va ijodi, mashhur sportchilar erishgan katta yutuqlar va boshqalar mazkur janr yordamida ommaga yetkaziladi. Davlat rahbarlari, jamoat arboblarning ijtimoiy hayotning muhim masalalariga bag'ishlangan fikr va qarashlari, siyosati ham ko'pincha suhbat janri orqali ifoda etiladi. Masalan, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning respublikamiz taraqqiyotining eng bosh masalalari haqida “Tafakkur” jurnali muharriri, “Turkiston” gazetasining bosh muharriri, “Turkiston-press” axborot agentligi va boshqa jurnalistika nashrlari muxbirlari bilan qilgan suhbatlari mazkur janrga doir.

Suhbat janri ham xuddi intervyu singari turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. U asosan ikki xil – suhbat dialog va suhbat monolog shaklida ko'p uchraydi. Tabiiyki suhbat dialog ikki kishi – muxbir va suhbatdoshning o'zaro savol–javobi tarzida bo'ladi. Bu ommaviy axborot

vositalarida eng ko'p uchraydigan ko'rinishi hisoblanadi. Bunda muxbirning suhbatlashilayotgan masalaning mohiyatini ilg'ab olishi va suhbat oqimini shunga qarab boshqarishi, mavzuni iloji boricha kengroq va chuqurroq ochib berishga qaratishi lozim bo'ladi. Gazeta va jurnallarimizning deyarli har bir sonlaridan, radioning kundalik eshittirishlaridan, televideniye ekranlaridan doimiy joy olib kelayotgan bu xildagi suhbatlarda jamiyatimiz hayotining barcha muhim sohalari olib borilayotgan ishlar, ilmiy izlanishlar, ijodiy yangiliklar, hal qilinishi lozim bo'lgan masala va muammolar o'z ifodasini topmoqda. Doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan jurnalistika konferensiyalari, yangi asarlarning taqdimotlari, turli muhim mavzularga bag'ishlangan davra suhbatlari va boshqalarni yoritishda ham suhbat dialogdan keng foydalaniladi. Radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlarda ham bu – muxbir va “qahramon” o'rtasidagi suhbat keng qo'llaniladi. Rasmiy ravishda o'tkaziladigan jurnalistika anjumanlari, press–konferensiyalar ham suhbat janri uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bir yoki bir necha shaxs bilan olib borilgan fikr almashish natijasida ko'pchilik bilan olib borilgan suhbat ham yozilishi mumkin. Suhbatning bu ko'rinishi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ommaviy axborot vositalarida “Yumaloq stol atrofida”, “Bahs, munozara” kabi va boshqa ruknlar ostida berib boriladi. “To'g'ridan-to'g'ri muloqot” rukni ostida beriladigan suhbatda esa biror bir davlat arbobi ko'pchilikning savollariga javob beradi. Tahririyatga kelgan xatlar, maxsus so'rov varaqalari, anketalar tarqatish orqali savollarga javob olish ham mazkur janrning muhim ko'rinishlari hisoblanadi. Suhbatning yakka shaxs fikr–mulohazalarini ifoda etuvchi monolog shaklida esa muxbirning bitta savoliga suhbatdosh atroficha javob berishi mumkin. Bunda ham shu kunning muhim masalalari, jumladan, qabul qilingan yangi qonunlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar, ishlab chiqarish sohasidagi yangi tajribalar o'z ifodasini topishi mumkin. Bunday shakldagi suhbat so'ngida muxbir sharhi ham ilova etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, suhbat janri turli, rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lib, ular ijtimoiy hayotni keng va chuqur yoritish, undagi muhim fakt, voqea va hodisalardan o'quvchilarni xabardor qilish,

jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qiladi. Bu janr jurnalistdan juda katta mehnat, topqirlik va mahorat talab qiladi. Jurnalist avvalo hayotni muttasil kuzatib borishi, undan ijtimoiy ahamiyatli, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan masala va muammolarni qidirib topishi, ular haqida kengroq ma'lumot bera oladigan odamlarni aniqlashi, ularni suhbatga tortishi, hamda zarur ma'lumotlarni ola bilishi lozim. Suhbatni tayyorlash jarayonida suhbatdoshga o'sha masala va muammolarning mohiyatini ochish uchun zarur bo'lgan savollarni berib, tegishli javob ola bilishi lozim. Suhbatda tilga olinayotgan masalalarning mohiyatini ochib bera olish, publitsistik ruhini topa bilish, jamoatchilikka yangi fikr va mulohazalar ayta bilish, zarur xulosalar chiqara olish jurnalistdan o'zi so'z yuritayotgan sohani chuqur bilishni, shu bilan birgalikda o'tkir so'z va qalam egasi bo'lishni talab etadi.

Suhbatning ichki tuzilishi uning mavzusidan va jurnalist tomonidan tanlangan shakldan kelib chiqadi. Bu borada tayyor, ko'p uchraydigan shablon tuzilishlardan qochib, original, ijodiy uslub topilishi lozim. Suhbatning tili masalasiga kelsak u odatda jiddiy, publitsistik tilda yoziladi. Zarur hollarda, materialning ta'sirchanligini oshirish uchun ayrim o'xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan, obrazli iboralardan foydalanish mumkin. Hajviy jurnalistika nashrlarida qo'llaniladigan hajviy-tanqidiy suhbatlarda esa hajviy til va uslub qo'llaniladi.

Jahon va o'zbek jurnalistikasida suhbat janrining ustalari ko'p. O'tgan asrning 70–80 yillarida rus jurnalistikasida faoliyat ko'rsatgan V.Peskov, T.Tess, G.Sagal va boshqalar suhbat janrining ustalari edilar. O'zbek jurnalistikasida suhbat janri bilan ko'pgina jurnalistlar shug'ullanadilar. Bular orasida jurnalist Anvar Jo'raboev alohida o'rin tutadi. U suhbat janrini o'zi uchun asosiy ijodiy janr qilib olib, turli mashhur kishilar bilan suhbatlashish uchun ataylab uzoq safarlarga borar va ko'p qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da ular bilan uchrashib, qiziqarli suhbatlar uyushtirar edi. Uning jahonga mashhur bo'lgan rus yozuvchisi Mixail Sholoxov, Dog'istondan chiqqan mashhur shoir Rasul Hamzatov, Lotin Amerikasining taniqli adibi M.Markes va boshqalar bilan qilgan suhbatlarini ko'pchilik qiziqib o'qigan edi. Hozirgi kunda ham suhbat janri jurnalistikamizda ko'p uchraydi. Atoqli adabiyotshunoslar

O.Sharafuddinov, N.Karimov va boshqalarning adabiy ijod va ijtimoiy hayotning muhim masalalariga doir suhbat janrida yaratgan asarlari bu borada alohida o‘rin tutadi.

Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi, radio va televideniyesida suhbat janridan keng foydalanib kelinmoqda. Bu ommabop janr respublikamiz ommaviy axborot vositalari uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy sohalaridagi masala va muammolarga jamoatchilik fikrini uyg‘otib, ularni hal etishda keng xizmat qilib kelmoqda. “Xalq so‘zi” gazetasining 2005-yil fevral sonida O‘zbekiston qahramoni, Yozuvchilar uyushmasining faxriy raisi, Abdulla Oripovning O‘zA muxbiri bilan qilgan suhbat bosilgan.

“El–yurtingga munosib bo‘l” deb nomlangan bu materialda adibning mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasidan olgan taassurotlari bayon etiladi. Suhbat monolog tarzida bo‘lib, uning qahramoni muxbir bilan muloqotda o‘z fikrlarini bayon etadi. “O‘zbekiston ovozi” gazetasining 2005-yil 9-avgust sonida jurnalist B.Hasanovning “Terrorchilikning payi qir qilishi lozim” degan mavzuda Respublika Senati Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasining raisi S.Safoev bilan suhbat bosilgan. Unda shu kunning muhim ijtimoiy–siyosiy mavzusi – terrorchilik va diniy ekstremizmga qarshi kurash masalalari hamda respublikamizning bu borada olib borayotgan siyosati bayon etib beriladi.

Dialog–suhbat tarzida yozilgan bu materialda mavzu har taraflama muhokama etilgan va uni o‘qigan gazetxon bu mavzuda to‘la ma’lumot olishi mumkin.

“Xalq so‘zi” gazetasining 2005-yil 7-yanvar sonida B.Ahmedovning “Plastik kartochka va hisob–kitob” sarlavhasi ostida mazkur janrga doir material bosilgan. Unda muxbir O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika protsessing markazi boshlig‘i V.Yu.Tyurin bilan suhbat qiladi. Dialog tarzida o‘tgan bu suhbatda mutaxassis muxbirning savollariga javob berarkan mamlakatimizda joriy etilayotgan bu yangi tizimning o‘ziga xos tomonlari, afzalliklarini ochib beradi. Gazetaning shu yil 1-iyul sonida “Asosiy maqsad – jazo tizimini erkinlashtirish” sarlavhasi ostida material bosilgan. O.Saidov qalamiga mansub bo‘lgan bu suhbat ham dialog tarzida yozilgan bo‘lib, unda

Respublika Adliya vaziri B.Mustafоеv muxbirning savollariga javob berish jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud tizimi va huquqiy islohotlarning qanday borayotganligini bayon etadi. Mazkur material tahliliy suhbatning yaqqol namunasi bo'lishi mumkin. «Allo, sizga bitta savolim bor» deb nomlanuvchi material esa suhbat janrining o'ziga xos turi – jamoa suhbatiga misol bo'la oladi. Chunki “Bevosita muloqot” rukni ostida berilgan bu materialda gazeta tahririyatiga telefon orqali murojaat qilgan tadbirkorlarning savollariga mutaxassislar javob berishgan va ularni gazeta muxbirlari I.O'tbosarov, H.Karimov, S.Haydarovlar olib borishgan va umumlashtirishgan. Bu ijodiy tashabbus natijasida vujudga kelgan material ko'pchilikka manzur bo'lgani shubhasiz.

“O'zbekiston ovozi” gazetasining 2005-yil 21-iyun sonidan joy olgan “Bola –oilaning guli, oila – jamiyatning tayanchi” deb nomlanuvchi material esa mazkur janrning “Davra suhbatlari” turiga mansub. Unda O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasining Markaziy kengashida yuqoridagi mavzuda o'tkazilgan anjumanda ko'tarilgan va turli mutaxassislar– olimlar, jamoat arboblari, oddiy oila vakillari bildirgan fikrlar o'z ifodasini topgan. Gazeta muxbiri Saida Sayxun ham suhbat janridan unumli foydalanuvchi jurnalistlardan biri hisoblanadi. Uning “Olam kiftida odam, odam kiftida olam” (Xalqaro “Ekosan” jamg'armasining prezidenti Yu.Shodimetov bilan), “Diyonat darddan asraydi” (Shifokor olim K.Yo'ldoshev bilan) qilgan suhbatlari muhim mavzularga bag'ishlanganligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz radioasi va televideniyesida ham suhbat janri doimiy ravishda berib boriladi. Bu –mazkur janrning ijtimoiy hayotni yoritishdagi eng zarur va dolzarb publitsistik janr ekanligini yaqqol isbotlab turibdi.

### **Suhbat bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Suhbat janri tafsilotlarini so'zlab bering.*
- 2. Suhbat janrida ijod etgan ustoz jurnalistlarni bilasizmi?*
- 3. O'zbek jurnalistikasi suhbat janrida ko'p ijod qilgan Anvar Jo'raboev ijodi haqida to'xtaling.*
- 4. Suhbat qanday turlarga bo'linishini sharhlang.*
- 5. Suhbat janrining asosiy vazifasi nimalardan iborat?*

6. *Suhbat janrining qaysi turida suhbat so'ngida muxbir sharhi beriladi?*

### **Suhbat bo'yicha nazorat savollari**

1. *Suhbat janridagi ba'zi materiallarni sanang.*
2. *Suhbat-monolog hamda suhbat-dialogga misollar keltiring.*
3. *Radiosuhbat qanday tayyorlanadi?*
4. *Telesuhbat xususiyatlarini aytib bering.*
5. *Suhbat janri OAV faoliyatida qanday ruknlar ostida berib borilishini bilasizmi?*

### **9.3. Maqola**

Tahliliy publitsistikaning markaziy janri - maqoladir. **Maqola** so'zi arabcha bo'lib, aytilgan so'z degan ma'noni bildiradi. Maqola deb jamiyat hayotining biror sohasi bo'yicha ma'lum bir masala, muammo ko'tarib chiqilgan publitsistik materialga aytiladi. Maqolada muayyan mavzu yuzasidan hayotdan olingan fakt, voqea va hodisalarni umumlashtirish asosida ma'lum bir fikrlar, taklif va mulohazalar oldinga suriladi, ilmiy, nazariy, amaliy va publitsistik — ijtimoiy-siyosiy xulosalar chiqariladi. Publitsistikaning bu janri insonning tashqi dunyoni bilishdagi eng muhim nazariy uslubi – deduksiya, tahlil, tadqiqotga asoslanadi. Agarda axboriy janrlar jamiyat hayotining ko'zga ko'rinib turgan tashqi jihatlari – yuz bergan voqea va hodisa, faktlarni aks ettirish, tahliliy publitsistikaning boshlang'ich janri bo'lgan korrespondensiya esa bu fakt voqea va hodisalarning sababi va oqibati, ya'ni mohiyatini bilish uchun olib borilgan dastlabki urinish, hayotning chuqur qatlamlariga kirib borish uchun qo'yilgan dastlabki qadamdan iborat bo'lsa, maqolani ana shu fakt, voqea va hodisalarning mohiyatini to'la ochib berish, hayotning eng chuqur qatlamlariga keragicha, lozim darajagacha kirib borish, maqsadga imkon darajasida to'la erishishga qiyos qilish mumkin. Ya'ni, maqola janrining asosiy xususiyati hayot voqea, hodisalari, faktlar majmuasini chuqur tahlil va tadqiq etish, ulardan zarur nazariy, amaliy va publitsistik xulosalar chiqarishdir. Boshqacha qilib aytganda maqola insonning dunyoni anglashdagi muhim quroli, bemiyl vositasidir.

Maqola janri jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotning barcha muhim masalalari o'z ifodasini topadi. Mazkur janrda jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayoti borasidagi fakt, voqea va hodisalar shu kun, ayni zamon uchun yoritiladi, boshqacha qilib aytganda maqola uchun eng muhim talab uning shu kun uchun zarurligi, publitsistikligidir.

Maqola ijtimoiy hayotning barcha sohalarini aks ettirar ekan, u o'z navbatida mavzu jihatidan turli xillarga bo'linadi. Bular — ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi maqolalar, iqtisodiy-ishlab chiqarishga bag'ishlangan maqolalar va madaniy-ma'naviy mavzularga tegishli maqolalardir.

Ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi maqolalar o'z navbatida ichki va tashqi mavzulardagi maqolalarga bo'linadi. Ichki mavzudagi maqolalar mamlakat ichki hayotini o'zida aks ettirsa, tashqi mavzulardagi maqolalar xalqaro hayot va boshqa mamlakatlarda yuz bergan voqealarga bag'ishlanadi. Maqolalar yana yozilish nuqtai nazaridan nazariy va amaliy maqolalarga bo'linadi.

Nazariy maqolalar har bir soha, mavzu yoki masalaning eng chuqur asosiy-nazariy masalalarini o'zida aks ettirsa, amaliy tarzidagi maqolalar ana shu nazariy masalalarni hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Maqola uchun mavzu qilib olingan masalaga qarash, jurnalistning hayotdagi fakt, voqea va hodisalarga munosabati nuqtai nazaridan maqolalar ijobiy yoki tanqidiy bo'lishi mumkin. Yozilish uslubi bo'yicha esa maqolalar ilmiy, adabiy-badiiy, publitsistik, hajviy va boshqa xillarga bo'linadi. Bu maqolalarning har biri o'z navbatida yuqorida zikr etilgan maqolalar xillariga taalluqli bo'lishi mumkin.

Maqolalar hajmiga qarab kichik yoki yirik maqola tarzida bo'lishi mumkin. Ma'lum mavzuga bag'ishlangan va bir paytda yozilgan maqolalarga esa maqolalar turkumi deyiladi.

Maqolalarning bunday xilma-xilligi publitsistikaning muhim qismi bo'lgan tahliliy publitsistikaning o'zida ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olishi va ilmiy-adabiy—publitsistik ijodning xilma-xil usullaridan keng foydalanishini ko'rsatadi. Binobarin, maqolada fanning, dunyoni bilishning umumlashtirish, tadqiqot kabi yo'llari bilan bir qatorda

adabiyot va san'atning obraz va obrazlilik, syujet, kompozitsiya va boshqa tasviriy vositalari ham o'z ifodasini topadi. Ammo uning eng muhim va birinchi o'rinda turuvchi uslubiy-ijodiy vositasi bu – publitsistik tadqiqot hisoblanadi.

Maqola asosan ommaviy axborot vositalarining gazeta va jurnal kabi ko'rinishlarida, shuningdek almanax, to'plam va kitoblarda asosiy o'rin oladi. Nazariy turdagi ilmiy, adabiy-badiiy va boshqa maqolalar asosan jurnallardan joy oladi. Gazetalarda ko'proq publitsistik maqolalar bosiladi. Ommaviy axborot vositalarining radio va televideniye kabi ko'rinishlarida maqola janri radio chiqishlar va televizion ko'rsatuvlar degan nom bilan o'z aksini topadi. Axborot agentliklar ham ayrim hollarda maqola janridan foydalanadilar. Internetda ham maqola beriladi, u sayt degan nom oladi.

Maqola qaysi xil va turda bo'lmasin ma'lum bir umumiy tuzilishga, kompozitsiyaga ega bo'ladi. Maqolada birinchi o'rinda unda oldinga surilayotgan fikr, aytilmoqchi bo'lgan ma'no turadi. Ya'ni, jurnalist hayotning ma'lum bir sohasi, ma'lum bir mavzu bo'yicha olib borgan kuzatishlari, topgan fakt va yangiliklari, bo'lib o'tgan voqea va hodisalar asosida o'quvchiga yangi bir fikr, yangi gap aytishi lozim. Bu esa muallifning bu sohani qanchalik yaxshi bilishi, uning barcha tomonlaridan xabardor bo'lishi, o'sha soha uchun qanday yangiliklar, yangi yechimlar taklif qila olishidan kelib chiqadi. Bu esa jurnalistdan o'sha soha bo'yicha chuqur ixtisoslikka ega bo'lishini talab qiladi. Masalan, sanoat haqida maqola yozish uchun shu sohaning yetuk mutaxassisi darajasida bilish, iqtisod sohasida yozish uchun esa iqtisodchi, huquq sohasida yozish uchun esa huquqshunos, san'atga oid maqola yozish uchun san'atshunos bo'lish, yoki bu sohani chuqur bilib olish shart. Bu talab hayotning barcha sohalari uchun ham taalluqlidir. Ammo bu yetarli emas. Maqola yozuvchi jurnalist o'sha sohaning mutaxassisi darajasida bilimga ega bo'lish bilan birgalikda mazkur masala hozirgi davr uchun, shu kun uchun nehog'lik ahamiyatli ekanligini, uning yechimi hayot uchun, taraqqiyot uchun qanchalik zarur ekanligini ham chuqur tushunishi, bilishi, his qilishi lozim. Bu esa – publitsistikaning bosh talabi, shuning uchun ham maqola tahliliy publitsistikaning asosiy janri hisoblanadi.



Maqola uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan fikr, mulohaza esa hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni umumlashtirish, tahlil va tadqiq qilish natijasida vujudga keladi. Fakt, voqea va hodisalarning tahlili esa maqolaning mavzusi, qaysi sohaga bag'ishlanganligi ya'ni tur va xiliga bog'liq. Chunonchi, ilmiy maqolada asosan ilmiy tadqiqot, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqolada esa ijtimoiy-siyosiy tadqiqot, adabiy-badiiy maqolada adabiy-badiiy tadqiqot va hokazo olib boriladi. Yuqoridagi tadqiqot turlari orasida publitsistik tadqiqot asosiy o'rin tutadi.

Ko'rinib turibdiki, axboriy publitsistikada markaziy o'rin tutuvchi fakt, voqea va hodisalar tafsiloti maqolada ma'lum bir fikr, g'oyani tasdiqlash uchungina xizmat qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi ijtimoiy hayotning u yoki bu muammolarini aks ettirish va jamoatchilik fikriga havola etishdir. Maqolaning tili va uslubi masalasiga kelsak u rasmiy, ilmiy, adabiy-badiiy, hajviy, publitsistik uslubda yozilishi mumkin, bu maqolaning mavzusi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi. Mazkur janrda adabiy-badiiy vositalar ham o'z o'rnida qo'llaniladi, masalan, ilmiy maqolada bunday vositalardan foydalanilmaydi. Ommaviy jurnalistika nashrlarida bosiladigan publitsistik maqolalarda bu vositalardan ma'lum darajada foydalanilsa, adabiy-badiiy jurnallarda beriladigan, ijtimoiy hayotni yorituvchi maqolalarda bu vositalar keng qo'llaniladi.

Binobarin, maqolaning til va uslubi, adabiy-badiiy vositalardan foydalanish maqolaning tipi va xiliga bog'liqdir. Maqola janri jurnalistikada juda qadimdan keng qo'llanilib keladi. Jahon jurnalistikasi, rus va o'zbek jurnalistikasida maqola janri ijtimoiy fikrning shakllanishi va taraqqiyotida, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning o'sishida katta rol o'ynab kelgan. Jumladan, Turkiston Milliy uyg'onish davri jurnalistikasida maqola milliy mustaqillik g'oyasining shakllanishi, mustamlakachilik zulmi, jaholat va qoloqlikka qarshi kurash, ma'naviyat va ma'rifatning taraqqiy etishiga xizmat qilgan. Atoqli o'zbek adiblari M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy va boshqalar vatan mustaqilligi, xalq erki uchun kurashda mazkur janrdan keng foydalanganlar.

Kommunistik tuzum davrida maqola janri yakka g'oya hukmdorligi uchun xizmat qilib keldi. Shuning uchun ham bu davrda bu janrning bosh maqola, propagandistik (targ'ib etuvchi) maqola kabi xillari o'ylab topildi va keng qo'llanildi. O'z milliy mustaqilligiga erishgan respublikamizda maqola janri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirishda, milliy istiqloq mafkurasini ommaga singdirishda, madaniyat va ma'rifat taraqqiyotida xizmat qilib kelmoqda.

«Xalq so'zi» gazetasining 2005-yil 7–sentyabr sonida pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Qurbonovning «Barkamol avlod: Tarbiya tizimining mas'uliyati» sarlavhali maqolasi bosilgan. Nazariy maqola tarzida yozilgan bu materialda mamlakatimizda ta'lim–tarbiya sohasida olib borilayotgan katta islohotlar, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bajarilish jarayonlari haqida so'z boradi. Muallif masalaga chuqur yondashib, uning mohiyatini ochib beradi. Gazetaning shu sonida bosilgan ikkinchi maqola – jurnalist Z.Ashurovaning «Baxt qo'rg'oni darz ketmasin» sarlavhali materiali esa amaliy–ijodiy maqola xiliga kiradi. Unda oilani mustahkamlash, farzand tarbiyasi masalalari hayotdan olingan fakt va misollar asosida ochib beriladi. Jurnalist M.Xolmatovanning gazetaning 2005-yil 7–yanvar sonida bosilgan «Bir hovuch suv» sarlavhali maqolasi ham yuqoridagi kabi ma'naviy mavzuda bo'lib, unda suvning tabiatdagi va inson hayotidagi o'rni, qimmatini bayon etiladi. Muallif o'z fikrlarini tasdiqlash uchun turli hayotiy voqealar, rivoyatlarga murojaat qiladi, obrazli vositalardan keng foydalanadi. Tarixchi olim M.Isomiddinovning «O'zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 4–aprel sonida «Moziy ibtidosi» rukni ostida bosilgan «Biz bilgan va bilmagan tarix» sarlavhali maqolasi esa ilmiy maqolaning namunasi bo'lib, unda respublika qadimshunos olimlari olib borayotgan ishlar, bu sohada topilgan yangiliklar haqida hikoya qilinadi. Maqola ilmiy–ommabop uslubda yozilganligi bilan gazetxonga ma'qul bo'lishi shubhasiz. Jurnalist O.Shodmonalievning «Tutorlar uvoli – pillachilik zavoli» sarlavhali maqolasi esa («Xalq so'zi», 2005-yil, 18 fevral) qishloq xo'jaligining muhim muammolaridan biri – respublikamizda pilla qurtini boqish uchun zarur bo'lgan tut daraxtlarini parvarish qilish, asrab–avaylash masalasiga

bag'ishlangan. Shoir Sirojiddin Sayyidning «Tajovvuz yoxud yana Tojikiston alyumin zavodi haqida» sarlavhali maqolasi («Xalq so'zi» 2005-yil, 13-sentyabr) tanqidiy ruhda bo'lib, unda qo'shni Tojikiston respublikasining Surxondaryo viloyatining janubiy hududlariga tutash joyida o'mashgan alyumin zavodidan chiqqan zaharli moddalar voha tabiati va aholisining hayotiga xavf solayotganligi ochib tashlanadi. Jurnalist B Egamqulovning gazetaning shu yil 22 fevral sonidan joy olgan «Tekshir–tekshir o'yini» sarlavhali tanqidiy maqolasi esa korxonada va muassasalarda o'tkazilayotgan o'rinsiz tekshirishlarning zarari masalasiga bag'ishlangan.

Maqolaning yana bir turi «Jurnalist tekshiruvi» deb nomlanadi va unda jurnalist hayotda uchraydigan biror salbiy voqea, holat va masala tadqiq qilinib, o'z munosabatini bildirilgan holda yoritiladi. Mazkur turdagi materiallarni alohida bir janr degan fikrlar ham mavjud. Ammo unda ham maqola janriga xos bo'lgan belgilar – hayotdagi fakt va voqealar chuqur tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilishi asosiy o'rin tutishi nuqtai nazaridan bu xildagi publitsistik asarlar ham maqola janriga oid, deb hisoblaymiz. «Jurnalist tekshiruvi» deganda mazkur materialning yozilish jarayonida qo'llanilgan usul ham tushunilishi mumkin, ammo bu o'rinda bu usul natijasida vujudga kelgan ijodiy mahsulot nazarda tutilayotir. «Xalq so'zi» gazetasining 2005-yil 14-sentyabr sonida jurnalist A. Haydarovning «G'at–g'at qilgan karnaychi» sarlavhali jurnalistik tekshiruvi bosilgan. Unda Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi «Yangi bozor» shirkat xo'jaligi a'zosiga xo'jalik rahbarlari ko'rsatgan nohaqliklar hikoya qilinadi. Uni gidronasosning ayrim qismlarini o'g'irlashda ayblaydilar va u katta qiyinchiliklar bilan o'zining haqligini isbotlaydi.

Materialda ayrim huquq xodimlarining masalaga bir tomonlama yondashib adolatsizlikka yo'l qo'yishlari ham ochib tashlangan.

X. Eshmatovning gazetaning shu yil 10 yanvar sonida bosilgan «Qo'l uchida tuzilgan shartnoma» jurnalistik surishtiruvida esa Toshkent shahar «Yakkasaroy aksiyadorlik jamiyatining 3–mineral suv ishlab chiqarish sex mudiri va jamiyat raisi bilan o'zi boshqarayotgan sexni o'z qaramog'iga olish bo'yicha shartnoma tuzganligi, keyinchalik esa jamiyat rahbarlari bu shartnomaga amal qilmaganliklari haqida so'z boradi.

Jurnalist masalaning mohiyatini tekshirib, nohaq sarson qilingan va huquqiy kamsitilgan fuqaroni himoya qiladi.

Gazetalarda «Jurnalist tekshiruvi» rukni ostida beriladigan maqolalar tez-tez uchrab turadi. Bu turdagi maqolalarning oddiy maqolalardan farqi shundaki ularda har bir fakt u katta yoki kichik, ahamiyatli yoki ahamiyatsiz bo‘lmasin albatta tekshirilishi va o‘z o‘rnida ishlatilishi lozim. Jurnalistning biror fakt yoki ma‘lumot yoxud voqeani bayon etishda yo‘l qo‘ygan xato va chalkashliklar keyinchalik yomon oqibatlariga – materialning tekshirilish jarayonida tasdiqlanmasligi va oqibatda jurnalistgina emas, uni o‘z sahifalarida e‘lon qilgan nashr ham javobgar bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, jurnalistikaning haqqoniylik tamoyili boshqa janrlardagi materiallardan ham ko‘ra bu janrda aniq va to‘la qo‘llanilishi talab etiladi. Maqola janri jurnallar sahifalaridan ham keng o‘rin olishi hammaga ma‘lum. Chunki ijtimoiy hayotning chuqur qatlamlarini yorituvchi bu jurnalistika turi uchun yuz berayotgan fakt va voqealarning mohiyatini ochib beruvchi bu janr qo‘l keladi. Maqola janri jurnallarning barcha turlaridan doimiy o‘rin oladi. Jumladan, ijtimoiy–siyosiy jurnal bo‘lmish «Tafakkur» jurnalining deyarli har bir sonida mamlakatimiz moddiy va ma‘naviy hayotining turli masalalarini aks ettiruvchi, shu kun uchun muhim va dolzarb muammolarni ko‘tarib chiquvchi maqolalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, mazkur jurnalning birgina – 2005 yil, 1–sonida bosilgan maqolalarga ko‘z tashlasak fikrimizning yaqqol isbotini ko‘rishimiz mumkin. Jurnal Respublika Ma‘naviyat markazining rahbari, publitsist Q.A`zamning «Milliy qadriyatlar: tiklanish zamon» sarlavhali maqolasi bilan ochiladi. «Millat va ma‘naviyat» rukni ostida berilgan bu maqolada jamiyatimizda yuz berayotgan ulkan ma‘naviy islohotlar, barcha sohalaridagi milliy qadriyatlarimizning tobora tiklanib, hayotimizga singib borayotganligi qator misollar bilan yoritib beriladi. Taniqli adabiyotshunos, O‘zbekiston qahramoni O.Sharafutdinovning «Yangi asr muammolari» rukni ostida bosilgan «Ekologiya va jurnalistika» sarlavhali maqolasida esa shu davrning eng hayotiy va dolzarb muammosi bo‘lmish tabiatni asrash masalasi qalamga olinadi. Adib o‘z maqolasida insoniyatni uni kutib turgan katta ekologik tanazzul va halokatdan ogoh qiladi: «XXI asr

insoniyat tarixidagi farovonlik va baxtiyorlik asri emas, balki odamzot yashaydigan soʻngi asr boʻlib qolsa ham ajab emas,— deb yozadi u. Buning uchun yer yuzida yadro urushi boʻlishi yoki bakteriologik qurollarni ishga solish shart emas. Buning uchun hozirgi ekologik tanazzulning oʻzi kifoya». Muallif bunga misol qilib Orol dengizining qurib qolishi, havoning ifloslanishi va tabiat ustidan keng miqyoslarda oʻtkazilayotgan zugʻumlarni misolga keltiradi.

Taniqli adabiyotshunos N.Karimovning jurnalning mazkur sonidan joy olgan «Asr tengdoshi» maqolasi esa ilmiy–adabiy maqola turiga misol boʻladi. Unda davrimizning atoqli adibi Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek ijodining yangi qirralari, u yaratgan asarlarning maʼnaviyatimizni yuksaltirishdagi oʻrni haqida soʻz boradi. Adabiyot tarixining sinchkov mutaxassisi I.Haqqulning «Ruhiyat saboqlari» rukni ostida bosilgan «Asrori Halloj» maqolasi esa IX asrda yashab oʻtgan mutavassuf arbob, johil ulamolar tomonidan oʻlimga mahkum etilgan Mansur Hallojning hayoti va qismati haqida boʻlib, jurnalxonga bu haqda qator yangi maʼlumotlar beradi. Jurnaldan shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va maʼnaviy hayotning boshqa turli masalalari haqidagi maqolalar ham oʻrin olgan. Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, maqola janri jamiyat hayotining chuqur qatlamlarini aks ettirish, undagi turli masalalar, muammolarni hal etishda gazeta va jurnallar hamda ommaviy axborot vositalarining boshqa turlari uchun ham qoʻl keladigan ommabop, taʼsirchan janrdir. Faqat, yuqorida aytib oʻtilganidek, radio va televideniya maqola janri boshqacharoq – radio va televizion chiqishlar nomi bilan ataladi.

### **Maqola boʻyicha reyting topshiriqlari**

- 1. Maqola soʻzining lugʻaviy maʼnosini ayting.*
- 2. Maqola janri nimaga asoslanadi?*
- 3. Maqola janrining asosiy xususiyatini tushuntirib bering.*
- 4. Ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi maqolalarga misollar ayting.*
- 5. Maqolalar yozilish nuqtai nazaridan nechaga boʻlinadi?*
- 6. Maqolaning xillari va turlarini ayting.*

7. *Maqola janri radioda hamda televideniya qanday nomda o'z aksini topadi?*
8. *Maqolada birinchi o'rinda nima turadi?*
9. *Maqola tili haqida nima ayta olasiz?*
10. *Qaysi o'zbek adiblari maqola janridan keng foydalandanishgan?*

### **Maqola bo'yicha nazorat savollari**

1. *Aytilgan so'z degan ma'noni bildiruvchi jurnalistik janrini bilasizmi?*
2. *Ijobiy va tanqidiy maqolalarni sharhlang.*
3. *Maqolaning eng muhim va birinchi o'rinda turuvchi uslubiy-ijodiy vositasini ayting.*
4. *Internetdagi maqola qanday ataladi?*
5. *Nazariy turdagi ilmiy, adabiy-badiiy maqolalar.*
6. *Sho'ro davrida maqola janrining qanday xillari o'ylab topildi?*
7. *Maqolada publistik tadqiqot.*

### **9.4. Obzor (kuzatish)**

Tahliliy publitsistikaning muhim janrlaridan biri – obzordir. Obzor ruscha obozret so'zidan olingan bo'lib ko'zdan kechirish, kuzatish degan ma'noni bildiradi. Publitsistik janr sifatida esa hayotdagi ma'lum mavzu bilan o'zaro bog'langan voqea, hodisalar, faktlar haqidagi umumlashtiruvchi materialga aytiladi. Agarda axborot hayotdagi ayrim faktlar, voqea va hodisalar haqida xabar qilsa, maqola mazkur faktlar, voqea va hodisalarning mohiyatini ochib beradi, obzor esa ularning umumiy manzarasini yaratadi, mazkur faktlar, voqea va hodisalarning voqe bo'lish oqimini, rivojlanib borishi jarayonini aks ettiradi. Ya'ni, obzor jamiyat hayoti muayyan sohasining shu kundagi, ayni zamondagi holatini, manzarasini tahlil va tadqiq etadi, undan shu kun, shu davr uchun zarur, dolzarb publitsistik xulosalar chiqaradi. Obzorda axboriy ijtimoiy vazifa bilan tahliliy mushohada uyg'unlashib ketadi, u o'quvchiga hayot haqida ham xabar, ham publitsistik fikr-xulosa yetkazadi, jamoatchilik fikrini uyg'otadi. Ta'bir joyiz bo'lsa obzorni insonning o'zini o'rab turgan tashqi – ijtimoiy olamni bilishdagi o'ziga xos muhim publitsistik vositasi,

oddiylikdan mukammallik sariga qoʻygan yana bir zarur qadamiga qiyos etishi mumkin.

Obzor publitsistik janrlar ichida sharhga yaqin turadi, kuzatilgan hayot voqealarini tasvirlashda uning izohlash usulidan foydalanadi. Shuning uchun ham obzor yozuvchi (tayyorlovchi) jurnalist koʻpincha sharhlovchi deb ham nomlanadi.

Boshqa tahliliy publitsistik janrlar singari obzor ham ijtimoiy hayotning barcha sohalarini oʻzida aks ettirishi, qamrab olishi mumkin. Shu boisdan ham u ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, adabiy-badiiy, madaniy-maʼnaviy va boshqa mavzularga doir obzorlarga boʻlinadi. Oʻzining qaratilgan obyektiga qarab obzorlar tashqi va ichki boʻlishi mumkin. Tashqi obzorlarda xalqaro hayot, mamlakat tashqarisida yuz berayotgan voqea, hodisalar aks etsa, ichki obzorlar mamlakatning ichki hayotining turli sohalariga bagʻishlanadi.

Bundan obzor ijobiy yoki tanqidiy xarakterga ham ega boʻlishi mumkin. Ayrim hajviy nashrlarda tanqidiy - hajviy obzor ham beriladi.

Obzor janri gazeta, jurnal, radio, televideniye va internetda keng qoʻllaniladi. Gazeta obzori kundalik hayot voqealarini tezkorlik bilan aks ettirishga moʻljallangan boʻlsa, jurnal obzorlarida tahlil yanada kengroq, batafsilroq boʻlishi mumkin. Radio va televideniye doimiy ravishda berib boradigan obzorlarda esa har ikki xususiyat ham oʻz ifodasini topishi mumkin. Oʻz shakliy xususiyatlariga qarab obzorlar umumiy yoki maʼlum mavzuga bagʻishlangan boʻlishi, shuningdek, tahririyatlarga kelgan xatlar obzori ham boʻlishi mumkin.

Umumiy obzorlarda tashqi va ichki hayotning umumiy, doimiylik xususiyatiga ega boʻlgan tomonlari aks etadi. Bu xildagi obzorlar “Olamda nima gap?”, “Dunyo hafta ichida”, “Iqtisodiy obzor”, “Adabiyot olamida”, “Maʼnaviyat chorrahalarida”, “Sanʼat sarchashmalari”, “Fan va hayot” kabi ruknlar ostida berilishi mumkin. Tabiiyki, bunday obzorlar radioda oʻziga xos tarzda olingan intervyular bilan qoʻshilib, televideniya esa tasviriy vositalar orqali beriladi. Umumiy obzorlar hayotning turli sohalarini doimiy kuzatib borish, faktlar toʻplash va yigʻish, ularni publitsistik mushohada etish orqali amalga oshiriladi.

Biror mavzuga doir obzorlarda esa ma'lum bir mavzu aks ettiriladi. Masalan, ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan muayyan voqea va hodisalar, chunonchi, saylovlar, biron bir rasmiy hujjat, tayyorlanayotgan qonunlar muhokamasi, ijtimoiy-siyosiy harakatlarning borishi yoki iqtisodiy hayotdagi biror muhim mavzu — sanoat korxonalarining faoliyati, mulkchilik shaklining o'zgarishi, bozor iqtisodining u yoki bu masalasi yoxud biror madaniy-ma'naviy masalaga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Bunday obzorlarda, faktlar har tomonlama tahlil etiladi, ularga ijodiy yoki tanqidiy yondashiladi, publitsistik xulosalar chiqariladi. Tematik obzor umumiy obzorga qaraganda cheklangan, aniq, muayyan maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Sportning ayrim turlari, masalan jahon futboli yoki mamlakat chempionatining borishi, kurash, tennis, boks va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalarning borishi haqida ham mavzuga doir obzorlar berib boriladi.

Obzorning eng muhim turlaridan biri — matbuot obzoridir. Bunda matbuot nashrlarining faoliyati, ularda berilayotgan materiallarning umumiy mundarijasi, yutuq va kamchiliklari ko'rsatib beriladi. Kommunistik tuzum davrida matbuot obzoridan matbuot nashrlari ustidan umumiy majburiy partiyaviy nazorat o'rnatib turish uchun foydalanildi. Hozirgi vaqtga kelib matbuot obzori matbuot materiallari bilan o'quvchilarni tanishtirish maqsadida tayyorlanadi. Jumladan, radio va televideniye orqali doimiy ravishda berib boriladigan matbuot obzorlari ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Obzor janri jurnalistdan katta bilim va publitsistik malaka talab etadi. U o'zi obzor qilayotgan sohadan chuqur va har taraflama xabardor bo'lishi, bu sohadagi fakt, voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishi, ijodiy yoki tanqidiy baholashi, zarur publitsistik xulosalar chiqara bilishi lozim.

Obzorning ichki tuzilishi, tili va uslubi ham uning publitsistik xususiyatidan kelib chiqadi. Ilmiy, adabiy-badiiy obzorlarda o'ziga xos til va uslub qo'llaniladi. Umumiy, tematik va boshqa turlardagi obzorlarda faktlar, voqea va hodisalar tahlili o'sha sohaga xos tushunchalar, atama va iboralar bilan olib boriladi. Obzorda ilmiy, mantiqiy tahlil bilan ijtimoiy-



publitsistik mushohada uyg'unlashib ketishi lozim. Obzor hayot voqealarini shunchaki qayd etishdan iborat bo'lmashligi kerak. Adabiy-badiiy vositalar, his-hayajon uyg'otadigan so'z va iboralar ham o'rinda ishlatilishi lozim.

Hozirgi o'zbek ommaviy axborot vositalarida obzor keng qo'llanilib kelinmoqda. Ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy islohotlar, ko'p qirrali hayotimizning yorqin manzaralari, masala va muammolari o'z ifodasini topmoqda. "Xalq so'zi" gazetasining 2005-yil 6-sentyabr sonida jurnalist U.Fayzievaning "Duoga qo'l oching" sarlavhali obzor – maqolasi bosilgan. Unda gazetxonlardan kelgan xatlar asosida shu kunimizning eng muhim masalalari – mustaqilligimizni mustahkamlash, ona–Vatanni sevish va boshqa odamiylik xislatlari haqida so'z yuritiladi, muayyan misollar keltiriladi. Jurnalist gazetxonlardan kelgan har bir xatga mehr bilan qaraydi, ularning mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. "Hurriyat" gazetasining 2000-yil, 33–sonida bosilgan "Bi–ir gazitga chig'orsangiz..." deb sarlavha qo'yilgan obzor (muallifi N.Ochilov) da ham gazeta tahririyatiga kelgan xatlar haqida so'z yuritiladi. Bunda hayotning muhim masalalari borasida fikr–mulohazalar yuritilgan xatlar bilan bir qatorda sarlavhaga chiqarilgan tarzdagi yengil–yelpi mazmundagi xatlar ham kelishi biroz kulgi ostiga olinadi.

Jurnalist N.Muhammadiyevning Qarshi shahrining 2700 yilligi bayrami oldidan tayyorlagan "Voha tarixiga bir nazar" deb nomlanuvchi turkum materiali esa ("Xalq so'zi" gazetasining 2005-yil 14,15-sentyabr sonlari) bu qadimiy shaharning tarixiga doir olib borilgan ilmiy–izlanishlar, topilgan yangiliklarning umumiy obzoridan iborat. Filologiya fanlari doktori S.Sodiqovning "Hurriyat" gazetasining 2000-yil, 27-dekabr sonida bosilgan "Efirda "Grand", "Sezam", "Vodiy sadosi" va boshqalar" sarlavhali materiali ham obzor janrining muayyan namunasi. Unda muallif keyingi paytlarda paydo bo'lib efirda ish ko'rayotgan qator nodavlat – xususiy radio kanallarning faoliyati, ular olib borayotgan eshittirishlarning sifati haqidagi o'z fikr–mulohazalarini bildiradi, ularni baholaydi.

## **Obzor bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Obzor so'zining lug'aviy ma'nosi nima?*
2. *Axborot hayotdagi ayrim faktlar, voqea va hodisalarning mohiyatini ochib beradi. Obzor-chi?*
3. *Obzorda axborot bilan qaysi mushohada uyg'unlashib ketadi?*
4. *Obzor qaysi janrga yaqin turadi va nega?*
5. *Obzorning shu xillari va turlarini ayting.*
6. *Obzorning eng muhim turi matbuot obzorini sharhlang.*
7. *Obzor janri jurnalistdan nimani talab qiladi?*
8. *Obzorning tili va uslubi haqida ayting.*

## **Obzor bo'yicha nazorat savollari**

1. *Nega obzor yozuvchisini ko'pincha sharhlovchi deb aytishadi?*
2. *Tashqi va ichki obzorlarga misol ayting.*
3. *Umumiy obzorni izohlang. Obzorlar qaysi ruknlarda beriladi?*
4. *Obzorga misollar keltiring.*
5. *Radioobzor, teleobzorga misollar ayting.*

## **9.5. Xat**

Publitsistikaning o'ziga xos janri – xatdir. **Xat** so'zi arabcha bo'lib biror odamdan ikkinchi odamga yozma shaklda yo'llangan matn, ma'lum ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozuvdir. Bu so'z xuddi yuqoridagi ma'noni bildiruvchi maktub, noma deb ham yuritiladi.

Xat insoniyatning ilk ixtirolaridan biri bo'lib, yozuv paydo bo'lgandan so'ng odamlararo aloqaning asosiy turi bo'lib xizmat qilgan va qilib kelmoqda. Xat aloqa vositasi sifatida pochta orqali, hamda telegraf, faks, internet singari elektron aloqalar orqali jo'natiladi va qabul qilib olinadi. Bunday xatlarni shaxsiy xatlar deyiladi. Jamiyat uchun u yoki bu darajada qiziqish uyg'otadigan, ahamiyatga ega bo'lgan xatlar esa ijtimoiy ahamiyatli xatlar sifatida qadrlanadi. Bunday xatlar yozma adabiyot, jurnalistika orqali ko'pchilikka – ommaga yetkaziladi. Jamiyatning u yoki bu sohadagi fakt, voqea va hodisalarni aks ettirgan, jamoatchilik fikriga biron-bir yangilik beruvchi, fikr uyg'otuvchi bunday xatlar shuningdek publitsistika bilan, jurnalistika bilan ham bog'liqdir. Ya'ni, biror shaxs jurnalistika vositasida o'z xati orqali hayotdagi biron-bir fakt, voqea,

hodisa haqida xabar beradi, ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini bildiradi, yoki biron-bir masala yuzasidan yordam so'raydi, shikoyat qiladi va hokazo. Binobarin xat shaxsni jamiyat bilan va o'z navbatida jamiyatni shaxs bilan bog'lovchi muhim vositadir.

Xat publitsistikaning alohida janri bo'lib, unda ham axboriy, ham tahliliy, ham badiiy-publitsistik xususiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, kishilar tomonidan jurnalistikaga yo'llangan ayrim xatlarda hayotdagi biron-bir fakt, voqea hodisa haqida xabar qilinishi, shu haqda fikr yuritilishi mumkin. Bu – publitsistikaning axborot janriga to'g'ri keladi.

Ayrim xatlarda esa korrespondensiya xususiyati bo'lib, ularda bir necha fakt, voqea hodisa haqida so'z borishi, fikr yuritilgan bo'ladi. Jurnalistikaga yo'llaniladigan aksariyat xatlar maqola tarzida bo'lib, ularda hayotdan olingan biror bir mavzu, tugallangan fikr o'z ifodasini topadi. Boshqa bir xatlarda esa ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalar ko'tarilib, ko'pchilikning muhokamasiga tashlanadi. Bunday xatlar "Ochiq xat", "Murojaatnoma" deb ataladi. Shuningdek, ayrim xatlar o'ziga xos adabiy-badiiy usulga ega bo'ladi. Bunday xatlar badiiy publitsistikaga taalluqli bo'ladi. Ya'ni, xatlar o'zida jamiyat hayotini qanchalik va qay tarzda yoritishiga qarab oddiydan murakkablikka qarab o'sib boradi va insonning tashqi – ijtimoiy olamdan xabardor bo'lishi, uni chuqurroq anglashida u yoki bu darajada xizmat qiladi. Binobarin, xatlar o'z xususiyatlariga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. Tahririyatlarga keladigan xatlar;
2. "Ochiq xat"lar;
3. Adabiy-badiiy xatlar.

Tahririyatga kelgan kundalik xatlar mazkur janrning eng oddiy ko'rinishi bo'lib, ularda shu kunning eng muhim masalalari aks etadi. Kishilar tahririyatlarga yo'llaydigan xatlarida o'zlarini qiziqtirgan u yoki bu fakt, hodisa haqida xabar beradilar yoki biron-bir masala yuzasidan fikr bildiradilar. Hayotda uchraydigan ayrim kamchilik, nohaqlik ko'rinishlaridan shikoyat qiladilar va hokazo.

Tahririyatlarga keladigan kundalik xatlarning mavzu doirasi juda keng bo'lib, ularda shu kungi hayotning muhim tomonlari o'z aksini topadi. Bunday xatlar odatda ikki xil – ijobiy yoki tanqidiy tusda bo'ladi. Ijobiy

xatlarda hayotdagi fakt, voqea, hodisalar ma'qullanib, qo'llab-quvvatlangan, tanqidiy xatlarda hayotda uchraydigan kamchiliklar, nohaqliklar va boshqa illatlarga tanqidiy munosabat bildiriladi, fosh etiladi. Bunday xatlarning aksariyatini shikoyat xatlari tashkil etadi.

Tahririyatlarga keladigan bunday kundalik xatlar "Bizga yozadilar", "Gazetxonlar pochtasidan", "Tahririyatga xatlar", "O'quvchi bong uradi", "Nomalar, hangomalar", "Gazetxonlar tilidan", "Taklif va mulohazalar" kabi va boshqa ruknlar ostida berib borilishi mumkin. Tahririyatlarga kelgan xatlar o'z xususiyati jihatidan umumiy va biror mavzuga doir bo'lishi mumkin va ular shu nuqtai nazardan maxsus ruknlar ostida berib boriladi. Shuningdek, kundalik xatlarning ma'lum bir qismi – so'rov xatlari ham bo'lishi mumkin. Bunday xatlarda gazetxonlar o'zlarini qiziqtirgan u yoki bu masalalar haqida tushuntirish berishni so'raydilar. Bunday xatlar "So'rang, javob beramiz", boshqa ruknlar ostida berib borilishi mumkin.

Ayrim xatlar esa jurnalistika nashrlarida bosilgan ba'zi bir materiallar yoki rasmiy hujjatlar-qonunlar muhokamasiga doir o'quvchilarning fikr-mulohazalari, otklik-javoblari bo'lishi mumkin. Bunday xatlar "Gazetxon fikr bildiradi", "Aks-sado", "Takliflar va mulohazalar" kabi ruknlar ostida bo'lishi mumkin.

Tahririyatga kelgan ayrim xatlar asosida sharhlar, muammoli maqolalar tayyorlanishi mumkin. Bunday xatlar asosida tayyorlangan maqolalar "Bir xat izidan", "Maktub yo'lga chorladi", "Gazetxon mulohazalariga javob" kabi ruknlar ostida bosiladi. Ba'zi bir xatlar esa jurnalistik surishtiruv uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni aytish kerakki, tahririyatga kelgan xatlarning hammasi ham bosib chiqarilmaydi, balki ularning shu kun uchun muhim, dolzarb masalalar ko'tarilganlari tanlab olinadi, qolganlariga esa yo javob yoziladi, yoki tekshirib chora ko'rish uchun tegishli tashkilotlarga jo'natiladi. Umuman olganda tahririyatga keluvchi kundalik xatlar mavzu jihatdan xilma-xil bo'lishi, ularda hayot nafasi bevosita ufurib turishi bilan qimmatlidir.

Ularga e'tibor berish, qadriga yetish, foydalanish har bir jurnalistika nashrining jonli, xalqchil, ta'sirchan bo'lishi, o'z ijtimoiy vazifalarini to'la ado etishida yordam beradi.

Xatning ijtimoiy jihatdan salmoqli, muhim ko'rinishi – "Ochiq xat", "Murojaatnoma"lardir. Ochiq xat - hayotdagi biron-bir muhim ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy masala, muammo haqida biror shaxs, yoki bir guruh kishilarning fikri, qarashlari asosida yozilgan publitsistik materialdir. Bunday xatda shu kun, ayni zamon uchun juda muhim biror masala, muammo ko'tarib chiqiladi va ko'pchilikka yetkazish orqali jamoatchilik hukmiga havola qilinadi. Bunday xatlar o'tkir publitsistik ruhga, jonli ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim. Ochiq xatda ijtimoiy ahamiyatlilik alohida o'rin tutadi, u shu xususiyati bilan oddiy xatdan farq qiladi. Ochiq xatning o'ziga xos ko'rinishi "Murojaatnoma" shaklida bo'ladi. Bunday xatlar rasmiy xarakterda ham bo'lishi mumkin. Masalan, davlat rahbarining ma'lum bir anjuman qatnashchilariga yoki mehnatda katta yutuqlarga erishgan viloyat, tuman yoki biror korxonaga jamoasiga yo'llagan maktubi, tabrigi, yoki biror anjuman qatnashchilarining davlat rahbariga yo'llagan maktublarini olish mumkin. Bunday tabrik va murojaatnomalarda ham muhim ijtimoiy masalalar o'z ifodasini topadi. Ayrim ochiq xatlarda u yoki bu mavzudagi ijtimoiy masalalar, muallifning ko'pchilikka aytmoqchi bo'lgan fikri ham ifodalanishi mumkin. Masalan, jurnalist T.Akbarovning «Hurriyat» gazetasining 2000-yil 9-sonida «Raddiyaga raddiya» rukni ostida bosilgan «Mish-mish ostidagi haqiqat» sarlavhali va Farg'ona viloyati prokuraturasi tashqi iqtisodiy faoliyatda korrupsiya, talon-taroj va boshqa suiiste'mollarga qarshi kurash bo'limining boshlig'i Erkin G'afurovga yo'llagan ochiq xati bunga misol bo'la oladi. Jurnalist bu asarida mazkur idora faoliyatidagi qator kamchiliklar va uning yuqorida nomi tilga olingan xodimining fe'l-atvoridagi rasmiyatchilik, manmanlik kabi qusurlarni ochib tashlaydi. Gazetaning 2000-yil, 41-sonida «Ochiq xat» rukni ostida bosilgan «Birovning burnini qonatmadim» sarlavhali materialda esa uning muallifi – jurnalist M.Abduraimov gazetaning oldingi sonlarida bosilgan va uning faoliyatidagi nuqsonlar fosh etilgan «O'g'ri emas, muxbir urdi» sarlavhali tanqidiy maqolaning muallifi jurnalist B.Ollomurodovga murojaat etadi va

o'zini oqlash uchun qator dalillar keltiradi. Mazkur gazetaning shu yil 50-sonida gazetxon B. Ilyos al-Aminning «Maqsad ezgulik bo'lsa...» sarlavhali va jurnalist Sh.Jabborovga yo'llangan ochiq xati bosilgan. «Munosabat» rukni ostida berilgan bu materialda gazetxon Sh.Jabborovning gazetaning bundan oldingi sonlaridan birida bosilgan «Or-nomusning tarjimai bormi?» degan maqolasiga o'z munosabatini bildiradi va muallifga qator o'rinli e'tirozlar bildiradi. Ko'rinib turibdiki, ochiq xat janri hayotdagi ayrim masala va muammolarni ko'tarib chiqishda va ularga jamoatchilik fikrini uyg'otishda muhim rol o'ynaydi.

Xatning jurnalistikada va yozma adabiyotda keng o'rin oluvchi muhim ko'rinishlaridan biri adabiy-badiiy xatlar, yoki epistolyar publitsistikadir. Epistolyar so'zi lotincha epistola – xat, yuborilgan ma'lumot degan ma'noni bildiradi. Bu janr adabiy-badiiy yoki publitsistik asarning xat, maktub tarzida ifoda etilishidir. Ya'ni, mashhur yozuvchilar, adiblar, munaqqidlar o'zlarining muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikr-tuyg'ulari, ijtimoiy fikri tarixida bunday asarlar ko'plab yaratilgan. Masalan o'rta asrning buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiyning “Munshaot” asari, Furqatning chet eldan turib “Turkiston viloyatining gazetasi” idorasiga yuborgan xatlari va do'stlariga yo'llagan she'riy maktublari, buyuk rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning “Gogolga xat” maqolasi, buyuk rus adibi L.N.Tolstoyning “Jim turolmayman” deb nomlanuvchi ochiq xati va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Mazkur xat-asarlar mualliflari o'z zamonalarining o'ta muhim ijtimoiy-siyosiy, ijodiy-ma'naviy muammolarini ko'tarib chiqqan edilar. Bunday asarlarda odatda hayot voqealarini tahlil etishda ma'naviy talabchanlik, tanqidiy ruh ustun turadi. Bu xildagi ayrim asarlar hajviy uslubda ham yozilishi mumkin. Masalan atoqli adib A. Qodiriyning “Maskovdan xatlar” deb ataluvchi turkum xatlari hajviy asar bo'lib, ularda hayotda uchraydigan turli ijtimoiy-ma'naviy illatlar hajviy tanqid ostiga olingan edi.

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2004-yil, 14-may sonida taniqli adabiyotshunos, O'zbekiston qahramoni O.Sharafuddinovning «Fikr erkinligi – zarur ehtiyoj» sarlavhasi ostida adabiyotshunos Ibrohim Haqqulga yo'llagan ochiq xati e'lon qilingan. Unda muallif I.Haqqulning «Tafakkur» jurnalida e'lon qilingan «Abdulla

Qahhorning jasorati» maqolasiga o'z munosabatini bildiradi. Odatda bu xildagi ochiq xatlarning aksariyati tanqidiy ruhda bo'lishi odat tusiga kirgan, ammo mazkur maqola taniqli adabiyotshunos olimning yosh tadqiqotchining asariga bergan ijobiy bahosi bilan xarakterlidir. O.Sharafuddinov I.Haqqulning o'zining yuqoridagi maqolasida Abdulla Qahhor ijodining yangi qirralari, uning ijodiy ruhiga xos bo'lgan yangi tomonlarni topganligi bilan tabriklaydi va uning maqolasi istiqlol davri adabiyotshunosligi uchun, yangi ilmiy tafakkurning paydo bo'lishida muhim ahamiyatga molik ilmiy jasorat ekanligini ta'kidlaydi. Gazetaning 2005-yil 22–mart sonida esa jurnalist Ashurali Jo'raevning Ozod Sharafuddinovga ochiq xati e'lon qilingan. Mazkur publitsistik asar ham ijobiy xarakterga ega bo'lib, unda olimning «Tafakkur» jurnalida bosilgan «Ekologiya va madaniyat» sarlavhali maqolasiga o'z munosabatini bildiradi va uni ma'qullaydi. Xat janrida yoziladigan jurnalistika asarlari o'z ichki xususiyatlari, tuzilishi, shakliy jihatlari bilan xilma-xildir. Tahririyatlarga yuboriladigan oddiy xatlarda kundalik hayotda uchraydigan faktlar, voqea va hodisalar haqidagi shaxsiy fikr va mulohazalar, maqsadlar aks etganligidan oddiyroq uslubda yoziladi. Tahririyatlarda bunday xatlardan foydalanishda mualliflarning fikr va maqsadlarini, yo'nalishini saqlab qolgan holda uslubiy jihatdan tahrir etilishi mumkin.

«Xalq so'zi» gazetasining 2005-yil 10–avgust sonida gazeta tahririyatiga kelgan xatlarga bag'ishlangan maxsus sahifa chop etilgan. Unda gazeta o'quvchilarining tahririyatga yozgan turli mavzulardagi xat va shikoyatlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, Namangan shahridagi sobiq «Chorsu» yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi raisi S.Boboeva o'zining «Kimning gapiga ishonamiz?» deb nomlangan xatida o'zi ishlaydigan korxonasining nohaq ravishda yopib qo'yilganligi va joylardagi rasmiyatchilik hollarini batafsil ma'lum qiladi va tahririyatdan yordam so'raydi. Jizzax viloyatining Mirzaobod tumanidan bir guruh gazetxonlar nomidan kelgan xatda esa tumandagi qishloqlarda ichimlik suvining yo'qligidan shikoyat qilinadi.

Shuningdek, gazetalarda tahririyatga kelgan xatlarni umumlashtirib, umumiy yoki mavzuga doir obzorlar ham berib boriladi. Maqola tarzida yozilgan xatlarda esa mantiqiy tahlil, zarur ijtimoiy, ilmiy, badiiy

mushohada o'rin olishi lozim. Bunday materiallarda his-tuyg'u, ta'sirchanlik uyg'otuvchi tasviriy vositalar ham o'z o'rnida ishlatilishi mumkin. Bunda muallifning mahorati asosiy o'rin tutadi.

Jurnalist Aliqul Xonimqulovning «Xalq so'zi» gazetasining 2005-yil 10 – mart sonida bosilgan «Tarbiyasiz tarbiyachi» deb nomlangan maqolasi ana shu uslubda yozilgan. Unda Jizzax viloyati Xovos tumanidagi 7-o'rta maktab direktorining tarbiyachiga nomunosib xatti-harakatlari tanqid ostiga olinadi. Mazkur maktab direktori o'z qo'l ostidagilar bilan juda qo'pol munosabatda bo'ladi, ularni mensimaydi, haqorat qiladi. Shu bilan birgalikda u maktab o'quvchilariga nisbatan ham noinsoniy – berahmlarcha munosabatda bo'ladi. Boybolaev qishning qor yog'ib turgan, sovuq kuni tongida sakson uchta o'quvchini «darsga kech qoldinglar» bahonasi bilan maktab hovlisida bir soatdan ortiq turg'azib qo'yadi, o'zi esa bu ayanchli voqeni ish xonasining derazasidan bemalol tomosha qilib turadi. Jurnalist bu voqeani bayon etishda uning «qahramon»iga bevosita murojaat, ya'ni ochiq xat shaklini qo'llaydi:

«Abdurasul aka, bu bolalar haqida, bu manzara haqida biroq keyinroq gaplashsak. Siz bilan, avvalo, qalb haqida, insonning mehri haqida, aniqrog'i o'qituvchining o'z o'quvchilariga bo'lgan qalb harorati to'g'risida gurgung qilsak, deymen», -- deb boshlaydi o'z maqola-xatini A.Xonimqulov. So'ng u haqiqiy o'qituvchining qanday insoniy sifatlarga ega bo'lishi zarurligini, «yursa ham, tursa ham, hatto tushlarida ham maktabni, o'quvchilarini ko'ra oladigan» kishigina haqiqiy o'qituvchi, tarbiyachi deb atalishi mumkinligini aytadi va maktab direktorining o'zining kundalik faoliyatidagi takabburligi, qo'polligi bilan jamoaning ko'nglini «zada» qilib qo'rganligini aniq misollar bilan qo'l ostida ishlaydigan maktab o'qituvchilarining guvohliklari bilan keltirib o'tadi. Maqola so'ngida esa o'sha mash'um faktga – o'quvchilarni bekordan-bekorga, berahmlarcha sovuqqa qotirilganligi masalasiga o'tadi.

«Maktab hovlisida bir soat turg'izib qo'yilgan bolalarga qaytaylik. Siz bilan ana shu bolalar to'g'risida fikrlashib ko'raylik.

Sakson uch nafar kichkintoylar orasida sizning farzandingiz yo'q edi. Fevral edi. Qishning avji edi. Yer muz edi. Osmondan esa betinim qor yog'ardi. Ana shu bolalarning ba'zilari kiygan botinka va tuflilarining



tagcharmi yupqa edi. Ba'zilarining egni yupqaroq edi. Siz esa tashqarida turgan o'quvchilarni maktabning birinchi qavati derazasidan bamaylixotir kuzatib turardingiz.

Domlajon, bu bolakaylar mashg'ulotlar soat sakkizdan boshlanganligi tufayli besh-o'n minut darsga kechikib kelishgan edi. Holbuki mashg'ulotlarni qish faslini hisobga olib yarim soat, bir soat kechroq boshlashning iloji ham bor edi. Demak, oddiy tadbiriy mehr o'rniga shunchalik jazo qo'llanishi shartmidi, bu haqda gapirmay qo'ya qolaylik.

Faqat... Faqat maktabning birinchi qavati derazasi ortidan sovuqdan dildirayotgan bolalarga tikilib turgan lahzalarda yuragingizda o'sha paytda qanday tuyg'ular, qanday o'ylar o'tganligini bilishni istardim. Nahotki shunday paytda, o'sha lahzalarda yuragingizda bamaylixotirlik, o'z ishingizdan qoniqish hislari kezgan bo'lsa?»

Jurnalistning bu o'tkir publitsistik ruhni ustalik bilan nozik ravishda ifoda etgan materiali mo'ljalga borib tegishi aniq. Gazetaning keyingi sonlaridan birida viloyat huquq-tartib idoralaridan kelgan javob xatida mazkur maqola «qahramon»i tarbiyachilik qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzib o'z vazifasini suiiste'mol qilganligi uchun u maktab direktorligidan chetlatilganligi va uning ustidan jinoiy ish qo'zg'atilganligi haqida xabar qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, "Ochiq xat", Murojaatnoma" kabi ko'rinishlardagi xatlarda asosiy e'tibor fikrlar yaxlitligi, lo'ndaligi, ifodaning tushunarli va ta'sirchan bo'lishiga qaratiladi.

Epistolyar yoki yozuvchi publitsistikasiga esa badiiy-publitsistik asarga qo'yiladigan yuksak ijodiy-ifodaviy talablar qo'yiladi. Bunday asarlar ham ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan, ham badiiy-tasviriy jihatdan yuqori darajada bo'lishi lozim. Bunda xat muallifining dunyoqarashi, badiiy mahorati asosiy rol o'ynaydi.

Xat janri ommaviy axborot vositalarining deyarli barcha ko'rinishlaridan keng o'rin olib keladi. Jumladan tahririyatlarga yuboriladigan kundalik xatlar va gazeta va jurnallar bilan bir qatorda radio, televideniya ham e'lon etib boriladi. Rasmiy maqomga ega bo'lgan tabrik maktublari, muhim murojaatnomalar ham barcha ommaviy axborot vositalariga tegishlidir. Epistolyar publitsistika, yozuvchi xatiga oid

adabiy-badiiy asarlar asosan adabiy-badiiy nashrlarda chop etiladi va ayrim hollarda radio va televideniya ham beriladi.

Umuman olganda xat janri publitsistikaning keng ko'lamli va serqirra janrlaridan biri bo'lib, insonning ijtimoiy olamni idrok etishida katta xizmat qiladi. Mustaqil O'zbekistonning gazeta, jurnal, radio va televideniyesida mazkur janr o'zining munosib o'rniga ega.

### **Xat bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. Xat so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
2. Xat qachon paydo bo'lgan?
3. Ijtimoiy xat bilan shaxsiy xatlarni izohlang.
4. "Ochiq xat", "Murojaatnoma" ga misollar ayting.
5. Xatlar xillarini bilasizmi?
6. Ijtimoiy jihatdan salmoqli, muhim ko'rinishli xatlarni ayting.
7. "Ochiq xat"ning o'zbek matbuotida tutgan o'rni.
8. Maqola tarzida yozilgan xatlarga misollar aytaolasizmi?
9. Tabrik maktublarining o'zbek jurnalistikasidagi o'rni.
10. Radio va televideniya xat janri.

### **Xat bo'yicha nazorat savollari**

1. Shaxsni jamiyat bilan va o'z navbatida jamiyatni shaxs bilan bog'lovchi vositani sharhlab bering.
2. Adabiy-badiiy xatlarga misol keltiring.
3. Tahririyatga keladigan xatlar qanday ruknlar ostida berib boriladi?
4. Xat janri qanday turlarga ega?
5. O'zbek matbuotida xat janri ko'rinishlarini ifodalang.

## **9.6. Taqriz**

Tahliliy publitsistikaning muhim janrlaridan biri taqrizdir. **Taqriz** so'zi arabcha bo'lib, o'lchamoq, salmoqlab ko'rmoq, baholamoq degan ma'nolarni bildiradi. Mazkur janr retsenziya deb ham yuritiladi. Bu lotincha recensio-baho degan so'zdan olingan. Taqriz fan, adabiyot-

san'atga doir asarlarni tahlil etuvchi, baho beruvchi publitsistik janrdir. Demak, taqriz, (retsenziya) hayotni bevosita tasvir etuvchi maqola va boshqa tahliliy janrlardan farqli ravishda fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda aks ettirilgan voqea va hodisalarni, faktlarni tahlil etish, baholashga qaratiladi. Bu – publitsistikaning, jurnalistikaning ijtimoiy ong ko'rishlari, hayotni aks ettirish turlari bo'lgan fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga munosabati, o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi faktordir. Binobarin, taqriz insonning tashqi olamdagi bilingan, ongda aks etgan voqea va hodisalarni qaytadan yana chuqurroq bilish, tahlil va tadqiq etish, baholash borasidagi muhim vositasidir. Ya'ni, bu janr fan, adabiyot, san'atning ham taraqqiyotiga xizmat qiladi, inson ongining ufqlarini yanada kengaytiradi. Boshqa tahliliy janrlar singari taqriz ham ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotning barcha sohalarini o'zida aks ettirishi mumkin. Ammo u yuqorida aytilganidek, hayot voqealarini to'ppa-to'g'ri emas, balki fan, adabiyot va san'atda o'z aksini topgan, ya'ni o'rganilgan, baholangan shakldagi holatini o'rganadi, yoritadi. Bular fanning turli sohalariga doir ilmiy ishlar, kitoblar, risolalar, maqolalar to'plamlari, ixtirolar, kashfiyotlar, badiiy asarlar, sahna asarlari, kinofilmlar, tasviriy san'at, musiqa asarlari bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda taqrizlar fan, adabiyot va san'atning barcha asarlariga emas, balki ayni shu kun, shu davr uchun ahamiyatli, zarur asarlargagina yoziladi va e'lon qilinadi. Bu — taqrizning ham publitsistik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuni aytish kerakki taqriz jurnalistikadan tashqari hollarda ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, yangidan yaratilgan har bir ilmiy asar, ixtiro va kashfiyotlar, badiiy asarlar, tasviriy san'at, musiqa va sahna asarlar, kinofilmlar, haykaltaroshlik asarlari va boshqalar bosib chiqarilishi, e'lon qilinishi, ko'rgazmaga qo'yilishidan oldin shu soha kishilari, olimlar, adabiyotshunoslar, san'atshunoslar tomonidan baholanadi, tahlil etiladi.

Bunday baholash og'zaki muhokama yoki yozma taqriz shaklida bo'lishi mumkin. Bu xildagi taqrizlarni odatda ichki taqriz deyiladi. Shu bilan birgalikda fan, adabiyot, san'at asarlari oshkora ravishda – jurnalistika orqali baholanishi, muhokama etilishi mumkin. Ana shunday

taqrizlar tahliliy publitsistika janriga oid asarlar sanaladi. Bu xildagi ijod turini tanqid va bibliografiyaga oid asarlar ham deb yuritiladi. Tanqid arabcha soʻz boʻlib ish-harakat, faoliyat, asar, taʼlimot, nazariya va shu kabilarning salbiy va ijobiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini muayyan nuqtai nazardan baholash, tahlil etish degan maʼnoni bildiradi. Bibliografiya esa lotincha bibliion –kitob, grapno-yozmoq degan soʻzlardan olingan boʻlib, bosma asarlar-kitoblarni tahlil etish, fikr bildirish degan maʼnoni bildiradi.

Koʻrinib turibdiki, bu tushuncha ham taqriz, retsenziya atamalari bildiradigan maʼnolarga yaqindir.

Taqriz inson ongiy olamining barcha sohalarini qamrab olar ekan oʻz navbatida turli xillarga boʻlinib ketadi. Bular:

1. Ilmiy taqrizlar;
2. Adabiy-badiiy taqrizlar;
3. Teatr taqrizi;
4. Kino taqrizi;
5. Musiqa asarlari taqrizi;
6. Tasviriy sanʼatga doir taqrizlar;
7. Radio eshittirishlar va telekoʻrsatuvlar taqrizi va boshqalar.

Ilmiy taqrizlar yuqorida aytilganidek ilm-fanning u yoki bu sohasiga doir yangi chiqqan kitoblar, asarlarga beriladi. Bu xil taqriz u xoh aniq fanlar – matematika, fizika, kimyo, geografiya, geologiya va boshqa sohalarga yoki ijtimoiy fanlar boʻlmish tarix, falsafa, siyosatshunoslik, sanʼatshunoslik, tilshunoslik va boshqa sohalarga bagʻishlangan boʻlmasin, avvalo mazkur sohada yaratilgan asarlarning mazmuni, uning fanga qoʻshgan salmogʻi, yutuq va kamchiliklarini ochib berishi lozim. Taqriz muallifi va asarlar haqida oʻz qarashlarini, xulosalarini bayon etadi. Ilmiy taqrizlar mazkur ilm-fan sohasidagi yangiliklarni ommaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy taqrizlar asosan shu fan sohasi bilan yaqindan tanish boʻlgan mutaxassislar, olimlar tomonidan yoziladi va odatda fanning shu sohasiga oid ilmiy nashrlarda, ilmiy jurnallarda, shuningdek fanning shu sohasiga tegishli boʻlgan tarmoq gazetalarda bosiladi. Markaziy va boshqa umumsiyosiy gazetalarda, ijtimoiy-siyosiy jurnallarda esa koʻpchilik uchun

muhim ahamiyatga ega bo'lgan alohida ilmiy asarlagagina taqriz beriladi. Umuman olganda, ilmiy taqrizlar o'quvchilarni fan yangiliklari bilan tanishtirishda, ilmning mazkur sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, uning rivojiga hissa qo'shish uchun xizmat qiladi. Adabiy-badiiy taqrizlar mazkur janrning eng ko'p qo'llaniladigan turi hisoblanadi. Adabiy-badiiy taqrizning vazifasi taqriz qilinayotgan badiiy asarning mazmunini chuqur ochib berish, unda oldinga surilayotgan asosiy g'oyani o'quvchiga ravshan ko'rsatish, asar muallifi erishgan mahorat yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklarini bayon etishdan iborat. Adabiy-badiiy taqriz-adabiy tanqidchilikning asosiy janri hisoblanadi. Adabiy tanqid – adabiyotshunoslik fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, badiiy ijodning shu kundagi, ayni zamondagi ahvoli, erishilgan yutuq va kamchiliklarni ochib tashlash orqali badiiy adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilishdan iborat.

Adabiy-badiiy taqrizlarda shu kun, ayni zamonda yuzaga kelgan yangi badiiy asarlar tahlil etiladi, ularga baho beriladi, kamchiliklari tanqid ostiga olinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tanqidchiligida atoqli adabiyotshunos olimlar O.Sharofiddinov, M.Qo'shjonov, N.Karimov va boshqalarning samarali faoliyati tahsinga sazovar.

Adabiy-badiiy taqrizlar asosan adabiy-badiiy jurnallar hamda adabiyotga ixtisoslashgan gazetalardan keng o'rin oladi. Umumsiyosiy gazetalarda faqat jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan yirik asarlarga yozilgan taqrizlar beriladi.

Teatr taqrizlarida teatr tanqidchiligi o'z ifodasini topadi. Ularda tomoshabinlarga havola etilayotgan yangi sahna asarlari tahlil etiladi. Bu taqrizlarda sahnaga qo'yilgan spektaklning g'oyaviy mazmuni, aktyorlarning ijrochilik san'ati, rejissura mahorati va boshqa masalalar tahlil etiladi, yutuq va kamchiliklar ko'rsatib, ijodiy xulosalar chiqariladi. Teatr taqrizi o'quvchi va tomoshabinlarga mazkur asarni har tomonlama tahlil etish bilan birlikda san'atkorlarga uni yanada takomillashtirish borasida ko'mak, maslahatlar ham berishi lozim.

Teatr taqrizlari asosan shu soha mutaxassislari, olimlar, adabiy tanqidchilar, ayrim hollarda jurnalistlar tomonidan yoziladi. Teatr taqrizi yozish uchun teatr san'ati sohasi bo'yicha chuqur bilimga, malakaga ega bo'lish lozim. Bugungi kunda bu sohada M.Rahmonov, M.Qodirov,

T.Tursunov, T.Bayandiev, M.Hamidova, M.To‘laxo‘jaeva, O.Rizaev, Sh.Rizaev, S.Tursunboev, T.Islomov, H.Ikromov, S.Qodirova, M.Ahmadjonova, M.Umarov, A.Rahimov va boshqalar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Kinotaqriz ham mazkur janrning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Unda yangi yaratilgan kinofilmning o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari ochib beriladi. Xuddi teatr taqrizi singari kinotaqriz ham kino san‘ati sirlaridan xabardor bo‘lgan mutaxassislar, kinoshunoslar tomonidan yoziladi. Kinotaqriz sohasida J.Teshaboev, H.Akbarov, X.Abulqosimova va boshqalarning xizmatlarini e’tirof etish mumkin.

Musiqa san‘ati, tasviriy san‘atga bag‘ishlangan taqrizlarga ham yuqoridagi talablarni qo‘yish mumkin. Bu taqrizlarda ham mazkur sohalarga doir yangi asarlarning o‘ziga xos tomonlari, erishilgan yutuq va kamchiliklar, asar muallifining mahorati ochib berilishi va o‘quvchiga yetkazilishi lozim. Bunday taqrizlar ham asosan maxsus nashrlarda, alohida holatlarda umumsiyosiy gazeta va jurnallarda bosilib chiqadi.

Ularning mualliflarini musiqashunoslikda (xususan A.Jabborov, I.Rajabov T.G‘afurbekov R. Abdullaev, A.Nazarov va boshqalarni), tasviriy san‘atda (xususan R.Ahmedov, Ch.Ahmarov, B.Jalolov, R.Choriev va boshqalarni) eslash kifoyadir.

Taqriz qaysi sohada, qaysi mavzuda bo‘lmasin biron-bir asarni baholashda xolislik, ilmiy yondashuv bu janr uchun muhim mezon hisoblanadi. Chunki har bir ilmiy, adabiy, san‘at asariga shu paytgacha mavjud bo‘lib jamlangan, zamon sinovidan o‘tgan o‘lcham va qarashlarga amal qilingandagina to‘g‘ri baho berish mumkin. Aksincha, asarni biror bir tor sinfiy, siyosiy, yoki shaxsiy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil etilib, baholanganda noto‘g‘ri, biryoqlama xulosalar kelib chiqadi, o‘quvchini chalg‘itadi, muallifga jiddiy ma’naviy ziyon yetkaziladi. Masalan, sovet tuzumi davrida ayrim ilmiy, adabiy yoki san‘at asarlariga ana shunday bir yoqlama, tor sinfiy-siyosiy yoki guruhbozlik nuqtai nazaridan baho berishlar ko‘p uchrardi. Chunonchi, atoqli o‘zbek adibi A. Qodiriyning asarlariga, Oybekning “Alisher Navoiy” romaniga berilgan ayrim ijtimoiy-vulgar (qo‘pol) taqrizlar buning yaqqol dalilidir.

Ommaviy axborot vositalarining alohida turi bo‘lgan radio va televideniye orqali eshittirilgan yoki ko‘rsatilgan ayrim asarlar —

radiospektakl, telefilm, teleko'rsatuvlarga ham taqriz yozilishi mumkin. Bu taqrizlarda ham mazkur radio yoki teleasarning mazmuni, mohiyati, yutuq va kamchiliklari ochib beriladi, o'quvchiga yetkaziladi.

Taqriz janri ko'proq gazeta va jurnallardan o'rin oladi. Radio va televideniya ular taqriz emas – eshittirish yoki ko'rsatuvning bir turi sifatida qo'llaniladi.

Taqrizlar ichki tuzilishi jihatidan axboriy yoki tahliliy bo'lishi mumkin. Axboriy taqrizlarda yangi ilmiy, adabiy-badiiy yoki san'at asari haqida kengroq xabar beriladi, o'quvchiga tanishtiriladi. «Hurriyat» gazetasining 2000-yil, 44–sonida jurnalist R.Rahmonovning «Zarur, barchaga kerakli kitoblar» sarlavhali axboriy taqrizi bosilgan. Unda filologiya va falsafa fanlari doktori M. al-Buxoriyning tamoyili «международной журналистики и международный обмен информации» va «Международные информационные агентства и международная пресса в рамках обмена информации» kitoblarining nashr etilganligini bildiradi va bu ilmiy mahsulotlarning jurnalistika fanining rivoji uchun zarur xizmatni bajarishini ta'kidlaydi. Gazetaning shu yil 36–sonida «Voizga yordam» sarlavhasi ostida berilgan axboriy taqrizda ham Respublika Ma'naviyat markazi tomonidan ilmiy–targ'ibot olib boruvchilarga yordam beruvchi bir turkum kitoblar nashr etilganligi bildiriladi va ularning mazmuni qisqacha bayon etiladi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida berib borilayotgan taqrizlar orasida ham qisqa – axboriy taqrizlar uchray turadi. Masalan, gazetaning 2005-yil 12 – avgust sonidan joy olgan «Doimiy hamroh» rukni ostida berilgan ikki axboriy taqrizda yozuvchi N.Jaloliddinning «Erkagi bor uy» hikoyalar to'plami va tadqiqotchi N.Afoqovanning «Jadid she'riyati poetikasi» kitoblarining nashr etilganligi ma'lum qilinadi. Muallif Q.Qayumov bu kitoblarning mazmuni, tuzilishi va ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi.

Aksariyat taqrizlar tahliliy bo'lib, ular o'z xususiyatlari bilan maqolaga yaqin turadi. Ya'ni, taqrizda ham xuddi maqoladagi kabi tahliliy mushohada yuritiladi, ayrim fikrlar oldinga suriladi, xulosalar chiqariladi. Ilmiy taqrizlarda ilmiy, adabiy-badiiy taqrizlarda adabiy-badiiy, san'at turlariga bag'ishlangan taqrizlarda esa o'sha san'atga doir tushunchalar

asosida fikr-mulohaza yuritiladi. Ammo barcha taqrizlarga xos bo'lgan narsa uning publitsistik tomonidir. Ya'ni, taqriz etilayotgan mazkur asarning ijtimoiy ahamiyati taqrizda asosiy o'rinni egallashi lozim. Ayrim taqrizlarda maqoladan tashqari – ochiq xat, sharh kabi janrlardan ham foydalanish mumkin.

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2004-yil 29-oktyabr sonida adabiyotshunos olim B.Qosimovning «Cho'lpon haqida roman» deb nomlanuvchi taqrizi e'lon qilingan. Unda taniqli adabiyotshunos olim N.Karimovning «Cho'lpon» deb nomlanuvchi romani haqida fikrlar bildiriladi. Taqriz tahlilning chuqurligi va qamrovning kengligi bilan ajralib turadi. Muallif asarga uning g'oyaviy yo'nalishi, ruhi, yozilish mahoratiga umuman ijobiy baho bergani holda ayrim muhim faktlar va voqealar, ularning haqqoniyligi, romanda qanday foydalanganligi haqida ham o'z fikrlarini bildiradi. Mazkur taqrizni ilmiy-adabiy taqrizning mukammal ko'rinishlaridan biri deyish mumkin. Gazetaning 2005-yil, 12 – avgust sonida «Kitobingizni o'qidim» rukni ostida M.Safarovning «Shirindir vatanning achchiq tutuni» sarlavhali taqrizi joy olgan. Unda yozuvchi Muhammad Alining «Abadiy sog'inchlar» deb nomlanuvchi roman-xronika janriga oid asarining yutuq va kamchiliklari tahlil etiladi. Professor B.Akramovning «Tarixiy qissalar hayrati» taqrizi («O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2004, 16-sentyabr) yozuvchi G'. Karimning «Sohibqiron va alloma» deb nomlanuvchi kitobiga bag'ishlangan bo'lib, unda tarixiy qissalar yaratishda yozuvchi mahorati masalalari haqida so'z boradi. Filologiya fanlari doktori H.Karimovning «Ziddiyatlar talqini» deb nomlangan taqrizi («O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2004, 13 avgust) esa yozuvchi A.Yo'ldoshevning «Timsohning ko'z yoshlari» deb nomlanuvchi qissalar to'plami haqida ma'lumot beradi. Filologiya fanlari nomzodi S.Umirovning «O'zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 21 – iyun sonida «Yangi kitob» rukni ostida berilgan «Mening dorilfununim» taqrizi yozuvchi J.Abdullaxonovning «Hayot abad vasl ayyomidir» asari haqida bo'lib, unda muallifning ijodiy yo'li, radiojurnalist sifatidagi faoliyati asarda qay darajada aks etganligi tadqiq qilinadi.



Taqrizlarning bir turi – tanqidiy tarzda yoziladi va ularda taqriz qilinayotgan asarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tanqid ostiga olinadi.

«O‘zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 24–mart sonida adabiy tanqidchi O.Abdullaevning «Do‘ppi kiygan chumchuq, xijolatda qolgan it, yoki tarjimon kashfiyoti» sarlavhali taqrizi joy olgan. Unda muallif Sh.Ko‘nchining Turgenevning sochma asarlarini tarjima qilishga muvaffaqiyatsiz uringanligini, uning gazetada bosilgan tarjimalari no‘noqligi, badiiy tuturiqsizligini aniq misollar bilan ochib tashlaydi. «Badiiy tarjima shunchalik ko‘ngilxushlik ermagi emas, u juda yuksak, mas’uliyati nihoyatda ulkan san’at,—deb ta’kidlaydi tanqidchi. – Uni ana shu baland ijodiy cho‘qqilardan tushirib, qadrini pasaytirib qo‘yishdan ehtiyot bo‘laylik». «Hurriyat» gazetasining 2000-yil 20 – sonida K.Yo‘ldoshevning «G‘irrom» sarlavhali tanqidiy taqrizi bosilgan. Unda Sh.Xurramov, X.Zikirovlar o‘zlarining «Mehnatni muhofaza qilish fanidan ma’ruzalar» deb nomlangan va Termizda nashr etilgan kitoblarida Toshkentda bundan oldin nashr etilgan «Ximiya o‘qitishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi» degan kitobidan butun–butun parchalarni ko‘chirib olganliklari aytiladi va bunday plagiat– adabiy o‘g‘rilik holati tanqid ostiga olinadi.

«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida adabiy asarlar bilan bir qatorda teatr va kino taqrizlari ham tez–tez bosilib turadi. S.Jo‘rabekovanning gazetaning 2005-yil 9–iyul sonida bosilgan «Sug‘d elining qoploni» taqrizi Alisher Navoiy nomidagi Katta opera va balet teatrlarining spektakli haqida bo‘lsa, T.Boboshevaning «Farishta ayol» taqrizi (bu material ham shu sonda bosilgan) Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri sahnasida tamoshabinlarga taqdim etilgan musiqali drama haqida ma’lumot beradi, tahlil etadi va baholaydi.

Taqrizlarning tili va uslubi ham ularning turiga bog‘liq. Ilmiy taqrizlarda ilmiy uslub, adabiy-badiiy taqrizlarda adabiy-badiiy uslub bo‘lishi talab etiladi. Ayrim o‘rinlarda obraz va obrazlilikdan ham foydalanish mumkin.

Inson olamining turli qirralarini aks ettiruvchi tahliliy publitsistikaning muhim janrlaridan biri – taqriz hozirgi zamon o‘zbek jurnalistikasida keng qo‘llanib kelinmoqda.

## Taqriz bo'yicha reyting topshiriqlari

1. Taqriz so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
2. Taqriz boshqa tahliliy janrlardan nimasi bilan farqlanadi?
3. Taqriz janrining fan, adabiyot, san'atning taraqqiyotiga xizmatini ko'rsating.
4. Ichki taqrizni qanday tushunasiz?
5. Taqrizning ma'nodoshlari-tanqid, bibliografiya haqida nimalar bilasiz?
6. Taqriz xillarini sanab bering.
7. Taqrizga qanday talablar qo'yiladi?
8. Teleradio taqrizlarga misollar ayting.
9. O'zbek matbuotida taqriz.
10. Taqrizning tili va uslubini ayting.

## Taqriz bo'yicha nazorat savollari

1. Baho berish degan taqriz so'zining ikkinchi ma'nosini tushuntirib bering.
2. Taqriz san'at asarlarining qaysi asarlariga yozilishini bilasizmi?
3. M.Behbudiyning taqrizni tanqid deb bilgan va uni saralamoq deb ta'riflaganiga munosabatingiz.
4. Teatr taqrizi haqida nimalar ayta olasiz.
5. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida taqriz.

### 9.7. Sharh

Tahliliy publitsistikada sharh ham alohida o'rin tutadi. Sharh so'zi arabcha bo'lib biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib tushuntirib berish, izohlash, izoh degan ma'noni bildiradi. Mazkur atamaga muqobil ravishda lotincha commentarium – biror matn yoki kitobni tushuntirib, izohlab berish degan mazmundagi kommentariy iborasi ham ishlatiladi. Ko'rinib turibdiki, sharh (kommentariy) hayotdagi biror fakt, faktlar yig'indisi, voqea, hodisa yoki biror hujjat, matn, kitob yoki boshqa biror narsani izohlash, tushuntirib berish maqsadida yoziladigan matn,

materialdir. Sharh keng ma'noda ayrim ilmiy asarlarni, yoki muqaddas kitoblarni, qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlarni izohlashda qo'llaniladi. Bu jihatdan sharhlar ilmiy, rasmiy, diniy va boshqa xillarga bo'linadi. Masalan, Qur'oni karim sharhlari, mumtoz she'riy adabiyot asarlarining nasriy sharhi, qonunlar, huquq va kodekslar sharhlari, yangi qabul qilingan farmon yoki boshqa biror rasmiy hujjat sharhlari va boshqalar. Ayrim hollarda ma'muriy sohada yoki huquqni muhofaza qilish borasida mazkur ishga aloqador kishilardan bo'lib o'tgan biror voqea va hodisa haqida olinadigan "tushuntirish xatlari" ham sharhning o'ziga xos, boshlang'ich ko'rinishidir.

Sharh jurnalistika-publitsistika janri sifatida ham keng qo'llaniladi. U hayotda yuz bergan fakt, voqea va hodisani, yoki jurnalistikada bosilayotgan biror rasmiy hujjatni sharhlash, o'quvchilarga tushuntirib berish uchun qo'llaniladi. Sharh o'zining janr xususiyati bilan maqola, hisobotga yaqin turadi, unda ham yuz bergan, bo'lib o'tgan voqea, hodisa izohlanadi va uning mohiyati ochib beriladi. Ammo u maqoladan farqli ravishda ma'lum fakt, voqea, hodisa yoki hujjatning o'ziningina sharhlash, izohlash bilan cheklanadi. Hisobotdan farqi esa bo'lib o'tgan voqea, hodisalarning borishi, tafsilotini emas, faqat undan chiqadigan ma'no va mohiyatiningina ochib berishidir.

Mazkur janr unda aks ettirilayotgan voqea va hodisalarga qarab tashqi va ichki sharhlarga bo'linadi. Tashqi sharhda xalqaro voqealar o'z aksini topsa, ichki sharhda mamlakat ichida yuz berayotgan voqea va hodisalar, rasmiy hujjatlar sharhlanadi. Xalqaro voqealarga doir sharh yozuvchi (tayyorlovchi)lar xalqaro sharhlovchilar, ichki mavzulardagi sharh yozuvchi (tayyorlovchi) larni esa iqtisodiy ilmiy va boshqa sohalarga doir sharhlovchilar deyiladi.

Sharhning bevosita jurnalistikada keng qo'llaniladigan xili publitsistik sharhdir. Publitsistik sharh hayotda yuz bergan ayrim muhim voqea, hodisa, faktlarga asoslanib yozilgan tezkor, dolzarb maqoladir. Unda o'sha voqea va hodisa, faktlar izohlanishi bilan birgalikda ularga publitsistik baho beriladi, mohiyati ochib tashlanadi. O'z xususiyatiga ko'ra publitsistik sharh ijobiy yoki tanqidiy ruhda bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda, hajviy nashrlarda hajviy sharh ham yozilishi mumkin. Bu

qalunga olinayotgan voqea, hodisa, faktlarning xususiyatidan kelib chiqib, ularga shu nashrning javobi, publitsistning munosabati hisoblanadi. Publitsistik sharh oldiga qo'yilgan asosiy talab hayot voqealari, faktlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, bu voqea, hodisalarning asl mohiyatini ochib berish orqali ularni ma'qullash yoki inkor etish, jamoatchilik fikrini quratisdir. «Xalq so'zi» gazetasining 2005-yil 7-yanvar sonida jurnalist M.Safarovning «Hayot yangi kadrlarni so'raydi» sarlavhali sharhi e'lon qilingan. Unda Respublikamizda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi jarayonlari, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan ko'p sonli akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, kelgusidagi rejalar haqida so'z boradi. Mazkur material keng qamrovli masalaga bag'ishlanganligi va uning mohiyati ochib berilganligi bilan qimmatlidir. «O'zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 2-avgust sonidan jurnalist F.Hamroevning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent tibbiyot akademiyasini tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasi qaroridan so'nggi o'ylar» deb nomlangan sharhi o'rin olgan. Unda jurnalist mamlakatimizda tibbiy oliy ta'limni yanada taraqqiy ettirish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuqoridagi hukumat farmonini sharhlaydi va bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida hikoya qiladi. N.Abduraimovning «Bag'rikenglikning yuksak namunasi» («O'zbekiston ovozi», 2005, 9-avgust) sharhida esa O'zbekiston respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi hukumat farmoni sharhlab beriladi.

Gazetaning shu yil 13 avgust sonidan joy olgan «Na issiqqa ko'nishadi, na sovuqqa» deb nom olgan sharh esa xalqaro masalalarga bag'ishlangan. Uning muallifi I.Normatov Yaqin sharqda yuz berayotgan voqealarni sharhlab beradi.

Shuningdek, ayrim ommaviy voqealar, bayram tadbirlari hamda sport o'yinlari – futbol, xokkey, boks va boshqa musobaqalarning qanday borishini sharhlashda ham bu janrdan foydalaniladi. Bunday sharhlar hisobot tarzida ham bo'lishi mumkin. Eng muhimi sharhlovchi sport o'yinining qanday borishi, uning tafsilotlarini o'quvchi (eshituvchi, tomosha qiluvchi)larga tushuntirib, izohlab berishi lozim. Ko'rinib

turibdiki, sharh ommaviy axborot vositalarining deyarli barcha ko'rinishlari – gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, axborot agentliklari va internetdan o'rin oladi. Keng ma'nodagi ilmiy, rasmiy, diniy, adabiy sharhlar esa kitoblardan joy olishi ma'lumdir.

Sharhning ichki tuzilishi, shakli va hajmi uning qanday turda ekanligiga bog'liq. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan xususiyat ma'lum fakt, voqea, hodisa, hujjat yoki biror asarga asoslanishidir. Sharhda aniqlik, asos bo'lib xizmat qilayotgan manbaning mazmunidan uzoqlashmaslik talab etiladi. Bu ayniqsa ilmiy, rasmiy, adabiy-badiiy, diniy asarlar sharhlarida shuningdek, rasmiy hujjatlarga doir sharhlarda muhimdir. Publitsistik sharhda esa qalamga olinayotgan fakt, hodisa va voqeaning mohiyati va u haqida bildirilayotgan fikr, publitsistik mushohada va chiqarilayotgan xulosa asosiy rol o'ynaydi. Sharhning uslubi va tili ham mazkur materialning qandayligidan, uning oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqadi. Publitsistik sharhning tili va uslubi esa ilmiy, adabiy-badiiy, rasmiy sharhlardan farq qilib, jonli, ta'sirchan publitsistik tilda bo'lishi lozim. Unda mantiqiy tafakkur bilan jonli fikrga xos til va tasviriy vositalar uyg'unlashib ketishi kerak. Sport o'yinlari sharhida ham mazkur mavzu sport o'yini tafsilotlari, uning ichki xususiyatlari, maxsus atamalari saqlangan holda tushunarli, jonli adabiy til va tasviriy vositalar qo'llanilishi kerak.

Hayotni fotosuratlar bilan aks ettiruvchi fotojurnalistika ham fotosharh, ayrim suratli nashrlarda tasviriy (grafik) sharhlar ham qo'llanilishi mumkin. Bularning hammasi sharh janrining ko'p qirraliligini, hayotni aks ettirishda turli vositalardan foydalanishi mumkinligini ko'rsatib turibdi.

### **Sharh bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Sharh so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
- 2. Sharh qanday asarlarni izohlashda qo'llaniladi?*
- 3. Publitsistik sharhni izohlab bering.*
- 4. Sharh turlarini bilasizmi?*
- 5. Sharh janrining tili.*
- 6. Sharhlovchining mahorati.*

7. O'zbek OAV da sharh janriga e'tibor.
8. O'zbek jurnalistlari va adiblari yozgan sharhlardan misollar keltiring.

### **Sharh bo'yicha nazorat savollari**

1. Sharh qaysi janrlarga yaqin turadi va nega?
2. Sharhning maqoladan farqini ayting-chi?
3. Tashqi va ichki sharh.
4. Fotosharhni qanday tushunasiz?
5. Televideniye va radiosharh janri.

---

## 10 BOB. BADIY PUBLITSISTIKA

Ma'lumki, jurnalistika materiallarining o'zagini publitsistika tashkil etadi. Publitsistika ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlaridan bo'lgan adabiyot va san'atda ham keng o'rin egallaydi, ammo uning asosiy faoliyat ko'rsatadigan maydoni jurnalistikadir. Badiiy publitsistika – publitsistikaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati va publitsistikaning boshqa qismlaridan farqi uning ijtimoiy hayotni aks ettirishda adabiy-badiiy vositalardan keng foydalanishi hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, badiiy publitsistika hayotni adabiyot nuqtai nazaridan yorituvchi ijtimoiy-ijodiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy publitsistika foydalanadigan adabiy-badiiy vositalar orasida obraz va obrazlilik asosiy o'rin tutadi. Ya'ni, badiiy publitsistikaning asosiy qonuni, bosh xususiyati unda obraz va obrazlilikning mavjud bo'lishidir.

Obraz so'zi ancha murakkab tushuncha bo'lib, u aslida ruscha otobrazit-chizmoq, ko'rinish bermoq degan so'zdan olingan va tasavvurdagi ko'rinish qiyofa, shakl, timsol degan mazmuni beradi. Obraz bu – san'atning o'ziga xos bir ifoda ko'rinishi, san'atkorning voqelik haqidagi tasavvurining aniq, yorqin his etadigan bir tarzda gavdalanishidir. Kengroq qilib aytganda obraz ongda borliqning jonli, hayotiy tarzidagi aksi, in'ikosidir. Obrazlilik esa borliqning in'ikosida obraz unsurlarining mavjudligi, ishtirok etishi demakdir. Ya'ni obrazlilik-faqat inson tasviridagina emas, holat, tabiat manzaralari, fakt hodisa va voqealarning jonli, yorqin tasvirlanishidir. Obrazlilik og'zaki nutqda, xalq og'zaki ijodida, yozma adabiyot va san'atning barcha turlarida mavjuddir. Obraz obrazlilikdan o'z yaxlitligi, mukammalligi bilan farq qiladi. Obraz yaratish va obrazlilikda o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, metonimiya (bir so'z o'rniga kinoya, kesatq tarzida ikkinchi so'zni ishlatish), istiora (so'zni ko'chma ma'noda ishlatish), sarkazm (achchiq kinoya, istehzo) va boshqa badiiy vositalar keng qo'llaniladi. Yuqoridagilar badiiy adabiyot sohasida bo'lib, musiqa, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, kino, teatr,

me'morchilik va san'atning boshqa turlarida har bir san'atning o'ziga xos tasviriy vositalari qo'llaniladi.

Publitsistikada obraz va obrazlilik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi, bu xususiyatlar publitsistikaning zimmasiga yuklangan, unga qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Badiiy adabiyot va san'atda keng ma'noda o'z ifodasini topishi mumkin bo'lgan obraz va obrazlilik publitsistikada ma'lum darajada cheklangan va o'ziga xos ifodalangan bo'ladi. Bu publitsistikaning asosiy vazifasi bo'lmish shu kun, ayni zamonni aks ettirish, undagi muammolar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, hayotni publitsistik jihatdan tahlil qilish va zarur xulosalar chiqarish zarurati bilan bog'liqdir. Ya'ni, so'z san'ati bo'lmish adabiyotda keng imkoniyatlarga ega bo'lgan obraz va obrazlilik so'z siyosati bo'lmish publitsistikada o'ziga ajratilgan o'ringagina ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda publitsistikaning ijtimoiy-ijodiy to'qimasida mavjud bo'lgan siyosat, fan badiiy ijod mahsuli bo'lgan obraz va obrazlilikka kerakli darajadagina o'rin beradi va u publitsistik asar oldiga qo'yilgan maqsad, hamda chiqarilishi lozim bo'lgan ijtimoiy xulosaga xizmat qiladi.

Publitsistikaning axboriy qismida obraz va obrazlilik qattiq cheklangan, aksariyat hollarda esa ortiqcha hisoblanadi. Chunki bu qism publitsistikaning asosiy vazifasi ommaga faktlar, voqea va hodisalar haqida xabar beradi, yangiliklar yetkazadi. Bu o'rinda obraz va obrazlilikning aralashuvi xabar, yangiliklar haqidagi tushunchalarning buzilishiga olib keladi. Publitsistikaning ikkinchi bir muhim qismi bo'lgan hamda hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni baholash, tahlil etish orqali ularning mohiyatini ochib berishga qaratilgan tahliliy publitsistikada ham obraz va obrazlilikdan foydalanish cheklangan tusda bo'ladi. Ammo ayrim hollarda, kishilar faoliyatini yoritishda ma'lum darajada obrazlilik, jonlantirish, tasvir vositalari qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birgalikda hayotdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berish, jonlantirish, odamlarning his-tuyg'ularini uyg'otish uchun ma'lum ma'noda obraz va obrazlilik kiritilishi mumkin. Faqat badiiy publitsistikada obraz va obrazlilik keng qo'llaniladi, chunki badiiy publitsistik materiallarda hayotiy voqealarni jonlantirib tasvirlanishi, insonlar faoliyati, voqea va hodisalar keng, har taraflama aks ettirilishi, o'quvchining ongigagina emas



his-tuyg'usiga ham ta'sir etish talab etiladi. Bu badiiy publitsistikaning janrlarida o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki janr – shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan san'at asari turidir. Publitsistika janrlari ham shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga egadir, ular ham xuddi adabiyot va san'atdagi janrlar singari kichikdan kattaga, yagonadan umumiyga, oddiylikdan mukammallikka o'sib boradi.

Publitsistikaning badiiy turiga oid janrlar lavha, ocherk, esse, feleton va pamfletdir. Mazkur janrlarda hayot voqealari, muammolari keng tarzda yoritilishi sababli ularda xabardor etish, tahlil qilish bilan birgalikda badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalaniladi, hamda ularda obraz va obrazlilik keng qo'llaniladi. Ammo mazkur janrlarda ham obraz va obrazlilik bu janrlarga oid hayot voqealari, ya'ni ularning mavzusi hamda jamoatchilik fikrini uyg'otish uchun chiqariladigan publitsistik xulosalarga xizmat qilishi lozimdir. Biz quyida mazkur janrlarning o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi obraz va obrazlilik darajasi va boshqa badiiy publitsistik vositalarni ko'rib o'tamiz.

### **Badiiy publitsistika bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Badiiy publitsistikaning asosiy xususiyatlarini ayting.*
2. *Badiiy publitsistika qanday faoliyat yuritadi?*
3. *Publitsistikada obraz va obrazlik qanday xususiyatlarga ega?*
4. *Badiiy publitsistika janrlarini ayting.*
5. *Obraz va obrazlilik degan iboralarni sharhlang.*
6. *Publitsistik tadqiqot badiiy publitsistikada ishlatiladimi, tushuntirib bering.*
7. *O'zbek OAVda badiiy publitsistikadan foydalanish.*

### **Badiiy publitsistika bo'yicha nazorat savollari**

1. *Badiiy publitsistikaning publitsistikaning boshqa qismlaridan farqini ayting.*
2. *Lavha va ocherk janri haqida nima bilasiz?*
3. *Feleton bilan pamflet janrlari haqida bilganlaringiz.*

#### *4. Tadqiqot va tasviriy vositalarning mutanosibliги haqida nimalar bilasiz?*

##### **10.1. Lavha**

Lavha soʻzi arabchadan olingan boʻlib, biror narsa yozilgan taxtacha, koʻrinish, manzara degan maʼnolarni bildiradi. Lavha publitsistikaning kichik janrlaridan biri boʻlib, aslida axboriy-xabardor etuvchi janrdir. Uning vazifasi hayotdagi biror fakt, voqea va hodisa haqida xabar berish, oʻquvchiga tanishtirishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda lavha oddiy axborotdan, xabardan farq qilib, hayot voqea va hodisalarini kengroq tasvirlash, hayotdan olingan bir koʻrinishni, kishilar faoliyati haqidagi muayyan bir maʼlumotlarni oʻquvchi koʻz oʻngida jonlantirib berish, tasavvur hosil qilishdan iborat maqsadga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan unda ayrim badiiy-tasviriy vositalar – tabiat manzaralari, inson faoliyati, mehnat, izlanish koʻrinishlari, zarur boʻlganda inson qiyofasi va boshqa tasvirlarga oʻrin beriladi. Odatda lavha hayotdagi ijobiy xususiyatga ega boʻlgan va boshqalarga namuna sifatida xizmat qiladigan voqea va hodisalar, insonning yaratuvchilik faoliyati, samarali mehnati, erishgan yutuqlarini tasvirlashga bagʻishlanadi. Ayrim hollarda esa hayotdagi kamchilik va nuqsonlarni yoʻqotish, salbiy hollarni tanqid qilish uchun tanqidiy, hajviy lavhalar ham boʻlishi mumkin. «Xalq soʻzi» gazetasining 2005 yil , 7 sentyabr sonida «Alpomish» uyqudan uygʻonadimi?» sarlavhali tanqidiy lavha berilgan. Unda Surxondaryo viloyatining Jarqoʻrgʻon tumanida tashkil etilgan don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Alpomish» deb ataluvchi Oʻzbekiston–Amerika qoʻshma korxonasi ishida kamchiliklar ochib tashlanadi. Oddiy korrespondensiyadan farqli ravishda unda ishdan toʻxtab qolgan korxonani uxlab qolgan xalq qahramoni Alpomishga oʻxshatish va boshqa obrazli vositalardan foydalaniladi.

Lavhada fakt, voqea-hodisalar haqida xabar berish, ularni maʼlum darajada tahlil etilishi bilan birgalikda hayotni yorqinroq jonlantirish orqali tasvir etilishi taqozo etiladi. Bu esa oʻz navbatida unda obraz va obrazlilikdan foydalanishni talab qiladi. Ammo lavhada biror voqea yoki hodisa yoxud kishi faoliyatining barcha tafsilotlari emas, balki maʼlum bir

purchasi yoritib beriladi. Masalan, biror olim, muallima, sportchi yoki san'atkorning o'z faoliyati, erishgan yutuqlari lavhada o'z aksini topishi mumkin. Ya'ni, lavha janri hayot voqealari va hodisalarini jonli tarzda tasvir etishning publitsistikadagi ilk, dastlabki ko'rinishidir. Jurnalistikada – gazeta va jurnal lavhasi bilan bir qatorda radiolavha va televahalar ham mavjud. Ularning o'ziga xos hususiyatlari radio va televideniyeining talablaridan kelib chiqadi.

Lavhani respublika, markaziy umumsiyosiy, ixtisoslashgan va tarmoq gazetalari hamda viloyat, tuman gazetalari ko'plab uchratish mumkin. Bu qulay va ta'sirchan janr jurnallar sahifalaridan ham keng o'rin oladi. Umuman olganda lavha o'zbek jurnalistikasining doimiy va keng uchraydigan janri hisoblanadi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2005-yil 9–sentyabr sonidan o'rin olgan «Eski Jo'vadagi mo'jizalar» sarlavhali materialni gazeta lavhasining tipik ko'rinishi deyish mumkin. Lavha muallif jurnalist Rustam Musurmon poytaxtimizning Eski Jo'va mavzeida keyingi paytda yuz bergan o'zgarishlar, obodonchilik haqida shunday deb yozadi:

«Mustaqilligimizning 14 yilligi bayrami munosabati bilan shahrimizda ulkan bunyodkorlik inshootlari, bog'lar, ko'priklar, saroylar, ajoyib inshootlar ishga tushurildi. Xususan, Toshkentning Eski shahar hududida bayram arafasida ochilgan Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, O'zbek liboslari galereyasi, bolalar ijodiyoti uyi shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shdi. Bugun Eski Jo'va bozori maydonini aylanarkansiz, Prezidentimiz aytganidek bu yerda faqat Eski Jo'va degan eski nomning o'zigina qolganini, qiyofasi mutlaqo yangicha, zamonaviy tarzda o'zgarib ketganiga amin bo'lasiz».

Lavha davomida muallif bu yerda barpo etilgan Bolalar ijodiyoti uyi va boshqa inshootlarning o'ziga xos me'moriy ko'rinishlarini birma–bir zavq bilan tasvirlaydi, ularda olib borilayotgan ishlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Lavha obrazli ifodalar, ko'tarinki ruh bilan sug'orilganligi boisidan o'quvchiga ma'qul tushadi.

Mazkur janr hayotning turli qirralari, shu jumladan ishlab-chiqarish bilan bog'liq fakt va voqealarni xabar qilishda ham qo'l keladi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Denov shahrida chiquvchi mahalliy ijtimoiy–

siyosiy gazeta bo'lgan «Chag'aniyon» bu janrdan unumli foydalanadi. Uning shu yil 18 sentyabr sonining birinchi sahifasida «Xosiyat opaning shjoati» sarlavhali lavha berilgan. Unda tumandagi Xosiyat Rahimova boshqarayotgan «Otabek» fermer xo'jaligida o'sha kunlarda qizg'in olib borilayotgan paxta terimi manzarasi tasvirlangan. «Biz kuni kecha Xosiyat opa boshliq dehqonlar dalasida bo'lib qaytdik,— deb yozadi lavha muallifi N.Temirov. — Oppoq, qiyg'os ochilgan paykallarda terim avjida. Dala boshida samovar qaynab turibdi. Tushlikka esa issiq ovqat tayyorlanmoqda. Terimda ishtirok etayotganlarning kayfiyati ko'tarinki. Bu yerda tushlik ovqat terimchilar uchun bepul qilib qo'yilgan. Chunki ferma g'alladan mo'l hosil olganligi tufayli kelgan foydaning bir qismini terimchilarning kundalik ehtiyojlari uchun ajratilgan... Endigi maqsad esa 16 gektar maydonga ekilgan paxta hosildorligini 55 sentnerga yetkazishdir». Lavha davomida ferma a'zolarining terimda erishayotgan yutuqlari, mehnat va hayotlari o'ziga xos obrazli tarzda, chiroyli tasvirlab beriladi. Gazetaning shu sonidan o'rin olgan «Denovda Barchinoyu alplar yig'ildi» sarlavhali lavhada esa Denovda o'zbek kurashi bo'yicha O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqa haqida hikoya qilinadi.

Lavhaning tanqidiy turi ham mavjudligini yuqorida aytib o'tgan edik. «Chag'aniyon» gazetasining yuqoridagi sonida bu janr ham uning sahifasidan joy olgan. Iqtidorli jurnalist Baxtiyor Ollomurodning «Talaba madaniyatni kimdan o'rganadi?» sarlavhali materiali bunga misoldir. Muxbir o'z lavhasiga kundalik hayotda tez-tez uchrab turadigan voqea — ayrim rahbarlarning oddiy kishilar bilan so'zlashganda ularni mensimaslik va qo'pollik qilish hollarini qalamga oladi. Lavhadan ma'lum bo'lishicha muxbir Surxondaryo davlat universitetining yangi bo'lgan rektori bilan suhbatlashish uchun universitetga boradi, rektor esa unga o'ta kalondimog'lik bilan muomila qiladi. Muxbir voqea qanday bo'lsa shundayicha keltirar ekan, shunday katta dargohning rahbari biroz madaniyatliroq bo'lishi ham kerak, degan fikrni o'ta noziklik bilan «qistirib» o'tadi. Bu tanqidiy lavhaning «jiddiy tanqidiy maqola», hatto feletondan ham a'loroq darajada mo'ljalga tegishi va o'z ta'sirini ko'rsatishi turgan gap. Shu bilan birgalikda lavhaning ilmiy, adabiy-badiiy,

shu jumladan she'riy ko'rinishlari ham mavjud. Bu mazkur janrning hayotni tasvirlashdagi keng imkoniyatlaridan dalolat beradi.

### **Lavha bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Lavha so'zining lug'aviy ma'nosini bilasizmi?*
2. *Lavhaning vazifasini ayting.*
3. *Lavha OAV qaysi turlarida uchraydi?*
4. *Gazeta lavhasining tipik ko'rinishiga misol keltiring.*
5. *Lavhaning ko'rinishlarini izohlang.*
6. *She'riy lavha xususiyatlarini sanang.*

### **Lavha bo'yicha nazorat savollari**

1. *Tanqidiy lavhaga misol keltiring.*
2. *Telelavha, radiolavha gazeta va jurnal lavhasidan farqlanishini izohlang.*
3. *Ilmiy lavha bilan adabiy-badiiy lavhaning farqini ayting.*
4. *Lavhada xulosalarga qanday o'rin beriladi?*  
*She'riy lavha xususiyatlarini sanang.*

## **10.2. Ocherk**

Ocherk badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biridir. Ocherk so'zining lug'aviy ma'nosi ruscha "чертит, очерчивать" so'zidan olingan bo'lib, "qoralamoq, yaxlit etib ko'rsatmoq" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ocherk muayyan muddao asosida mushohada qilingan faktlar, voqea va hodisalarning eng muhim belgilarini, kishilar harakatidagi eng asosiy xususiyatlarini badiiy-publitsistik aks ettiradi va o'quvchida yaxlit tasavvur, muayyan tushuncha hosil qiladi. Ya'ni, yuqorida aytilganday u badiiy publitsistikaga xos janrdir.

Ocherkka berilgan ilmiy ta'riflar turlichadir. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «ocherk - hayotiy faktlarni qisqacha tasviridan iborat kichikroq badiiy asar», deyiladi. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ocherk ta'rifiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan. «Jurnalist spravochnigi» da esa «Ocherk – kishilar haqida obrazli tasavvur berish, ularni harakatda

ko'rsatish, voqealarning mohiyatini ochib beruvchi janrdir», deyiladi. Bu ta'rifda ham mazkur janarning barcha xususiyatlari ochilmagan, chunki ocherk faqat kishilar haqida emas, biror ijtimoiy, tabiiy-ekologik va boshqa muammolar haqida ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, yuqoridagi ta'rifda aytilgan «voqealarning mohiyatini ochib berish» hususiyati faqat ocherkkagina emas, publitsistikaning boshqa janrlariga ham xosdir. Rus tadqiqotchilaridan E.I.Jurbina bu janrga «Ocherk-badiiy adabiyot va publitsistikaning murakkab ko'p qirrali shaklidir», deb ta'rif beradi. Bu ta'rifning kamchiligi shundaki, unda ocherk ham badiiy adabiyot ham publitsistikaning janri etib ko'rsatilmoqda. Bu ma'lum darajada noaniqlikka olib keladi. Yana bir rus tadqiqotchisi K.V.Kovalevskiy esa «Ocherk - o'quvchiga kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur beradi», deb yozadi. Bu ta'rif ham ilmiy aniq va mukammal emas, chunki badiiy adabiyotga xos bo'lgan barcha janrlar – she'r, hikoya va boshqa janrlar ham «kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur» beradi. O'zbek tadqiqotchisi O.Tog'ayev

mazkur janrga: “Ocherk gazeta janrlari orasida eng murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob janrdir” deb tushuncha beradi. Bu ta'rif ham ilmiy mukammal emas, chunki ocherk jurnaldan ham, radio va televideniya orasidan ham joy oladi, ikkinchidan – badiiy publitsistik janrlardan feleton va pamflet ham murakkablikda ocherkdan qolishmaydi, “Ziyrak” tushunchasi esa ijodiy asarga emas, odamga ishlatiladi, “ixcham” tushunchasi ham ocherkka hajm jihatidan to'g'ri kelmaydi, chunki xabar, axborot ocherkdan “ixcham”roq, hozirjavoblik nuqtai nazaridan xabar, reportaj, sharh ocherkdan oldinroq turadi va hokazo. Bizningcha, ocherk – badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri bo'lib, voqelikni obrazlar va obrazlilik vositasida tasvirlaydi va hamda publitsistik xulosalar chiqaradi. Ya'ni, ocherk hayotdagi voqea va hodisalar, faktlar, muammolarni obraz va obrazlilik yordamida aks ettiradi, ularni publitsistik yo'l bilan tadqiq etadi hamda ularga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'otuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy xulosalar chiqaradi.

Ocherk badiiy-publitsistik janr bo'lganligi uchun unda badiiy adabiyotga xos bo'lgan vositalar bilan publitsistik xususiyat uzviy bog'lanib ketadi. U so'z san'ati bilan so'z siyosati uyg'unlashuvchi,

boshqacha qilib aytganda – siyosat, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy fikr, maqsad badiiy adabiyot vositasi, san'at so'zi bilan aytiluvchi janrdir. Ya'ni, ijtimoiy voqelikni aks ettirishning alohida bir turi bo'lgan publitsistika jamiyat haqida ma'lumot berish, uning muammolari haqida jamoatchilik fikrini uyg'otish bilan shug'ullanar ekan, xuddi ana shu vazifalarni badiiy vositalar ko'magida amalga oshiradi va uning bunday serqirra janri ocherk deb ataladi. Unda badiiy adabiyotga xos bo'lgan belletristika (naqlchilik) va jurnalistikaga xos bo'lgan publitsistika (ijtimoiyot) birlashib ketadi. Ocherkning badiiy talabi undagi voqelikning obrazli tasviri, inson qiyofasi va ichki dunyosi, mehnati va intilishlari, yaratuvchilik faoliyatini badiiy vositalar bilan jonlantirib tasvirlashdan iborat bo'lsa, uning publitsistik jihati muallifning voqea va hodisalar, unda ko'tarilgan muammolar haqidagi fikr-mulohazalari, chiqargan xulosalaridan iboratdir. Ocherkda obraz va obrazlilik o'xshatish, qiyoslash, sifatlash, emotsionallik, obrazli tafakkur va tasvir jonli til va uslub, tipiklashtirish, badiiy to'qima bilan fakt uyg'unligi, syujet, kompozitsiya va boshqa badiiy vositalar orqali o'z ifodasini topsa, uning publitsistikaga oid qirrasida esa fakt tanlash, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy jihatdan chuqur tadqiq va tahlil qilish, baholash, zarur xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ocherkchidan publitsist sifatida hayotdagi fakt va hodisalarni tanlab olish, ular haqida chuqur mushohada yuritish bilan birlikda ijodkor, yozuvchi sifatida ham ish olib borib olingan fakt va hodisalarni badiiy vositalar orqali obrazli tasvirlash, kishilar obrazini yarata olish, badiiy-publitsistik mushohada yuritishni talab qiladi.

Ocherk o'z shakli va yo'naltirilgan maqsadi hamda obyektini nuqtai nazaridan turlicha bo'lib, ular portret ocherki, voqea ocherki, muammo ocherki, yo'l ocherki, sud ocherki va boshqalardan iboratdir. Ocherkning bu xillariga xos bo'lgan umumiylik - hayotni obraz va obrazlilik yordamida tasvirlanishi bo'lib, farqlari esa mazkur tasvirning biror jihatiga kengroq o'rin berilishi hisoblanadi.

Ocherk turlari orasida portret ocherk asosiy o'rin tutadi. Portret ocherkda bir yoki bir necha kishi (guruh, jamoa) tasvir etilishi mumkin. Asosiy vazifa ocherk qahramoni yohud qahramonlarining xarakterini ochib bera olishdir. Portret ocherkining mavzu doirasi keng bo'lib, u ijtimoiy-

siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarini, inson mehnati va yaratuvchilik faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olishi mumkin. Portret ocherki odatda jamiyatning yetakchi sohalarida - ijtimoiy hayot, xalq xo'jaligi, fan-texnika, adabiyot va san'at sohasida faoliyat ko'rsatib jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shayotgan, mehnatda yuqori natijalarga erishayotgan, yangiliklar, ixtirolar yaratayotgan kishilar – ilg'or ishchilar, dehqonlar, olimlar, san'atkor va boshqa kasb egalariiga bag'ishlangan bo'ladi.

Jahon va o'zbek jurnalistikasida portret ocherkka ko'plab misollar keltirish mumkin. Bu xildagi ocherklarning ildizi qadimgi yozma adabiyotimizga borib taqaladi. Jumladan, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning o'z safdoshlari haqida yozgan «Holati Said Gasan Ardasher», «Holati Pahlavon Muhammad» kabi tarixiy-memuar asarlarida portret ocherk xususiyatlarini ko'rish mumkin. Zahridin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham portret ocherkka xos bo'lgan xususiyatlar - ayrim odamlarning ijtimoiy-badiiy qiyofalari yaratilganligini ham ko'rish mumkin. Taniqli rus yozuvchilari L. N. Tolstoy, I. Turgenov, V. Korolenko, M. Gorkiyalar ham qator portret ocherklar yaratishgan. O'zbek adabiyotida A. Qodiriy portret ocherk sohasida samarali ijod etgan. U yaratgan «G'irvonlik Mallavoy aka» asarini bu janrning yetuk namunasi deyish mumkin. G'.G'ulom, A. Qahhor, Oybek, H. Olimjon va boshqalar ham mazkur janrga oid qator asarlar yaratdilar. Masalan, H. Olimjonning mashhur "Zaynab va Omon" poemasi shoir oldinroq yozgan Zaynab Omonova haqidagi ocherki asos bo'lib xizmat qilgan edi. Keyingi yillarda sarmahsul jurnalist I. Rahim bu janrda yaxshi muvaffaqiyat qozondi. Ammo shuni aytish kerakki, sovet davri jurnalistikasida yaratilgan portret ocherklarning aksariyati partiyaviy-sinfy nuqtai nazardan yozilganligi boisidan bir yoqlamalik, cheklanganlik illatiga egadir. Ishlab chiqarish ilg'orlari haqida yozilgan ko'pgina ocherklarda qahramonni haddan tashqari oshirib maqtash, faktlarni xaspo'shlash kabi salbiy holatlar ko'p uchraydi.

Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgach boshqa badiiy-publitsistik janrlar qatorida ocherk janri ham yangicha yo'ldan bora boshladi. Hozirgi davr o'zbek jurnalistikasida portret ocherki ham shu



xususiyatga egadir. Bu xil ocherklarning qahramonlari xalqqa mo‘l-ko‘l mahsulot yetishtirib berayotgan fermerlar, yangi korxonalar ochayotgan tadbirkorlar, yangilik yaratayotgan olimlar, fan va madaniyat arboblari bo‘lmoqdalar. «Xalq so‘zi», «O‘zbekiston ovozi», «Hurriyat» va boshqa gazetalar sahifalarida ocherkning mazkur janriga tez-tez o‘rin berib turiladi. Yozuvchi Erkin Samandarning «Hurriyat» gazetasining 2004-yil 15-iyun sonidan o‘rin olgan «Ogahiyning qo‘lini olgan rais» sarlovhali ocherki ham shu kunning qahramonlari bo‘lmish izlanuvchan, yaratuvchan kishilar haqidadir. Unda Xiva tumanidagi Ogahiy nomli jamoa xo‘jaligining raisi Otazar Pirnazarovning hammaga namuna va ma‘qul bo‘lgan ishlari, faoliyati haqida hikoya qilinadi. Ocherk davomida undagi voqealarda muallifning ham ishtiroki tasvir etilgan. Gap shundaki ocherk qahramoni rais bo‘lgan jamoa a‘zolari yashaydigan Qiyot qishlog‘i xorazmlik ulug‘ o‘zbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiy tug‘ilib o‘sgan joy edi. Faqatgina ekinlardan yuqori hosil olishnigina emas, balki qishloq obodonligi masalalari, tarixiy–ma‘naviy masalalarni ham o‘ylab yuruvchi rais o‘z qishlog‘idagi bir tup tutning shoir Ogahiy tomonidan ekilganligini aniqlaydi va paxtazor o‘rtasida o‘sgan ana shu tabarruk daraxtni saqlab qolish va uni avaylashni o‘z bo‘yniga oladi. Buyuk ajdodlar xotirasini joyiga qo‘yish, ular hoki yotgan joyni obod qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan olijanob va savobmand rais Ogahiy qabrini ham izlab topishda bosh–qosh bo‘ladi va uning qabri ochib ko‘riladi. Ma‘lumotlarga qaraganda shoir Ogahiy yetti tut daraxtidan yasalgan sandiqqa joylanib dafn etilgan ekan. Qishloq oqsoqollari qabrni topishib, sandiqni ochishadi va shoirning xuddi tirikday, chirimasdan yotganini ko‘rishadi.

«– Shunday qilib, hazratning bo‘y–bastlarini ko‘rdingizmi? - deb so‘raydi yozuvchi raisdan.

– Ko‘rdim... O‘rta bo‘yli ekanlar. Yuzlari dumaloqdan kelgan, peshonalari keng ekan. Ne qilishimni bilmay qo‘llarini ushlabman deng.

– Hazrat Ogahiyning qo‘lini olibsiz–da?

– Shukur!

Muhammad Rizo Ogahiy tavalludining 190 yilligi tantanalarida qatnashish uchun Qiyotga kelgan O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tumonat odam ichida Otazar Pirnazarovga yuzlanib

dedi: «Otangizga rahmat, Ogahiy bog'ini yaratib, qabrini obod etib, ko'p savob ish qilibsiz. Siz qilgan ishning jamuljamini bir so'z bilan Ma'naviyat desa bo'ladi»!

Jurnalist Yu.Berdievning oldin jurnalistikada bosilgan, keyinroq esa uning ocherklar to'plamiga kirgan «Biz nechun sevamiz shoirni» sarlavhali ocherki (adabiyotshunos olim N.Karimov bilan hamkorlikda yozilgan)da esa xalqimizning sevimli shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning hayoti va ijodi haqida hikoya qilinadi. Muallif mashhur shoirning tug'ilishi va bolaligidan tortib, O'zbekiston xalq shoiri darajasigacha o'sib yetish yo'lini birma-bir, badiiy lavhalarda ochib beradi. Ocherkda muallifning o'z qahramoniga nisbatan mehr-muhabbati uning har satrida sezilib turadi, shu boisdan ham uning tasviri tiniq va jozibali. Shoirlilik mahoratini ko'rsatish uchun esa uning eng mashhur she'rlaridan misollar keltirilib, badiiy tahlil ham qilinadi. Ocherkda Abdulla Oripovning atoqli shoir sifatida nom chiqarishida uning she'rlarida oldinga surilgan ezgulik g'oyalari, xalq qalbining tarjimoni ekanligi alohida ta'kidlab ko'rsatiladi. Iqtidorli jurnalist Qo'chqor Norqobilning «Hayot mardning yelkasida» deb nomlanuvchi ocherkida esa o'z hayotida ko'p voqealarni boshidan kechirgan, Ikkinchi jahon urushining eng qonli janglarida ishtirok etgan va tinch mehnat sohasida ham samarali faoliyat ko'rsatgan Akbar aka Azizovning hayot yo'li haqida hikoya qilinadi. Jurnalistikaimizda bu xildagi portret ocherklar anchaginadir. «O'zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 17-mart sonida S.Dadaxo'jaevning «Lolaqizg'aldoqni sog'inib yashaydigan odam» sarlavhali ocherki bosilgan. Bu asarda o'z mehnati bilan yerni yashnatayotgan vodiylik Abduqodir hoji Qo'ziboev haqida hikoya qilinsa, A.Xonimqulovning «Yorug' osmon ostida» deb nomlangan ocherkida (shu gazeta, 2005-yil, 30-iyun) Zomin o'rmon xo'jaligi xodimi O'rmon Qoraboevning hayoti, mehnati haqida so'z boradi. A.Xonimqulov o'z ocherkida o'zi ham shu tog' o'rmonlari bag'rida dunyoga kelganligi boisidan O'rmon deb nom olgan, butun umri shu yerda o'tgan, tabiatni e'zozlash bilan, o'zi qo'riqlaydigan to'qaydagi har bir daraxtni biluvchi va avaylab-asrovchi tabiat shaydosi bo'lgan inson obrazini yarata olgan. Jurnalist Matnazar Abdulhakimning «Zaminga suv tutgan odam» ocherki

(«Xalq soʻzi», 2005-yil 22-mart) ni oʻqigan gazetxon butun umrini saholarga suv chiqarishga bagʻishlagan xorazmlik mashhur irrigator Oʻktam Muhammadiev haqida keng maʼlumot olish bilan birlikda asardan badiiy zavq ham olish mumkin. Yozuvchi X.Toʻxtaboevning «Hayotning har lahzasi» ocherki («Xalq soʻzi», 2005-yil, 30– iyun)da inson hayotini saqlashda jonbozlik koʻrsatuvchi shifokor dotsent Akbar Asqarov haqida hikoya qilinsa, Yu.Berdievning «Pok opa» sarlavhali ocherkida (yuqoridagi gazeta, 2005-yil, 5–aprel) Xivadagi Mehribonlik uyining direktori, har bir yetim bolaga oʻz farzandidan ham ortiqroq qarovchi tarbiyachi, Oʻzbekiston qahramoni Vera Borisovna Pakning faoliyati yoritib beriladi. Portret ocherklar gazeta va jurnallar bilan bir qatorda radio va televideniya ham muttasil berib borilmoqda.

Ocherkning muhim turlaridan biri voqea ocherkidir. Voqea ocherki boshqa turlardagi ocherklardan oʻzining biror voqeaga bagʻishlanganligi bilan ajralib turadi. Portret ocherkida inson faoliyati va ayniqsa xarakteri birinchi oʻrinda tursa voqea ocherkida birinchi oʻrinda muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalar, chunonchi, biror yirik bunyodkorlik ishining amalga oshirilishi, zavod yoki fabrika yoki yoʻl qurilishi va boshqa voqealar turadi. Bunda ocherkchi asosiy eʼtiborini yuz bergan voqea va uning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatiga qaratadi, uni ham publitsistik tahlil qiladi, ham obrazli tasvirlaydi. Voqea ocherkida kishilar obrazi ham beriladi, ammo bu obrazlar umumiy mavzuga boʻysuirladi.

Shuni aytish kerakki, ayrim portret ocherklar ham maʼlum voqealarga asoslangan boʻlishi mumkin. Chunonchi, biror ilgʻor ishchi, qishloq xoʻjaligi xodimi, olim, tarbiyachi, yosh sanʼatkorlarning yuksak davlat mukofotlariga sazovor boʻlishi ham oʻsha kishi haqida ocherk yozilishiga sabab boʻladi. Bu oʻrinda portret ocherk va voqea ocherki birlashib ketadi.

Umuman olganda, oʻzbek voqea ocherkining tarixi ham uzoqlarga boradi. Mashhur “Boburnoma”, Amir Temur haqida yozilgan “Zafarnoma”lar va boshqa tarixiy asarlarda voqea ocherki elementlari koʻp uchraydi. Rus adabiyotida M.Gorkiyning koʻpgina ocherklari voqea ocherkiga misol boʻladi. Oʻzbek jurnalistikasida 30-yillarda amalga oshirilgan yirik qurilishlar, sanoat korxonalarining ishga tushirilishi haqida qator voqea ocherklari yaratilgan. II jahon urushi paytida oʻzbek

askarlarining ko'rsatgan qahramonliklari haqida yozilgan ko'pgina ocherklar ham voqea ocherki hisoblanadi.

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligiga erishgandan so'ng mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, barpo etilayotgan yirik sanoat korxonalari, qurilayotgan yangi yo'llar, shahar va qishloqlar qiyofasining o'zgarib borishi, ishga tushirilayotgan konlar va boshqa ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy-madaniy voqealar o'zbek jurnalistikasi, radio va televideniyasida voqea ocherkining ham mavzusi bo'lishi mumkin. Bu haqda ocherkchi jurnalistlar o'ylab ko'rishsa bo'lardi.

Ocherkning yana bir turi - muammo ocherkidir. Muammo ocherkining asosiy vazifasi jamiyat hayotidagi biror bir ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muammoni topib yoritish, o'quvchida bu borada yaxlit tushuncha hosil qilish, mazkur muammo bo'yicha jamotchilik fikrini uyg'otishdan iboratdir. Unda obraz va obrazlilik alohida xususiyat kasb etadi. Chunonchi, bu xil ocherklarda ularga mavzu qilib olingan muammolar birinchi o'rinda turadi, kishilar obrazi va tasviriy obrazlilik ana shu muammoni ochib berish uchun xizmat qilishi lozim. Muammo ocherki uchun shu zamonga taalluqli va ochilishi zarur bo'lgan masala, muammolargina olinishi, muallif tomonidan malakali hal etish yo'llari xolis ko'rsatib berilishi lozim. Buning uchun ocherkchi o'zi ko'tarib chiqayotgan masala, muammoni va u tegishli bo'lgan sohani chuqur bilishi, mustaqil fikrga ega bo'lishi lozim. Bunday ocherklarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy, tadqiqot asosiy rol o'ynaydi. Muammo ocherki rus adabiyoti va jurnalistikasida keng tarqalgan. Masalan, A.Chexov, G.Uspenskiy, keyingi davr ocherkchilaridan V.Ovechkin, A. Agranovskiylarning qator ocherklari bunga misol bo'la oladi. O'zbek jurnalistikasida ham Ibrohim Rahim, J. Abdullaxonov va boshqalarning Orol dengizi muammolari, Qarshi cho'lining o'zlashtirish masalalari va boshqa mavzulardagi muammo ocherklari ma'lum.

Mustaqillik davrida respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va ma'naviy islohotlar, sanoat, qurilish sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, qishloq xo'jaligimizni qayta qurish borasidagi katta tadbirlar, fan-texnika, sog'liqni saqlash, ta'lim va hayotimizning boshqa sohalaridagi tez sur'at bilan qilinayotgan ishlar,

yangiliklar ocherkchilarimizdan yangi-yangi muammolar ko'tarilgan, chuqur mulohaza, mushohida va takliflarga boy ocherklar yaratishni talab etmoqda.

Ocherkning yana bir xili – yo'l ocherkidir, uni "Safarnoma" deb ham yuritiladi. Yo'l ocherki muallifning biror joyga qilgan safari davomida kuzatishlari, taassurotlari asosida yuzaga keladi. Unda ham boshqa ocherklardagi singari badiiy publitsistik mushohida asosiy o'rin tutadi. Yo'l ocherkida ham obraz va obrazlilik alohida tus oladi va muallifning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga xizmat qiladi. Bu xil ocherklarda muallifning o'zi asosiy qahramon bo'lishi, barcha badiiy tasvir va publitsistik mushohadalar muallifning "men"i, uning ichki dunyosi orqali berilishi ham mumkin. Yo'l ocherkida yuqorida ko'rsatib o'tganlarimiz – portret ocherki, voqea ocherki, muammo ocherki unsurlari ham mavjud bo'lishi mumkin. Ya'ni, muallif o'z ko'rgan-kechirganlarini bayon qilar ekan, kishilar qiyofasini chizishi, voqealar tasvirini berishi, turli muammolarni ko'tarishi ham mumkin, ammo bular uning safari bilan bog'liq bo'lishi shart. Yo'l ocherki o'zbek va jahon publitsistikasida qadimdan keng o'rin olib kelgan. Shulardan Zahridin Muhammad Boburning mashhur "Boburnoma" sida buyuk shoir va shohning ko'rgan-kechirganlari, uning Afg'oniston va Hindistonda olib borgan urushlari, bunyodkorlik ishlari muallif tilidan ochib beriladi. Yigirmanchi asrning boshlarida yaratilgan bunday ocherklar orasida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sayohat xotiralari" yo'l ocherklari alohida o'rin tutadi. Adib o'zining hajga qilgan safarini qalamga olar ekan, yo'l-yo'lakay ko'rgan-kechirganlarini, juda ko'p shaharlar, mamlakatlarni, u yerdagi kishilar turmushini sinchkovlik bilan tasvirlaydi, chuqur publitsistik mushohada qiladi va ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy xulosalar chiqaradi. O'zbek adabiyotida safarnomalar she'riy shaklda ham mavjud bo'lib, ularda yo'l ocherkiga xos xususiyatlar mavjud bo'ladi. Bunga Muqimiyning "Sayohatnoma" asari misol bo'la oladi.

Keyingi yillarda o'zbek yozuvchilaridan Oybek "Pokiston taassurotlari", Askad Muxtor "Yevropa safari", Hamid G'ulom "Yevropa taassurotlari" kabi yo'l ocherklari yaratdilar. Yo'l ocherklari o'quvchilarga juda ko'p ma'lumotlar beradi, ong doirasini kengaytiradi. Shuning uchun

ham bu janr badiiy publitsistikaning eng sevimli va ommabop janri hisoblanadi.

Ocherklar orasida sud ocherki degan turi ham mavjuddir. Bu ocherk sudlov jarayonining keng, mushohadali yoritish uchun qo'llaniladigan asardir. Unda muallif biror sudlov jarayonini atroflicha tasvirlash, u haqdagi o'z mulohazalarni yuritish bilan mazkur jinoyatning sabablarini ochib beradi, qilingan jinoyatga nisbatan qahr-g'azab uyg'otadi yoki jinoyatchi adashib bu yo'lga kirib qolgan bo'lsa achinish, begunoh bo'lsa oqlashga harakat qiladi, xullas - jamoatchilik fikrini ocherkda ko'tarilayotgan masalaga qaratadi. Sud ocherkida obraz yaratish o'ziga xos yo'l bilan amalga oshiriladi, ya'ni unda sudlanuvchi va boshqa sud ishtirokchilari qahramon qilib olinadi. Bu xil ocherkda portret, voqea va muammo ocherklarning unsurlari ham uchrashi mumkin. Milliy mustaqillikka erishuvimiz tufayli huquqiy demokratik davlat asoslari qurilib, qonunlar hayotimizga kengroq tatbiq etilayotgan hozirgi davrda sud ocherkiga ham e'tibor oshib bormoqda.

Jurnalistikamizda sud ocherklari tez-tez uchrab turadi. Sh.Akbarovning «Esizgina Shohsanam» («Inson va qonun» gazetasi, 2005-yil, 1-fevral), «Ko'ngil ko'chasi» (yuqoridagi gazeta, 2005-yil, 18-yanvar), Yu.Musaev va J.Sharifboevlarning «Tungi «ov»larning xotimasi» («Huquq» gazetasi, 2001-yil, 27-fevral), I. Muslimov va Q.Eshmatovlarning «Daryo qa'ridagi fig'on» («Xalq so'zi» gazetasi, 2005-yil 7-yanvar) kabi sud ocherklarini ko'rsatish mumkin. Ularda mualliflar u yoki bu jinoyatni amalga oshirgan jinoyatchilarning qilmishlari haqida hikoya qilib o'quvchilarda ularga nisbatan g'azab va nafrat hislarini uyg'otadi. Ammo bu ocherklarda ijtimoiy tahlil, badiiy umumlashmalar yetishmaydi, inson obrazini ochishda ko'proq bayon usulidan foydalaniladi.

Mayzu yoki shakl jihatidan yohud qahramonning umumiyligi jihatidan birlashgan bir necha ocherklardan tashkil topgan ocherklar turkumi ham bo'lishi mumkin.

Publitsistikaning barcha janrlari singari ocherk ham jurnalistikaning uch ijtimoiy vazifasi—tasvir, tahlil va ta'sirning bajarilishiga xizmat qiladi. U hayotdagi ma'lum bir fakt, voqea va hodisa hamda ularga taalluqli

bo'lgan odamlar faoliyati haqida xabar beradi, shu bilan birgalikda bu voqea va hodisa, odamlar faoliyati, xarakterlarini tadqiq va tahlil etadi. Uning ta'siri bevosita onglar orqali yoki bilvosita—tegishli idora va tashkilotlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ocherkda ham jurnalistikaning barcha tamoyillari o'z aksini topishi lozim. Publitsistikaning barcha janrlarga oid materiallar singari ocherk ham uminsoniy g'oyalarga xizmat qilishi, xalqchil bo'lishi, o'zida milliylikni aks ettirishi, haqqoniy va ommaviy bo'lishi shart.

Muayyan partiya nashrlarida bosilgan ocherklar partiyaviylik tamoyiliga ham amal qilishi mumkin. Ammo barcha jurnalistika materiallari singari bunday ocherk ham jurnalistikaning boshqa tamoyillariga zid bo'lmasligi lozim. Jurnalistika nashrlaridan joy olgan har qanday ocherk jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun xizmat qilmog'i kerak. Ocherk qanday turda - xoh portret, xoh voqea, xoh muammo, yo'l va sud ocherklari bo'lmasin hayotdagi biror bir voqea, hodisa, kishilar faoliyati, yangilik yoki muammoni o'quvchilar ongiga yetkazishi, u bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishi shart. Jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qilmaydigan, sayoz, quruq bayon yoxud maqtov, madhu sanolardan iborat bo'lgan ocherklar jurnalistika ijtimoiy vazifalarini bajarishga xizmat qilmaydi, o'quvchini bezdiradi. Ocherkda tegishli jamoatchilik fikrini uyg'otish uchun ocherkchi hayotni chuqur bilishi, undagi yangiliklarni tez payqashi, tiyrak publitsistik mushohada, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqot olib borishi, hayot voqealarini ma'naviy-ahloqiy jihatdan baholay olishi, yuksak badiiy mahorat bilan aks ettira olishi lozim.

Ocherk – u qanday turda bo'lmasin - barcha san'at asarlari singari tipiklashtirish qonuniga bo'ysunadi. Tipiklashtirish – jamiyatning ma'lum davriga va muhitiga xos bo'lgan voqea va hodisalarni, ma'lum ijtimoiy tabaqa, sinf yoki guruhga mansub bo'lgan kishilarning eng muhim, xarakterli xususiyatlarini muayyan va umumlashgan holda aks ettirishdir. Ya'ni, ocherkda tasvirlanayotgan voqea, fakt, masala yoki muammo jamiyatning shu kuni, ayni zamondagi hayoti uchun ahamiyatga ega, dolzarb bo'lishi lozim.

Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha hayotda eng ko'p tarqalgan, ommalashgan voqea va hodisalar, insonlar xarakteri va xususiyatlarini tasvirlash orqali tipiklikka erishiladi. Shuningdek, hayotda endigina tug'ilib, vujudga kelayotgan va kelajakda muhim ahamiyat kasb etish mumkin bo'lgan voqea va hodisalar, yangilik kurtaklari, insonlar fe'l-atvorlaridagi xususiyatlar ham tipik sanaladi. Binobarin, ocherkchi hayotdan shunday fakt, voqea, muammoni tanlab olish kerakki u birinchidan – jamiyatda keng tarqalgan va ko'pchilikka ma'lum va mashhur bo'lishi hamda endigina kurtak yozayotgan, ammo kelgusida taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Buni jahon adabiyot va jurnalistika xazinasiga kirgan eng yaxshi ocherklar misolida ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon o'zbek ocherkchilaridan hayotimizda qadimdan mavjud bo'lib ko'pchilikka manzur bo'lgan eng yaxshi voqea, hodisalar bilan bir qatorda endigina tug'ilib, hayotda ildiz otib kelayotgan yangiliklar, yangicha ishlash, yangicha fikrlash va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ahamiyatga ega bo'lgan mavzu, masala va muammolarni qidirib topish va badiiy publitsistik mahorat bilan aks ettirish talab etiladi.

Ocherkda an'anaviylik va yangi omillardan foydalanish qonuniyati ham keng qo'llaniladi. Buning uchun ocherkchi jurnalist o'zidan oldingi davrlarda yaratilgan ocherklardagi mavzuni tanlash, tahlillash, obraz va obrazlilikka erishish va boshqa masalalar bo'yicha an'anaviy usullarni yaxshi egallab olishi lozim. Shuni aytish kerakki, jurnalistikadagi kabi ocherkchilik sohasida ham ijobiy va salbiy an'analar mavjuddir. Chunonchi ocherkda sovet davri jurnalistikasida bosilgan ocherklardagi faktlarni bo'rttirib ko'rsatib, quruq maqtovgga berilish kabi salbiy an'analardan voz kechib jahon ilg'or jurnalistikasida mavjud bo'lgan hayot voqealari, faktlarning mohiyatini ochib berish, hayotiy zarur muammolarni ko'tarib chiqish, jamoatchilik fikriga dolzarb masalalarni yetkazish kabi ilg'or an'alariga amal qilish lozim. Shuningdek, an'anaviylik qonuniyati yangi omillar bilan boyitib borilishi shart bo'lganidek ocherk sohasida ham o'ziga xos yangiliklar yaratilishi lozim.

Ocherk badiiy publitsistikaning asosiy janri bo'lganligi boisidan unda obraz va obrazlilik bosh o'rinni egallaydi.



Ocherkda obraz asosan ikki xil bo'ladir. Bu – muayyan inson obrazi va to'qima (timsoliy) obrazni yaratishdan iboratdir. Ko'pgina ocherklar aniq hayotiy faktlarga va odamlarga bag'ishlanganligi sababli ularda aniq, muayyan inson yoki guruh, jamoa obrazi yaratiladi. Bunda shu insonning ocherk yozilishi uchun mavzu bo'lgan faoliyati, uning amalga oshirgan ishlari, mehnat samarasi, izlanishlari jarayonini tasvirlash, tadqiq etish bilan uning obrazi yaratiladi. Mazkur o'rinda ocherk qahramoni yoki qahramonlarning tashqi qiyofalari - portretlari, xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, gap-so'zlarini keltirish bilan ham obrazni to'ldirish mumkin. Ammo bu badiiy vositalar, shu jumladan, ulardan kelib chiquvchi obraz ham ocherkning bosh maqsadiga, undan kelib chiqadigan publitsistik fikr, xulosaga xizmat qilishi lozim. Shu boisdan ocherkda kishi obrazi ham va uni gavdalandirish uchun zarur bo'lgan badiiy vositalar ham ma'lum publitsistik maqsadga bo'ysundiriladi va ma'lum ijodiy-tasviriy me'yor asosida ifodalanadi.

Ocherkda ayrim hollarda umumlashgan to'qima obrazlar ham uchraydi. Ya'ni: ocherkchi hayotning ma'lum masalalarini, muammolarini yoritishda, o'z kuzatishlari, publitsistik fikr mushohadalarini yasama-to'qima obraz orqali ham berishi mumkin. Bunda o'zi tasvirlayotgan sohaning hayotiga, muhitga mos keluvchi, tipik obrazni o'ylab topadi va tasvirlaydi. Ammo bu o'rinda u yaratgan obraz tasvirlanayotgan hayotiy borliqdagi mavjud insonlar bilan umumiy mushtarak bo'lishi, ularning obrazlarini o'zida aks ettirishi lozim. Masalan, rus ocherkchisi V.Ovechkin "Rayonning ish kunlari" ocherkida o'sha davrda Markaziy Rossiyada qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun jon kuydirayotgan rahbarlar obrazini gavdalandirish uchun Martinov degan obrazni yaratadi hamda u faoliyat ko'rsatayotgan joy nomlarini ham o'zgartirib tasvirlaydi. Ammo mazkur ocherk qahramoni o'z prototipiga ega edi. Ya'ni bu ocherkka asos bo'lib xizmat qilgan rahbar hayotda haqiqatdan ham bo'lgan. Ocherkchi aniq odam obrazi bilan ovora bo'lib, o'zi oldinga surmoqchi bo'lgan publitsistik mushohadalar cheklanib qolmasligi uchun umumlashtirib, to'qima obrazga aylantirgan. Bu xil obraz yaratish ocherkchidan muntazam publitsistik kuzatish, chuqur mushahada, katta badiiy mahorat talab qiladi.

Ocherkda bir va bir necha odam yoki guruh, jamoa obrazini yaratish lozim bo'lganda esa ocherkchi asosiy qahramonga kengroq o'rin berishi, boshqalarga esa ayrim chizgilar bilan chegaralanishi mumkin yoki umumlashtirilgan guruh, jamoa obrazini ham yaratishi mumkin.

Obrazning ocherkning turli xillaridagi o'rni masalasiga kelsak yuqoriroqda ta'kidlab o'tilganidek, bu turlicha tarzda amalga oshiriladi. Portret ocherklarda obraz va obrazlilik kengroq planda olib tasvirlanilsa, voqea ocherkida birinchi planga voqea chiqadi va obrazlar ikkinchi planda tasvirlanadi. Muammo ocherkda ham birinchi o'rinda ko'tarilayotgan muammo turadi, obrazlar unga xizmat qiladi. Usta ocherkchilar muammoning o'zini umumlashtirilgan to'qima obrazga aylantirishlari mumkin. Yo'l ocherkida asosiy qahramon – muallifning o'zi bo'ladi va barcha obrazlar uning mushohadalari orqali ifoda etiladi.

Ocherkda badiiy to'qima masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Ocherk badiiy-publitsistik janr bo'lganligi boisdan unda ma'lum darajada badiiy to'qima ham ishtirok etadi. Badiiy adabiyotda badiiy to'qima qahramon xarakteri mantiqiga mos ravishda qo'llanilishi mumkin. Badiiy to'qima real narsalardan asosiy mazmun va mohiyatni tanlab olish va uni obrazlarda aks ettirish bo'lib, u real haqiqatni chuqur anglashga, hayotdagi voqea va hodisalarning ichki xususiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi ijodiy vositadir. Ocherkda badiiy to'qima undagi fakt, voqea, hodisa va qahramonning xatti-harakatidan mantiqiy kelib chiqishi lozim, ya'ni u asarning publitsistik jihati bilan bog'liqdir. Badiiy to'qima me'yorida bo'lsa, u ocherkdagi fakt, voqeaning mohiyatidan, qahramon xatti-harakatining mantiqiy rivojlanishidan kelib chiqsagina ocherkning badiiy kuchini oshirishga xizmat qiladi, aksincha u me'yoridan ortiqcha bo'lsa, faktlarga zid kelsa, qahramonning xatti-harakatlariga mantiqiy yopishmasa ocherkning mazmunini buzadi, o'quvchini ishontirmaydi. Xulosa qilib aytganda, ocherkda badiiy to'qima fakt va publitsistik xulosaga bo'ysunadi.

Ocherkda syujet va kompozitsiya ham muhim rol o'ynaydi. Syujet – badiiy asar mazmuni va undagi qahramonlar xarakterini ochib beradigan o'zaro uzviy bog'langan voqealar hodisalar tizmasidan iboratdir. Ocherkda syujet unda tasvirlanayotgan fakt, voqea va hodisalarning mohiyatidan,

ocherk qahramoni hisoblangan kishilar faoliyati hayotiy harakatlarining mantiqiy rivojidan kelib chiqadi. Kompozitsiya esa adabiy asar qismlarining tuzilishi, joylanishi va mutanosibligidan tashkil topadi. Kompozitsiyada asar voqealarining boshlanish tuguni, rivoji, eng yuqori kulminatsion nuqtasi va yechimidan iborat tuzilma o'z ifodasini topadi. Ocherkda ham bu vositalar bo'lishi lozim, ular qanchalik hayotiy va badiiy mutanosib bo'lsa ocherkning muvaffaqiyati shunchalik ta'minlanadi. Ya'ni, bu vositalar ocherkda tasvirlanayotgan fakt, voqea, hodisa hamda ko'tarilayotgan muammo, qahramonlar faoliyatidan kelib chiqishi lozim. Syujet va kompozitsiya shu bilan birgalikda ocherkning turlariga ham bog'liqdir. Portret ocherkida syujet va kompozitsiya ocherk qahramonining faoliyati, xatti-harakatidan vujudga kelsa, voqea ocherkda o'sha voqea va hodisaning mohiyatiga, muammo ocherkda ko'tarilayotgan muammoning publitsistik ahamiyatiga taalluqli bo'ladi. Yo'li ocherkida esa syujet va kompozitsiya muallifning kuzatishlaridan kelib chiqadi.

Umuman olganda, badiiy adabiyot asoslariga xos bo'lgan syujet va kompozitsiya ocherkda ham albatta bo'lishi hamda uning publitsistik mohiyatiga bo'ysunishi lozim. Ocherkchi bu vositalardan qanchalik ustalik bilan, o'z o'rinda foydalansa, ocherk shunchalik qiziqarli, badiiy mukammal bo'ladi, aksincha esa u o'quvchini bezdiradi.

Ocherkda til va uslub masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Ocherkning tili jurnalistika va badiiy adabiyot tili qo'shilmasidan iborat bo'lib, ular o'rtasida o'zaro mutanosiblik mavjud bo'lmog'i kerak. Ya'ni, ocherk butunlay badiiy tilda - hikoya, qissa, roman singari boshdan oyoq obrazlilikka asoslangan yoxud buning aksi sifatida -oddiy maqola singari fakt, voqea va hodisalar bayonidan iborat bo'lib qolmasdan zarur o'rinlarda obrazli badiiy tasvir, kerakli o'rinlarda esa publitsistik mushohada tarzida bo'lmog'i kerak. Uning aksi bo'lsa ocherk bir yoqlama bo'lib qoladi. Ocherk tilida turli kasbiy atamalar, sheva so'zlari va boshqa til imkoniyatlarga kelganda bu borada ham masalaga mavzu va maqsadga muvofiqlik jihatidan yondoshmoq kerak. Ocherkchi biror kasb egalari haqida yozar ekan, o'sha sohaga xos atamalar, ish-harakat nomlari, asbob uskunalar va ulardan foydalanishga doir so'zlarini keltirmasdan iloji yo'q. Ammo birinchi galda tasvirlanayotgan holat va nomlari tilga olingan

narsalar o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi nazarda tutilishi lozim. Ocherkning tili va uslubidagi o'ziga xoslikni Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom va boshqalar yaratgan ocherklarda yaqqol ko'rish mumkin. A.Qodiriy ocherklaridagi qamrov kengligi va aniqlik, Abdulla Qahhor ocherklaridagi uslub siqiqligiyu ma'no kengligi, G'afur G'ulomga xos bo'lgan til va uslub jozibasi hozirgi zamon ocherkchilari uchun ijodiy maktab bo'lib xizmat qiladi.

Ocherkda badiiy-ijodiy uslub ham muhim o'rin tutadi. Uslub til va tasvir vositalarining o'ziga xos yo'li, omilidir. Ocherk ijtimoiy-iqtisodiy uslubda, lirik uslubda, ilmiy uslubda, tanqidiy uslubda hatto hajviy uslubda yozilishi mumkin. Eng muhimi ocherkchi o'z ijodiy uslubiga ega bo'lishi lozim. Ocherkda uslubga etarli e'tibor bermaslik uning sayoz, zerikarli bo'lishiga olib keladi. Ocherkning jahon jurnalistikasidan joy olishi masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, u ko'proq Rossiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari jurnalistikasida keng qo'llaniladi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Evropa mamlakatlari jurnalistikasida ocherk o'rniga asosan esse janri qo'llaniladi. Bu - biror mavzu haqida erkin, har taraflama fikr yuritib, kerakli o'rinlarda obraz va obrazlilikka amal qilib, publitsistik mushohada yuritib yozilgan asardir. Rus jurnalistikasi tarixida ocherk ijtimoiy muammolarni yoritishga keng yo'naltirilganligi ma'lumdir. Rus xalqining atoqli adiblari Radishchev, Pushkin, Uspenskiy va boshqalar bu janr orqali zulm ostida ezilgan xalqning og'ir ahvolini ochib tashladilar. O'zbek jurnalistikasida ocherk asosan Turkiston milliy uyg'onishi davrida -jadid jurnalistikasi sahifalarida vuujudga keldi. Bunga M.Behbudiyning yuqoriroqda qayd etib o'tilgan yo'l ocherklari misol bo'la oladi. Sovet davrida ocherk janriga katta e'tibor berildi, u jurnalistika sohalaridan doimiy joy oldi. Bunga sabab - ocherk kommunistik partiya rahbarlari uchun xalqni mehnatga jalb etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hayotdagi birorta ilg'or mexanizator haqida (masalan, Tursunoy Oxunova va boshqalar) o'nlab mualliflar ocherk yozgan edilar. Bu davr ocherklarining aksariyati bir yoqlama, sun'iy hayotdagi fakt va hodisalar uydirma tarzida yozilar edi.

Mustaqillik davrida jurnalistikasimizda yuqorida ko'rilganidek ocherk janri o'zining munosib o'rnini egallamoqda. O'z mehnati bilan

boshqalarga ibrat bo'layotgan ishlab chiqarish ilg'orlari, ishbilarmon tadbirkorlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohasida yaxshi muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislar ocherklarimiz qahramonlari bo'lmoqdalar. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy o'zgarishlar hamda hal etilishi lozim bo'lgan zarur muammolar haqida ko'plab yaxshi ocherklar yaratilish vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

Hozirgi davrda jurnalistika – gazeta va jurnal ocherklari bilan bir qatorda radio, televideniya ocherklar ham mavjuddir. Radio va televideniya ocherklari mazkur janrning umumiy qonunlariga bo'ysunishi bilan birlikda ommaviy axborot vositalarining bu ko'rinishlariga xos bo'lgan xususiyatlarini ham o'zida ifoda etadi.

### **Ocherk bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Qonun ocherkda ham hukmronmi?*
2. *Ocherk qanday qonuniyatlarga amal qiladi?*
3. *Ocherkda til va uslub masalasini sharhlang.*
4. *Ocherkchilikning mustaqillik davridagi rivojini ayting.*
5. *Sovet davri jurnalistikasida yaratilgan ocherk so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
6. *Nega ocherkni so'z san'ati bilan so'z siyosati uyg'unlashuvchi janr deymiz?*
7. *Ocherkning xillari bor, shularni izohlang.*
8. *O'zbek adiblari tomonidan yaratilgan portret ocherklarni sanang.*
9. *Mustaqillik davrida portret ocherkning xususiyatlari va mualliflarini ayting.*
10. *Muammo ocherkning o'ziga xos xususiyatlari.*

### **Ocherk bo'yicha nazorat savollari**

1. *Ocherkka berilgan ilmiy ta'riflarni izohlang.*
2. *Portret ocherk turini sharhlang.*
3. *Tipiklashtirish portret ocherklardagi nuqsonlarni sanang.*
4. *Vogea ocherki haqida nimalarni bilasiz?*
5. *Yo'l ocherkiga misollar keltiring.*

6. *Ocherk barcha san'at asarlari singari qaysi qonunga bo'ysunadi?*
7. *Ocherkda an'anaviylik va yangi omillardan foydalanish qonuniyatiga amal qilinadimi?*
8. *Ocherkda badiiy to'qima bormi?*
9. *Televideniye va radioda ocherk.*
10. *Sud ocherklaridagi asosiy kamchiliklarni ayting.*

### 10.3. Esse

Badiiy publitsistikaning o'ziga xos janrlaridan biri essedir. Esse so'zining lug'aviy ma'nosi fransuzcha "tajriba" degan ma'noni bildiradi. Bu ma'no uning bosh xususiyatini tashkil etadi: esse orqali insonning hayotdan olgan tajribalari, fikr-mulohazalari aks ettiriladi. Esse ko'p qirrali janr bo'lib u ilmiy, tarixiy va publitsistik ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Yana bir lug'atda esseni erkin shakldagi adabiy janr ekanligi aytiladi. Esse o'zbek tilida «badiya» shaklida ham ishlatilishi mumkin, bu esa kishining diqqatini tortadigan, keng mushohadali badiiy asar ma'nosini beradi. Badiya biror bir tarixiy, ilmiy mavzu borasida erkin badiiy uslubda yozilgan asardir. Ya'ni, esseda ilmiy-adabiy, ijtimoiy mushohadalar, tadqiqotlar o'z ifodasini topadi, tahlil, mulohaza va xulosalar asosiy o'rin tutadi.

Esse o'z xususiyati bilan ocherkka yaqin turadi, ya'ni unda ham hayot voqealari badiiy-publitsistik usulda aks ettiriladi. Ammo essening ocherkdan farqi – uning erkin uslubda yozilishi, hajmining cheklanmaganligi, muallifning olingan mavzu borasida atroflicha fikr yuritib, kerakli o'rinlarda ilmiy, kerakli o'rinlarda ijtimoiy-tarixiy va badiiy vositalardan keng foydalanishi, publitsistik xulosalar chiqarishida o'z ifodasini topadi.

Esseda biror tarixiy voqea yoki zamonaviy muammo erkin fikrlash asosida bayon etiladi, unda muallifning o'ziga xos tahlili asosiy o'rin tutadi. Esseda muallifning shaxsiy kuzatishlari va mushohadalari bosh vazifani bajaradi. Ammo, esseda publitsistik mushohada va xulosa asosiy o'rin tutishi, ya'ni u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fakt, voqea, muammolarga bag'ishlanib, jamoatchilik fikrini uyg'otishi lozim. Mazkur janrda fan, siyosat va adabiyotning uyg'unligi mavjud bo'lganligi sababli

unda obraz va obrazlilik o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Shu boisdan essedagi ilmiy, tarixiy, ijtimoiy tadqiqot va mushohadalar xuddi maqoladagi kabi jiddiy tahlil uslubida berilishi ham mumkin. Faqat kerakli o'rinlardagina badiiy vositalar va shu jumladan obraz va obrazlilikdan ham foydalaniladi. Bu jihatdan esse muammo ocherkiga yaqin turadi. Esseda yo'l va portret ocherklariga xos xususiyatlar ham uchrashi, ya'ni biror shaxs obrazi yoki yo'l taassurotlari ham o'z ifodasini topishi mumkin. Esse g'arb jurnalistikasida keng qo'llaniladi. O'zbek jurnalistikasiga ham bu janr keyingi yillarda kirib keldi. Bunga misol sifatida taniqli adabiyotshunos O.Sharofiddinovning «Tafakkur», «Jahon adabiyoti» jurnallarida bosilgan esselari misol bo'la oladi. Bu esselerde zamonamizning shu kungi muhim ijtimoiy-ma'naviy muammolari ko'tarilib chiqiladi. Qardosh qoraqalpoq adibi T.Kaipbergenovning qator adabiy-badiiy esselarida yozuvchining hayot va zamon haqidagi falsafiy-ijodiy qarashlari o'z ifodasini topgan. X.Davron esselarida esa tarixiy mavzular bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilsa, iqtidorli jurnalist Qo'chqor Norqobilning esselarida ham shu kunning muhim ijtimoiy-ma'naviy masalalari qalamga olinadi. Shu kungi jurnalistika sahifalarida ham essening turli ko'rinishlarini ko'rish mumkin.

Hayotimizning turli mavzulariga bag'ishlangan bu esse va badialarda shu kun uchun muhim bo'lgan biror voqea, biror shaxs faoliyatining qirrasini, yoxud shu kun bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqealar aks ettiriladi. Masalan, adabiyotshunos olim va adib M.Qo'shjonovning «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2005-yil 4-fevral sonida bosilgan «Xiva suhbatini» badiyasi qadimgi Xorazm tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda bu yurtda yashab o'tgan Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud Puryovaliy va boshqa ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga doir turli qiziqarli faktlar keltiriladi, muammolar o'rta tashlanadi. Muallif o'z badiyasini xorazmlik yozuvchi, qator tarixiy asarlar yaratgan Erkin Samandar bilan suhbat tarziga qurgan. Yozuvchi Murod Xidirning «Ma'rifat» gazetasining 2003-yil 26 – dekabr sonida bosilgan «Ibtidodda so'z bo'lgan» badiyasi ham ma'naviy masalalarni qalamga oladi. Unda kitob va uning shu kungi inson hayotidagi o'rni masalalari mushohada etiladi. Muallif yaxshi kitoblar yaratish va nashr etish borasida qator masalalarni o'rta tashlab,

jamoatchilik fikriga havola qiladi. Shoir Asqar Mahkamning «Adabiyot ibodati» badiasi («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», 2004-yil, 22–dekabr) ham ma’naviy–ijodiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoir Shavkat Rahmonning hayoti va ijodiga doir chizgilar o‘rin olgan. Muallif iqtidorli shoirning hayotiy qarashlari, badiiy izlanishlari va mahoratining bosh qirralarini izchil tasvirlab bera olgan.

Yuqoridagi esselar asosan muayyan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan bo‘lsa N.Ochilovning «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2003-yil, 11–aprel sonidan joy olgan «Qaytish» deb nomlanuvchi essesining qahramoni esa umumlashtirilgan, badiiy to‘qima shaxsdir. Esseda tasvirlanishicha Sharifjon degan yigit ilm olish bilan shug‘ullanar, doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan ekan. Ammo u turmush qiyinchiliklari tufayli ilmni tashlab o‘zini bozorga «uradi» va yaxshigina mablag‘ orttirib, boyiy boshlaydi. Ammo uning dilidagi ilmga, ijodga bo‘lgan muhabbati sira tinchlik bermaydi, vijdoni qiynaladi. Nihoyat u bozorni tashlaydi va yana ilmga qaytadi, doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlab, el–yurt oldida yuzi yorug‘ bo‘ladi, uning qalbida hayotdan mamnunlik hislari yana uyg‘onadi. Bu badiya mavzu va badiiy yechim jihatidan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umid Yoqubovning «Ma’rifat» gazetasining 2004-yil 15–dekabr sonida bosilgan «Gulxan o‘chmagan kecha» badiasi ham shu kunning ma’naviy masalalari, inson va uning hayotdagi o‘rni muammosiga bag‘ishlangan. Unda yoshi, hayotga chanqoq, haqiqatning ko‘ziga tik boqa oladigan, chuqur mushohadali muallif obrazi namoyon bo‘ladi.

Esse o‘ziga xos ko‘p qirrali, murakkab janr bo‘lganligi boisidan u ko‘proq yozuvchilar, olimlar, mutaxassislar tomonidan yoziladi va odatda adabiy–badiiy nashrlarda e‘lon qilinadi. Shuningdek, u jurnalistika nashrlaridan tashqari radio va televideniya ham berilishi mumkin. Bu xil esselarda publitsistika bilan bir qatorda radio va televideniya xususiyatlari ham o‘z ifodasini topadi.

Esse kelajakda o‘zbek jurnalistikasining ham asosiy janrlaridan biri bo‘lib qoladi.



### **Esse bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Esse so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
2. *Esse o'z xususiyati bilan qaysi janrga yaqin turadi?*
3. *Esseda nima asosiy o'ringa ega?*
4. *Esse ko'proq qaysi nashrlarda ko'rinadi?*
5. *Essening kelajagi haqida nimalar ayta olasiz?*

### **Esse bo'yicha nazorat savollari**

1. *Esse qanday ko'rinishlarga ega?*
2. *Essening ocherkdan farqini ayting.*
3. *Qaysi muallifning esselarini bilasiz?*
4. *Esse ko'pincha kimlar tomonidan yoziladi?*
5. *Esse janr sifatida jurnalistikada saqlanib qoladimi?*

## **10.4. Feleton**

Ma'lumki, publitsistika bir qancha turlarga bo'linadi. Uning muhim turlaridan biri hajviy publitsistikadir. Hajviy publitsistika publitsistikaning o'ziga xos, alohida bir turi bo'lib, voqe'likni aks ettirish va unga ta'sir ko'rsatishda ijtimoiy kulgi – satira va yumor qonuniyatlariga amal qiladi. Ikkinchi tomondan u o'z ijtimoiy vazifalarini bajarishda adabiy-badiiy vositalaridan keng foydalanadi va bu bilan badiiy publitsistikaning tarkibiy qismiga aylanadi. Badiiy publitsistikaning hajviy publitsistika bilan bog'lanib ketishidan hosil bo'lgan janrlardan biri feletondir. U ijtimoiy hayot masalalarini yuqorida aytganimizdek, satira va yumor vositasi bilan, ya'ni ijtimoiy kulgi assosida yoritadi hamda ijtimoiy tanqid uchun xizmat qiladi.

Feleton so'zi fransuzcha «varaqa» degan ma'noni beradi. Bu - dastlabki davrda jurnalistikada berilgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tanqidiy mavzudagi qiziqarli va alohida ajratib ko'rsatilgan materiallarga aytilgan. Bunday materiallar, asosan, gazetaning podval qismida berib borilgan. Yevropada dastlab paydo bo'lgan bosma gazetalarda bu xildagi materiallar ko'plab bosilardi. Bu tartib keyinchalik rus jurnalistikasiga ham kirib keldi. O'lkamizda ilk bor vujudga kelgan jurnalistika nashri – «Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida ham bu holni ko'rish mumkin edi.

Masalan, mazkur gazetaning podval qismida bosilgan ayrim adabiy mavzudagi materiallar, jumladan, shoir Mahtumquli va Ogahiy haqidagi maqolalar mazkur rukn ostida berilgan edi.

Keyinehalik, jamiyat taraqqiy etishi bilan bu rukn ijtimoiy hayotda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni kulgi tanqidi ostiga oluvchi materiallarga qo'yila boshlandi, ya'ni u adabiy-badiiy va hajviy publitsistik janrga aylandi.

Feleton hajviy publitsistikaning alohida janri bo'lib, ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi. Mazkur janrning asosiy vazifasi jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy hayotining barcha tomonlarini qamrab olgan holda o'zida aks ettirishi, mazkur sohalarida uchraydigan kamchilik, nuqson, ijtimoiy illatlarni fosh etish, tanqid qilish orqali ular haqida jamoatchilik fikrini uyg'otish va oqibat natijada bu kamchilik va nuqsonlarning tugatilishiga erishish, binobarin, jamiyat hayotining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. U ijtimoiy publitsistika bilan hamohang bo'lib, uning tanqidiy ko'rinishi bilan umumlashgan holda ish tutadi. Feletonning publitsistikaning ijtimoiy va boshqa turlarida qo'llaniladigan tanqidiy maqola va boshqa janrlarga oid materiallaridan farqi – uning hajviy publitsistika qonuniyatlariga asoslanishi, ya'ni, ijtimoiy kulgi, satira va yumor vositalariga tayanishidadir. Ijtimoiy kulgining xil va ko'rinishlari turlicha bo'lib, ular orasida kinoya, piching, hazil, yengil kulgi kabilar bilan bir qatorda zaharxandali kulgi, ijtimoiy masxaralash, grotesk (ataylab bo'rttirilgan kulgi), hattoki ayrim haqoratomuz so'zlardan foydalanish kabi hajv vositalari ham mavjuddir. Feletonda ijtimoiy kulgining ana shu serqirra usullaridan keng foydalaniladi. Feleton o'zining bu xususiyati bilan jiddiy tanqidga asoslangan boshqa materiallardan ustun turadi va ommaviy bo'ladi. Atoqli adib Abdulla Qodiriy ijtimoiy kulgiga asoslanuvchi hajviy tanqidga yuqori baho berib, uni «Turmush bo'ylab uchquvchi burgutdir... hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg'anchiq manfur, muzir va shuning singari unsurlar unga emdir»- deb ta'riflagan edi. Feleton xuddi ana shu ijtimoiy-estetik tanqid ijtimoiy vazifasini bajaruvchi dolzarb, jangovar va ta'sirchan jurnalistika materiali, hajviy va badiiy publitsistik janrdir. U o'z ijtimoiy vazifasi va shakli jihatidan hajviy

adabiyotning hikoya (hajviy hikoya) janriga yaqin tursa-da, ammo ko'zlangan maqsadi, publitsistik xulosasi bilan undan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, feleton hajviy adabiyot vositalariga asoslanuvchi, ulardan keng foydalanuvchi jurnalistika materialidir.

Feleton o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifasiga binoan ikki xil – muayyan faktga asoslangan va umumiy feleton bo'lishi mumkin. Aniq faktga asoslangan feleton hayotdan olingan aniq faktlar, muayyan odamlarning ijtimoiy nuqsonlari, faoliyatlaridagi kamchiliklari haqida yoziladi. Umumiy feleton esa hayotdagi biror ijtimoiy illat, nuqson va muammolar haqida bo'lib, unda mazkur masalalar hajviy mushohada etiladi va tanqid qilinadi. Har ikki turdagi feletonlar uchun umumiy talab – ijtimoiy muhim bo'lgan fakt, masala va muammolarni ko'tarib chiqish va ular bo'yicha jamoatchilik fikrini uyg'otishdir. Furqatning «Hind nayrangbozi Yorkentda», Abdulla Qodiriyning «Toshkent boylari», «Eshonlarimiz» kabi va boshqa qator feletonlari aniq faktga asoslangan feletonlarga misol bo'lsa, «Kalvak maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» kabi, Abdulla Qahhorning «Quyushqon» kabi feletonlar esa umumiy feletonlar turiga kiradi. Har ikki xil feletonlar jurnalistikamiz tarixida ham, hozirgi kun jurnalistikaci nashrlarida ham keng uchraydi.

Feleton shakl jihatidan, avvalo, kichik va oddiy feletonga bo'linadi. Kichik feletonda hayotdagi nisbatan kichikroq ahamiyatga ega bo'lgan biror fakt, nuqson yoki muammo yoritiladi. «Feleton» rukni bilan beriladigan oddiy feletonda esa ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan fakt, voqea, muammo aks ettiriladi. «Feleton o'rnida» rukni esa mazkur materialning feletonga yaqin turishi, ammo ichki xususiyatlari bilan feleton darajasiga etmaganligini ko'rsatadi. Odatda, bu rukn ostida bir qadar jonli, o'qimishli yozilgan jiddiy tanqidiy materiallar o'rin oladi.

Feleton yozilish uslubi jihatidan hikoya-feleton, publitsistik feleton, feleton-sharh, feleton-taqriz, feletonlar turkumi kabilarga bo'linadi. Bularning har birida feletonga xos umumiy xususiyatlar bilan birgalikda alohida tasviriy uslub, ijodiy yo'nalish mavjud bo'ladi. Masalan, hikoya-feletonda hayotdan olingan fakt va muammo ko'proq badiiy uslubda – hikoyaga yaqin tarzda tasvirlab beriladi.

Bunda belletristik, ya'ni hikoya elementlari – feletondan chiqarilishi lozim bo'lgan asosiy maqsad – publitsistik xulosani ochib berishga xizmat qilishi lozim. Jahon va rus jurnalistikasidagi singari o'zbek jurnalistikasida ham bu xildagi hikoya-feletonlar ko'p uchraydi. Abdulla Qodiriyning «Hoy, xudoy urg'onlar», «Hoy, yer yutkur!..», Abdulla Qahhorning «Hi-hi», G'afur G'ulomning «Shoshilinch telegramma» kabi feletonlari hikoya-feletonning yorqin namunalari hisoblanadi.

Publitsistik feleton ham mazkur janrning eng ko'p uchraydigan turi hisoblanadi. Publitsistik feletonda fakt, muammo, undan chiqariladigan ijtimoiy xulosa ustun turadi, bu xildagi feletonlarda belletristik elementlar cheklangan bo'ladi. Publitsistik feletonning asosiy maqsadi hayotda uchraydigan ijtimoiy illatlar, kamchilik va nuqsonlarni aniq yoki umumlashgan shaklda ochib berish va jamoachilik hukmiga havola qilishdan iboratdir. Bunday feletonlar ko'proq maqola yo'lida yoziladi, ammo faktlar, voqealar mushohadasida satira va yumor elementlari – kinoya, zaharxanda, kuchli fosh etish vositalari keng qo'llaniladi. Jahon va o'zbek jurnalistikasi tarixida publitsistik feletonlar ko'plab uchraydi. Abdulla Qodiriyning «Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r», Abdulla Avloniyning «Madaniyat to'lqinlari», «Hifzi lison», Hamza Niyoziyning «Faqirlik nedan hosil o'lur?», Abdulla Qahhorning «O'zing shifo ber», G'afur G'ulomning «Ish qopi bilan, gap qofiyasi bilan» kabi feletonlari, K.Alievning qator feletonlari shular jumlasidandir. Feletonning bu xili hozirgi zamon jurnalistika nashrlarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda.

Feleton janrining alohida bir ko'rinishi bo'lgan feleton-sharh esa hayotdagi bir necha fakt va voqealarni umumlashtirib, ma'lum publitsistik xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Unda feletonchi hayotda kuzatib yurgan bir qator ijtimoiy illatlarni jamlab fosh qiladi, unga o'zining hajviy munosabatini bildiradi. Masalan, Abdulla Qodiriy o'zining «Yig'indi gaplar» feleton-sharhida yigirmanchi yillar ijtimoiy hayotida uchraydigan –qator ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muammolarni hajv qilib o'tadi. G'afur G'ulomning «Jomasi pok, o'zi nopok bandalar» feletoni ham bu janrning yuqoridagi turiga misol bo'la oladi.

Mazkur janrning feleton-taqriz shaklida yozilgan turida esa ijtimoiy illatlarni fosh etishda taqriz shaklidan foydalaniladi. Bunda biror bir ijtimoiy hodisa yoxud bo'sh, chala yozilgan asarni kulgi bilan tanqid qilishda unga kinoyaviy taqriz yozish vositasi qo'llaniladi. Feleton-taqriz bilan feleton-parodiya shakli ham bir-biriga yaqin turadi. Bunda feletonchi hayotdagi nuqsonlarni tanqid qilish uchun biror hujjat, qo'llanma shaklidan kinoyaviy foydalanishi mumkin. Masalan, H.H.Niyoziy o'zining 20-yillarda yozgan «Mahalliy sarmoyani kuchaytirish choralari» feletonida o'sha davrda uchraydigan ayrim ijtimoiy illatlarni fosh qilish uchun o'sha davrda tuziladigan rasmiy hujjatlar shaklini olib, kamchiliklarini kinoyaviy-parodiya tarzida ochib tashlaydi.

Feleton janrining shakliy ko'rinishlari xilma-xildir. Uning feleton-reportaj, feleton-suhbat, feleton-kundalik va boshqa shakllari ham bo'lishi mumkin. «Hajv – shakl tanlamaydi», degan gap hajviy publitsistikaning muhim janri bo'lmish feletonga ham tegishlidir. Feleton nasriy bo'lishi bilan birlikda she'riy ham bo'lishi mumkin.

She'riy feleton ham xuddi nasriy feleton singari hayotdagi biror aniq, muayyan fakt yoki voqea, insonlar faoliyatiga yoinki biror umumiy masala, muammoga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. She'riy feleton badiiy adabiyotning muhim turi bo'lgan hajviy she'riyat talablariga javob berishi bilan birlikda o'zida publitsistik xususiyat ham kasb etishi lozim, ya'ni u hayotda uchraydigan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan illatlarni kulgi tanqid ostiga olishi lozim. Uning hajviy she'rdan farqi, yuqorida aytganimizdek, muayyan ijtimoiy masalaga bag'ishlanib, tegishli publitsistik xulosa chiqarishidan iboratdir. Shoir G'afur G'ulom tomonidan 30-yillarda yaratilgan «Qo'ltiqlangan kalla to'g'risida qofiyali va'z» hajviy she'ri o'zbek hajviy publitsistikasida yaratilgan birinchi she'riy feleton edi. She'riy feleton o'zbek jurnalistikasi nashrlari, shu jumladan «Mushtum» jurnali sahifalaridan doimiy joy olib kelmoqda.

Hajviy publitsistikaning eng murakkab va mukammal asarlaridan biri – feletonlar turkumidir. Bunday badiiy-publitsistik asarlar bir necha feletonlardan tashkil topadi. Feletonlar turkumlari ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari, ko'zga ko'rinarli illat va nuqsonlarni fosh etishga bag'ishlanadi. Feletonlar turkumlari bir yoki bir necha mualliflar

tomonidan yozilishi mumkin. Bunday hajviy-publitsistik asar feletonchidan hayotni chuqur kuzatish, katta hajviy-publitsistik mahorat talab qiladi.

Jahon va rus hajviy jurnalistikasida bo'lgani kabi o'zbek hajviy publitsistikasida ham qator feletonlar turkumlari yaratildi. Bu borada atoqli adib, 20-30 yillar o'zbek hajvining atoqli ustasi Abdulla Qodiriy yuksak namuna ko'rsatdi. Uning «Mushtum» jurnali va boshqa nashrlarda bosilgan «Kalvak maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» va boshqa feletonlar turkumlari buning yorqin misolidir. Garchi adibning bu asarlari adabiyotshunoslikda hajviy hikoya yoki hajviy qissa janriga oid deb yuritilsa-da, mazkur asarlar feletonlar turkumi janriga kiradi. Chunki bu asarlarda o'sha davrning muhim ijtimoiy illatlari badiiy-belletristik yo'lda fosh qilinsa-da, ulardan muhim publitsistik xulosalar chiqariladi, bu hol esa, ma'lumki, hajviy publitsistikaning ijtimoiy vazifasiga kiradi. Shuni aytish kerakki, feletonlar turkumlari ham turlicha shakl va ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bularidan birinchisi – ma'lum mavzu asosida birlashgan feletonlardir. A. Qodiriyning 20-yillarda «Mushtum» jurnalida bosilib chiqqan «Eshonlarimiz», «Toshkent boylari» kabi feletonlar turkumlari bu xildagi hajviy-publitsistik asarlarga misol bo'la oladi. Bir necha feletonlardan iborat bo'lgan bu feletonlarda adib o'sha davrdagi turli nopok yo'llar bilan boylik yiqqan kimsalar va jaholat bandalarining qilmishlarini aniq faktlar, xotiralar asosida ochib tashlaydi. Ma'lum mavzu asosida birlashgan feletonlar turkumlari keyinchalik ham yuzaga keldi: oltmishinchi yillarda bir guruh yozuvchilar tomonidan eskilik sarqitlarini fosh etishga bag'ishlangan jamoa feletonlar turkumi jurnalistikada bosilib chiqqan edi.

Feletonlar turkumining yana bir ko'rinishi ma'lum shakl asosida yozilgan feletonlardir. Bunda feletonchi hayotda o'zi kuzatgan kamchilik va nuqsonlarni ma'lum bir shakl asosida bayon etadi. Abdulla Qodiriy bu borada ham barakali ijod qildi. Uning 20-yillarda yozgan «Maskovdan xatlar» feletonlar turkumi bunga misol bo'la oladi. Adib bir necha muddat Moskva shahrida o'qishda bo'lganida u yerda ko'rgan-kuzatgan va o'sha davr uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ayrim kamchilik va nuqsonlarni mazkur shaklda yozib, jamoatchilik hukmiga havola etgan edi.

Garchi bu turkumga kirgan feletonlar turli mavzularda bo‘lsa-da ularni bir narsa – uzoqdan yozilgan xatlar shakli birlashtirib turadi. Keyinchalik, 30-yillarning hajvchi-publitsistlari Ziyo Said va Nosir Saidlar ham birgalikda yozgan «Oxirat maktublari» feletonlar turkumlarida bu yo‘ldan foydalangan edilar.

Hajviy publitsistikaning eng murakkab va mo‘tabar asarlaridan biri - ma’lum bir hajviy tip bilan bog‘langan feletonlar turkumidir. Bunda feletonchi hayotdan olgan taassurotlari, kuzatishlari, hajviy-tanqidiy mushohadalarini ma’lum bir yagona obraz – hajviy tip orqali tasvir etadi. Bu xildagi tip bilan bog‘langan feletonlar turkumlari o‘zbek hajviy jurnalistikasida ilk bor o‘tgan asrning yigirmanchi- o‘ttizinchi yillarida yaratildi. Bunday feletonlar turkumlariga hajviy ijod ustasi Abdulla Qodiriy birinchi bo‘lib asos soldi. Adibning bu davrda yaratilgan hamda “Mushtum” jurnali va boshqa jurnalistika nashrlarida bosilgan «Kalvak maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydir?» kabi asarlari ma’lum tip bilan bog‘langan feletonlar turkumlari bunga misol bo‘la oladi. Mohir feletonchi yuqoridagi asarlarning qahramonlari bo‘lmish to‘qima obrazlar – Kalvak maxzum va Toshpo‘lat tajang timsollari orqali o‘z davrining qator ijtimoiy illatlarini ochib tashladi. Bu ijodiy usulni boshqa o‘zbek hajvchilari ham davom ettirdilar. Hajvchi jurnalist Nosir Saidning o‘sha davrda «Mushtum» jurnalida bosilgan «Mavlavi Po‘stin mulaqab Mokiyon maxzum sarguzashtlaridan», G‘afur G‘ulomning o‘ttizinchi yillarda yaratilgan «Mehtarbod Samarqandiy Eldoyi kim?», «Bisotdagi gaplar» kabi feletonlar turkumlari ham hajviy tiplar bilan bog‘langan hajviy-publitsistik asarlar hisoblanadi. Hajviy publitsistikaning bu ijodiy an‘anasi hozirgi o‘zbek hajviy jurnalistikasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Feletonning mavzusi jurnalistikaning boshqa materiallari singari hayotdan olinadi. Unda, yuqorida aytilganidek, ijtimoiy hayotning shu kundagi, ayni zamondagi masala va muammolari, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotidagi jiddiy kamchiliklar va nuqsonlar, shu kun kishilari ongidagi zararli ijtimoiy urf-odatlar va illatlar mavzu bo‘lib xizmat qiladi. Feletonchi hayotni doimiy ravishda sinchiklab kuzatib borishi va uchragan nuqson va kamchiliklarni qalamga olishi

lozim. Tahririyatga kelayotgan xatlar, shikoyatchilar, ayrim yig'inishlarda tilga olinadigan salbiy faktlar va voqealar, quloqqa chalingan qiziq gaplar feletonga asos bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda har qanday qiziq voqea feleton uchun asos bo'lavermaydi, balki faqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faktlar, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illat va nuqsonlargina feleton uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi, feletonchining mahorati esa ana shunday faktlarni hayotdan qidirib topa olishidadir. Atoqli rus feletonchisi M. Koltsov o'z feletonlariga mavzu topish uchun turli yo'llarni sinab ko'rgan, chunonchi u ataylab taksi mashinasini haydagan, do'konlarda sotuvchilik ham qilgan. Sinchkov, iste'dodli feletonchi uchun hayotda feletonbop mavzular, fakt va voqealar doimo topiladi.

Feleton uchun zarur bo'lgan fakt, mavzuning topilishi uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, degani emas. Topilgan har bir fakt, muammo feletonchi tomonidan chuqur mushohada qilinishi lozim. Ya'ni, feletonchi o'z asari uchun mavzu qilib olayotgan fakt, voqea va hodisani har tomonlama – ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan baholab, tahlil etishi lozim. Bu – feletondan chiqariladigan ijtimoiy-publitsistik xulosada o'z ifodasini topadi. Bunda feletonchining bilimi, mushohada qobiliyati, dunyoqarashi muhim rol o'ynaydi. U ushbu fakt, voqea va hodisa jamiyat hayotida qanday o'rin tutadi va ijtimoiy taraqqiyotga qay darajada to'sqinlik qilmoqda, uni yo'qotishning naqadar zarurligini chuqur idrok eta olishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, feletonchi ilg'or fikrli inson, o'z davrining ijtimoiy arbobi, jamiyat manfaatlari, taraqqiyot uchun qo'rqmas kurashchi bo'lishi shart.

Feleton janridagi asar uchun ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy mushohada va tahlil qanchalik zarur bo'lmasin, buning o'zi kifoya qilmaydi. Illo, yuqorida aytib o'tilganidek, feleton xajviy publitsistik jurnalistika asari bo'lib, undagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy mushohadalar hajviy mushohada bilan qorishib ketishi lozim. Ya'ni feleton satira va yumor qonuniyatlari asosida yoziladi, unda ijtimoiy kulgi bo'lishi shart. Yuqorida aytganimizdek ijtimoiy kulgining xil va ko'rinishlari turlichadir. Unda engil hazildan tortib to zaharxandali fosh qilish kulgisigacha mujassam bo'ladi. Feletonchi o'z asari uchun ijtimoiy kulgi xillaridan eng keraklisi,



zarurini tanlay bilishi lozim. Yozilayotgan feletonda kulgining qaysi xili va qay darajada qo'llanilishi feletonchining mahoratidan tashqari undagi fakt, olingan mavzu va chiqarilayotgan publitsistik xulosaga bog'liqdir. Atoqli rus feletonchisi M.Koltsov ham feletonda kulgining ma'lum me'yori bo'lishi lozimligini ta'kidlagan edi. Shu bilan birgalikda kulgisiz, faktlarni publitsistik bayon qilish yo'li bilan o'quvchida qahr-g'azab uyg'otuvchi feletonlar ham bo'lishi mumkin. Abdulla Qodiriyning yuqoriroqda tilga olingan «Eshonlarimiz», «Toshkent boylari» kabi feletonlari xuddi shunday kulgisiz, publitsistik xulosali feletonlardir. Ammo ularda hajviy tasvir vositalaridan o'z o'rnida foydalanganligi sababli mazkur asarlar oddiy publitsistikaning jiddiy materiallaridan farq qiladilar.

Feleton badiiy publitsistika janri bo'lganligi sababli unda turli badiiy vositalar, jumladan badiiy to'qima ham ishtirok etadi. Badiiy to'qima hayot voqealarini jonli tasvirlash, o'quvchida qiziqish uyg'otish maqsadida qo'llaniladigan badiiy vositalardan hisoblanadi. Badiiy to'qima adabiy-badiiy asarlarning doimiy zaruriy sharti, yozuvchining hayotni qiziqarli tasvirlash quolidir. Ammo publitsistik asar bo'lmish feletonda badiiy to'qima adabiy asarlardagidan farqli ravishda o'ziga xos, cheklangan ko'rinishda bo'ladi. U feletonning asosi bo'lib xizmat qilayotgan fakt va voqealardan, «qahramon»lar fe'l-atvorlarining mantiqidan kelib chiqishi lozim. Aniq faktga asoslangan feletonlarda badiiy to'qima faqat eng zarur hollarda, juda cheklangan me'yordagina ishlatiladi, umumiy feletonlarda esa mantiqiy mushohadaga mos kelgandagina ishlatilishi mumkin. Garchi badiiy to'qimasiz feleton quruq, zerikarli bo'lib qolsa-da, ortiqcha badiiy to'qima feletonning badiiy-g'oyaviy maqsadiga zarar keltirishi ham mumkin. Odatda aniq faktlarga asoslangan feletonlar jurnalistikada bosilgandan so'ng tegishli tashkilotlar tomonidan tekshirilib unda ko'rsatilgan kamchilik va nuqsonlarni tugatish, aybdorlarni jazolash tadbirlari amalga oshiriladi.

Shunday holda feletondagi ortiqcha badiiy to'qimalar feletonning samara berishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Badiiy asosda yozilgan hikoya-feleton, feletonlar turkumlarida esa badiiy to'qima muallifning maqsadi, shu asar oldinga surayotgan g'oya va publitsistik xulosaga xizmat etishi lozim. Masalan, atoqli feletonchi Abdulla Qodiriy «Kalvak

maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» feletonlar turkumlarida badiiy to'qimaning asar mazmuniga butunlay singib, uning g'oyaviy-badiiy darajasining yuksak bo'lishiga xizmat qildirgan edi.

Badiiy va hajviy publitsistika janri bo'lmish feletonda obraz va obrazlilik muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, obraz ijodkorning voqe'likni tasvirlashda uni aniq his etiladigan tarzda, jonli gavdalanishi bo'lib, obrazlilik esa voqe'likni tasvirlashda obraz elementlarining ishtirok etishidir. Badiiy adabiyotning eng zarur sharti hisoblangan bu ijodiy vosita badiiy publitsistika talablari asosida ish ko'radigan feleton uchun ham zarur masala hisoblanadi. Ammo badiiy adabiyot asarlaridan farqli ravishda feletonda obraz o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, yani, uning publitsistik xarakteridan kelib chiqadi. Avvalo feletonda obraz ikki xil – aniq va umumlashgan bo'ladi. Aniq faktlarga asoslangan va muayyan shaxsning qilmishlari fosh etilayotgan feletonda inson obrazi o'sha shaxsning xatti-harakatlari, qilmishlari orqali vujudga keltiriladi. Umumiy feletonda esa obraz boshqacha uslubda yaratiladi. Unda asosiy masala oldinga surilayotgan publitsistik maqsadni ochish, ijtimoiy hayotdagi biror nuqsonni tanqid qilish, biror muammoni hal etish bo'lganligi sababli obraz ham shu maqsadga xizmat qildirilishi lozim. Bunday feletonlarda biror to'qima obraz mavjud bo'lishi mumkin, ammo u ham avvalo hayot haqiqatidan va feleton talabidan kelib chiqadi.

Feletonda qo'llaniladigan obrazlarning turi xilma-xildir. Aksariyat publitsistik feletonlarda obraz emas – obraz-tezis yaratilishi mumkin. Bu – inson obrazi emas, biror muammo, ko'tarilayotgan masala obrazi bo'lishi mumkin. Ya'ni, feletonchi o'zi ko'tarib chiqayotgan masalani biror narsaga o'xshatib tasvirleydi va shu bilan hajviy-publitsistik mavzuni ochib, o'z fikrini ilgari suradi. Masalan, Abdulla Qodiriy o'zining «Bozor surishtirmaydir» feletonida adabiyot sohasida, san'at sahnalarida paydo bo'layotgan chala-chulpa, xom-xatala asarlarni bozorga olib chiqilgan shunchaki iffatsiz mollarga o'xshatadi. Abdulla Qahhor «Quyushqon» feletonida esa elliginchi-oltmishmchi yillarda odat tusiga kirgan quuruq, rasmiy tilda olib borilayotgan ma'ruzalar, yozilayotgan asarlar ustidan

kulib, ularni quyushqonga o'xshatadi. Obraz-tezis yaratish ham feletonchidan katta mahorat va badiiy malaka talab qiladi.

Feletonda yaratiladigan o'ziga xos obrazlardan biri – tipaj deb ataladi. Garchi bunday obraz inson tasviridan iborat bo'lsa-da bu obrazning ismi, tashqi ko'rinishi emas, uning xatti-harakati, qilmishlari orqali ijtimoiy qiyofasi ochib beriladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning «Hoy, yer yutkur...» feletonidagi xotin-qizlarga vahshiylarcha munosabatda bo'luvchi johil obrazi yaratilgan. Biz uning ismini ham, kimligini qam bilmaymiz, ammo xotin-qizlar bayrami munosabati bilan uning bergan «xolisona maslahatlari» orqali uning naqadar johil, qoloq fikrli va vahshiy odam ekanligini bilib olamiz.

Abdulla Qahhorning «Hi-hi» feletoni qahramonining ham ismi va kimligi keltirilmaydi, balki uning hayotdagi ayrim qiyinchiliklar, masalan 2-jahon urushida fashistlarning qo'li baland kelishini kutishi, bundan o'z manfaati yo'lida foydalanishning hohlashi tasviri orqali feletonchining bu tipaj vositasida chirkin fikrli odamlar obrazini yaratganligini ko'ramiz. Tipaj vositasida jamiyat nuqsonlarini tanqid qilish amaliyoti jahon va o'zbek hajviy publitsistikasida hozirda ham keng qo'llanilib kelinadi.

O'zida ko'proq belletristik xususiyatlarni ifoda etuvchi hikoya-feletonlarda esa hayotdagi biror muammoni ko'tarib chiqish, biror ijtimoiy tabaqa vakillari qiyofasini yaratish uchun to'qima obrazlardan foydalaniladi.

Bunday obrazlarning ismi, tashqi qiyofasi, yurish-turishlari xuddi hajviy hikoyalardagidek tasvirlansa-da bularning hammasi feleton g'oyasi, undan chiqarilmoqchi bo'lingan publitsistik xulosa uchun xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Hoy, xudoy urg'onlar» feletonida Sotimdiv, Ibroyim buqa kabi katta er egalarining obrazlari tasvirlangan va ularning 30-yillarda o'tkazilgan er islohoti voqeasiga munosabatlari ochib berilgan. G'afur G'ulomning «Klassiklardan qachon so'z ochar, ehtiyot bo'ling – olovlar sochar» feletonida Suvonqul degan to'qima obraz vositasida adabiy ijodni shunchaki yengil ish deb o'ylab, xom-xatala asarlar yozuvchi kishilar ustidan kulinadi. To'qima obraz orqali hayotdagi kamchilik va nuqsonlar, odamlar ongidagi va xatti-harakatlaridagi illatlarni

ochib tashlash hozirgi zamon feletonchiligida ham keng qo'llaniladi. Feletonda shu bilan birgalikda badiiy adabiyot va san'atning eng mukammal ijodiy mahsuli bo'lmish xarakter va tiplar ham yaratilishi mumkin. Hajviy tip yuqoridagi obraz turlaridan shunisi bilan farq qiladiki, unda ma'lum bir sinf, ijtimoiy tabaqa yoki guruh vakillariga tegishli bo'lgan belgilar bilan bir qatorda bu obrazning o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlar ham o'z ifodasini topadi. Bunday tiplar xuddi badiiy alabiyotdagi singari tipiklashtirish va individuallashtirish yo'li bilan yaratiladi. Ya'ni, o'quvchining ko'z oldida ham jonli odamga xos bo'lgan fe'l-atvorli shaxs, ham butun bir ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan xususiyatlarni tashuvchi odam obrazi gavdalanadi. Hajviy xarakter yaratish ancha murakkab adabiy-ijodiy masala bo'lib, bunda katta adabiy-badiiy mahorat talab qilinadi. Jahon yozma adabiyotida bunday hajviy tiplarga misollar ko'p. Atoqli rus hajvchisi N.V.Gogolning «O'lik jonlar» asaridagi Chichikov, M.E.Saltikov-Shchedrinning «Janob Golovlevlar» asaridagi Iudushka Golovlev, chex hajvchisi Yaroslav Gashek yaratgan soldat Shveyk, ispan adibi M.Servantes qalamiga mansub bo'lgan «Don-Kixotning sarguzashtlari» asarining qahramonlari bo'lmish Don-Kixot, Sancho-Pansa kabi qator obrazlar shular jumlasidandir. Hajviy publitsistikaning eng yirik janri bo'lgan feletonlar turkumlarida ham shunday hajviy tiplar yaratilishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek, o'zbek hajviy publitsistikasida ham bunday hajviy tiplar yaratilganligi ma'lumdir. Abdulla Qodiriyning yuqorida qayd etib o'tilgan «Kalvak maxzumning xotira daftaridan» feletonlar turkumidagi Kalvak maxzum, «Toshpo'lat tajang nima deydir?» turkumidagi Toshpo'lat obrazlari shular jumlasidandir. Mohir hajvgo'y adib mazkur obrazlar orqali ma'lum bir ijtimoiy tabaqa vakillarining tipik kishilarini tasvirlash orqali mazkur tabaqaga xos bo'lgan ijtimoiy illatlarni fosh qildi, johillik, qoloqlik va boshqa illatlar ustidan kuldi. Yozuvchi mazkur hajviy tiplarni yaratishda ularni «o'z tillari»dan gapirtirib, tilni individuallashtirish uslubidan mahorat bilan foydalandi. Yigirmanchi-o'ttizinchi yillarda yaratilgan boshqa hajviy publitsistik asarlarda ham hajviy tiplar yaratish borasidagi ijodiy an'ana davom ettirildi. Bu ijodiy usul hozirgi zamon o'zbek hajviy publitsistikasida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Feleton badiiy-publitsistik asar bo'lganligi sababli unda badiiy asarlarga xos bo'lgan syujet va kompozitsiya ham muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, syujet asarning bevosita mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar majmuasi bo'lib, kompozitsiya esa asarning tuzilishi, voqealar rivojini bayon etishning tartibidir. Syujet va kompozitsiyada qoliplash, tugun, echim, kulminatsion nuqta va boshqa tasviriy-ijodiy bo'laklar mavjud bo'ladi. Badiiy asarlar uchun albatta shart bo'lgan bu badiiy-ijodiy vositalar feletonda ham o'ziga xos ko'rinishda mavjud bo'ladi. Bu vositalardan qay darajada foydalanish feletonda qalamga olinayotgan mavzu va faktlar, undan chiqarish lozim bo'lgan publitsistik xulosadan kelib chiqadi. Bu vositalar feletonning qaysi shaklda yozilishiga ham bog'liqdir. Masalan, hikoya-feletonda mazkur vositalar kengroq qo'llanilsa publitsistik feletonda o'ziga xos tarzda bo'ladi. Feletonlar turkumlarida ham bu komponentlar asosiy rol o'ynaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning yuqorida tilga olingan feletonlar turkumlarida syujet, kompozitsiya va boshqa badiiy-ijodiy usullar o'ziga xos tarzda qo'llanilgan.

Ko'rinib turibdiki. Bu vositalardan qanchalik unumli foydalanish feletonchining ijodiy mahoratiga ham bog'liqdir. Feletonning tili va uslubi masalasi ham o'ziga xos bo'lib, o'zida ham badiiy-hajviylik, ham publitsistik xususiyatlarni ifoda etadi. Unda badiiy adabiyotga xos bo'lgan tasviriy uslub bilan publitsistik mushohada uslubi uyg'unlashib ketishi lozim. Shu bilan birgalikda mazkur janrga oid asarda jonli, so'zlashuv tilidan, xalq maqollari va matallari, kulgili ibora, kinoya, qochirim va boshqalardan keng foydalanish mumkin. Ya'ni, feletondagi tasviriy vositalar ijtimoiy kulgi, satira va yumorga yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Ammo bularning barchasi feletonning mavzui va undan chiqarilishi lozim bo'lgan publitsistik xulosaga bog'liq ekanligini unutmashlik kerak.

Jahon jurnalistikasi tarixida feleton janri muhim o'rin tutib kelgan. Dastlab Evropada dunyoga kelgan bu publitsistika janri har bir mamlakat taraqqiyotida, ijtimoiy hayotida o'ziga xos zarur vazifalarni ado etgan, qolloqlik, jaholat va boshqa illatlarga qarshi kurashda ishtirok etgan.

Jumladan, taraqqiyparvar g'oyalarga xizmat qilgan rus feletonchilari mazkur janr orqali zulm-zalolatga, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash

olib borganlar. O'lkamizda ham mazkur janrning tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi. Hali jurnalistika vujudga kelmasdan ilgari mazkur janrning ijtimoiy vazifalarini yozma hajviy adabiyot bajarib kelganligi ma'lumdir. Jumladan, ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayotdagi ijtimoiy adolatsizlik, zulm-zalolat va boshqa illatlarga qarshi qaratilgan asarlarini bu janrning o'sha davrdagi ko'rinishlari deyish mumkin. Keyingi davrlarda ijod qilgan Turdi Farog'iy, Maxmur va ayniqsa o'zbek xalqparvarlik adabiyotining namoyandalari bo'lmish Muqimiy, Zavqiy va boshqalarning asarlari, o'z davrining muhim ijtimoiy illatlarini fosh etgan hajvlarini mazkur janrning yorqin namunalarini deyish mumkin. O'lkamizda dastlabki jurnalistika nashrlari paydo bo'lishi bilan feleton janri jurnalistika janri sifatida ish ko'ra boshladi va tez suratlar bilan taraqqiy etdi.

Ayniqsa, yigirmanchi asrning boshlarida maydonga kelgan jadid jurnalistikasi sahifalarida feleton janri keng o'rin oldi va rivojlandi.

Mazkur janrning vujudga kelishi va taraqqiy etishida atoqli taraqqiyparvar ijodkorlar Mahmudxo'ja Behbudiy, M.Abdurashidxonov, I.Obidov, Abdulla Avloniy, Hamza Niyoziy, Cho'lpon va boshqalar katta xizmat qildilar. Atoqli o'zbek adibi Abdulla Qodiriy yigirmanchi yillarning mohir feletonchisi sifatida samarali ijod qildi.

Atoqli o'zbek qalam ustalari Abdulla Qahhor, G'afur G'ulomlar ham mazkur janrning rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Shuni aytish kerakki, o'lkamizda etmish yildan ortiq hukm surgan yakka g'oya hukmronligi davrida mazkur janr jurnalistika sahifalarida ko'p uchrab tursa-da, u ma'lum chekaalangan sinfiy-partiyaviy g'oyalarga xizmat qilganligi boisidan bir yoqlama xususiyatga ega bo'ldi va o'z xizmatini o'tab bo'ldi. Faqat umuminsoniy mavzularga bag'ishlangan va yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan feletonlargina umrboqiylik da'vosini qila oladilar.

Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgach publitsistikaning boshqa janrlari qatorida feleton janri ham keng rivojlandi, uning bir qator yangi turlari, jumladan, radiofeleton, telefeletonlar vujudga keldi.

Mazkur hajviy-publitsistik janr mamlakatimizda mustaqillikni yanada mustahkamlash, ijtimoiy taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan illatlarni yo'q qilishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Respublikamiz jurnalistikasida

feletonning turli xillari mavjuddir. Ko'pgina gazetalarda «Feleton o'rnida» rukni ostida materiallar bosiladi. Bu – tanqidiy maqola bilan feleton o'rtasida turuvchi o'ziga xos material bo'lib, unda qalamga olinayotgan fakt va voqealar ma'lum darajada hajviy tarzda baholanadi. Masalan, «Fidokor» gazetasining 2004-yil 15-avgust sonida «Qimmatga tushayotgan gollar» sarlavhali material bosilgan (Muallifi – A.Odina). Unda Surxondaryo viloyatida tuzilgan «Sho'rchi» futbol jamoasini mablag' bilan ta'minlashdagi nuqsonlar tanqid ostiga olinadi. Muallif jamoa uchun yetarli moddiy sharoit yaratib berilmaganligi, futbolchilar uchun kiyim–bosh, hattoki tepish uchun to'p ham yetarli emasligini aytib, jamoaning bunday holatga tushishiga sababchi bo'lgan rahbarlarni achchiq–achchiq so'zlar bilan «chimdib» oladi. Mazkur material, garchi u to'laqonli feleton darajasiga o'sib yetmagan bo'lsa–da, uning vazifasini bajara olgan. Xuddi shunday rukn ostida «Ishonch» gazetasining 2002-yil, 1-iyun sonida bosilgan «Shayton yo'ldan urgan ishbilarmon» sarlavhali tanqidiy materialda Andijon shahridagi A. Q. degan tadbirkorning g'irromlik yo'liga o'tib, Amerikaning soxta dollar pullarini odamlarga o'tkazib yurganligi fosh etiladi. Muallif M.Abdukarimov mavzuni ochishda latifanamo qoliplash usulidan foydalanadi: «Shayton o'g'lining hiyla–nayrangni qanday o'zlashtirib olganligini bilmoqchi bo'lib, uni odamlar orasiga yuboribdi. Shaytonvachcha og'zi qulog'ida bo'lib qaytibdi: Bir aroqxo'rni g'ij–g'ijlab, xotinini rosa do'pposlatdim!– Ahmoq–o'g'lining yuziga shapaloq tortib yuboribdi shayton. – Aroqxo'r sening aralashuvingsiz ham xotinini do'pposlayveradi! Sen hushyor odamni yo'ldan ozdirishni o'rgan! ..»

Feleton so'ngida esa «shaytonvachcha otasiga tuppa–tuzuk tadbirkorlik bilan shug'ullanib yurgan odamni qalbaki dollarfurushlikka o'rgatib keldim»,–deb maqtanadi. Feleton qahramoni esa sud zalida:

– Meni shayton yo'ldan urdi!–deb o'z boshiga o'zi mushtlardi».

Ko'rinib turibdiki, «Feleton o'rnida» tarzida berilgan bu materialda feletonga xos xususiyatlar mavjuddirki, ular materialdagi voqealarni ochishga xizmat qilish bilan birgalikda uning qiziqarli chiqishiga olib kelgan.

Ayrim gazetalar sahifalaridan o‘rim oladigan «Kichik (mitti) feleton» rubrikasi ostida bosiladigan materiallarda ham hayotda uchraydigan salbiy fakt va voqealar ma’lum darajada hajviy jihatdan baholanadi. «Hurriyat» gazetasining 2004-yil 12- noyabr sonida bosilgan Charxpalak» deb nomlanuvchi «Mitti feleton»da (muallif – Topsa bosar deb imzo qo‘ygan) Farg‘onadagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda bir uy–joyga egalik qilish borasidagi nizo yetti yildan ortiqroq muddatda ham hal etilmaganligidan kulinsa, «Ishonch» gazetasining 2004-yil 10–iyun sonida bosilgan «Mashina mojarosi» sarlavhali «Kichik feleton»da (muallifi E.Mavlonov) Quyi Chirchiq tumanidagi xo‘jaliklardan biri a‘zosining jamoadan yengil mashina sotib olishidagi sarson–sargardonchiliklari haqida hikoya qilinadi.

«Hurriyat» gazetasida bosilgan aksariyat feletonlar hayotda uchraydigan muhim ijtimoiy mavzu– huquq va sudlov idoralaridagi rasmiyatchilik va adolatsizlik hollarini fosh etishga qaratilgan. Jurnalist T.Akbarov qalamiga mansub bo‘lgan «Xal qiluv qarori» (2004-yil, 20–avgust), «Yap–yangi tajriba: Sudga chaqirishning Yaypancha usuli» (2002-yil, 10–may) kabi feletonlari yuqoridagi mavzuga bag‘ishlangan. Ularda mazkur sohada yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va nuqsonlar o‘ziga xos kinoyaviy kulgi vositasida fosh etiladi. Jurnalist Q.Sobirov shu gazetaning 2003-yil, 18–oktyabr sonida bosilgan «Xotiningni o‘pa ko‘rma, o‘n yilga ketasan!..» sarlavhali feletoni uchun esa kulgili faktni topgan. «Rabochiy Bekabada» gazetasida xabar qilinishicha M.degan shaxs o‘zining sobiq xotini bilan janjallashib qoladi, xotini esa «erim meni tishlab oldi», deb sudga shikoyat qiladi va sud shu arzimagan jinoyat uchun M.ni o‘n yilga ozodlikdan mahrum etishga hukm qiladi. Q.Sobirov bunday qattiq hukmning berilishiga o‘z munosabatini yuqoridagi feletoni va uning sarlavhasida bayon etadi. Yozuvchi Dadaxon Nuriyning shu gazetaning 2002-yil, 20–noyabr sonida bosilgan «Chiroqpoya» feletonida esa doimo sofdil odamlar ustidan ig‘vo–tuhmatlar to‘qish bilan shug‘ullanuvchi bir shaxsni qator fakt va dalillar vositasida fosh etadi. Jurnalist M.Nosirov o‘zining «Optimistlar» sarlavhali feletonida («Hurriyat» gazetasi, 2003-yil, 15–noyabr) Sirdaryo viloyatining Mehnatobod tumanidagi Dehqonobod qishlog‘ida yoqilg‘i gaz, ichimlik suv va elektr energiyasi bilan ta‘minlanishdagi kamchiliklarni fosh etar



ekan, o'tkir zaharxandali kulgini qo'laydi. Feleton janri «Mushtum» jurnali va «Afandi» gazetasi sahifalaridan ham doimiy o'rin olib kelmoqda. Shuningdek, uning «Radiofeleton» va «Telefeleton» kabi ko'rinishlari ham respublikamiz radioeshittirishlari va teleko'rsatuvlari tarkibidan joy olib kelmoqda.

### **Feleton bo'yicha reyting topshiriqlari**

1. *Feleton janri qaysi ikki turdagi publitsistikaning bir-biri bilan bog'lanib ketishidan hosil bo'ladi?*
2. *Feleton so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
3. *Dastlabki davrda feleton qanday mavzudagi alohida ajratib ko'rsatilgan materiallarga berilgan?*
4. *Qachon feleton adabiy-badiiy va hajviy publitsistik janrga aylandi?*
5. *Ijtimoiy kulgining xillari va ko'rinishlarini ayting.*
6. *A.Qodiriyning feletonga bo'lgan munosabatini gapirib bering.*
7. *Aniq faktga asoslangn feleton namunalari ayting.*
8. *Feleton shakllarini bilasizmi?*
9. *Feleton yozilish uslubi jihatidan qanday turkumlarga bo'linadi?*
10. *Publitsistik feletonga misollar keltiring.*
11. *Feleton janrining shakliy ko'rinishlarini ayting.*
12. *Feletonchi ijodkorlarni sanab bering?*

### **Feleton bo'yicha nazorat savollari**

1. *Adabiy mavzudagi Mahtumquli va Ogahiy haqidagi maqolalar feleton rukni ostida qaysi nashrda e'lon qilingan?*
2. *Feleton janrining asosiy vazifasini ayting.*
3. *Feleton o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifasiga binoan qaysi xillarga bo'linadi?*
4. *Umumiy feletonga misollar ayting.*
5. *Kichik va oddiy feletonlarga misol keltiring.*
6. *Hikoya-feleton, publitsistika feleton, feleton sharh, feleton-taqriz kabi feleton turkumlarini izohlang.*
7. *Hikoya feletonga misollar ayting.*
8. *Feletonning badiiy-publistik asarligini isbotlang.*

## 10.5. Pamflet

Hajviy publitsistikaning eng muhim janrlaridan biri pamfletdir. Pamflet soʻzi aslida yunoncha boʻlib, oʻt qoʻymoq, yondirmoq degan maʼnoni bildiradi. Keyinchalik bu ingliz tili orqali ommalashib, shu kunning muhim masalasiga bagʻishlangan va keskin fosh etish tarzida yozilgan asarga aytiladigan boʻlgan. Binobarin, pamflet jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayotida uchraydigan ijtimoiy illat va nuqsonlarni kuchli hajviy uslubda tasvirlab fosh etuvchi asar, publitsistika janridir. Pamflet ham xuddi feleton singari hayotdagi biror ijtimoiy illat, salbiy xususiyatga ega boʻlgan voqea, muammo yoki shaxsga bagʻishlanadi, uning tuzilishi, shakli ham feletonga yaqin turadi.

Ammo uning feletondan farqi shundaki, pamflet ijtimoiy jihatdan oʻta muhim va yirik ijtimoiy mavzularga bagʻishlanadi hamda ayovsiz fosh qilish kuchiga ega boʻladi. Yaʼni, pamflet jamiyatning shu kungi hayoti, taraqqiyotiga jiddiy xavf solayotgan, unga murosasiz dushmanlik ruhida boʻlgan qarashlar, voqealar, muammolar yoki shaxs va guruhlariga qarshi qaratiladi hamda unda hajvning eng oʻtkir, eng ayovsiz vositalaridan foydalaniladi. Taʼbir joyiz boʻlsa, feletonni ijtimoiy illatlarga qarshi otilgan oʻq deb faraz qilsak, pamfletni esa eng xavfli ijtimoiy dushman kuchlarga qarshi otilgan zambarak oʻqiga qiyos etish mumkin. Feletonda ijtimoiy kulgining piching, kinoya, hazil kabi turlaridan foydalanilsa pamfletda esa achchiq zaharxanda, sarkazm, gʻazab va nafrat uygʻotuvchi kulgi koʻrinishlari qoʻllaniladi. Pamfletning vujudga kelishida mafkura, dunyoqarash muhim oʻrin tutadi. Boshqacha qilib aytganda pamflet – bir-biriga murosasiz, hayot-mamot jangiga chiqqan ikki xil dunyoqarash, ikki xil gʻoya va ijtimoiy tartiblarning publitsistikadagi tortishuvi, gʻoyaviy-ijodiy jangining koʻrinishidir. Shuning uchun ham pamflet insoniyat tarixidagi maʼlum bir sinflar, ijtimoiy tabaqa va guruhlariga xizmat qilib kelgan, yaʼni, biron-bir sinf yoki ijtimoiy guruhning oʻziga qarama-qarshi boʻlgan sinf va guruhlariga qarshi gʻoyaviy hujum quroli sifatida vujudga kelgan. Pamfletning tarixi uzoq qadimgi davrlarga borib taqaladi, eramizdan oldingi davrlarda bu janr ogʻzaki nutq shaklida mavjud boʻlib,

o'sha davrlarning mashhur notiqalari – Demosfen, Tsitseron va boshqalar g'oyaviy muxoliflarga qarshi kurashda nutqiy pamfletdan keng foydalanganlar. Yevropada o'rta asrlarda ham pamflet ancha rivojlangan edi. Italyan mutafakkir adibi Dante Aligeri, fransuz Uyg'onish davri vakili Fransua Rable, shu davr ingliz dramaturgi Vilyam Shekspir, XVII asr ingliz adibi Jon Milton va boshqalarning asarlarida pamfletga xos bo'lgan kuchli fosh etish ruhi o'z ifodasini topgan edi. Mazkur janr buyuk ijtimoiy voqealar davri - Yevropadagi burjua inqiloblari paytida yuqori cho'qqiga ko'tarildi.

Fransuz publitsist-adiblari Jan Pol Marat, Kamil Dyulen va boshqalar o'z pamfletlarida feodal yakka hukmronligini ayovsiz fosh etdilar. Keyinchalik, XIX asrga kelib ijtimoiy maydonga chiqqan kommunistik g'oya tarafdorlari ham burjuaziya tartiblarini fosh etishda pamfletdan keng foydalandilar. Bu g'oyaning asoschisi bo'lmish Karl Marksning «Lui Bonapartning 18-bryumeri» va boshqa pamfletlari mazkur janrning mukammal ko'rinishlari bo'ldi. Kommunistik qarashlarning Rusiyadagi tarafdorlari ham bu janrga katta e'tibor bilan qaradilar, jumladan, V.I.Leninning «Lakeyxonada» va boshqa pamfletlari mavjuddir. Ammo mazkur pamfletlar kommunistik yakka g'oya nuqtai nazaridan yozilgan va ijtimoiy hayot voqealariga shu nuqtai nazardan yondashilgan edi. Sovet davrida yozilgan va jurnalistika nashrlarida bosilgan boshqa pamfletlarda ham ana shunday g'oyaviy-siyosiy bir yoqlamalik, cheklanganlik mavjud edi. O'zbek adabiyoti tarixida ham pamflet janrining uzoq davrlarga borib taqalishini ko'rish mumkin. Milliy yozma adabiyotimizda bunga misollar ko'p. Garchi bu asarlar bevosita mazkur janrda yozilmagan bo'lsa-da, ularda ko'tarilgan ijtimoiy fosh etish ruhi pamfletga yaqin turardi. Jumladan, XVII asrda yashab ijod etgan shoir Turdi Farog'iyning «Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari hajvi» asarida o'sha davr hukmdorlarining siyosati xalqparvarlik nuqtai nazaridan keskin fosh etilgan edi. Shoir o'sha davrdagi Buxoro hukmdori bo'lmish Subhonqulixon va uning a'yonlarini quyidagicha zaharxandalik bilan fosh etadi:

Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,  
G'asb ila molin olib, qo'ymadingiz bitini,  
Qamchilar dog' solib bo'yung'a, tilib betini,  
Yordingiz zahrasini, ichidan olib o'tini,  
Bo'lmadi kam bu raiyat boshidan hech tayoq.

Shu davrda yashagan ikkinchi bir otashnafas shoir Boborahim Mashrabning o'tkir she'rlarida ham pamfletona fosh etish kuchi mujassam edi. Shoir «Dili tig'i sitamdan pora bo'lgan» mehnatkash xalq ahvoliga qayg'urdi, ijtimoiy hayotdagi zulm va adolatsizlikka keskin qarshi chiqdi. Masalan, uning «Dastingdan» radifli muxammasining har bandida:

Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdan,  
Ki men har qayga borsam dod etarman, dod dastingdan,  
deb takrorlanib keluvchi satrlar xalqning mavjud tuzumdan noroziligining keskin ifodasi edi.

Zamondan shikoyat, ijtimoiy illatlarni, zulmu zalolat va adolatsizlikni keskin fosh etish XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida yashab, ijod etgan xalqparvar shoir Maxmur asarlarining ham bosh yo'nalishi bo'ldi. Shoirning «Hapalak» va boshqa hajviy she'rlarida o'sha davr hayoti, oddiy xalq boshiga balo bo'layotgan ijtimoiy tartiblar keskin, zaharxandalik bilan fosh etildi. Shoirning qator hajviy she'rlarida ijtimoiy tengsizlik, haququqsizlik, zulm va zo'rovonlikka qarshi qaratilgan «bizga cheksiz zulming qachongacha? Rostgo'ylarning boshida qilich qachongacha o'ynaydi?

Qachongacha bir alamimizni yuz alam qilasan? Axir, yuraklar tahbatah qon bo'lib ketdi-ku!» degan ijtimoiy xitoblar mavjuddir. Bu fikrlarda pamfletning kuchli fosh etish ruhini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi xalqparvar shoirlar ijodining g'oyaviy-ijodiy davomchilari bo'lgan shoirlar Zokirjon Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Ubaydulla Zavqiyilar ijodida ham pamfletga xos bo'lgan fosh etish ruhi kuchli edi. Jumladan, shoir Muqimiyning «Tanobchilar», «Dodhohim» kabi hajviy she'rlarida xalq uchun og'ir sitamlar olib keluvchi ijtimoiy tartiblar ustidan keskin zaharxandalik bilan kulinadi. Shoir Zavqiy o'zining «Hajvi ahli rasta» asarida o'sha davrning «zamona zo'rlari» bo'lgan

boylar, savdogarlarning bir guruhini o'tkir kinoyali kulgi bilan fosh etgan edi. Mazkur asarlarni o'lkamizdagi ilk yozma pamfletlar edi, deyishimiz mumkin.

Pamflet bevosita janr sifatida o'zbek jurnalistikasida yigirmanchi yillarga kelib shakllana boshladi. U avvalo feletonning bir turi sifatida vujudga keldi. O'sha davrda vaqtli jurnalistika nashrlarida bosilgan ayrim feletonlarda pamfletlik xususiyatlari paydo bo'la boshladi. Masalan. Abdulla Qodiriyning «Mushtum» jurnalining 1923- yil, 2-sonida bosilgan «Siyosat maydonida» sarlavhali xalqaro mavzudagi feleton-sharhida chet el hukmdorlarining bosqinchilik siyosatlarini pamfletga xos o'tkir zaharxanda bilan tanqid qilinadi. Yozuvchining «Sho'x baytal» feletonida ham shu xususiyatni ko'rish mumkin. Unda o'sha zamon g'arb dunyosining ayyorona siyosati, chirkin fahsh axloqi keskin zaharxandali piching bilan quyidagicha fosh etiladi:

«Ingliz siyosatdonlari London sho'x baytallarini sharq amir-shohlarini yovvoshlashtirish uchun Arabiston, Eron va Hindistonga yo'llar ekanlar. Lord Kerzon o'z siyosatini Sharqda amalga oshirish uchun qizchasini Eron hukmdori Ahmadshohga nazir tortqon, deb ham so'zlaydilar». Yigirmanchi yillar o'zbek jurnalistikasining taniqli namoyandasi bo'lgan Nazir To'raqulovning «Uchqun» jurnalida bosilgan «Mirza Kerzonga maktub» sarlavhali hajviy-publitsistik asarini ham dastlabki o'zbek pamfletlaridan biri deyish mumkin. Muayyan sinfiy-partiyaviy nuqtai nazardan yozilgan bu asarda o'sha davrdagi ichki va tashqi muxoliflarning kirdikorlari o'tkir satira bilan fosh etilgan edi. Ziyo Said va Nosir Saidlarning «Mushtum» jurnali sahifalarida bosilgan «Oxirat maktublari» deb nomlanuvchi feletonlar turkumi hamda Nosir Saidning shu davrda yozilgan «Bir rakaatlik nomroz» sarlavhali hajviy-publitsistik asarida ham pamfletlik xususiyatlari mavjud edi. Mazkur asarlarda ham o'sha davrdagi muxolif kuchlar ayovsiz satira ostiga olingan edi.

Bundan keyingi davrlarda ham o'zbek jurnalistikasida pamflet janri goh-goh o'rin olib turdi. Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar bu janrning rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ular yaratgan pamfletlarda davrga muxolifatda bo'lgan tashqi kuchlar o'tkir hajv ostiga

olindi. Bu davrda yaratilgan qator pamfletlarda fashizm va uning insoniyatga dushman bo'lgan g'oyalari ayovsiz fosh etildi. Bunday pamfletlar orasida Abdulla Qahhorning «Bos tepkinil» feleton-pamfleti alohida ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan boshqa pamfletlar, yuqoriroqda aytganimizdek, kommunistik g'oya va sinfiy-partiyaviy manfaatlar nuqtai nazaridan yozilganligi boisidan o'zida bir yoqlamalik, cheklanganlik xususiyatiga ega bo'ldilar.

Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgach mazkur janrning yanada rivoji uchun keng yo'llar ochildi. Xalqaro terrorism, mustaqilligimizga qarshi bo'lgan tashqi va ichki kuchlarning kirdikorlari va boshqa ijtimoiy illatlar pamflet uchun mavzu bo'lib xizmat qilishi lozim.

Yuqoridagi tarixiy kuzatishdan ko'rinib turibdiki, pamflet ham hajviy publitsistikaning muhim, dolzarb va jangovar janri hisoblanadi. Mazkur janr ham xuddi feleton singari ijtimoiy kulgiga asoslanadi hamda o'zida bu kulgining eng kuchli, ta'sirchan vositalaridan foydalanadi. Xuddi feletondagi kabi pamfletda ham obraz va obrazlilik muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Pamfletda ham obraz – muayyan shaxs, guruh yoki tabaqa bo'lishi mumkin. Ya'ni, unda shu kungi ijtimoiy hayotda taraqqiyotga to'siq bo'layotgan, dushmanchilik qilayotgan muxolif kuchlar, ularning vakillari fosh etilishi lozim. Shu bilan birgalikda pamflet uchun biror ijtimoiy muammo, chunonchi, muxolif kuchlarning mafkurasi yoxud poraxo'rlik kabi ijtimoiy illatlar ham umumlashgan obraz bo'lib xizmat qilishi mumkin. Pamfletda obraz yaratishda feletonga qaraganda muhim va yirikroq faktlar, voqealardan foydalaniladi. Ijtimoiy kulgining esa olingan mavzuga mos keluvchi eng ta'sirchan ko'rinishlari, g'azab va nafrat uyg'otuvchi turlari qo'llaniladi. Pamflet ham xuddi feleton singari turli shakllarda namoyon bo'ladi. U, jumladan, maqola, hikoya, xat va boshqa shakllarda ifoda etilishi mumkin. Pamfletning shakli, obrazlari va undagi ijtimoiy kulgi turlari olingan mavzuning to'la ochib berilishi hamda publitsistik ta'sirchanlikka erishishga xizmat qilishi lozim.

Boshqa badiiy-publitsistik asarlar singari pamfletda ham syujet va kompozitsiya puxta o'ylangan bo'lishi, olingan mavzuni ochib berishi va

ko'zlangan publitsistik maqsadga xizmat qilishi kerak. Uning tili va uslubi ham xuddi ana shu maqsaddan kelib chiqadi. Feletondan farqli o'laroq pamfletning tili yanada o'tkir, keskin va mo'ljalga aniq borib tegadigan bo'lishi talab etiladi. Unda kerakli o'rinlarda zaharxandali kinoya, masxaraomiz tasvir va boshqalardan hamda mubolag'a, grotesk kabi kuchaytiruvchi vositalardan foydalanish mumkin. Ammo bu vositalar o'z o'rnida bo'lishi hamda qalamga olinayotgan mavzuning mohiyatini ochib tashlash, pamflet «qahramon»larining qiyofasi va kirdikorlarini kuchli kulgi ostiga olishga xizmat qilishi kerak. «O'zbekiston ovozi» gazetasining 2005-yil 9-avgust sonida siyosiy sharhlovchi I.Normatovning «To'g'ri gapning to'qmog'i» sarlavhali pamfleti bosilgan. Unda hozirgi zamonning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalari, jumladan Turkiston xalqlarining o'rtasiga rahna solishga uringan tashqi kuchlar va ularga xizmat qiluvchi ayrim siyosatchilar haqida gap boradi.

«Turkiston xalqlari o'rtasiga rahna solish niyatida g'alamistik qiluvchilar o'tmishda hamisha bo'lganlar, ular hozirda ham bor,— deb yozadi pamflet muallifi. — Turkiston xalqlariga hukmronlik qilish g'oyasi negizida ularni bo'lib yuborish maqsadi yotadi. Bu g'oyadan ilgari kommunistlar qanday ustalik bilan foydalanishgan bo'lishsa, hozir G'arb xuddi shunday ustamonlik bilan foydalanmoqda. Faqat o'rtadagi farq shundaki, imperiyaparastlar hududiy jihatdan bo'lib yuborib hukmronlik qilishgan bo'lsa zamona zo'rlari demokratiya niqobi ostida tazyiq o'tkazib, o'z hukmini yuritishni maqsad qilganlar. Odatda, bunday tazyiqlarga qarshi qat'iyatlik ko'rsatadigan davlat, rahbar va xalq yutadi. Aksincha, irodasiz, birovning nog'orasiga o'ynaydigan rahbar ham, xalq ham pand eydi».

Muallif yuqoridagi fikrlarining misoli sifatida Qirg'iziston rahbarlari, shu jumladan yaqinda mamlakat prezidentligi lavozimiga saylangan Q.Bokievning xatti-harakatlarini keltiradi. Qirg'izistonning yangi prezidenti shu yilning bahorida Toshkentda bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorlik tashkilotining sammitida so'zlagan nutqida Qirg'izistondagi AQSh harbiy-aviatsiya bazasini mamlakatdan olib chiqib ketish masalasini qo'ygan edi. Ammo AQSh mudofaa vaziri Bishkekka kelishi va

Qirg'izistonga 200 million dollar miqdorida qarz berishni va'da qilishi bilan o'z so'zidan qaytadi. «Aftidan,— deb yozadi I.Normatov.- AQSh ikki yon qo'shni, ikki qardosh xalq, ikki og'a—ini o'rtasida g'araz uyg'otib, nizo tug'dirishga astoydil ahd qilgan ko'rinadi. Ularning—ku maqsadi aniq, lekin Qirg'iziston rahbarlariga ne bo'ldi. Nahotki ular ikki kemaga oyoq qo'ygan g'arq bo'lishini bilishmasa?..Har holda chuchvarani xom sanamagan ma'qul. Bu o'yin bir yo'talga ikki cho'talday gap». Ko'rinib turibdiki, muallif shu kunning muhim ijtimoiy—siyosiy mavzusini kuzatib, undagi salbiy holatlarni ilg'ab olgan va pamfletga xos bo'lgan kinoyali, ayrim o'rinlarda zaharxandali hajviy—publitsistik tahlil bilan mazkur masalaga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'otishga erisha olgan.

Xulosa qilib aytganda, pamflet hajviy publitsistikaning eng ahamiyatli va qudratli janrlaridan biri bo'lib, u umuminsoniylik, xalqchillik xususiyatlariga ega bo'lishi, kishilik jamiyatining har xil illatlardan xalos bo'lib, olg'a taraqqiy etishiga xizmat qilishi lozim.

### **Pamflet bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Pamflet so'zining ma'nosi va uning xususiyatlarini ayting.*
- 2. Pamfletning feletondan farqi nimada?*
- 3. Pamflet qanday vujudga kelgan?*
- 4. Nutqiy pamflet ustalarini ayting.*
- 5. Feodal yakka hukmronligini tanqid qilgan fransiya publitsist-adiblarini ayting.*
- 6. Kommunistik g'oya tarafdorlari qaysi tartiblarni fosh etishda pamfletdan foydalanishgan.*
- 7. K.Marksning "Lun Bonapartning 18-bryumeri va boshqa pamfletlari nimaga qaratilgan edi?"*
- 8. O'zbek adabiyoti tarixida pamfletni sharhlang.*
- 9. Mashrabning ijodida pamflet.*
- 10. Shoir Maxmur ijodida pamflet.*



## **Pamflet bo'yicha nazorat savollari**

1. *Nega pamfletni jurnal janri deymiz?*
2. *Demosfen, Tsitseren va boshqalar pamfletning qaysi turidan foydalanishgan?*
3. *Pamfletga xos bo'lgan kuchli fosh etish ruhi qaysi adiblar ijodida ko'rinadi?*
4. *Jan Pol Marat, Kamil Dyulenlar o'z pamfletlarida qanday tuzumni fosh etishgan?*
5. *V.I.Leninning "Lakexonada" pamfleti qanday g'oya nuqtai nazardan yozilgan edi?*
6. *Shoir Turdi Farog'iy "Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari hajvi" asarida kimni fosh etadi?*
7. *Nazir To'raqulov, Ziyo Said, Nosir Said ijodida pamflet.*
8. *Oybek, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor ijodida pamflet.*
9. *I.Normatovning pamfletini o'qiganmisiz?*
10. *Furqat, Muqumiy, Zavqiy ijodida pamflet.*

### **10.6. Hajviy publitsistikaning kichik janrlari**

Ma'lumki, hajviy publitsistika hayotni aks ettirishda va undagi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashda o'ziga xos vosita – ijtimoiy kulgidan keng foydalanadi va u jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Hajviy publitsistikaning asosiy janrlari feleton va pamflet bo'lib, ular juda muhim ijtimoiy vazifalarni ado etadilar. Ammo hajviy publitsistika mazkur janrlar bilan cheklanib qolmaydi, u hayotni yoritishda yana boshqa janrlardan ham foydalanadi. Shu paytgacha hajviy publitsistikaga oid ilmiy asarlar va darsliklarda masal, parodiya, epigramma kabi janrlarni ham hajviy publitsistika tarkibiga kiradi, degan fikr olg'a surib kelinardi. Ammo bu janrlar ijtimoiy tanqid ruhiga ega bo'lsalar-da, ularni publitsistika janri deyish ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi, chunki ularning adabiyot janrlari ekanligi shundoq ko'rinib turibdi. Adabiyotning yuqoridagi va hajviy she'r, hajviy hikoya kabi janrlari ham hajviy publitsistikaga yaqin turadi, hajviy jurnalistika sahifalaridan joy olib, uni to'ldirib keladi. Bu – so'z san'ati bo'lgan

adabiyot bilan soʻz siyosati boʻlmish publitsistikaning oʻzaro musharakligini koʻrsatadi. Bu fikr hajviy publitsistikaning janrlari feleton va pamflet bilan chegaralanar ekan-da, degan maʼnoni bildirmaydi. Yaʼni, hajviy publitsistika hayotning barcha sohalariga kirib borar ekan oʻz navbatida publitsistikaning boshqa turli janrlaridan ham foydalanishi mumkin. Jumladan, u publitsistikaning axboriy va tahliliy koʻrinishlariga oid boʻlgan xabar, lavha, reportaj, hisobot, suhbat, maqola kabi janrlaridan ham oʻz oʻrnida foydalanishi mumkin. Ammo bunda jiddiy publitsistikadan farqli ravishda bu janrlarda tasvir etilayotgan hayot faktlari, voqea va hodisalari satira va yumor qonuniyatlari asosida, yaʼni ijtimoiy kulgi bilan yoʻgʻrilgan holda aks ettirilishi shart. Demak, hajviy publitsistikaning feleton va pamfletdan tashqari «kichik janrlari» ham mavjud boʻlib, bular – hajviy xabar, hajviy lavha, hajviy reportaj, hajviy hisobot, hajviy suhbat, hajviy maqola va boshqalardan iborat. Bu hol hajviy publitsistikani yanada toʻldiradi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birgalikda hajviy publitsistikada xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlgan latifa, maqol va matallar, topishmoqlar, choʻpchaklar, loflar, askiya kabilardan ham keng foydalanish mumkin. Shuningdek, hajviy publitsistika materiallarida hajviy kundalik, hajviy maʼlumotnoma, hajviy maktublar, hajviy dialog va boshqa shakllar ham qoʻllanilishi mumkin. Bu – «Hajv shakl tanlamaydi» degan mashhur hikmatli soʻzni isbotlaydi va bu oʻziga xos janrlar va vositalar hajviy publitsistikani yanada boyitadi. Yuqoridagi turli kichik janrlarda ham ijtimoiy kulgidan foydalanish, imkon darajasida hajviy obraz va obrazlilikka erishish talab etiladi.

Hajviy publitsistika shu bilan birgalikda sanʼatning adabiyotdan boshqa turlari bilan ham ijodiy aloqada boʻladi va ularning ham imkoniyatlaridan oʻziga xos ravishda foydalanib keladi. Jumladan, u tasviriy sanʼatning jangovar, hozirjavob tarmogʻi boʻlmish hajviy suratchilik – karikaturadan ham keng foydalanadi. Asosiy xususiyati biror shaxs, voqea yoki hodisaga tegishli salbiy tomonlarini masxara qilish maqsadida kulgili tasvir etishdan iborat boʻlgan karikatura ham hajviy jurnalistikadan joy olib, uni toʻldiradi hamda hajviy publitsistikaning ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Karikatura oʻz navbatida hajviy portret,

hajviy manzara, sharj – hazil va boshqa ichki janrlarga bo‘linadi. Karikatura jahon hajviy jurnalistikasining ajralmas qismi sifatida u bilan bir vaqtda vujudga kelgan va taraqqiy etgan. Yevropada nashr etilgan dastlabki hajviy nashrlardan o‘rin olgan karikatura asarlarida o‘sha davrning eng muhim masalalari aks etgan, taraqqiyparvar hajvchilar karikatura orqali hayotdagi zulm va zo‘ravonlikka, qoloqlik va boshqa ijtimoiy illatlarga qarshi kurashgan edilar.

O‘zbek karikaturachiligi o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida vujudga kelganligi ma‘lum. Garchi karikaturaga xos bo‘lgan ayrim ko‘rinishlar qadimgi miniatyura san‘ati asarlarida ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, karikaturaning bevosita shakllanishi hajviy nashrlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘ldi. O‘zbek karikaturachiligining paydo bo‘lishi va rivojlanishida o‘lkamizda ilk bor nashr etila boshlangan «Chayon» va «Cho‘l chayoni» hajviy jurnallari dastlabki qadamni qo‘ygan bo‘lsa, «Mushtum» jurnali asosiy rol o‘ynadi. Jurnal o‘zining birinchi sonidan boshlab bu janrga katta e‘tibor berdi va undan keng foydalandi. O‘zbek karikaturachiligining vujudga kelishi va rivojlanishida «Mushtum» jurnalining birinchi karikaturachi rassomi I.Tulyaning xizmati katta bo‘ldi. Shu bilan birgalikda mazkur sohaning shakllanish va rivojlanishida «Mushtum» jurnalining asoschilaridan biri bo‘lmish Abdulla Qodiriyning ham xizmatlari katta bo‘lgan, buni o‘sha davrda yaratilgan karikaturalarning mazmunidan, ularga milliy ruh singdirilganligidan ko‘rish mumkin. Keyingi davrlarda hajvchi rassomlardan V.Nikolaev (Usta Mo‘min), V.Rojdestvenskiy, R.Nexlyudov, M.Vorobeychikov, M.Hakimjonov, T.Muhammedov va boshqalar o‘zbek karikaturachiligini rivojlantirishda katta xizmat qildilar. O‘zbek karikaturachiligida to‘plangan boy ijodiy an‘analalar hozirgi zamon o‘zbek karikaturachiligida ham o‘z aksini topmoqda.

Davr taraqqiy etishi bilan birlikda hajviy publitsistikaning jurnalistikadagi ko‘rinishlari ham tabora kengayib, taraqqiy etib bormoqda.

Radiodagi hajviy eshittirish va maxsus hajviy radio jurnallar, televideniyedagi turli hajviy ko‘rsatuvlar shular jumlasidandir. Ifoda yo‘llari va uslublari turlicha bo‘lgan bu eshittirish va ko‘rsatuvlar hayot

voqealarini, undagi kamchilik va illatlarni satira va yumor - ijtimoiy kulgiga asoslangan holda aks ettirishi bilan hajviy publitsistikaga xizmat qiladilar va uning xilma-xilligini ta'minlab keladilar.

Hajviy publitsistika shu bilan birgalikda san'atning boshqa sohalarida ham ish ko'rishini mumkin. U teatr, kino, musiqa singari san'at sohalarida ham o'z ifodasini topib kelmoqda. Estrada qiziqchiligi, hajviy kinojurnallar, hajviy musiqa va qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgach jurnalistika va publitsistikaning boshqa turlari bilan bir qatorda hajviy jurnalistika va publitsistikaning ham yanada ravnaq topishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. «Mushtum» jurnali, «Afandi» gazetasi muntazam sur'atda nashr etib turilibdi, respublika radioasining «Tabassum» radio jurnali, televideniya esa «Televizion miniatyuralar teatri», «Handalak» kabi hajviy telejurnallar muntazam ish olib bormoqda. Jurnalistika nashrlarida hajviy publitsistikaning turli janrlardagi asarlari doimiy ravishda o'rin olib kelmoqda. Hozirgi zamon o'zbek hajviy jurnalistikasi va publitsistikasi milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, kishilarga milliy mafkurani yetkazish, hayotdagi kamchilik va nuqsonlarga qarshi kurashda hamon kamarbasta bo'lib xizmat qilib kelmoqda. O'zbek hajvchi jurnalist va publitsistlari hajviy publitsistika sohasida yig'ilgan ilg'or an'analarni davom ettirib, shu kunimiz uchun xizmat qiladigan asarlar yaratmoqdalar.

## **Hajviy publitsistikaning kichik janrlari**

### **bo'yicha reyting topshiriqlari**

- 1. Hajviy publitsistika hayotni aks ettirishda nimadan foydalanadi?*
- 2. Adabiyotni so'z san'ati desak, unda publitsistikani nima deymiz?*
- 3. Hajviy publitsistikaning kichik janrlarini sanang.*
- 4. Hajviy publitsistikada karikatura.*
- 5. O'zbek karikaturachiligining paydo bo'lishi va rivojlanishida asosiy rolni qaysi jurnallar o'ynadi?*
- 6. "Mushtum" jurnalining asoschisi kim bo'lgan?*
- 7. Hajvchi rassom V.Nikolaevning taxallusini ayting.*
- 8. Hajviy publitsistika san'atning qaysi sohalarida faoliyat yuritadi?*

**Hajviy publitsistikaning kichik janrlari  
bo'yicha nazorat savollari**

1. *Hajviy publitsistikaning asosiy janrlarini ayting.*
2. *Hajviy publitsistikada xalq og'zaki ijodi.*
3. *"Hajv shakl tanlamaydi" degan hikmatli so'zni izohlang.*
4. *Karikaturaning ichki janrlarini sanang.*
5. *O'zbek karikaturachiligi qachon vujudga kelgan?*
6. *O'zbek karikaturachilarining nomlarini sanang.*
7. *O'zbekistonda qanday hajviy publitsistikaga oid gazeta, radiojurnal, telejurnal bor?*

---

## XOTIMA

O'ta keng qamrovli, juda boy tarixga ega bo'lgan jurnalistika nazariyasini hajm jihatidan katta bo'lmagan bir kitobda to'laqonli yoritish mumkin bo'lmaganidek, bu bitta kitobga joy bo'lmaydi degan fikr bilan umuman yozmaslik ham xato bo'lardi.

Jurnalistika bamisoli jilg'alardan paydo bo'ladigan daryo. Shu adolatlilik fikrga qo'shilgan holda qo'lingizdagi darslik yaratildi.

Mualliflar jurnalistikaning ijtimoiy faoliyat ekanligidan kelib chiqib, uning ommaviy targ'ibot va tashviqot qilish shakllaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog'liq holda amal qilishni darslikka asos qilib olishdi.

Jurnalistika siyosiy erkinliksiz taraqqiy qilmasligi jamiyat a'zolarini eng muhim va zarur bo'lgan xolis va haqqoniy axborot bilan ta'minlay olmasligini hayot tajribasi allaqachon isbotlab bergan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, jurnalistika demokratiyasiz o'z vazifasini to'la bajara olmaydi. Jurnalistika tarixi bu fikrni ham allaqachon isbotlagan.

Jurnalistikaning asosiy faoliyati bu axborot to'plash, uni tahlil qilish va ommaga tarqatishdan iborat bo'lgani uchun u haqda ko'pgina qarashlar va fikrlar mavjud va shunday bo'lgani to'g'ri.

Shu kabi masalalar darslikda imkon darajasida yoritildi.

Jurnalistikaning jamiyat bilan o'zaro aloqasidagi mazmun va shakl uning tashkiliy hamda mahorat mezoni to'xtovsiz rivojlanishda bo'lgani bois "doimiy" darslik yozish mumkin emasligi ham ma'lum, chunki jurnalistikaning har biri turi, sohasi, faoliyati haqida ancha - muncha darsliklar yaratilgan, yaratilmoqda. Hali yana yaratiladi. Hayot kundankunga turli yangiliklar, o'zgarishlar bilan boyib borarkan jamiyat ham shu asnoda o'zgaradi, bu o'z navbatida jurnalistikaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Jurnalistika o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra hayotdan oldinda yurishi kerak va ko'p hollarda xuddi shunday bo'ladi. Ammo ba'zida u ijtimoiy hayotni yoritishda zamonaviy ish usullari va shakllarini to'la egallab olmagan uchun xalqaro mezonlarga javob bera olmay qoladi ham.

Bugun o'zbek jurnalistikasida chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro bahslar, sharhlar afsuski talab darajasida emas.

Bugun o'zbek jurnalistlari asosiy faoliyatlari bilan birga reklamachi hamda piarmentlik bo'yicha o'rindoshlik ham qilmoqdalar. Buning foydadan ko'ra ziyoni ko'proq. Chunki chinakam jurnalist o'z vazifasini bajargani ma'qul degan fikrdamiz. Jurnalistika o'z faoliyatida ijtimoiy fikrni shakllantirishi haqidagi g'oya ilm fanda allaqachon tan olingan bo'lsada, bu tezis uning faoliyatini biroz cheklab, qamrovini kichraytirib qo'ygan fikr ham yo'q emas.

Jurnalistika degan atamaga berilgan ta'riflar tez-tez o'zgarib turibdi va kelajakda bunday o'zgarishlar davom etadi. Jamiyatdagi har bir yangilik, kashfiyot jurnalistika orqali ommalashadi. Demak har bir yangilik, kashfiyot jurnalistikaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz ayrim ommaviy davlat nashrlarining aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko'zga tashlanmasligini bejiz ta'kidlaganlar.

Biz publitsist, siyosiy fanlar doktori Nazrulla Jo'raevning quyidagi fikrlariga qo'shilamiz. U o'zining "Istiqlol epkini va so'z erkinligi" maqolasida shunday yozadi: "... hali milliy matbuotimiz faoliyatida jiddiy kamchiliklar bor. Shiddatli hayot islohotlar mohiyatini chuqur anglashni, butun miqyosi, ko'lamida qamrab olib tahlil qilishni va uning mohiyatini ochib berishni taqozo etadi. Matbuot esa islohotlar shiddatidan yangilanishlar oqimidan orqada qolmoqda, uning shiddatiga tenglasha olmayapti. Ijtimoiy hayotimizda, butun mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar mohiyati chuqur ochilmayapti.

Bir qaraganda matbuot sahifalari bejirim va u kishini qaysidir darajada qanoatlantiradi, serqirra hayotning hamma sohalarini qamrab olgandek, mavzu doirasi keng, barcha muammolarni yoritayotgandek tuyuladi.

Biroq ayni ana shu sohalar va mavzularning barchasida ma'lum darajada yuzakilik, safsatabozlik, chuqur bilimning yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Ilmiy-tahliliy va hayot falsafasining sintezi sifatidagi xulosalar yetishmayapti.<sup>21</sup>

Muallifning bu fikrlari ancha burun aytilgan bo'lishiga qaramay dolzarb. Uni qabul qilish kerak. Demak jurnalistika oldida hali katta

<sup>21</sup> "O'zbekiston matbuoti" jurnali 2001. 5-son. 11 b.

vazifalar turibdi, ularni hal qilish bu qusurlardan qutulish, shuningdek mas'uliyatli vazifalarni ilmiy tahlil qilish vaqti keldi deb hisoblaymiz. Bu murakkab dolzarb ishlarda eng avvalo jurnalistlarning o'zlari, qolaversa shu sohaga jonkuyarlarning astoydil mehnati talab qilinadi.

Jurnalistikaning ijtimoiy faoliyat turi deb qaradikmi, demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan ijtimoiy faoliyat ham o'zgarishini inobatga olgan holda jurnalistikadagi o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lmoq kerak. Buning eng birinchi asosi jurnalistikaga oid qabul qilingan qonunlarning ishlashini to'la ta'minlashimiz kerak. Jurnalistikamiz bugun haqiqatni, hayotni to'laqonli aks ettirish yo'lidan bormog'i lozim. Bu haqiqatni yoritish har bir jurnalistning mahoratiga va yana uning grajdanlik pozitsiyasiga ham bog'liq ekanligini unutmasligimiz kerak.



---

## Foydalanilgan adabiyotlar Rasmiy adabiyotlar va hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008.
2. Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida. O'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. T.: Mehnat, 2003. 45-50 b.
3. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida. O'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. T.: Mehnat, 2003. 37-44 b.
4. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida. O'zR qonuni. O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. Законодательные акты Республики Узбекистан о средствах массовой информации. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2007. 4-11 b.
5. Noshirlik faoliyati to'g'risida. O'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. T.: Mehnat, 2003. 52-55 b.
6. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. O'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. Четвертая власть. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. T.: Mehnat, 2003. 89-115 b.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2000-2004. 1-12 jildlar.
8. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.: O'zbekiston, 1992.
9. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.: O'zbekiston, 1994.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

11. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T.: O‘zbekiston, 1999.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O‘zbekiston, 1999.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009.
15. Milliy istiqlol g‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar: Oliy ta’lim muassasalari uchun qo‘llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
16. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
17. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.
18. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.
19. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

## **11. Ixtisoslik bo‘yicha adabiyotlar**

1. Abduazimova N. A. Turkiston matbuoti (1870-1917). T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2000.
2. Abduazizova N. A. Turkiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2001.
3. Abduazizova N.A. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2003.
4. Abduazimova N. A. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2007.
5. Абрамов Д.С. Профессиональная этика журналиста. М., 2003.
6. Аналитическая журналистика. Теория методики журналистского творчества: Конспект лекций / Ирнараров К.Т., Маматова Я.М. Т.: UzNU, 2001. Ч.1.

7. Ахмадулин В. Краткий курс теории журналистики: Учебное пособие. М.-Ростов-на-Дону, 2006.
8. Вернстайн Уильям. Массмедиа с древнейших времен до наших дней. М.: AST, 2017.
9. Ворошилов В.В. Журналистика: Учебник. СПб., 1999.
10. Журналистское образование в XXI веке/ Маркушин М. Екатеринбург, 2000.
11. Ворошилов В.В. Теория и практика массовой информации. М.: Кнорус, 2017.
12. Гаврилов К.В. Как делать сюжет новостей. М.: Пальмира, 2017.
13. Горохов В.М. Основы журналистского мастерства. М., 1989.
14. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? T.: Yangi asr avlodi, 2001.
15. Журбина Е.И. Теория и практика художественно-публицистических жанров. М., 1976.
16. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? T.:Yangi asr avlodi, 2001.
17. Do'stmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: Monografiya. T.: Yangi asr avlodi , 2007.
18. Do'stqorayev B.A. Turkiston jadiclarining yirik siy mosi //Jahon adabiyoti. 1998. 3-son.
19. Jamoatchilik bilan ishlash-Pablik rileyshnz N.G'afurov. T.: O'zMU, 2002.
20. Jurnalistik surishtiruv. Qisqacha ta'rif va tavsiyalar. T., 2002.
21. Jabborov S.M. Ommaviy axborot vositalari qonunchiligi: Ma'ruzalar matni. T.: O'zMU, 2000.
22. Ирнazarov K.T., Маматова Я.М. Информация в печати. Т., 2000.
23. Муминов Ф.И. История журналистики Узбекистана: Текст лекций. Т.: УзНу, 2000.
24. Ирнazarov K.T., Маматова Я.М. Аналитическая журналистика. Т., 2001.
25. Ким М.Н. Репортаж: Технология жанра. СПб, 2005.

26. Ким М.Н. Теория и практика массовой информации. Санкт-Петербург: Питер, 2017.
27. Корконосенко С.Г. Основы журналистики. М.: Кнорус, 2017.
28. Кривошеев В.М. В творческой лаборатории журналиста. М.: Логос, 2016.
29. Krinskiy J.L. Reportaj, materiallarning yozilishi va tahrir qilish asoslari: Jurnalistlar uchun qo'llanma. Inglizchadan tarjima. T., 2003.
30. Lug'at. Jurnalistika. Reklama. Pablik rileyshnz. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama. T., 2003.
31. А. Мелибоев, Ф.П. Нестеренко, К.Т. Ерназаров, Я.М. Маматова, Д.И. Коробкин. Труд журналиста: Профессионализм творчество, мастерство: Учебное пособие. Т.: УзНУ, 2002.
32. Муминова П.И. Современная зарубежная журналистика: Текст лекций. Т.: НУУз, 2001.
33. Mo'minov F.A. Sotsiologiya va jurnalist faoliyati. T., 1995.
34. Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T.: Universitet, 1998.
35. Нестеренко Ф.П., Миралимов Ш.А. Журналистика: координаты профессии. Т., 2001.
36. Новикова А.А. История и теория медиа. М.: ВШЕ, 2017.
37. Professional mahorat sari to'rt qadam: Jurnalistlar uchun qo'llanma. T., 2002.
38. Прохоров Э.П. Введение в теорию журналистике: Учебник. М., 2003.
39. Publitsistikada obraz va obrazlilik: Jurnalistika fakulteti 2- kurs talabalari uchun o'quv dasturi / Xudoyqulov M. T.: O'zMU, 2002.
40. Saidov O. O'zbek sovet feletoni. T.: Fan, 1981.
41. Сибберг С. Фред, Шрамм У., Питерсон Т. Четыре теории пресси. М., 1998.
42. Стюфляева М.И. Образные ресурсы публицистики. М., 1982.
43. Самарцев О.Р. Творческая деятельность журналиста. М.: Академический проект, 2017.
44. Tolqin Qozoqboyev. Jurnalistika asoslari. T.: Musiqa, 2007.

45. Третьяков В.Т. Как стать знаменитим журналистом? М.: Ладомир, 2016.
46. Нестеренко Ф.П., Ирназаров К.Т., Маматова Я.М. Современная журналистика. Т., 2006.
47. Рашидова Д.К. Интернет – источник журналистской информации СМИ: Лекции. Т.: Университет, 1999.
48. Рашидова Д.К. Интернет в Узбекистане: возможности и проблемы. Т., 2003.
49. Рендал Д. Универсальный журналист. Алматы, 1996.
50. Rixsiev В. To‘lqinlar qanotida. Т.: Birlashgan nashriyot, 1967.
51. Роль средств массовой информации в переломный период XX века: Материалы международной конференции, организованной фондом имени К.Аденауера. Т., 1998.
52. Тертичный А.В. Основы публицистики и жанры. М., 2001.
53. Toshaliyev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. Т.: O‘zMU, 1999.
54. Tog‘aev O. Publitsistika janrlari. Т.: O‘qituvchi, 1976.
55. Tog‘aev O. O‘zbek badiiy publitsistikasi. Т.: Fan, 1981.
56. Q.T. Ernazarov, Yo.M. Mamatova, I.E. Toshaliyev, Sh.Q. Ernazarov. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti: O‘quv qo‘llanmasi. Т., 2002.
57. Xudoyqulov M. O‘zbek hajviy publitsistikasi. Т.: Universitet, 2001.
58. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi: Ma’ruzalar matni. Т.: O‘zMU, 1999.
59. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari tipologiyasi: Ma’ruzalar matni. Т.: O‘zMU, 2000.
60. Xudoyqulov M. Jurnalistika erkinligi. Т.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. 5–tom.
61. Xudoyqulov M. Hajvning hayotiy ruhi // O‘zbek tili va adabiyoti. Т., 2003. № 3.
62. Xudoyqulov M. Radioeshittirishlar. Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 6–jild.

63. Xudoyqulov M. "Taraqqiy" gazetasi haqida. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 6-jild.
64. Xudoyqulov M.. Jurnalistikaning bosh tamoyillari //Jamiyat va boshqaruv. 2005. 1 son.
65. Xudoyqulov M. Badiiy publitsistika janrlari: O'quv qo'llanmasi. T.: O'zMU, 2004.
66. Рашидова Д.К. Особенности формирования интернетной журналистики и специфика интернета в качестве глобального СМИ. Т., 2002.
67. Энтин В. Пресса в рынке информации. М.,1992.
68. Hamdamov Yu. Zamon va mezon. T.: O'zbekiston, 1981.
69. Pidaev T. Qalami nayza edi. T., 1971.
70. Pidaev T. Mohir jurnalist va redaktor. T., 1973.
71. Abdusamatov H. O'zbek sovet satirasi masalalari T., 1968.
72. Jurnalistik mahorat kursi bo'yicha metodik tavsiyalar / Sh.A. Miralimov. T., 2003.
73. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jildlar. T., 2006-2008.

**“Jurnalistika asoslari” darsligi bo‘yicha  
test savollari**

**1. Jurnalistika atamasining o‘zbekcha muqobilini ayting.**

- a) Matbuot
- b) Bosma nashr
- d) Gazeta-jurnal
- e) Kundalik
- f) Haftalik

**2. “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” degan jumla O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida yozilgan?**

- a) 35
- b) 48
- d) 51
- e) 60
- f) 67

**3. “Nashrga tayyorlangan qo‘lyozmalar va materiallarni senzurdan o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi” jumlasini O‘zbekiston Respublikasining qaysi qonunida yozilgan.**

- a) “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” gi
- b) “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi
- d) “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi
- e) “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi
- f) “Reklama to‘g‘risida”gi

**4. “Ijtimoiy ongning o‘tkir va ta’sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta’sir ko‘rsatadigan, jamoatchilik fikrini shakllantiradigan omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g‘oyaviy omil hisoblanadi” degan ta’rif OAV ning qaysi bo‘limiga aytilgan.**

- a) Televideniye
- b) Radio
- d) Axborot agentliklari

e) Hujjatli kino

f) Matbuot

**5. O‘zbekistonda birinchi bosma nashr “Turkestanский vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazetii” nechanchi yildan boshlab nashr qilina boshladi?**

a) 1701

b) 1800

d) 1870

e) 1905

f) 1924

**6. Birinchi o‘zbek milliy gazetasining nomini ayting.**

a) “Taraqqiy”

b) “Xurshid”

d) “Kengash”

e) “Sadoyi Turkiston”

f) “Turon”

**7. 1873 yilda kim “Tarjimon” gazetasini tashkil etgan?**

A) Ismoil Obidov

b) Ismoil G‘aspirali

d) Abdulla Avloniy

e) Mahmudxo‘ja Behbudiy

f) Shohimardon Ismoilov

**8. O‘zbekistonda radioeshittirishlar doimiy ravishda qaysi yildan boshlab uzatila boshlandi?**

a) 1925

b) 1926

d) 1927

e) 1928

f) 1929

**9. O‘zbekiston televideniyesi nechanchi yilda tashkil topgan?**

a) 1954

b) 1955

d) 1956



e) 1957

f) 1958

**10. Maxsus jurnalist kadrlar tayyorlash hozirgi O'zbekiston Milliy Universitetda qaysi yildan boshlandi?**

a) 1946

b) 1947

d) 1948

e) 1949

f) 1950

**11. Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan chiqarilgan ganchdan yasalgan maxsus taxtachalar matbuotning ilk kurtaklari hisoblanadi. Bu qaysi asrda bo'lgan?**

a) Eramizdan oldingi beshinchi asr

b) Eramizdan oldingi uchinchi asr

d) Eramizdan oldingi birinchi asr

e) Eramizdan besh yuzinchi yili

f) Eramizdan minginchi yili

**12. Yevropada birinchi bosma gazeta Germaniyaning Starsburg va Augsburg shaharlarida nashr etilgan "Reiation Adler" va "Aviso-Realtion oder Zeitung" nechanchi yilda nashr etildi?**

a) 1609

b) 1631

d) 1692

e) 1702

f) 1870

**13. Birinchi ro'yhatga olingan "Jurnal de Savan" ("Olimlar jurnali") jurnali 1655-yilda qaysi shaharda chop etildi?**

a) Moskva

b) Parij

d) Beri

e) Bag'dod

f) Kyol'n

**14. 1906-yil sentyabrida jadidlarning ikkinchi nashri “Xurshid” gazetasi tashkil etildi. Uning muharririni ayting?**

- a) Abdulla Avloniy
- b) Ahmadjon Bektemirov
- d) Munavvar qori Abdurashidxonov
- e) Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li
- f) Mirzojalol Yusufzoda

**15. Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida qaysi jurnal chop etildi?**

- a) “Al-isloh”
- b) “Kengash”
- d) “Oyina”
- e) “Yurt”
- f) “Chayon”

**16. Turkistonda “Среднеазиатский вестник” (“O‘rta Osiyo darakchisi”) jurnalining birinchi soni qaysi yilda bosmadan chiqdi?**

- a) 1870
- b) 1880
- d) 1890
- e) 1896
- f) 1900

**17. Turkistonda milliy jurnalistikaga qaysi atoqli ma’rifatparvar adib va publitsist asos solgan?**

- a) Xamza Xakimzoda Niyoziy
- b) Ubaydulla Xo‘jaev
- d) Abdulla Avloniy
- e) Mahmudxo‘ja Behbudiy
- f) Munavvarqori Abdurashidxonov

**18. Jurnalistikaning hamda adabiyotning asosiy qurolini ayting?**

- a) Voqelik
- b) Adolat
- d) So‘z

e) Haqiqat

f) Tarbiya

**19. Faktlar haqidagi xabardangina iborat bo‘lib qolmay, inson ichki ehtiyoji bo‘lmish muloqotni aloqa qilish amali va fikr almashish jarayonini ifodalash jurnalistikaning qaysi janriga xos?**

a) Korrespondensiya

b) Ochiq xat

d) Suhbat

e) Axborot

f) Ocherk

**20. “Bosma mahsulot”, “Bosib chiqarilgan narsalar” degan ma’nolarini bildiruvchi iborani ayting.**

a) Bosmaxona

b) Nashriyot

d) Jurnalistika

e) Matbuot

f) Gazeta

**21. Bosma mahsulotlar; matbuot nashrlarining chiqarish, ularga materiallar tayyorlash bilan bog‘liq kasb; matbuotning ichki qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida qo‘llaniladigan fan qaysi?**

a) Matbuot nazariyasi

b) Radio nazariyasi

d) Televideniye nazariyasi

e) Axborot agentliklari

f) Jurnalistika

**22. Gazeta va jurnallarga radio, teleko‘rsatuvlar qo‘shilgach, bularning umumiy majmuasiga qanday nom berildi?**

a) Internet

b) Matbuotshunoslik

d) Ommaviy axborot vositalari

e) Jurnalistika

f) Siyosatshunoslik

**23. Ommaviy axborot vositalari hali vujudga kelmagan paytlarda xabarchilik, jarchilik, voizlik (notiqlik) va yozma adabiyot orqali amalga oshiriladigan informatsiya turini aniqlang?**

- a) Ta'lim-tarbiyaviy informatsiya
- b) Iqtisodiy informatsiya
- d) Ijtimoiy informatsiya
- e) Badiiy-estetik informatsiya
- f) Diniy informatsiya

**24. Ijtimoiy ongning eng o'tkir va ta'sirchan qismini ayting?**

- a) Ijtimoiy psixologiya
- b) Mafkura
- d) Adabiyot, san'at
- e) Fan
- f) Matbuot

**25. Matbuotning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?**

- a) Serko'lamligida
- b) Hozirjavobligida
- d) Ta'sirchanligida
- e) Doimiylikida
- f) Jangovar ko'rinishda ekanligida

**26. Matbuot bilan adabiyotni bir-biriga yaqinlashtiruvchi eng asosiy manbani ayting?**

- a) Siyosat
- b) So'z
- d) Axloq
- e) Adib
- f) Jurnalist

**27. XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish matbuotini jahon matbuotshunoslari qanday nomlashgan?**

- a) Avtoritar matbuot
- b) Erkin matbuot
- d) Kommunistik matbuot

e) Kapitalistik matbuot

f) Demokratik matbuot

**28. “Taraqqiy” gazetasi ning birinchi sonida bosilgan “Biz musulmonlarni hurriyatda haqlari bormi? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz marta yo‘q!” sarlavhali publitsistik maqola muallifi kim edi?**

a) I.Obidov

b) M.Behbudiy

d) M.Abdurashidxonov

e) H.H.Niyoziy

f) A.Avloniy

**29. Jurnalistikaning rivojlanishiga chinakam turtki bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori qachon qabul qilindi?**

a) 1989 – yil 10 – mart

b) 1990 - yil 25 -- fevral

d) 1999 – yil 25 – fevral

e) 2001- yil 15 – dekabr

f) 2003 - yil 8 – iyul

**30. Birinchi o‘zbek gazetasi qachon chop etildi?**

a) 1870- yil 10 – sentyabr

b) 1898- yil 20 – yanvar

d) 1901- yil dekabr

e) 1906- yil 27 – iyun

f) 1924- yil 26 – iyun

**31. Xususiy gazeta va jurnal ta‘sis etish qaysi O‘zbekiston qonunida o‘z ifodasini topgan?**

a) “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”

b) “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”

d) “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”

e) “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”

f) “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”

**32. Turkistonda milliy jurnalechilikka asos solgan ma'rifat-parvar adib va publitsistni bilasizmi?**

- a) Munavvar qori Abdurashidxonov
- b) Abdulla Avloniy
- d) Mahmudxo'ja Behbudiy
- e) Ismoil G'aspirali
- f) Ismoil Obidov

**33. O'zbekiston davlat tasarrufida bo'lmagan axborot agentligini bilasizmi?**

- a) O'zbekiston axborot agentligi
- b) "Jahon" axborot agentligi
- d) "Turkiston press" axborot agentligi
- e) Internet
- f) ITAR-TAAS

**34. O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi tugatilib, uning o'rniga O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil bo'lgan yilni ayting?**

- a) 1991
- b) 1995
- d) 1996
- e) 1997
- f) 1999

**35. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tugatilib, uning o'rniga O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi qachon tashkil etildi?**

- a) 2000
- b) 2001
- d) 2002
- e) 2003
- f) 2004

**36. Matbuotning hayotdagi fakt, voqea va hodisalarning ichki mohiyatini ochib berish, uni tushintirish, tahlil qilish, baholash, xulosalar chiqarish, ma'qullash yoki inkor etish bilan matbuotning qaysi bosh funksiyasi shug'ullanadi?**

- a) Tahlil funksiyasi
- b) Xabardor qilish funksiyasi
- d) Tasvir funksiyasi
- e) Ta'sir funksiyasi
- f) Madaniy-ma'rifiy funksiyasi

**37. Ijtimoiy hayotni chuqur qatlamlarini o'zida aks ettirish va inson ongining chuqur qatlamlariga ta'sir etish, o'quvchilarga hayotdagi faktlar, voqea va hodisalarning ichki sabablarini ochib berish, tushuntirish, izohlash bilan matbuotning qaysi bosh funksiyasi shug'ullanadi?**

- a) Tasvir funksiyasi
- b) Xabardor qilish funksiyasi
- d) Reklama va e'lon tarqatish funksiyasi
- e) Tahlil funksiyasi
- f) Ta'sir funksiyasi

**38. Matbuotning bosh prinsiplarini ayting?**

- a) Xalqchilik, sinfiylik, haqqoniylik, ommaviylik
- b) Umuminsoniylik, partiyaviylik, xalqchilik, haqqoniylik
- d) Umuminsoniylik, haqqoniylik, ommaviylik
- e) Haqqoniylik, sinfiylik, partiyaviylik, ommaviylik
- f) Xalqchilik, ommaviylik, sinfiylik, partiyaviylik

**39. Ijtimoiy hayot voqealarini yoritishda xolislik, hurfikrlilik, turlicha qarashlarga keng o'rin berish qaysi an'analarga xos?**

- A) Milliylik
- b) Haqqoniylik
- d) Umuminsoniylik
- e) Partiyaviylik
- f) An'anaviylik

**40. Badiiy publitsistik janrlar “qirol”, gazeta va jurnallar ko‘rki, jurnalistikaning eng g‘aroyib janri qaysi?**

- a) Pamflet
- b) Feleton
- d) Reportaj
- e) Parodiya
- f) Ocherk

**41. Kibernetika fanining asoschisi, mashhur olim Norbert Vinerning “Odamning tashqi dunyoga moslashuv jarayonida undan olgan ma’noning ifodasidir” degan iborasi qaysi janr haqida aytilgan?**

- a) Xabar
- b) Maqola
- d) Informatsiya
- e) Reportaj
- f) Ocherk

**42. Davriy matbuot jamiyat taraqqiyotining qaysi bosqichida vujudga keladi?**

- a) Yozuv paydo bo‘lgan va rivojlangan bo‘lganda
- b) Aholining ko‘pchilik qismi savodxon bo‘lganda
- d) Matbuotning texnikaviy asosi yaratilgan, bosma dastgoh va boshqa zarur asboblarni ishlab chiqilganda
- e) Jamiyatdagi hukmron va boshqa guruhlar, tabaqalar bosma so‘z vositasi bilan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy manfaat ko‘rish ehtiyojini sezganda
- f) Hamma bosqich amalga oshganda

**43. Ijtimoiy hayotni aks ettirishdek umumiy qonuni bir xil bo‘lgan qaysi soha jurnalistikasi ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim masalalarini yoritadi?**

- a) Ijtimoiy-siyosiy jurnalistika
- b) Ijodiy ishlab chiqarish jurnalistikasi
- d) Ilmiy jurnalistika
- e) Badiiy jurnalistika
- f) Jurnalistikaning hamma soha va xillari



**44. Hajviy jurnalistika tasviriy san'atning qaysi sohasidan keng foydalanadi?**

- a) Sharh
- b) Karikatura
- d) Natyurmort
- e) Portret
- f) Manzara

**45. Teleko'rsatuvlar asosan qaysi san'atdan keng foydalanadi?**

- a) Kino san'atidan
- b) Teatr san'atidan
- d) Musiqa san'atidan
- e) Tasviriy san'atdan
- f) Kino va teatr san'atidan

**46. Matbuot erkinligi asoslarini ayting?**

- a) Ijtimoiy
- b) Iqtisodiy
- d) Ma'naviy
- e) Siyosiy
- f) Yuqoridagi hammasi asos bo'lishi mumkin

**47. "Jurnalist" atamasi qachondan boshlab qo'llanila boshlandi?**

- a) Gazeta chop etila boshlangandan boshlab
- b) Repartyorlar ya'ni yangilik yetkazuvchilar paydo bo'lgandan boshlab
- d) Sharhlovchilar yetishib chiqqandan boshlab
- e) Jurnallar kelib chiqishidan boshlab
- f) Feletonchilar yetishib chiqqandan boshlab

**48. Jurnalistning ijodiy qiyofasini belgilovchi besh mezonga qaysilar kiradi?**

- a) O'z kasbini egallab olish
- b) O'tkir qalam egasi bo'lish
- d) Ijtimoiy hayotni chuqur o'rganish va uning muammolarini ko'tarib chiqish

e) Ijtimoiy nuqson va illatlarga murossasiz bo'lish, doimo izlanish, ijodiy mahoratni oshirib borish

f) Yuqoridagi sanalgan hamma fazilatlar

**49. "Buxoro axbori" gazetasiga muharrirlik qilgan Cho'lpon gazetasining oshkoralik tamoyillariga amal qilishni qaysi dasturiy maqolasida aytgan?**

a) Matbuot kuchli bir davlatdir

b) Matbuot xalqning tili ham so'zidir

d) Matbuot hukumatning ham tilidir

e) Matbuot yangiliklar xabarchasi

f) Matbuot hukumat bilan xalq orasidagi ko'prikdir

**50. Tasvirlash, biron narsa haqida tushuncha berish degan ma'noni qaysi jurnalistik janr ifoda etadi?**

a) Informatsiya

b) Publitsistika

d) Maqola

e) Internet

f) Ocherk

**51. Ijtimoiy hayotning shu kundagi, ayni zamondagi muammolarini o'zida aks ettiradigan va shunga ko'ra, ayni zamonga xizmat qiladigan adabiy-siyosiy ijod turini ayting.**

a) Informatsiya

b) Korrespondensiya

d) Maqola

e) Ocherk

f) Publitsistika

**52. Ilmiylik mavjud bo'lgan, voqelikka faol aralashadigan, fikrni bevosita oshkora, dangal aytadigan janrni ayting?**

a) Maqola

b) Korrespondensiya

d) Publitsistika

e) Ocherk

f) Reportaj

**53. Qaysi gazeta tug'ilgan kun O'zbekistonda o'zbek milliy matbuot tug'ilgan kun sifatida nishonlanadigan bo'ldi?**

- a) "Xurshid"
- b) "Kengash"
- d) "Turon"
- e) "Sadoyi Turkiston"
- f) "Taraqqiy"

**54. So'z san'ati, obrazli tasavvurlarga tayanib ijtimoiy fikrga ta'sir etuvchi ijod turini ayting?**

- a) Maqola
- b) Korrespondentsiya
- d) Publitsistika
- e) Reportaj
- f) Ocherk

**55. Tadqiqot, hayotimizning biron bir aniq masalaga bag'ishlangan muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzuni yoritadigan janrni ayting?**

- a) Maqola
- b) Korrespondensiya
- d) Suhbat
- e) Intervyu
- f) Reportaj

**56. Maqola bilan bir xillikka ega bo'lgan ammo qamrovi kichik janrni bilasizmi?**

- a) Korrespondensiya
- b) Xabar
- d) Axborot
- e) Ochiq xat
- f) Taqriz

**57. O'zbekistonda maqola janri tarixi qaysi jurnalistlar bilan bog'liqligini bilasizmi?**

- a) Furqat, Ibrat, Xakimxon
- b) Muqimiy, Zavqiy, Bayoniy
- d) Nodim, Nisbat, Muhayyir

e) Havoiy, Toshboltu Royiq, Toshxo‘ja Asiriy

f) Muqimiy, Zavqiy, Furqat

**58. Axborot maqoladan farqli o‘laroq tahlil qilish xususiyati bo‘lgan, fakt markaziy o‘rinni egallaydigan tezkor janr.**

a) Reportaj

b) Korrespondensiya

d) Xabar

e) Ochiq xat

f) Taqriz

**59. Vazifasi “chimdini hayotni” ko‘rsatish, maqsadi esa bo‘lgan voqeani yoki voqealarni tahlil qilishdan iborat bo‘lgan asosiy va qadimgi janr qaysi?**

a) Axborot

b) Ocherk

d) Maqola

e) Korrespondensiya

f) Xabar

**60. Xususiyan umumiyga qarab ketadigan har bir chiqish ijtimoiy siyosiy chiqish deb qaraladigan janrni ayting?**

a) Feleton

b) Pamflet

d) Korrespondensiya

e) Maqola

f) Ocherk

**61. Tili ta’sirli, ehtirosli, namunali, munozarali bo‘lgan, birinchi shaxs nomidan olib boriladigan va javob kutiladigan janrni bilasizmi?**

a) Reportaj

b) Ochiq xat

d) Korrespondensiya

e) Ocherk

f) Parodiya

**62. Tajribani ommalashtirishning eng yaxshi shakli bo'lgan janrni ayting?**

- a) Maqola
- b) Xabar
- d) Axborot
- e) Suhbat
- f) Ochiq xat

**63. Bittagina fakt ustida fikr yuritadigan yoki bitta voqeani yoritadigan janr bor, u qanday nomlanadi?**

- a) Epigramma
- b) Maqola
- d) Korrespondensiya
- e) Xabar
- f) Axborot

**64. Yangilikni yoritadigan, hozirjavob, tezkor, hammabop va tushinarli janrni ayting?**

- a) Axborot
- b) Xabar
- d) Intervyu
- e) Suhbat
- f) Maqola

**65. Xronika, lavha, suhbat, hisobot, reportaj shaklida yoziladigan janrni bilasizmi?**

- a) Intervyu
- b) Xabar
- d) Axborot
- e) Epigramma
- f) Ocherk

**66. Gazeta va jurnallarning ilg'or tajribalarini umumlashtiradigan g'oyaviy darajasini oshiradigan, kamehiliklarni tanqid qiladigan janrni ayting?**

- a) Satira va yumor
- b) Feleton
- d) Matbuot sharhi

e) Parodiya

f) Pamflet

**67. Asar mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari muallif ijodida adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot beruvchi janr qaysi?**

a) Feleton

b) Axborot

d) Taqriz

e) Intervyu

f) Matbuot sharhi

**68. Publitsistika elementlari bo'lgan hujjatlilik, aniqlik, tezkorlik va adabiy-badiiy vositalar uyg'unlashishi kuzatiladigan janrni ayting?**

a) Lavha

b) Korrespondensiya

d) Feleton

e) Ocherk

f) Ochiq xat

**69. Publitsistikaning ajralmas qismi sifatida faoliyat ko'rsatadigan ommabop badiiy- publitsistik janr deb qaysi janrga aytamiz?**

a) Korrespondensiya

b) Maqola

d) Parodiya

e) Feleton

f) Pamflet

**70. Badiiy asarlarda kichik lirik she'r shaklida matbuotda hajviy rasmlar, sharh ya'ni o'rtoqlik hazillarida qo'llaniladigan janrni ayting?**

a) Ocherk

b) Parodiya

d) Feleton

e) Pamflet

f) Epigramma

**71. Biror siyosiy tuzum, ijtimoiy voqelik u yoki bu to'da guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarni fosh qiluvchi hajviy-tanqidiy asar qaysi janrga xos?**

- a) Feleton
- b) Parodiya
- d) Satira va yumor
- e) Epigramma
- f) Pamflet

**72. Biror san'atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo'li bilan yaratilgan kulguli asar janrini ayting?**

- a) Epigramma
- b) Parodiya
- d) Pamflet
- e) Feleton
- f) Ocherk

**73. Gazeta atamasi qaysi atamaga yaqin?**

- a) Jurnalistika
- b) OAV
- d) Matbuot
- e) Publitsistika
- f) OAK

**74. Publitsistika degan atama nimani anglatadi?**

- a) Jurnalistikani
- b) Janrni
- d) Asar turini
- e) Gazetani
- f) Jurnalni

**75. Jurnalistika deganda nima tushuniladi?**

- a) Gazeta va jurnallar
- b) OAV
- d) OAK
- e) Televideniye va radio
- f) Internet

**76. Iogann Guttenberg kashfiyotini ayting.**

- a) Bosma harf
- b) Bosma dastgoh
- d) Gazeta
- e) Jurnal
- f) Televideniye

**77. Jurnalistikaning avtoritar turida birinchi o'rinda nima turadi?**

- a) Shaxs
- b) Jamiyat
- d) Davlat
- e) Gazeta
- f) Jurnalist

**78. Qaysi jurnalistika tijorat xarakteriga ega bo'lmagan?**

- a) Avtoritar davr
- b) Jadidchilik davri
- d) Sotsialistik davr
- e) Burjuaziya davri
- f) Feodalizm davri

**79. Axborot – bu:**

- a) Matn
- b) Janr
- d) Xabar
- e) Korrespondensiya
- f) Gazeta, jurnal

**80. Matbuotning bosh funksiyasini ayting.**

- a) Ijtimoiy, iqtisodiyot
- b) Fan-madaniyat
- d) Adabiyot va san'at
- e) Jamiyat hayotining barcha sohalaridagi muammolar
- f) Yuqorida sanalgan barcha funksiyalar

**81. Kitob o'zida nimalarni aks ettiradi?**

- a) Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahvolini



- b) Iqtisodiy - ishlab chiqarishni
- d) Madaniy - ma'naviy hayotni
- e) Insonlarning dunyo haqidagi qarashlari, real voqelikni bilish borasidagi tajribalarini

f) Yuqoridagi barcha funksiyalarni

**82. Qaysi rus mutafakkiri "Insoniyatning butun hayoti sekin-asta kitobga ko'chdi" degan iborani ishlatgan?**

- a) Gertsen
- b) Belinskiy
- d) Chernishevskiy
- e) Dobrolyubov
- f) Gogol

**83. O'lkamizda birinchi bosmaxona qachon paydo bo'lgan?**

- a) 1860
- b) 1867
- d) 1878
- e) 1900

Eslatma: To'g'ri javoblarga qavusdan keyin nuqta qo'yilgan.

## TARQATMA MATERIALLAR

**Markaziy Osiyo hududida chop etilgan mahalliy  
matbuot, uning muharrirlari va eng faol mualliflari**

### **Gazetalar**

**“Туркистанские ведомости”  
(1870-1917)**

N.A.Maev- muharrir N.P.Ostroumov-muharrir  
( 1870-1892) ( 1892-1917)

V.V.Bartold-muallif N.A.Severtsev- muallif I.V.Mushketov-muallif  
S.F.Oshanin-muallif  
(1869-1930) (1827-1885) (1850-1902) (1844-1917)

L.S.Berg-mullif  
(1876-1950)

**“Туркистон viloyatining gazetasi”  
(1870-1917)**

Shohimardon Ibrohimov Muhammadjon Chanishev N.P.Ostroumov  
Muharrir Muharrir Muharrir  
(1870- 1883) (1883-1883) (1883-1917)

Sattorxon Abdulg‘afforov Ibrat Muqimiy  
muallif muallif muallif  
(1843-1901) ( 1861-1937) ( 1850-1903)

Furqat Mahmudxo‘ja Behbudiy  
muallif muallif  
( 1859-1909) ( 1875-1919)

## JURNAL VA XUSUSIY GAZETALAR

“Среднеазиатский вестник” “Окраина”

xususiy jurnal xususiy gazeta


(1896)

(1890)


“Русский Туркистан”

xususiy gazeta


(1896)





## MATBUOTNING BOSH TAMOYILLARI




## O'ZBEKISTON AXBOROT AGENTLIKLARI




## RADIO




## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI







# INTERVYU JANRI



**Abbreviatura** – lot., soʻzlarning bosh harflari asosida tuzilgan murakkab qisqartma soʻz. (OʻzA – Oʻzbekiston milliy axborot agentligi).

**Abrakadabra** – grek., mantiqsiz, gʻalati soʻz.

**Absurd** – lot., mantiqsizlik.

**Avtobiografiya** – grek., biror shaxsning oʻzi yozgan tarjimai holi.

**Avtonim** - grek., muallifning asl ismi, sharifi.

**Agitatsiya** – lot., tashviqot.

“**Adolat**” – Oʻzbekiston “adolat” sotsial-demokratik partiyasi (SDP) Siyosiy kengashi va “Adolat” gazetasi ijodiy jamoasi muassisligida 1995-yil 22 – fevraldan chiqa boshlagan haftalik gazeta.

**Allegoriya** – yun., oʻzgacha ifodalash. Majoz.(M., kabutar soʻzining tinchlik ifodasi uchun qoʻllanishi).

**Alternativ** – muqobil.

**Alyans** – fr., ittifoq, birlashma.

**Analiz** – grek., tahlil.

**Analogiya** – yun., narsa va hodisalarda biror xususiyatning oʻxshashligi.

**Anons** – fr., oldindan maʼlum qilinadigan xabar.

**Anketa** – fr., surishtirish, maʼlumot olish. Soʻroq varaqasi, soʻrovnomasi.

**Annotatsiya** – maqola mazmuni toʻgʻrisidagi qisqacha maʼlumot.

**Argument** – lot., yaqqol isbot, aniq dalil.

**Audiovizual** – tele, kino reklamasi.

**Afisha** – plakat shaklidagi bosma reklama mahsuloti.

**Aforizm** – grek., hikmatli soʻz, ibora.

**Axbor** – a., xabar, maʼlumot.

**Badia** – lot., noyob narsa, nafis nodir sanʼat asari.

**Bakalavr** – lot., Oʻzbekiston Oliy taʼlim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

**Bibliografiya** – asarlar roʻyxati.

**Biznes** – ish, faoliyat, savdo.

**Billbord** – ing., peshtoh, koʻchalardagi katta bichimdagi reklama.

**Blek-aut** – radioreklamaning keng tarqalgan turi, kichkina sahna.

**Bonus** – qoʻshimcha haq, mukofot.

**Brifing** – rasmiy kishilarning OAV vakillari bilan uchrashuvi.

**Broshyura** – 2-5 b.t. hajmidagi yumshoq muqovadagi nashr.

**Buklet** – reklama prospekti, turi.

**Varaqa** – a., matn bosilgan rasmiy qogʻoz.

**Variant** – lot., nusxa.

**Verstka** – r., sahifalash, matn va surʼatli materiallarni joylashtirish.

**Versiya** – taxmin.

**Videoklip** – qisqa musiqiy syujet.

**Vulgar** – lot., qoʻpol, odobga toʻgʻri kelmaydigan soʻz.

**Gazeta** – ital., chaqa pul. Vaqtli nashr.

**Garnitur** – fr., narsa-buyumlarning yig‘masi majmui.

**Garnitura** – fr., harflar o‘lchovi, shriftlar majmui.

**Global** – fr., umumiy, umumbashariy, o‘zaro bog‘liqlik.

**Gonorar** – yun., xizmat haqi, mukofot.

**Granka** – r., bosmaxonada terilgan lekin hali sahifalanmagan matn.

**Grotesk** – fr., g‘alati, kulgili.

“**Gulxan**” – 1929-yildan buyon nashr etilayotgan adabiy-badiiy, bezakli bolalar jurnali. Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi, O‘zbekiston Xalq ta‘limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati muassislik qiladi.

**Davriy bo‘lmagan nashrlar** – kitoblar, risolalar.

**Davriy nashrlar** – gazetalar, haftaliklar, jurnallar.

**Defis** – lot., ajratish.

**Diapazon** – gr., jurnalist salohiyati, imkoniyati hajmi.

**Dialogik muloqot** – muloqot shakli, jurnalistikada keng qo‘llanadigan axborot olishning muhim usuli.

**Digitalizatsiya** – axborotni raqam shakliga o‘tkazish.

**Diktafon** – ovoz yozuvchi portativ apparat.

**Diskussiya** – muhokama.

**Janr** – f., jins, tur. Jurnalistikaning publitsistik shakli.

**Jurnalistika** – ijtimoiy fikrni shakllantiradigan ijtimoiy tizim, ommaviy axborot vositalari yordamida axborot yig‘ish, uni ishlash va tarqatish haqidagi fan.

**Jurnalistlar** – OAV tahririyatlaridagi shtatda ishlovchi va shtatdan tashqari faoliyat yurituvchi ya'ni axborot topuvchi, uni ishlab beruvchi va tarqatuvchi qalamkashlar.

**Ijod** – noyob xislat. Ijod ahli shug'ullanadigan faoliyat.

**Informatsiya** – axborot, nimadir haqida ma'lum qilish, xabar berish.

**Internyus** – xalqaro notijorat tashkilot.

**Intervyu** – ing., suhbat, axborot janri.

**“Ishonch”** – 1991-yildan buyon O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi muassisligida chop etilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy gazeta.

**Kommunikatsiya** – axborot assosida aloqa qilish, fikr almashish.

**Kompyuter** – hozircha eng mukammal, murakkab elektron mashina.

**Lavha** – a., taxta, kichik asar. Ocherkning kichik shakli. OAVning bir turi.

**Mavzu** – asar yoki maqola g'oyasini ifoda etuvchi vosita, tema.

**Mass-media** – ing., ommaviy auditoriyaga axborot yetkazuvchi vosita, OAV dan tashqari kitoblar, risolalar, kino videokassetalar, disklar va boshqalar.

**Maket** – fr., xom qolip, xomaki reja, nusxa, model.

**Marketing** – bozorshunoslik.

**Matbuot** – a., bosma nashrlar majmui.

**Matn** – a., nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst.

**Mafkura** – a., fikr yurgizish, tafakkur.

**Ma'naviyat** – a., axloqiy holat. Insonni ruhan poklanishining mezonı.

**Maqola** – a., nutq, kichik ilmiy yoki publitsistik asar. Jurnalistikaning yetakchi janrlaridan biri.

**Mahorat** – a., ustalik, mohirlik.

**Muallif** – a., yaratuvchi, ijodkor.

**Muassis** – a., asos soluvchi, tashkil etuvchi.

**Munaqqid** – a., tanqidchi.

**Mundarija** – a., ma'no, tarkib, ro'yxat.

**Musahhih** – a., to'g'rilovchi, tuzatuvchi, korrektor.

**Muxbir** – a., xabar beruvchi, ommaviy axborot vositalarida ishlovchi ijodiy xodim,

**Muharrir** – a., tahrir qiluvchi rahbar shaxs.

**Nashr** – a., tarqatish, targ'ib qilish, chop etish.

**Nashr ma'lumotlari** – nashr nomi, tahrir hay'ati, bosh muharrir, mas'ul xodimlar, adadi, manzili va boshqa ma'lumotlar.

**Nashr shakli** – gazetalarda sahifa deyiladi. U 2, 4, 6, 8, 12, 16, 32, 64 va h.k. bo'ladi. Andozasi A-2, A-3, A-4 va h.k.

**Nodavlat** – davlat tasarrufida bo'lmagan.

**Nodavlat radiosiga** – davlat tasarrufida bo'lmagan FM-radiostansiyalari, xususan, "Grand" FM, "Sezam", "Oriyat dono", "Oriyat FM", "Vodiy sadosi", "O'zbekim taronasi", "Hamroh", "Navro'z", "Setar" va h.k.kiradi.

**Nodavlat televideniyesiga** – davlat tasarrufida bo'lmagan Samarqand TV (STV), Marg'ilon TV, "Aloqa"-AK (Guliston) telestudiyalar kiradi.

**Noutbuk** – ang., portativ shaxsiy kompyuter.

**“Nurli jol”** – O‘zbekiston Respublikasi parlamenti va Vazirlar Mahkamasi muassisligida qozoq tilida chop etiladigan gazeta.

**Obzor** – r., ko‘z tashlamoq, tahlil qilmoq, og‘zaki yoki yozma axborot.

**Obuna** – fr., haq to‘lab yozilish.

**“Ovozi tojik”** – O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti va Vazirlar Mahkamasi muassisligida tojik tilida chop etiladigan gazeta.

**“Оуна”** – 1913-yilda birinchi soni chop etilgan birinchi milliy xususiy gazeta. Muharriri M. Behbudiy bo‘lgan.

**“Окраина”** – Samarqanda 1890-1898 – yillarda rus tilida chop etilgan yagona xususiy gazeta.

**Ocherk** – jurnalistikaning badiiy-publitsistik janri.

**Pamflet** – ing., risolacha, publitsistik asar. Jurnalistikaning janrlaridan biri.

**Parodiya** – yun., zid, teskari satirik o‘xshatma, badiiy-publitsistik janr.

**Petit** – mayda bosma harf.

**Plagiat** – lot., o‘g‘irlangan, o‘g‘irlik.

**Plyuralizm** – lot., fikrlar xilma-xilligi.

**Podval** – r., gazetaning pastki qismida bosilgan maqola.

**Postkriptum** – lot., RS lotin harflari bilan belgilanib, nihoyasiga yetkazilgan va imzolangan maktubga qo‘shimcha.

**“Правда Востока”** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligida 1917-yil 2 – apreldan buyon chop etilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy gazeta.

**Primitiv** – lot., sodda, ilmga asoslanmagan.

**Printer** – bosmaxona sifatidagi bosma uskuna.

**Prinsip** – lot., bosh g‘oya, asos, maslak.

**Publitsistika** – so‘z san‘ati.

**Radiojurnal** - radio orqali uzatiladigan og‘zaki jurnal.

**Raqamli fotokamera** – fotoapparat va skaner birlashtirilgan jurnalistikada qo‘llaniladigan texnika. Yangi atama.

**Reklama** – fr., qattiq qichqirmoq. Tovar haqidagi ma‘lumot.

**Reportaj** - xabar qilmoq, darak bermoq, jurnalistika janri.

**Rotaprint** – soddalashtirilgan ofset bosma mashinasi.

**Rotatsion mashina** – tez bosadigan mashina.

**San‘at** – “Sap‘at” - O‘zbekiston Badiiy akademiyasi muassisligida 1997-yildan o‘zbek, ingliz va rus tillarida uch oyda bir marotaba chop etiladigan jurnal.

**Sahifa** – a., varaq, bet, gazetaning bir beti.

**“Saodat”** – Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi, OAVni qo‘llab-quvvatlash va demokratlashtirish ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi muassisligida 1925-yildan buyon chop etilayotgan jurnal.

**“Sirli olam”** – 1991-yildan boshlab chop etilayotgan ilmiy fantastik yo‘nalishdagi adabiy-badiiy jurnal.

**“Taraqqiy”** – 1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidov muharrirligida birinchi soni chop etilgan birinchi o‘zbek milliy xususiy gazeta.

**“Tafakkur”** – Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi muassisligida 1996-yildan buyon har uch oyda bir marta chop etiladigan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, badiiy-adabiy jurnal.



**“Teatr”** – 1999-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi muassisligida chop etilayotgan adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali.

**«Туркестанские ведомости»** – Turkistonda 1870-yildan to 1917-yilgacha chop etilgan birinchi rus gazetasi. Unga birinchi muharrir etib rus zobiti N.A.Maev tayinlangan edi.

**“Turkiston viloyatining gazetasi”** – «Туркестанские ведомости» gazetasining o‘zbek tilidagi ilovasi. 1870-yildan chop etila boshlagan birinchi o‘zbek milliy gazeta.

**To‘rtinchi hokimiyat** – matbuotning ramziy nomi.

**“Fan va turmush”** – 1933-yildan buyon chop etilib kelinayotgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy – ommabop jurnali.

**Feleton** – jurnalistikaning hajviy, badiiy-publitsistik janri.

**Format** – andoza.

**Funksiya** – vazifa.

**Xabar** – matbuotning eng qadimiy janrlaridan biri.

**Tsitata** – iqtibos.

**“Sharq yulduzi”** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va OAV ni qo‘llab-quvvatlash va demokratlashtirish ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi muassisligida 1969-yildan buyon chop etilayotgan badiiy-adabiy jurnal.

**Epigraf** – asar boshlashda beriladigan mantiqan unga mos kichik hajmdagi matn.

**Yuqori bosma** – gazeta va jurnallar bosilishi usuli.

**“O‘zbek adabiyoti va san’ati”** – 1992-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi muassisligida chop etilayotgan haftanoma.

**O‘zbekiston axborot agentligi** – (O‘zA)O‘zbekistonda yetakchi axborot agentligi.

**O‘zbekiston televideniyesi** – 1956-yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotgan ommaviy axborot vositasi.

**“O‘zbekiston ovozi”** – O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasi (XDP) muassisligida chop etilayotgan gazeta.

**“O‘zbekiston radiosi** – 1927-yildan buyon eshittirishlar olib borayotgan ommaviy axborot vositasi.

**“Xalq so‘zi”** – «Народное слово» – 1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti va Vazirlar Mahkamasi muassisligida chop etilayotgan gazetalar.

**“Hurriyat”** – 1996-yildan buyon Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy – siyosiy fondi muassisligida chop etilayotgan mustaqil gazeta.

# MUNDARIJA

Fanga kirish.....	3
-------------------	---

## BIRINCHI BO'LIM UMUMIY TUSHUNCHALAR

### 1-BOB. JURNALISTIKA TARIXI

1.1 Jahon jurnalistika taraqqiyotining asosiy bosqichlari.....	6
1.2 Milliy jurnalistikaning paydo bo'lishi va shakllanishi (1870-1905y) .....	9
1.3 XX asr o'zbek jurnalistikasi (1906-1990y).....	19
1.3.1 Jadid matbuoti.....	21
1.3.2 Sovet davri o'zbek milliy jurnalistikasi.....	22
1.4 Mustaqillik davrida o'zbek jurnalistikasi (1991- v.h.....	26

### 2-BOB. O'ZBEK MILLIY JURNALISTIKASI TIPOLOGIYASI

2.1 Jurnalistik faoliyat va uning ko'rinishlari.....	31
2.2 O'zbek jurnalistikasi tasnifi va tarkibi.....	43
2.2.1 Gazeta.....	49
2.2.2 Jurnal.....	58
2.2.3 Radio.....	69
2.2.4 Televidiniye.....	76
2.2.5 Axborot agentliklari.....	83
2.2.6 Kitob va kitob nashriyotlari.....	89
2.2.7 Internet.....	96

### **3-BOB. JURNALISTIK FAOLIYATNI TASHKIL QILISH**

3.1. Jurnalistika nazariyasi va uning ijtimoiy vazifalari.....	101
3.2. Jurnalistikaning bosh tamoyillari.....	113
3.3. Jurnalistikada erkinlik masalasi va uning g <sup>3</sup> oyaviy-nazariy mohiyati.....	121
3.4. Pablik rileshez.....	126

### **4-BOB. JURNALISTIK TA'LIM SIYOSATI**

4.1. O'zbek jurnalistikasi ta'limining yuzaga kelishi.....	130
4.2. Mahalliy kadrlar tayyorlash siyosati.....	135

### **5-BOB. JURNALISTNING HUQUQIY IJTIMOIIY LAVOZIMIY MAQOMI VA AXBOROT ALMASHINUVI**

### **6-BOB. JURNALISTIKA AMALIYOTINI BOSHQARISH**

6.1. Matbuot erkinligi masalasi.....	151
6.2. Axborot tizimi huquqlari mazmuni.....	154
6.3. Oshkoralik va uning qo'flanilishi.....	156
6.4. Jurnalist odobi va axloqi.....	160
6.5. Jurnalist mas'uliyati.....	163

## IKKINCHI BO'LIM PUBLITSISTIKA

### 7-BOB. PUBLITSISTIKANING TURLARI JANRLARI

### 8-BOB. AXBORIY PUBLITSISTIKA

8.1 Xabar.....	176
8.2 Hisobot.....	183
8.3 Intervyu.....	187
8.4 Reportaj.....	191

### 9-BOB. TAHLILIIY PUBLITSISTIKA

9.1 Korrespondensiya.....	202
9.2 Suhbat.....	208
9.3 Maqola.....	213
9.4 Obzor (kuzatish).....	221
9.5 Xat.....	225
9.6 Taqriz.....	233
9.7 Sharh.....	241

### 10-BOB. BADIHIY PUBLITSISTIKA

10.1 Lavha.....	249
10.2 Ocherk.....	252
10.3 Esse.....	269
10.4 Feleton.....	272
10.5 Pamflet.....	289
10.6 Hajviy pulitsistikaning kichik janrlari.....	296

XOTIMA.....	301
Foydalanilgan adabiyotlar.....	304
“Jurnalistikaga kirish” darsligi bo‘yicha test savollari.....	310
Tarqatma materiallar.....	329
Jurnalistikaga oid ba’zi atamalar lug‘ati.....	337

TO'LQIN QOZOQBOEV, MUXTOR XUDOYQULOV

# JURNALISTIKAGA KIRISH

*Darslik*

*Muharrir* **Sh. Bazarova**

*Badiiy muharrir* **Sh. Adilov**

*Kompyuterda sahifalovchi* **Z. Ulug'bekova**

Nashr lits. AI' 305. Bosishga ruxsat etildi 21.11.2018.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i, 20,3.  
Hisob-nashr tabog'i 21. Adadi 400.  
27-buyurtma.





ISBN 978-9943-13-743-1



9 789943 137431